Gudvil (ing., Goodwill – firmalar obro'si) kompaniya imidjining, uning ishbilarmonlik aloqalarining ma'nosini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, Gudvil nomoddiy aktivlarning pul o'chovidir - tovar belgisi, savdo belgisi va boshqalar. Gudvil kompaniyani sotishda o'zini namoyon qiladi. Birlashishning maqsadi – sinergizm. Sinergizm bilan (yunoncha synergeia – hamkorlik, hamdo'stlik), umumiy natijaning ta'siri ushbu

natijaga kiritilgan individual effektlar yig'indisidan oshib ketganda, ish amaliyatidagi hodisani anglatadi.

Sinergiya sabablari quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. Biznes-jarayonning vertikal integratsiyasi, ya'ni so'tib olingan kompaniya ham, ishdan chiqqan kompaniya ham biznes-jarayonning texnologik zanjirining turli darajalarida bo'lishini anglatadi. Bunday integratsiya taqsimot xarajatlarini kamaytirishi yoki resurslarni yanada samarali taqsimlashi mumkin.

2. Korxona va kompaniya faoliyat yo'nalishi bo'yicha bir xil bo'lishini anglatadigan biznes-jarayonning gorizontal integratsiyasi. Ularda foydalanimagan ishlab chiqarish resurslari yoki marketing imkoniyatlari mavjud. Bunday integratsiya bosh kompaniya va sho'ba korxonaning ishtirok etish turiga qarab xolding tashkil etish shaklida amalga oshiriladi. Landshaft integratsiya ishlab chiqarish xarajatlarini, moliyaviy resurslarni taqsimlashda harakatchanlikni kamaytirishga yordam beradi.

### Asosiy atamalar va tushunchalar

Innovatsion marketing. Brend. Narxlarni boshqarish. Korxonaning narx siyosati. Firma aktivlari. Gudvil. Sinergizm. Marketing faoliyati. Biznes jarayonlar.

### Mavzu bo'yicha test savollari:

1. Brend deganda nima tushiniladi?
2. Gudvil tushunchasiga ta'rif bering.
3. Marketing faoliyati maqsad-mazmunini ifodalab bering.
4. Kompaniyaning narxi shakllanishi va uning qiymatini aniqlash qanday me'zonlarga asoslangan?
5. Narxlар siyosati bosqichlari to'grisida ma'lumot bering.
6. Narx omillari nechta va ular nimalardan iborat?
7. Narx mexanizmiga ta'sir ko'rsatish usuli hamda u nechta asosiy elementni o'z ichiga oladi?
8. Innovatsion brend strategiyasi qanaqa bosqichlardan tashkil topgan?
9. Innovatsiyalarning bozorga kirishiga sababi?
10. Marketing faoliyati funksiyasiga taalluqli bo'lgan amallar to'grisida nimalarni aytib bera olasiz?

## **5. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI REJALASHTIRISH**

5.1. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishning maqsadi va vaziflari.

5.2. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda biznes rejaning ahamiyati.

5.3. Biznes rejaning asosiy bo‘limlari va ularning tavsiflari.

5.4. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishdagi tahlil.

### **5.1. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishning maqsadi va vaziflari**

Biznes («business») so‘zi ingliz tilidan olingen bo‘lib, ish degan ma’noni anglatadi. Biznes bilan mashg‘ul bo‘lgan odatda odamlar biznesmenlar, ya’ni ishbilarmonlar deb ataladi.

Li Yakokka XX asrdagi biznesning «Eng buyuk qahramoni» hisoblanadi. U dastlab Genri Ford kompaniyasida ikkinchi rahbar bo‘lib ishlagan, keyinchalik esa uning raqobatchisiga aylangan va «Kraysler» avtomobil korporatsiyasining prezidenti lavozimini egallagan. U shunday deb yozgan: «Butun hayot bu vaqt omildir. O‘z oldingga aniq maqsad qo‘y. Qo‘lingdan kelgancha ta‘lim ol, so‘ngra Xudo haqqi, biron narsa qil».

Bozor munosabatlariiga o‘tish kadrlarga, ayniqsa, iqtisodiy yo‘nalishdagi mutaxassislarga, ularni tayyorlash va ulardan amaliyotda foydalanishga bo‘lgan talablarning o‘zgarishiga olib keldi. Gap bu yerda notanish atama, tushuncha va toifalarning paydo bo‘lishida emas, balki iqtisodiyotni boshqarishning barcha miqyoslarida yangicha iqtisodiy fikrlesh mafkurasini shakllantirish haqida ham boradi.

Biz istaymizmi, yo‘qmi, lekin olgan bilimlarimiz (oliy o‘quv yurtlari, texnikumlar, malaka oshirish tizimlarida) va amaliy faoliyatimiz bugungi kunda tubdan yangilashni talab qilishini tan olishga majburmiz. Bu birinchi navbatda texnika va texnologiyalarga emas, balki ishlab chiqarishning iqtisodiy asoslari, biznes va tadbirkorlik, ya’ni butun ishlab chiqarish munosabatlari majmuiga taalluqlidir.

Ko‘pchilik bundan noto‘g‘ri xulosa chiqaradi, ya’ni ularning fikricha, bozor munosabatlariiga faqat iqtisodchilar va moliyachilar hamda

boshqa iqtisodiy soha mutaxassislarigina qayta o'rganishi va moslashishi zarur bo'ladi. Amalda esa mulkchilik shaklining o'zgarishi, bozor munosabatlari, raqobat, korxona va tashkilotlarning iqtisodiy mustaqilligi ko'p jihatdan barcha boshqaruv tuzilmalari va xizmatlarining (texnik, texnologik, tashkiliy va iqtisodiy) yangi iqtisodiy talablar va xo'jalik yuritish qoidalariiga rioya qilishini talab qiladi. Shu sababli bozor munosabatlari sharoitlarida yaxshi muhandis, texnolog yoki energetik bo'lishning o'zigina yetarli emas bo'lib, bu haqda avvalgi bobda ham to'xtalib o'tilgan.

G'arb mamlakatlaridagi ko'plab firmalar «Firma unga foyda keltirmaydigan mutaxassislarni ushlab turmaydi» degan shiorga amal qiladi. Firmaga foyda keltirish uchun bozor kon'yunkturasida to'g'ri yo'nalishni tanlash, bozordagi o'z o'mini to'g'ri va aniq belgilay olish, darhol olimadigan foydani emas, balki uzoq istiqboldagi rivojlanishni ko'ra bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu va shu kabi vazifalar zaminida **bashorat qilish** va uning yakunlovchi qismi bo'lgan **rejalashtirish** yotadi. U korxona maqsadlarini shakkantirish, unga erishishning vosita va usullarini aniqlash jarayonidan iboratdir. Rejalashtirishning natijasi - reja, xattiharakatlarning motivlashtirilgan modeli bo'lib, u iqtisodiy muhit va qo'yilgan maqsadlarni bashorat qilish asosida yaratiladi.

**Bashorat qilish** – korxona, tarmoq va sohalar miqyosida hamda butun mamlakat miqyosida iqtisodiyot holatini ilmiy asoslagan holda oldindan ko'ra bilishdir. Bashorat qilish shuningdek, iqtisodiyotning u yoki bu holatiga erishishning muqobil yo'llari, usullari va muddatlarini tanlash yoki muhokama qilishni ham anglatadi.

Bozor munosabatlariga o'tishda rejalashtirish deyarli esdan chiqib qolay dedi. Ayrim olim va mutaxassislar, ayniqsa, bozor va bozor munosabatlari tarafдорлари rejalashtirishni bozor mexanizmiga umuman to'g'ri kelmaydi va bozorning o'zi hamma narsani joy-joyiga qo'yadi deb hisoblaydilar. Yana boshqa bir motiv – iqtisodiyotni o'ta markazlashgan tarzda rejalashtirish va boshqarish natijasida sovet iqtisodiyotining yirik muammo va inqirozlaridir.

Darhaqiqat, sovet davridagi butun davlat va siyosat hukumatini o'z qo'liga olgan va qotib qolgan qoidalardan bir qadam ham chetga chiqmagan partiya hukumatining aqidaparastligini tan olish kerak. Aynan shu sababli bir paytlar ko'ngildagidek ishlagan rejali tizim chok-chokidan so'kildi va yaroqsiz holga kelib qoldi. Bundan tashqari, mintqa va

tarmoqlar, korxona va tashkilotlar, barcha xo'jalik subyektlarining erkinligini cheklab qo'yuvchi turli xil markazlashgan buyruq va ko'rsatmalar, nazorat raqamlari va limitlar ham xalaqtir bergen.

Shu bilan bir paytda korxona uchun uning faoliyatini qaysi organ-reja bo'limi yoki boshqa iqtisodiy bo'lim va xizmatning rejalashtirishi va bashorat qilishining ahamiyati yo'q. Rejalashtirish sifati va mezonlar muhim bo'lib, ularga ko'ra korxona faoliyati baholanadi va bozor sharoitlarida uning barqarorligi ta'minlanadi. Shu sababli bozor rejalashtirishni umuman tan olmaydi deyish noto'g'ri bo'lar edi. Aksincha, raqobatli kurash sharoitlarida ishlab chiqaruvchilar va ta'minotchilar o'z faoliyatini sinchiklab rejalashtirishlari zarur. Bozor mexanizmi subyektiv omillar asosiy rolni o'ynovchi resurslarni markazlashgan tarzda taqsimlashga qaraganda qattiq va jiddiyoq hisoblanadi. Bozor sharoitlarida rejalashtirishga qarshi bo'lganlarni «tog'ora bilan birga chaqaloqni ham tashlab yuboradi» deyish mumkin.

Shu sababli avvalgi paytlarda turli xil buyruqlar, nazorat raqamlari va limitlarga asoslangan rejalashtirishni, samarali va oqilona faoliyat ko'rsatishning majburiy vositasi bo'lgan rejalashtirish bilan adashtirmaslik kerak. U xorijda ham to'liq bekor qilinmagan. Masalan, Italiyaning «Fiat» konserni 1970-yildan boshlab tasdiqlangan 3 yillik rejalar bo'yicha, 1988-yildan esa 5 yillik rejalar bo'yicha ishlamoqda. Konsernning besh yillik rejalarini joriy va tezkor-ishlab chiqarish rejalarini bilan bog'liq bo'lib, besh yillik rejaning har bir yili yakunidan so'ng o'tgan yil davomida erishilgan amaliy natijalarni hisobga olgan holda unga o'zgartirishlar kiritiladi.

Chetel tajribalarining hammasidan ham mamlakatimizda foydalanish lozim bo'lmasada, biroq rejalashtirishning roli muhimligi alohida isbot talab qilmaydi. Aynan rejalashtiresh va bashorat qilish **nimani**, **qancha**, **qachon va kim uchun ishlab chiqarish kerak** degan savollarga javob topadi. Xususan, ko'plab korxona yaratilishi va faoliyati rejalashtirishdan boshlanadi. Rejalashtirish mayjud ishlab chiqarish quvvatlari, raqobatli afzalliklardan maksimal foydalanish, turli xato va kamchiliklarning oldini olish, iqtisodiyotdagи yangi tendensiyalarni kuzatish va ulardan ishlab chiqarish faoliyatida foydalanish, korxona faoliyatining kuchsiz tomonlarini aniqlash va bartaraf qilish hamda asoslanmagan tavakkal-chiliklarning oldini olishga imkon beradi.

Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti rejalashtirishni ham bashorat qilishni ham inkor etmaydi. Ularning ikkalasi ham korxona, birlashma va boshqa ishlab chiqarish tuzilmalarining o‘z kuchi bilan yoki buning uchun maxsus jalb qilingan ilmiy tashkilotlar, oliv o‘quv yurti mutaxassislari hamda ayrim olim va mutaxassislar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Bunda zamonaviy tendensiyalarning kelgusida ekstrapolyatsiyasi (unchalik ishchonchli bo‘lman mexanik usul, noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin), mantiqiy tahlil, turli xildagi iqtisodiy-matematik usullar (masalan, ishlab chiqarish funksiyalari usuli), ekspert baholash usuli va vaziyat tahlili kabi bir qator usullar qo‘llanishi mumkin. U yoki bu usuldan foydalanish bashorat qilinayotgan obyektning o‘ziga xosliklari, uning rivojlanishiga doir ishchonchli ma’lumotlarning mavjudligi va tahlilchilarining malakasiga bog‘liq bo‘ladi.

Rejalashtirishda ham, bashorat qilishda ham iqtisodiy jarayon va vaziyatlarning o‘zaro aloqalari **korrelyatsiya usulida** o‘rganiladi. Korrelyatsiya tahlilining asosiy vazifalari bu natijaviy belgilarning omillar belgilariga tahliliy bog‘liqlik shaklini aniqlash va aks ettirish hamda korrelyatsion aloqani o‘lchash hisoblanadi. Aloqa qanchalik kuchli bo‘lsa, bashoratning asoslanganligi va uning aniqligi shunchalik yuqori bo‘ladi.


Hozirgi kunda bashorat hisob-kitoblari bir qator yetakchi tarmoqlar tomonidan strategik dastur va rejalarini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, tajriba-konstrukturlik ishlarini amalga oshirishda foydalanilmoqda. Reja va bashoratlar iqtisodiyotning quyi bosqichlari – korxona, firma va ishlab chiqarish birlashmalarida ham menejmentning muhim elementi hisoblanadi.

### **Rejalashtirish va bashorat qilishning maqsad va vazifalari.**

Rejalashtirish va bashorat qilishning **maqsadli funksiyasi** bu – zarur hisob-kitoblar, bashorat va dalillar asosida korxona faoliyatining qisqa va uzoq muddatli strategiyasini belgilashdir. To‘g‘ri, bu xodimlar soni 5-10 kishidan 100 kishigacha bo‘lgan mikrofirma va kichik korxonalariga qaraganda ko‘proq yirik korxonalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq har bir holatda rejalashtirish belgilangan pirovard natijaga erishishi uchun yo‘naltirilgan resurslar (moddiy va moliyaviy) hamda odamlar mehnatini bosqichma-bosqich qamrab oladi.

Rejalashtirish odatda detalli hisob-kitoblar va ko'rsatmalarga asosan analga oshiriladi. U bir tomondan barcha xodimlar uchun vazifalarni (har bir xodim qachon va nima qilishi kerak), ikkinchil tomondan rahbariyat uchun ko'rsatmalarni (korxona belgilangan maqsadga erishishi uchun qanday boshqaruv qarorlari qabul qilish lozim) belgilab beradi.

Ishlab chiqilgan reja birinchidan, ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan bog'langan bo'lsa, ikkinchidan, undagi xato va kamchiliklar minimal bo'lsa, uchinchidan esa, ishlab chiqarish rejalashtirilgan mahsulot iste'mol talabiga ega bo'lsa, bu holda rejalashtirishni samarali deb hisoblash mumkin bo'ladi. Korxona rahbariyati tasdiqlagan reja buyruq maqomiga ega bo'lib, barcha bajaruvchilar uchun majburiy xarakterga ega bo'ladi. Korxona miqyosida rejalashtirishning maqsadli funksiyalari va tarkibini quyidagi sxema yordamida aks ettirish mumkin (1-chizma).



### 5.1-chizma. Korxona miqyosida rejalashtirish

Biznes qanchalik yirik, ko'rsatilayotgan xizmatlar, bajarilayotgan ish va ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi qanchalik keng bo'lsa, korxona hajmi va yo'nalishiga mos ravishda rejalashtirish jarayonida hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalar doirasi shunchalik kengayadi. Biroq har qanday holatda ham rejalashtirish quyidagi savollarga javob bera olishi lozim:

- birinchidan, nimani, qachon va qancha miqdorda ishlab chiqarish;
- ikkinchidan, tanlangan muqobillikni aniqlangan hisob-kitoblar asosida analga oshirish lozim;
- uchinchidan, mahsulot sifati, uning raqobatbardoshligi qanday va u iste'molchilik talabiga ega bo'ladi;

- to'rtinchidan, mahsulot chiqarish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari va boshqa sarf-xarajatlar qoplanadimi;

- beshinchidan, kutilayotgan rentabellik darjasini, foyda hajmi va boshqa pul tushumlari ta'minlanadimi.

Ushbu savollarga javob topa olmasa rejalashtirish oddiy chizmavatchilikka aylanib, asoslanmagan xarakterga ega bo'ladi, ishlab chiqarishning kelgusi rivojlanishi izdan chiqib, korxonaning o'zi moliyaviy qiyinchiliklarga duch keladi va iqtisodiy barqarorlikni yo'qotadi. Shuning uchun ham rejalashtirish yoki rejani ishlab chiqishga kirishishdan oldin iqtisodiy **tahlil** o'tkazish muhim bo'lib, uning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- rejani bajarish, ishlab chiqarish dinamikasi va mahsulotni sotish darjasini;
- ushbu ko'rsatkichlar o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlash;
- mahsulot chiqarish va sotishni ko'paytirish uchun ichki ishlab chiqarish zaxiralarini aniqlash;
- aniqlangan zaxiralardan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Rejalashtirish va zaxiralar yoki foydalanimagan imkoniyatlarni aniqlash bilan odatda korxonaning iqtisodiy xizmatlari (reja bo'limi, ishlab chiqarish bo'limi, mehnat bo'limi, ish haqi bo'limi va hokazo) shug'ullanadigan bo'lsa, ishlab chiqarish zaxiralaridan foydalanishga texnik, texnologik va boshqa bo'lim va xizmatlar jalb qilinishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda korxonaning samarali faoliyat ko'rsatishi va uning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash butun korxona jamoasining vazifasidir.

Mazkur yondashuv ayniqsa hozirgi kunda, ko'plab korxonalar xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish natijasida aktsiyadorlik shakliga o'tayotgan sharoitlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, amaliyotda xodimlar orasida ko'pincha «rahbariyat hamma narsani ko'proq biladi» tamoyili keng tarqalgan bo'lib, buning natijasida korxona rivojlanishiga oid bir qator masalalar, xususan, ishlab chiqarish zahiralarini izlab topish va ulardan foydalanish vazifasi korxona rahbariyati zimmasiga yuklab qo'yiladi. Ishga bu qadar yondashiladigan bo'lsa, jiddiy va uzoq muddatli muvaffaqiyatdan umid qilish mumkin emas.

To‘g‘ri, jamoa korxona hayotida, xususan, ishlab chiqarish zahiralarini izlab topish va ulardan foydalanishda ishtirok etishi uchun korxona rahbarining o‘zi va bo‘lim boshliqlari demokratik bo‘lishi, byurokratiya va avtoritarizm xislatlaridan xoli bo‘lishi, qabul qilinayotgan qarorlarda oshkorralikni namoyon qilishi hamda oddiy xodimlarning talab va takliflariga yetarlicha e’tibor bilan qarashlari lozim. Boshqaruvning aynan shu usuli bugungi kunda xorijdagi ko‘plab korxona va firmalarda keng qo‘llanmoqda.

Rejalashtirish doimo kelajakka yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu holat uni ma’lum bir darajada bashorat qilishga o‘xhash qilib qo‘yadi. Biroq rejalashtirishdan farqli ravishda bashorat qilish jarayonida belgilangan maqsadlarga erishish imkoniyatlari aniqlanadi. **Bashorat ehtimoliy xarakterga ega bo‘ladi**. Unda odatda kelgusida turli xatti-harakatlar va tashqi (tabiiy, iqlim, iqtisodiy, ilmiy-texnik va hokazo) omillar ta’siri ostida u yoki bu maqsadlardan chetga chiqish ehtimoli darajasi baholanadi.

Reja va bashorat korxona rivojlanishi istiqbollarini aniqlashga yo‘naltirilgan ikkita muqobil yondashuv emas, balki xo‘jalik strategiyasini ishlab chiqishning bir-birini to‘ldirib turuvchi bosqichlari bo‘lib, bunda reja korxona boshqaruvining asosiy vositasi hisoblanadi. Shu sababli har bir holatda bashorat qilingan ko‘rsatkichlardan rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarga o‘tish ta’milanishi lozim bo‘ladi.

Amaliyatda bashoratning ilmiy, texnik, iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va boshqa turlari ajratib ko‘rsatiladi. Ko‘pincha kompleks bashorat – ilmiy-texnik, ijtimoiy-siyosiy, texnik-iqtisodiy va hokazolardan foydalaniladi. Bashorat har qanday holatda ham obyektiv jarayonlar talablariga maksimal darajada mos kelishi kerak.

Rejalashtirish tizimining dastlabki bo‘g‘ini sifatida bashorat qilish korxonaning ichki faoliyatidan tashqari keng masalalar doirasini qamrab olishi zarur. Masalan, unga hal qilib bo‘lingan, biroq amaliyatda qo‘llanilmagan texnik, iqtisodiy, investitsion muammolar; istiqbolda yangi mahsulot ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan materiallar, texnologik jarayonlar, asbob-uskuna va qurilmalar; ishlab chiqarish modernizatsiyasi tufayli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlashni kiritish mumkin. Bashorat qilishda shuningdek, kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar, o‘tkazilayotgan tadqiqotlarni baholash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonaning kelajakda t - yildan so'nggi holatini bir maqsadli bashorat qilishni uning faoliyati o'zgaruvchi ko'rsatkichlarida yo'l qo'yish mumkin bo'lgan qiymatlar modelini navbatma-navbat ifodalash sifatida aks ettirish mumkin (V):

$$\mathbf{B} = [F \ x(t), y(t), z(t), t],$$

bunda:

x – bashorat qilinayotgan ko'rsatkich o'zgaruvchilarini (investitsiyalar, korxona personali, taqsimlanmagan foya va hokazo);

y – shart-sharoitlar sifatida ko'rib chiqiluvchi o'zgaruvchan ko'rsatkichlar (bozor holati, soliqlar, tabiiy-iqlim sharoitlari va hokazo);

z – asos qilib olingen korxona faoliyatining bashorat qilinayotgan ko'rsatkichlari boshlang'ich qiymati.

Korxonaning asosiy va aylanma kapital, ayrim mahsulot turlarini chiqarish va ularning tannarxi, foya, mehnat mahsuldarligi kabi muhim ko'rsatkichlarini navbatma-navbat ifodalash natijasida bashorat qilinayotgan t - yildan so'ng yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korxona holatining to'liq bashoratini olish mumkin.

Bashoratning ishonchlilikini ko'p jihatdan korxonalar ma'lumotlar to'plamida saqlashi va sistemalashtirishi lozim bo'lgan axborotlarning to'liq va ishonchlilik darajasi belgilab beradi. noaniq yoki noto'g'ri axborot bashorat qilishda xatoliklarga olib kelishi mumkin.

### **Rejallashtirish va bashorat qilishning normativ asoslari.**

Erkin iqtisodiy faoliyat va tijorat rivojlanib borayotgan, biz avvalgi zavod va fabrikalarga qaraganda ko'proq zamonaviy biznes va tadbirdorlik haqida gapi rayotgan bir sharoitlarda matematika tili bilan aytganda norma va normativlar (normativ asoslari) «bozor» tushunchasi bilan bog'lanishi qiyin bo'ladi. Bugungi kunda ularning roli va maqomi biroz susaygan, chunki ular tadbirdorlar fikriga ko'ra bozorga qaraganda ko'proq rejali iqtisodiyot tomon yaqinroq turganday bo'ladi.

Aslida esa bunday emas, albatta. Norma va normativlar doimo rejallashtirish va xo'jalik boshqaruvining muhim elementi bo'lib kelgan. Har bir biznesmen va tadbirdor, aytaylik, do'kon, restoran, mehmonxona yoki mebel ishlab chiqaruvchi sex qurmoqchi bo'lsa, albatta qurilish xarajatlari va talab qilinuvchi resurslarni hisob-kitob qiladi. Ya'ni u

rejalashtirish bilan, to‘g‘rirog‘i xarajatlar va resurslar talabini ularning har bir turi bo‘yicha normalashtirish bilan shug‘ullanadi. Biznesmen ham, davlat korxonasi direktori ham xarajatlar minimal bo‘lgan holda ko‘proq foyda va daromad olishga intilishi tabiiy.

Xo‘jalik amaliyotida **normalashtirish** bu mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonlarining normal kechishi uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish va boshqa resurslar zahiralari va sarflanishining eng yuqori va eng quyi normalarini ishlab chiqish va belgilash usulidir. Normalashtirish elementlari sifatida norma va normativlarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.


**Norma** bu – belgilangan sifatli (masalan, standartli bir buxanka non chiqarish uchun sarflanuvchi un normasi, belgilangan hajmli metall konstruksiyasini kavsharlash uchun sarflanuvchi elektrodlar soni va hokazolar) mahsulot (ish, xizmat) birligini tayyorlash uchun xomashyo, material, yoqilg‘i, energiya va hokazolarning mutlaq (absolyut) sarflash mumkin bo‘lgan maksimal kattaligidir.

Shu tariqa natural, qiymat va mehnat o‘lchamlari bilan belgilangan norma yordamida mahsulot, bizning holatda palto ishlab chiqarish bilan bog‘liq barcha xarajatlar tartibga solib boriladi. Agar mahsulot birligiga to‘g‘ri keluvchi xarajatlarni jami chiqarilgan mahsulotlar soniga ko‘paytirsak, korxonaning mazkur turdag‘i mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq umumiy xarajatlarini aniqlashimiz mumkin bo‘ladi.

**Normativ** bu nisbiy ko‘rsatkich bo‘lib, mutlaq (absolyut) kattalikni emas, balki ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishning belgilangan o‘lchamini, mahsulot tavsiynomasi yoki tashkiliy-iqtisodiy hatti-harakatlarni aks ettiradi.

Normativlar odatda foiz yoki koeffitsiyentlarda belgilanadi va aks ettiriladi (masalan, asbob-uskulalarni yuklash koeffitsiyenti, avtomobil shinasi bosib o‘tgan yo‘l koeffitsiyenti, sutning yog‘lilik foizi va hokazo). Normativlar shuningdek, zarur xomashyo va materiallar, aylanma mablag‘lar hajmi, talab qilinuvchi xodimlar sonini aniqlashda ham qo‘llanadi.

Xo‘jalik boshqaruvi mexanizmida normativlarning o‘mi va roli quyidagicha aks ettirilishi mumkin (5.2-chizma):



## 5.2-chizma. Xo'jalik boshqaruvi mexanizmida normativlarning o'mi va roli

Norma va normativlar o'lchash va limitlash funksiyalaridan (xarajatlarning yuqori yoki quyi chegarasi, qo'llash, iste'mol) tashqari hisobga olish, nazorat qilish va rag'batlantirish funksiyalarini ham bajaradi. Ular ishlab chiqarishni rejalshtirish va tartibga solish, xarajatlarni erishilgan natijalar bilan solishtirish, dastlabki mas'uliyat chegaralarini belgilash va uni faoliyat natijalar bo'yicha o'zgartirish, erishilgan natijalarni obyektiv baholash uchun asos hisoblanadi.

Norma va normativlar amaliyotda quyidagi asosiy guruuhlar bo'yicha ishlab chiqiladi:

- mehnat sarfi normasi;
- moddiy xarajatlar normasi;
- vaqt normasi (asosiy, qo'shirincha va hokazo);
- mashina, asbob-uskuna va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish normasi;
- ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish normativlari;
- atrof-muhitni muhofaza qilish normativlari;
- kapital qo'yilmalar (investitsiyalar) samaradorligi normasi;
- loyihadagi quvvatlarni o'zlashtirish normasi;
- aylanma vositalar (mablag'lar), ishlab chiqarish zahiralar normasi va hokazolar.

Norma va normativlar asosida odatda rejadagi davr uchun faoliyatning texnik-iqtisodiy va tashkiliy sharoitlari yotadi. Vaqt o'tishi yoki sharoitlarning o'zgarishi bilan, shuningdek, fan-texnika taraqiyoti ta'siri ostida mavjud norma va normativlar qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Ularni qayta ko'rib chiqishda ilg'or ishlab chiqarish tajribalari va yutuqlar hisobga olinishi lozim.

Norma va normativlar qo'llanish miqyosi va normalashtirish obyektlariga ko'ra farqlanadi. Normativ asoslari **qo'llanish miqyosiga ko'ra** quyidagilarga taqsimlanadi:

- davlat va tarmoq standartlari va talablari asosida belgilangan normativlar;
- umumkorxona normativlari, ya'mi korxonaning o'zida ishlab chiqilgan va qo'llanuvchi normativlar;
- sex normativlari;
- predmetli, detallli va operatsion normativlar.

**Normalashtirish obyektlariga ko'ra** normativ asoslari mehnat, moddiy, texnik va moliyaviy resurslarga taqsimlanadi.

Normativ asoslari ishlab chiqarishni rejalashtirish va bashorat qilish uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi. U ishlab chiqarish xarajatlarini va chiqarilayotgan har bir mahsulot tannarxini aniq va bexato belgilashga imkon beradi.

Umuman olganda norma va normativlar **birinchidan**, resurslarning ortiqcha sarflanishi oldini olish, **ikkinchidan**, korxonaning belgilangan ish tartibini ta'minlash, **uchinchidan** chiqarilayotgan mahsulotning belgilangan tavsifnomalardan chetga chiqishining oldini olish, **to'rtinchidan** atrof-muhitni muhofaza qilish va normal mehnat sharoitlariga riyoa qilish, **beshinchidan** esa korxona faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish uchun ma'lumotlar to'plamini yaratish maqsadida ishlab chiqiladi va belgilanadi.

Normativ asoslarni yaratish bo'yicha ishlar uni ishlab chiqish joyi va qaysi idora yoki bo'lim tomonidan ishlab chiqilishidan qat'iy nazar, ishlab chiqarish iqtisodiyoti, texnika va texnologiyalaridan yaxshi xabardor ho'lgan mutaxassislar, professional (malakali) normativ guruhlari zimmasiga yuklatilishi lozim. Malakali va asoslangan tarzda ishlab chiqilgan norma va normativlar hayot davri uzoq bo'lib, ular o'zgarishlarga kamdan-kam uchraydi. Shunday bo'sada, yuqorida aytib o'tilganidek, eng yaxshi norma va normativlar ham vaqt o'tishi bilan fan-texnika taraqqiyoti va ilg'or ishlab chiqarish tajribalari ta'siri ostida qayta ko'rib chiqiladi.

## **5.2. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda biznes rejaning ahamiyati**

**Biznes-rejaning mazmuni.** Korxona faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishda biznes-reja muhim rol o'ynaydi. Biznes-rejaning tuzilishi va mazmuni qatiyan chegaralanmagan. Bizning fikrimizcha, yetti bo'limdan iborat biznes-reja eng maqbuldir.

**Biznesning ta'sifi.** Firmaning miqdoriy ko'rsatkichlarini, tashkiliy-huquqiy shaklini, joyini, manzilini, ishlovchilar sonini ko'rsatish lozim. Ishlab chiqarilmogchi yoki bajarilmogchi bo'lgan tovar va xizmatlarni, korxonaning qisqacha tarixini, istiqbolini, marketing hududini, iste'molchi va ta'minotchilarni ko'rsatish lozim.

### **Biznes reja nima uchun muhim?**

Zamonamizning deyarli barcha biznes mutaxassislari biznes reja yozish va uni tayyorlashning muhimligi haqida ta'kidlashadi. Shunga qaramay, ayrim tadbirkorlar aniq bir rejasiz raqobatliz biznes maydoniga kirib kelishga harakat qilishadi. Bunga sabab nima bo'lishi mumkin? Bu savolga tadbirkorlar bir qancha bahonalarni sabab qilib ko'rsatishadi. Ahamiyat bering, ular sabab emas, balki sabab sifatida keltirilgan bahonalardir.

Mana shunday bahonalar quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- *Tadbirkorlik faoliyatini boshlashga bo'lgan ishtiyoq muvaffaqiyat uchun yetarli deb o'yplashadi;*
- *Biznes reja tuzish vaqt va kuch talab etadi. Ushbu vaqtni biznesni rivojlantirishga sarflash afzal, deb biliшadi.*

Lekin, aniq bir rejasiz faoliyat ko'rsatish, reja bilan ish yuritishga qaraganda ko'proq vaqt va kuch talab etishi takror va takror isbotlangan. Biznes-reja sizga uzoq-masofali va ko'p muddatli bo'lgan tadbirkorlik yo'lida o'ziga xos kompas vazifasini o'taydi. Zamonaviy tadbirkorlik faoliyati katta raqobatga to'la va jadal rivojlanib borayotgan soha. Ishlash jarayonida ko'zlangan maqsadni yo'qotib qo'ymaslik va muvaffaqiyatga erishish ehtimolini oshirish uchun sizda aniq ishlab chiqilgan biznes reja bo'lishi kerak.

O'z g'oyangiz uchun tashqaridan sarmoya yoki grant qidirish uchun, kerakli mutaxassis kadrlarni jaib etish uchun yoki muvaffaqiyatga erishish imkonini oshirish uchun hammasiga biznes reja ishlab chiqishning shart.

Biznes rejani ishlab chiqish uchun talab etiladigan izlanish va fikrlash jarayoni sizga g‘oyangizni turli xil nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqishga undaydi. Bu jarayon esa sizga oldindan o‘ylab yurgan fikr va g‘oya-laringizning boshqa qirralarini yoritishga va yangi xulosalarga kelishga yordam beradi.

### **Biznes rejaning afzalliliklari.**

Demak, biznes reja sizga muvaffaqiyatga erishish strategiyasini tuzib chiqishga yordam beradi. Yaxshi tuzib chiqilgan biznes reja sizga juda oddiy va ravshan qilib ikki narsani anglashda yordam beradi:

*1. Amalga oshirmoqchi bo‘lgan ishingiz bajarilish ehtimoli qanchaligi;*

*2. Ushbu ishni amalga oshirmoqchi bo‘lgan liderlar va boshqa-ruvchilarining qanchalik bunga qodir va layoqatli ekanliklari.*

Tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo‘lsangiz yoki allaqachon boshlagan tadbirkorlik faoliyatizingizni kengaytirmoqchi bo‘lsangiz, siz va sizning jamoangiz quyidagilarni aniq ravshan bilishi muhim:

**1. Tadbirkorlikni moliyalashtirish** - Tadbirkorlikdan kelib tushadigan mablag‘dan qanday foydalanishni bilasizmi? Foya va zarar ko‘rganda qanday ish yuritishni rejalashtiryapsiz? Biznes yuritish xarajat va tushumlar balansi varaqasini qanday yuritasiz?

**2. Xaridorlar** – Siz amalga oshiradigan xizmat yoki ishlab chiqaradigan mahsulot xaridorlari kimligini bilasizmi? Ular bilan qanday aloqa o‘matasiz?

**3. Raqobatchilar** – Sizning faoliyatizingizga kimlar raqobatchi bo‘la oladi? Ularga qaraganda qanday ustivor xizmat yoki mahsulotlarni taqdim eta olasiz?

**4. Biznesning kundalik faoliyati (*Operations*)** – Sizning biznesingizni muvaffaqiyatli yuritish uchun kundalik ravishda qanday ishlar amalga oshirilishi zarur? Haftalik va oylik ravishda-chi?

**5. Kelajakdagi rejalaringiz** – Biznesning davomiyligini qanday ta’milashni o‘ylab ko‘rganmisiz?

Biznes reja yozish va izlanish vaqt va kuch talab etadi. Tadbirkorlik faoliyatizingizga qarab biznes reja yozish bir nechta haftadan bir necha oylargacha vaqt talab etishi mumkin.

Biznes rejaning tarkibiy qismlarini yozish qismiga o‘tishdan avval quyidagilarga ahamiyat bering:

**Ko'p hollarda biznes rejuning bir nechta shakl (versiya)da bo'lishi odatiy holat** – masalan bini ichki ishlarni yuritish uchun ishlatsa, ikkinchisi esa ancha kengaytirilgan shaklda bo'lib, sarmoya va grant qidirishda ishlataladi.

**Biznes rejani kim uchun yozayotganingizni esdan chiqarmasdan yozish talab etiladi.** Masalan, agar biznes rejani sarmoyador yoki kredit beruvchi tashkilotga yozayotgan bo'lsangiz, avval ular bilan suhbatlashib, ular biznes rejada qaysi ma'lumotlarni ko'rishni istashini o'rganishingiz kerak. Har bir tashkilotning o'ziga xos talablari mavjud va siz ushbu talablarga javob bera olishingiz kerak.

**Biznesingizning moliyaviy rejasini amalda oshirib bo'ladigan, ya'ni, real hayotga yaqin qilib tuzib chiqishingiz juda ham muhim.** Sarmoyadorlar va kredit uyushmalari sizdan amaliy reja tuza olishingizni kutishadi. Agar rejangiz amaliy bo'lmasa ularning ishonchini juda ham tez yo'qotasiz. Bu esa mablag' topishingizni juda qiyinlashtiradi.

**Taklif etayotgan mahsulot va xizmatni oddiy tilda ta'riflab berish muhimligini unutmang.** Agar biznes rejangizni o'qigan inson siz nima haqida gapirayotganingizni tushunmasa, sizning loyihangizni qo'llab-quvvatlamasligi mumkin.

**Biznes rejadagi har bir bayonotingizni asoslab berishingiz muhim.** Masalan, agar rejada taklif etayotgan mahsulotingiz raqobatchilardan ko'ra ustivor desangiz, ushbu bayonotni asoslab, mahsulotingiz qaysi jihatlari bilan ustunligini va xaridor qanday manfaat ko'rishini ko'rsatib berishingiz kerak.

**Biznes rejangizni o'zgartirishga va unga yangilik kiritishga doimo tayyor turishingiz kerak.** Biznes rejangiz faoliyatizingiz o'sishi, bozorming o'zgarishi bilan unga moslashishi kerak. Shuning uchun ham bizneslar har chorakda (3 oyda bir marotaba) amalga oshirayotgan ishlarini baholashlari zarur.

Eng muhimi esa yuqorida keltirilgan qoidalarga amal qilish siz yozmoqchi bo'lgan biznes rejangizga xolisona nazar solishingizga undaydi. Bu esa o'z navbatida, rejangizning kuchli va kuchsiz tomonlarini anglashga, e'tibordan chetda qolgan masalalarga ahamiyat berishga, muammoli taraflarini aniqlash va ularni tuzatishga hamda maqsadga erishish rejasini tuzishga yordam beradi.

### **5.3. Biznes rejaning asosiy bo‘limlari va ularning tavsiflari**

*Biznes rejaning tarkibiy qismlari.*

Xo‘sh, biznes reja qanday tarkibiy qismlardan iborat?

1. Titul varog‘i
2. Mundarija
3. Qisqa xulosa yoki rezyume
4. Mahsulot va xizmatlar ta’rifi
5. Bozor haqida ma’lumot
6. Marketing strategiyasi
7. Raqobatchilar haqida ma’lumot
8. Kundalik bajariladigan amaliy ish jarayoni
9. Menejment
10. Mutaxassis xodimlar
11. Moliyaviy ma’lumotlar va reja
12. Yordamchi hujjatlar

**Titul varog‘i.**

- Biznes reja sarlavhasi.
- Tayyorlash muddati.
- Kim tomonidan tayyorlangan, fermaning to‘liq nomi va manzili, tadbirdorning ismi, familiyasi, uning manzili, telefon raqami.
- Biznes reja kim uchun tayyorlangan.
- Ba’zan titul varog‘ida avtorlik huquqi to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

**Mundarija.**

Biznes reja hujjatidan foydalanishni va unda bo‘lgan ma’lumotlarni, bo‘limlarni oson topish uchun o‘ziga xos yo‘riqnomalarini vazifasini o‘taydi. Mundarijada, biznes rejada nechta bo‘lim mavjudligi, har bir bo‘limning sarlavhalari va albatta bet raqamlari berilishi kerak.

**Qisqa xulosa yoki rezyume.**

Qisqa xulosa yoki rezyume: Har qanday biznes rejaning ilk 2-3 sahifasi amalgaga oshirmoqchi bo‘lgan faoliyatning umumiyligini mazmu-nini ifoda etib beruvchi, biznes rejani qo‘lga olgan kishini qiziqtiruvchi va o‘qishni davom etishga undovchi qismi hisoblanadi.

Nima uchun biznes-rejaning boshida xulosa yozish kerak degan asosli savol tug‘iladi. Buning javobi esa juda oddiy. Sizning bizne-singizga sarmoya ajratmoqchi yoki kredit beruvchi tashkilotga sizdan

tashqari boshqa yuzlab biznes rejalar taqdim etiladi. Ko‘pgina biznes rejalar esa 50-100 betni tashkil etadi. Sarmoyachi va kredit uyush-masining buncha ma’lumotni to‘liq o‘qib chiqishga imkoniyati yo‘q.

Shuning uchun ular eng avvalo xulosa qismini o‘qib chiqishadi va u yerda ushbu biznesga oid bo‘lgan barcha ma’lumotlarning qisqa mazmuni bilan tanishishadi. Biznes rejaning ushbu qismi rejaning barcha tarkibiy qismlarda keltirilgan ma’lumotlarning lo‘nda, oddiy va tushunarli qilib tasvirlab berishi kerak.

Agar ushbu qismini o‘qigan kishi siz nima qilmoqchisiz, buni qanday amalga oshirmoqchisiz, unga qancha mablag‘ talab etilishini, kimlar buning ustida ishlashini va bozordagi talab qandayligini o‘qimasa, biznes-rejangizning qolgan qismini o‘qimaydi. Ya’ni, biznes-rejaning bu qismi bilan siz sarmoyadorni qiziqtirsangiz, sarmoyador rejaning keyingi qismlarini batafsil o‘qishga kirishadi.

**Rezyume va xulosa qismini yozish uchga bo‘linadi:**

**Kirish:** loyihaning qisqacha mazmuni va uni amalga oshirish rejasining maqsadlari.

**Asosiy mazmun:** biznes-rejaning asosiy elementlari – taklif etila-yotgan faoliyat turi; unga bo‘lgan talab, boshqarish va moliyalashtirish rejasи.

**Xulosa:** faoliyatning kelajakdagи rejalar, qanday qilib rivojlanish va yutuqqa erishish usullarining tavsifi.

Biznes rejada ushbu qismning muhimligini yana bir marotaba ta’kidlab o‘tish uchun asoslidir. Ushbu bo‘lim potensial sarmoyadorda biznes rejaning davomini o‘qish istagini hosil qilishi kerak.

**Mahsulot va xizmatlar ta’rifi.**

Biznes rejani o‘qiydigan odam siz taklif etayotgan xizmat va mahsulotlarning asl ma’nosini tushunishi juda muhim. Shuning uchun ushbu ma’lumotlarni yozayotganingizda oddiy tilda ifodalashningiz kerak. Sizning biznes rejangizni o‘qiyotgan odam ko‘pgina texnik atama va iboralarining ma’nosini yoki ushbu sohada ishlataladigan ayrim jargon so‘zlarini tushunmasligi mumkin. Sizning vazifangiz esa bularni aniq va ravshan qilib tushuntirib berishdan iborat.

Ushbu qismni yozishda quyidagilarga ahamiyat bering:

1. Agar yangi mahsulot yoki xizmat taklifi bilan chiqayotgan bo‘lsangiz, nima uchun sizning taklifingizga talab borligini izohlab bering. Agar mayjud mahsulot va xizmat shaklini taklif etib chiqsangiz,

nima uchun aynan sizning mahsulot yoki xizmatlaringiz boshqalardan ustun bo'lishini izohlab bering.

2. *Agar mavjud bo'lsa, taklif etilayotgan mahsulotga tegishli patent, mualliflik huquqlari haqida ma'lumot bering.* Agar mavjud bo'limasa, mahsulotni qanday qilib patentlashtirish rejasи haqida yozing.

3. *Mahsulot va xizmatni bozorga taklif etishda to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan barcha holatlarni tasvirlab bering.* Masalan, davlat tomonidan tartibga solish qonunlari, raqobatdagi mahsulot va xizmatlar, ishlab chiqarish narxining qimmatligi.

4. *Taklif etilayotgan mahsulot allaqachon bozorga chiqarildimi yoki faqat izlanish va ishlab chiqish jarayonidami?* Agar mahsulot hali ishlab chiqarish jarayonida bo'lsa, qancha vaqt talab etilishi va qachon bozorga olib chiqish muddati haqida to'liq ma'lumot bering.

5. *Taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlar qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?* Mahsulotni xaridorlarga raqobatbardosh narxda taqdim etib, ma'lum darajada foyda ko'rish mumkinmi?

#### **Bozor haqida ma'lumot.**

Sarmoyadorlar biror bir loyihani moliyalashtirishdan avval ushbu loyihani amalga oshirmoqchi bo'lgan tadbirkorning bozorni qanchalik o'rganganligi va bilishiga katta ahamiyat berishadi. Agar siz yangi mahsulot va xizmat taklif etayotgan bo'lsangiz, bozorni qanchalik bilishingiz haqida ma'lumotlarini keltirishingiz shart.

Agar sizda xaridorlar guruhi allaqachon mavjud bo'lsa, ushbu xaridorlar haqida qisqacha umumiyligi biografik ma'lumot berishingiz talab etiladi. Ushbu ma'lumotga ularning xarid qilish odatlari va xarid qilish davriyligini keltirishingiz kerak.

Biznes rejaning ushbu qismi juda muhim, chunki agar siz taklif etayotgan mahsulot va xizmatga talab bo'limasa, unga xaridor bo'lmaydi. Agar biznesning xaridorlari mavjud bo'limasa biznes ham bo'lmaydi. Shuning uchun ushbu qismda quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tishingiz muhim:

1. *Bozor haqidagi batafsil ma'lumot;*

2. *Siz tanlagan mahsulot va xizmat haqida va nima uchun aynan shuni tanlaganingiz haqida batafsil ma'lumot;*

3. *Sizning mahsulot va xizmatingizga bo'lgan bozor talabi (iloji boricha asoslovchi hujjatlar bilan);*

4. *Ushbu bozorning necha foizini egallashni rejalashtiryapsiz?*

- 5. Ushbu bozorning rivojlanish potensiiali haqida ma'lumot (Iloji boricha asoslovchi hujjatlar bilan);*
- 6. Ushbu bozorning o'sishi bilan sizning bozordagi ulushingiz oshadimi yoki kamayadimi?*
- 7. Bozor talabining o'sishini ta'minlash uchun qanday rejangiz bor?*
- 8. O'sayotgan bozorda raqobatbardosh bo'lish uchun mahsulotlaringizni narxini qanday baholashni rejalashtiriyapsiz?*

### **Marketing strategiyasi.**

Ushbu tarkibiy qismda bozor aniqlab olinganidan so'ng ushbu bozordagi xaridorlarga mahsulot va xizmatlarni qanday qilib yetkazib berish strategiyasini aniqlash kerak. O'r ganib chiqilgan bozorni zabit etish usullarini ishlab chiqish kerak. Bu esa puxta marketing strategiyasini talab etadi. Marketing strategiyasini ishlab chiqish va rivojlantirish biznesingiz uchun muhim omil hisoblanadi.

Juda sifatli mahsulot yaratish yoki innovatsion texnikani taklif etish xaridorlar ishonchini qozonishga va bozorni zabit etishiga kamlik qiladi. Potensial sarmoyachilar taklif etilayotgan mahsulot yoki xizmatga xaridorlar to'lay oladigan narxni belgilanishini va xaridorlarni zabit eta olinishiga ishonch hosil qilishlari kerak.

Marketingning eng asosiy elementlaridan bo'lmish reklama hozirgi zamonda tadbirdorlar uchun juda samarali marketing qiroli hisoblanadi. Reklama juda muhim, lekin u marketingning yagona qismi emas. Shuning uchun ham rejaning ushbu qismini sal kengroq nazar bilan tuzish kerak.

Biznes rejaning ushbu qismini yozishda quyidagi jihatlarga ahamiyat berish muhim:

- 1. Raqobatchilarining marketing strategiyasini tubdan o'r ganib chiqing va agar u ishlayotgan bo'lsa, shunga o'xshash strategiyani o'zingiz uchun ishlab chiqing.* Agar o'r ganib chiqqan strategiya-laringizni yanada mukammalashtirish imkonи bo'lsa, albatta buni amalgao shiring. Eng a'sosiysi, bularni batafsil o'z rejangizda yoriting.

- 2. Mo'ljaldagi xaridorlarning asosiy talablari qanday?* Xaridorlar haqida demografik ma'lumotlar: ularning yoshi, jinsi, daromad darajasi, asosiy kasb sohalari (masalan, ofis ishchilari, fabrika ishchilari yoki haydovchilar).

- 3. Muvaffaqiyatlari marketing strategiyasi asosan bir necha reklama strategiyalarini o'z ichiga qamrab oladi.* Masalan, radio va televizor reklamlari, ijtimoiy tarmoqlar va veb-sayt, gazeta, savdo yarmarkalari,

potensial xaridorlarga qo'ng'iroq qilish/sms yuborish va hokazo. Mo'ljaldagi xaridorlar guruhi asosan qaysi informatsiya vositalaridan foydalanishlarini o'rGANISHINGIZ shart. (masalan, uy bekalariga mo'ljalangan reklamani avtomobilga yoki futbolga bag'ishlangan gazetaga joylashtirish umuman foyda keltirmasligi aniq).

4. *Xaridorlarga qanday yo'l bilan mahsulot va xizmatlaringizni taklif etish strategiyasini aniqlagach, ushbu strategiyani batafsil tasvirlab berishingiz muhim.* Mahsulot qanday yo'llar bilan tarqatiladi va ularni sotib olgan xaridorlar qanday rag'batlantiriladi?

Marketing strategiyasi doimo yangilanib borilishi muhim. Bozor va xaridorlar talabi o'zgarib turadi. Raqobatchilar yangi mahsulot taklif etishi, texnik rivojlanish, demografik o'zgarishlar bozorga ta'sir etadi. Shuning uchun xaridorlarni doimo o'rGANIB borish va ular nima istashlarini oldindan bilish sizga qo'shimcha ustunlik taqdim etadi.

### **Raqobatchilar haqida ma'lumot.**

Bozordagi raqobatchilarning kuchli va kuchsiz taraflarini tushunish raqobatbardosh bo'lishga katta yordam beradi. Raqobatchilar doimiy ravishda tahlil qilib borilishi kerak. Raqobatchilar kimligini bilish esa bozorda samarali bo'lishga yordam beradi.

Agar raqobatchi qiynalayotganini bilsangiz, buning sabalarini aniqlash muhim. Ushbu ma'lumot xuddi shunday xatoni takrorlamaslikka yordam beradi. Xuddi shunga o'xshash, agar raqobatchi juda ham muvaffaqiyatl bo'lsa, buning sabablarini o'rGANISH va uni qo'llash zarur. Agar raqobatchi muvaffaqiyatl faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, potensial sarmoyachiga nima uchun ushbu bozorda yana bir mahsulot va xizmatga joy borligini tushuntirib berish kerak bo'лади.

Biznes-rejaning ushbu qismida quyidagi aniq ma'lumotlar keltirilishi kerak:

1. Eng yaqin raqobatchilar kimlar? Ular qayerda joylashgan? Qancha vaqt davomida ular ushbu biznes bilan shug'ullanib kelishmoqda? Ular qancha daromad qilishini bilasizmi?

2. Agar raqobatchi qiynalayotgan bo'lsa, uning sabablari nima? Raqobatchi bozorning necha foiz ulushiga egalik qiladi? Qaysi jihatlari bilan siz bajaradigan ishlar raqobatchilarnikidan farq qiladi yoki o'xshaydi?

3. Agar raqobatchi muvaffaqiyatlari bo'lsa, uning sabablari nima? Undan ham muvaffaqiyatlari bo'lish imkonini mavjudmi? Siz raqobatchidan ham muvaffaqiyatlari bo'lishni qanday rejalashtiriyapsiz? Raqobatchining biznesi o'sib boryaptimi yoki pasayib boryaptimi?

### **Kundalik bajariladigan amaliy ish jarayoni.**

Yuqorida sanab o'tilgan tarkibiy qismlar potensial sarmoyadorda g'oyangizga haqiqiy qiziqishni oshirshga xizmat qiladi. Biznes rejaning amaliy ish jarayoni qismida esa sarmoyador yoki kredit uyushmasi ushbu g'oyanining amaliy ijrosi qanday qilib ta'minlanishini ko'rib chiqishadi. Ular taklif etilayotgan mahsulot va xizmatning bozorga olib

chiqish uchun qaysi resurs va usullardan foydalanishi bilan qiziqishadi.

Biznes rejaning ushbu qismi quyidagi biznes talablarni tasvirlab berishi kerak:

1. *Tadqiqot va Rivojlantirish (Ingliz tilida Research & Development - R&D deb yuritiladi)* – Taklif etilayotgan mahsulot ishlab chiqishning qaysi bosqichda bo'lishiga qarab, T&R haqida qisqacha ma'lumot, agar imkon bo'lsa mahsulot prototipini taqdim etish mumkin.

2. *Xarid qilish* – Mahsulot va xizmatlarni rivojlantirish va bozorga yetkazib berish uchun qanday xizmatlar va ishlab chiqarish xomashyolari xarid qilinadi?

3. *Ishchilar* – Kundalik ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishchilar.

4. *Jihoz va uskunalar* – komputer, ishlab chiqarish texnikasi, printer va hokazo.

5. *Ofis/idora* – idora, zavod, fabrika, omborxona va boshqalar.

Shuningdek, siz ushbu jarayonlarning tadbiq etish strategiyasini batafsil yozishingiz kerak.

### **Menejment.**

Ko'pgina sarmoyadorlar biror bir biznesga moliya ajratishdan avval ushbu biznesning yuqori menejment tajribasi va qobiliyatiga alohida ahamiyat berishadi. Chunki g'oya qanchalik ajoyib bo'lmasin, agar uning boshida boshqarishni bilmaydigan menejerlar jamoasi tursa, ushbu g'oyanining muvaffaqiyatga aylanishi mushkul.

Potensial sarmoyadorlar menejment jamoasining tajribali ekanligiga va g'oyani amalga oshirishga qodir ekanliklariga amin bo'lishlari kerak.

Agar mavjud boshqaruv jamoasida kadrlar qobiliyati muammosi bo'lsa, buni albatta biznes rejada ko'rsatilishi kerak. Shuningdek, bu muammonni qanday bartaraf etilishi ham batafsил tasvirlab berilishi shart. Masalan, mavjud menejerlarni qo'shimcha tayyorlash yoki boshqa iqtidorli menejerlarni jalg etish rejasini ko'rsatilishi kerak.

Biznes rejaning bu qismini tayyorlashda quyidagi 4ta yo'naliш bo'yicha batafsил ma'lumot beriladi:

1. *Direktor va menejerlar haqida ma'lumot*: ta'lim darajasi; erishgan muvaffaqiyatlari; qobiliyatlar; biografik ma'lumotlari.

2. *Ish tajriba/malakalari haqida ma'lumot*: avvalgi boshqaruvda ishlash tajribalari haqida ma'lumot.

3. *Kim nima bilan shug'ullanadi va nima uchun?* Kim natijalarga javobgar bo'ladi? Boshqaruv dasturi.

4. *Maosh vs Social Paket (ijtimoiy paket) haqida ma'lumot*: kim qancha maosh olishi, qanday ijtimoiy paketga ega bo'lishi va agar bonuslar ajratilsa, ular haqida batafsил ma'lumot.

#### Mutaxassis xodimlar.

Har qanday biznesning muvaffaqiyatini ushbu biznesda ishlayotgan mutaxassislar bilan o'lichash mumkin. Chunki ayrim tadqiqotlarga ko'ra xaridorlarning 70 foizi agar tez va sifatli xizmat ko'rsatilmasa, ushbu biznes bilan aloqalarini butunlay uzishadi. Tez va sifatli xizmat esa biznesning ishchilarini tomonidan ko'rsatiladi. Shuning uchun ham ishga olinayotgan kadrlarni sinchkovlik bilan tanlash strategiyasini ishlab chiqish kerak.

Biznes-rejaning ushbu qismini yozayotganda quyidagi savollarga ahamiyat bering:

1. Hozirgi vaqtida biznesni yuritishga nechta ishchi zarur? (to'liq stavka yoki yarim stavka bo'yicha ishlashadimi?)

2. Yaqin kelajakda nechta ishchi zarur bo'lishi mumkin? Keyingi 3-5 yildachi?

3. Ishchilarda qanday professional qobiliyatlar bo'lishi zarur?

4. Ularning ish tavsiyini batafsил yozing.

5. Kimlarni ishga olishni bilasizmi? Agar yo'q bo'lsa, xodimlarni qanday qilib ishga yollashni rejalashtiryapsiz?

6. Ish haqini qanday kelishasiz? Soatbaymi yoki ishbaymi? Yoki shunchaki oylik maosh belgilanadimi?

7. Ishchilarga qanday ijtimoiy paket taqdim etishni rejalashtiryapsiz? Ular qancha turadi?

8. Qo'shimcha ish uchun oylik to'laysizmi?

#### Moliyaviy ma'lumotlar rejasи.

Har qanday biznes boshqaruvining markazida ushbu biznesning moliyaviy boshqaruvi turadi. Daromad keltiruvchi biznes tashkil etishning eng birinchi qadamlaridan biri bu moliyaviy boshqaruv tizimini tashkil etishdir.

Ushbu tizimni tuzishda quyidagi 4ta yo'naliш bo'yicha ma'lumot berilishi kerak:

1. *Naqd pul muomalasi rejasи*. Ushbu reja biznesdagи barcha naqd pul tushum va xarajatlarni nazorat qiladi. Naqd pul muomalasi rejasining mavjudligi bar qanday biznesning rentabelligini aniqlash uchun zarurdir.

2. *Daromadlar jadvali*. Ushbu jadval shuningdek daromad va zarar jadvali deb ham yuritiladi. Ushbu jadval biznes kelib tushayotgan naqd pulni qanchalik yaxshi boshqara olishini ko'rsatib beradi. Ushbu jadval kelib tushayotgan tushumlar va biznes xarajatlarini hisoblab boradi.

3. *Rentabellik me'yori tahlili*. Yalpi daromadning xarajatlar umumiyy mosligidagi ko'rsatgichi. Ushbu tahlilda biznesda mavjud bo'lgan xarajatlarni qoplash uchun qancha daromad qilish kerakligini aniqlab berishga yordam beradi. Ushbu tahlilni barcha bizneslar amalga oshirishlari muhim hisoblanadi.

4. *Balans hisoboti*. Ushbu hisobot asosan yilning oxirida amalga oshirilgan tahlil natijasida tuziladi. Ushbu hisobotda biznesning ayni damdagi moliyaviy holatini aks ettiruvchi mavjud bo'lgan mulk, shaxsiy kapital, naqd pul, to'lov majburiyatları o'rinni oladi.

Agar moliyaviy ishlarda tajribangiz bo'lmasa va moliyaviy boshqaruv tizimini qanday ishga qo'yishni bilmasangiz, unda ushbu soha bo'yicha tajribali mutaxassisni topishingiz shart. Mutaxassis sizga moliyaviy boshqaruv tizimini tuzib berishga yordam beradi.

#### Yordamchi hujjatlar.

Va nihoyat biznes rejaning eng oxirgi qismi, yordamchi hujjatlarlarga yetib keldik. Unda biznes rejaning asosiy qismlarida tayyorlangan bayonotlarni asoslab beruvchi hujjatlarni taqdim etishingiz kerak.

#### Masalan:

- Menejerlar va ishchilar rezyumelari;
- Kredit olgan bo‘lsangiz, u haqida ma’lumot beruchi hujjat;
- Hozirgi yoki bo‘lajak xaridorlardan sizning mahsulot va xizmatlaringizga bo‘lgan qiziqish to‘g‘risida ulardan xat;
- Tavsiyanomalar;
- Agar ushbu xizmatni bajarish yoki mahsulotni sotish uchun shartnomaga bo‘lsa, ushbu shartnomalar;
- Siz taklif etayotgan mahsulot va xizmat hududdagi demografik ma’lumotlar, masalan *aholining* yoshi, jinsi va h.k;
- Biznesga tegishli bo‘lgan yuridik hujjatlar;
- Patent va mualliflik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar.

Yuqorida keltirilgan hujjatlar ro‘yxati to‘liq emas va ushbu ro‘yxat qanday biznes tashkil etayotganingizga qarab o‘zgarishi mumkin.

Aziz o‘quvchu, biz sizga biznes reja nega muhimligi, biznes reja qanday qismlardan tashkil topishi va uning har bir qismida nimalarga ahamiyat berish kerakligi haqida bat afsil ma’lumotlar bilan bo‘lishdik.

Siz ushbu ma’lumotlardan foydalangan holda o‘z g‘oyalaringizni aniq bir biznes rejaga aylantirish imkoniyatiga egasiz. Bu esa sizga g‘oyangizni amalga oshirish uchun yana bir qadam oldinga tashlash imkoniyatini beradi. Qanday g‘oya bo‘lishidan qat’iy nazar uni amalga oshirish uchun mablag‘ topishda sizdan eng avval aniq biznes rejangiz borligi so‘raladi.

Agar biznes rejangiz bo‘lmasa, g‘oyangiz qanchalik ajoyib bo‘lmasin, u faqat g‘oyaligicha qolib ketishi tayin. Bizneslarni ro‘yxatga oluvchi va ularni nazorat qiluvchi tashkilotlarning ma’lumotlariga ko‘ra, deyarli 90% bizneslar birinchi 2 yil davomida muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Va bu muvaffaqiyatsizlikning eng asosiy sababi - aniq bir rejaning yo‘qligi, biznes reja puxta ishlab chiqilmaganligida. Shu sababli siz ham ushbu xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun aniq va puxta biznes rejani ishlab chiqishingiz zarur.

#### **5.4. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalishtirishdagi tablil**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona va tashkilotlar faoliyat yuritishlarini mablag‘ bilan ta’minlash iqtisodiy muammolardan biri bo‘lib, katta tavakkalchilikni talab etadi. Sarflangan mablag‘larni qaytarish, qoplash muddati qanchalik uzoq bo‘lsa, bu xavf darajasi ham shunchalik

oshib boradi. Chunki, bu muddat ichida bozor kon'yunkturasi ham, narxnavolar ham, ish haqi to'lovlari ham zimdan oshib boradi.

Misol tariqasida, «Jahongir» kichik korxonasining mablag‘ bilan ta'minlanish va uni o‘zlashtirish tartibini ko‘rib chiqamiz. Korxona ixtiyorida o‘zlashtirish uchun 120 ming so‘mlik xomashyo resurslari va tayyor mahsulotlar mavjud. Mazkur resurslardan foydalanish natijasida korxona 35 ming so‘m daromad olishni ko‘zda tutmoqda. Shu asnoda korxona rivojlanish fondidan ajratilgan pullar va bankdan olingan kreditlarni 4 yildan kechiktirmasdan qaytarishi rejalashtirilgan. Xo‘s, ushbu loyiha talabni qondira oladimi?

Buning uchun quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshiramiz.

Korxona xarajatlarni qoplash muddati quyidagi formula orqali hisoblanadi:

Xarajatlarni qoplash muddati	=	Boshlang‘ich investitsiyalar	=	120000	=	3,4	(I)
		Har yilgi pul daromadlari		35000		yil	

Yuqorida korxonalar moliyaviy holatini alohida tomonlari va yo‘nalishlarini tahlil qilish masalalari ko‘rib chiqildi. Moliyaviy tahlilning yakuniy bosqichi bo‘lib, korxonalar faoliyatining moliyaviy yakunlari tahlili hisoblanadi. Korxonalar faoliyatining moliyaviy yakunlari foyda va rentabellik ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Foya ijtimoiy ishlab chiqarish hamma bosqichlarining iqtisodiy toifasidir. Qayerda ijtimoiy ishlab chiqarish barpo etilgan bo‘lsa, unda qatnashuvchilarning mehnati ikkiga bo‘linadi – birinchi qismi ishlab chiqarish qatnashchilarini shaxsiy ehtiyojlarini ta’minalash, qoplash uchun foydalaniladi, ikkinchi qismi esa mulkdorlarni, davlat va ijtimoiy ehtiyojlarni qoplashga safarbar etiladi.

Foya iqtisodiy kategoriya va moliyaviy yakun sifatida o‘zining eng yuqori ahamiyatiga bozor munosabatlari, bozor iqtisodiyoti davrida ko‘tariladi. Foydani barpo etish, uni realizatsiya qilish bu kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishni, qiymat qonunini va xo‘jalik yuritish usuli sifatida foydalanadigan xo‘jalik hisobotining obyektiv talabidir.

Kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish ishlab chiqarishning doimo kengayishini, uning texnikaviy darajasini muntazam ko'tarib turishni talab etadi. Buning uchun ishlab chiqarishda hamma vaqt foydaga erishilishi, realizatsiya qilinishi va undan ishlab chiqarish ehtiyojlar uchun foydalanish lozim.

Qiymat qonuni alohida korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlar – ijtimoiy-zaruriy xarajatlar darajasida yoki undan kam bo'lishini talab etadi. Bu talabni amalgalashirish uchun korxonalar foydaga ega bo'ladilar va ularning rentabellik darajasi o'rtacha yoki undan yuqori bo'lishi kerak.

Ma'lumki, xo'jalik hisobining asosiy talabi - korxonalar faoliyati rentabelli bo'lishi, ya'ni korxonalar o'z faoliyatini foyda olish bilan yakunlashlaridir. Foya — mutlaq ko'rsatkich bo'lib, u korxonalar faoliyati samarasini ifodalaydi. Foya korxonalar faoliyatining har xil yo'nalishlarini moliyaviy yakunidir. Shu sababli foya turli shaklda bo'lishi mumkin.

Respublikamizda «Mahsulot (ishlar va xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom» qabul qilinmasdan oldin korxonalar foydasini quyidagi shakllarda hisobga olinar edi: balans bo'yicha; sotilgan mahsulotlardan; boshqa sotuv operatsiyalar; noishlab chiqarish; sof foydalar.

Yuqorida ko'rsatilgan Nizomga binoan korxona va tashkilotlar foydasini quyidagi, shakllarda hisobga olinadi:

- **mahsulot sotishdan olingan yalpi foya**. Bu sotishdan olingen sof tushumdan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini olish bilan aniqlanadi;

- **asosiy faoliyatdan olingan foya** — asosiy faoliyatdan ko'rigan foya, bu mahsulotni sotishdan olingen yalpi foya bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va plyus, asosiy faoliyatdan ko'rigan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi;

- **xo'jalik faoliyatidan olingan foya** (yoki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingen foya summasi, plyus moliyaviy faoliyatdan ko'rigan daromadlar va minus zararlar sifatida aniqlanadi;

- **soliq to'lagungacha olingan foya**, u umum xo'jalik faoliyatidan olingen foya, plyus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rigan foya va minus zarar sifatida aniqlanadi.

**- yilning sof foydasi**, u soliq to‘langandan keyin xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi.

Demak, xo‘jalik faoliyatidan olingen foya hisoblanayotganda moliya faoliyatidan ko‘rilgan foya hamda soliq to‘lagungacha olingen foya hisoblanayotganda favqulotda vaziyatlardan ko‘rilgan foya aniqlanadi, e’tiborga olinadi.

Ko‘rinib turibdiki, qabul qilingan Nizomga ko‘ra, foya shakllari tarkibi kengaytirildi va foya shakllari bozor munosabatlariga moslashtirildi. Korxonalar faoliyatining moliyaviy yakunlari buxgalteriya balansi va «Moliyaviy faoliyat to‘g‘risidagi hisobot»ga asoslanib tahlil qilinadi va bu tahlil yuqorida ko‘rilgan foydaning butun shakllari bo‘yicha o‘tkazilishi lozim. Shu sababli ana shu foya shakllari ustida to‘xtalamiz.

Sotilgan mahsulotlardan olingen yalpi foya foydaning asosiy shakli bo‘lib, u sotishdan olingen tushumdan sotilgan mahsulotlar tannarxini ayirish bilan aniqlanadi. Sotilgan mahsulotlardan olingen sof tushumni aniqlash uchun sotilgan mahsulotlardan olingen yalpi tushumdan davlat budjetiga o‘tkazilgan qo‘silgan qiymatga solinadigan soliq aksiz sohqlari va eksport-bojxona poshlinalari olib tashlanadi.

Asosiy faoliyatdan olingen foya sotilgan mahsulotlardan olingen foydadan davr xarajatlarini olib tashlash va asosiy faoliyat bilan aloqador boshqa daromadlar, zararlarni e’tiborga olish yo‘li bilan aniqlanadi.

Davr xarajatlari deganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar va sarflar tushiriladi va o‘z tarkibiga boshqarish xarajatlarini, mahsulotni sotish xarajatlarini va umumxo‘jalik – ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlarni oladi.

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga — qarzdorlardan olingen jarima, penyalar, hisobot yiliда aniqlangan o‘tgan yillardagi foya, sotilgan asosiy va aylanma mablag‘lардан olingen daromadlar, davlat subsidiyalari, xolisona moliyaviy yordam, oshxona, yordamchi xizmatlardan olingen daromadlar kiritiladi. Asosiy ishlab chiqarish faoliyati, mahsulot sotishdan tashqari, korxona xarajatlari tarkibida konservatsiya qilingan ishlab chiqarish kuchlari bilan bog‘liq bo‘lgan sarflar, tara bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalardan zararlar, sud va arbitraj xarajatlari, to‘langan jarimalar va penyalar, voz kechilgan debitorlik qarzlar bilan bog‘liq ziyonlar, valuta operatsiyalari bo‘yicha

salbiy farqlar, o'tgan yillarda o'tkazilgan operatsiyalar bo'yicha ziyonlar va hokazo bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Xo'jalik faoliyatidan olingen foyda korxonalar asosiy faoliyatidan tashqari moliyaviy natijalarni ham e'tiborga olish yo'li bilan aniqlanadi. Buning uchun korxonalar moliyaviy faoliyati bilan bog'liq bo'lган daromadlar va xarajatlar hisobga olinadi.

Moliyaviy faoliyatdan olingen daromadlar — aksiyalarga olingen dividendlar, shu'ba va assosatsiya qilingan korxonalardan olingen dividend va xarajatlar, xorijiy mamlakatlarning valutalari bo'yicha ijobji kurs, qimmatli qog'ozlarga sarf qilingan sarmoyalarni qaytadan baholashdan olingen daromadlar, uzoq muddatga ijaraga berilgan mol-mulkdan tushgan daromadlar va hokazo.

Moliyaviy faoliyat xarajatlari — uzoq muddatga ijaraga olingen mol-mulkarga to'lovlar, chet el valutasi bilan operatsiyalar bo'yicha salbiy kurs tafovutlar va zararlar, qimmatli qog'ozlarga sarflangan mablag'larni qayta baholashdan ko'rigan zararlar va hokazo.

Soliq to'langungacha olingen foyda ishlab chiqarish, noishlab chiqarish moliyaviy faoliyat yakunlaridan tashqari ko'zda tutilmagan vaziyatlardan kelib chiqqan daromad va zararlarni e'tiborga olish yo'li bilan hisoblanadi. Ko'zda tutilmagan vaziyatlar bilan bog'langan daromad va xarajatlar korxonalarning odatdag'i xo'jalik faoliyatiga xos emasligi, bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak. Boshqaruv xodimlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq bo'lmasligi lozim.

Sof foyda – korxonalarning o'zida qoladigan daromad bo'lib, u korxonalarning ehtiyojlari uchun foydalanadigan daromadlardir. Yuqorida ko'rigan korxonalarning foyda shakllari moliyaviy holatni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega, lekin nizomda yana bir foyda shakli ko'rigan – bu soliqqa tortiladigan foyda.

Soliqqa tortiladigan foydani aniqlash uchun soliqqa tortilgungacha bo'lган foydaga:

- nizomda keltirilgan birinchi ilovaga asosan chegirilmaydigan xarajatlar yoki doimiy tafovutlar qo'shiladi;
- Nizomda keltirilgan ikkinchi ilovaga binoan vaqtlar bo'yicha tafovutlar qo'shiladi yoki ayirib tashlanadi;
- qabul qilingan soliqlar bo'yicha qonunlarga binoan korxonalarda soliqlar bo'yicha tasdiqlangan imtiyozlar ayirib tashlanadi.

Ko'riniб turibdiki, soliqqa tortiladigan foydani hisoblash murakkab bo'lib, u soliqlarni fiskal funksiyasini yanada kuchaytirish bilan bog'langan. Shu sababli moliyaviy tahlil davrida bu foyda shaklini aniqlash, uni tahlil etish korxonalarning moliyaviy holatini baholashda o'z o'mini topishi lozim. Yuqorida ko'rigan hamma foyda shakllari moliyaviy tahlilda foydalaniлди, lekin korxonalarning moliyaviy holatini baholashda alohida e'tibor soliq olingungacha olingen foyda va sotilgan mahsulotlardan olingen foyda ko'rsatkichlarga safarbar etiladi. Chunki soliq olingungacha olingen foyda korxonalarning butun xo'jalik moliyaviy holatini ifodalaydi. Sof foyda esa korxonalarning jamiyat oldidagi burchini oqlagandan so'ng o'zlarining kelgusida rivojlanish imkoniyatlarini ifodalaydi. Moliyaviy tahlilda foyda ko'rsatkichlarining hajmi, ularning tahlil qilayotgan davr mobaynida o'zgarish dinamikasi va korxonalar foydasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarini tahlil qilinishi lozim:

Foydaga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ichki va tashqi, obyektiv va subyektiv, tashkiliy va iqtisodiy, ishlab chiqarish va texnikaviy bo'lishi mumkin. Moliyaviy tahlilda asosiy e'tibor, iqtisodiy, analitik hamda moliyaviy holatga bevosita va miqdoran ta'sir ko'rsatuvchi omillarga yo'naltirilishi lozim.

Sotilgan mahsulotlardan olingen yalpi foydani tahlil etishda quyidagilar bunday omillar bo'lib hisoblanadi: sotilgan mahsulotlarning hajmining o'zgarishi; sotilgan mahsulotlarning tannarxini o'zgarishi; sotilgan mahsulotlarning narx-navolarining o'zgarishi; sotilgan mahsulotlarning tarkibiy, assortimentining o'zgarishi.

Omilli tahlil korxonalar faoliyatini moliyaviy yakuni natijasi foyda tahlilining zaruriy qismidir. Korxonalar faoliyatining samarasiga baho berilganda olingen foydaning ko'payishi yoki kamayishi, qaysi omillar ta'sirida bo'lganligini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Foyda hajmini o'zgarishi-ko'payishi mahsulotlarni ko'p sotish, tannarxni pasaytirish, tasdiqlangan assortimenti o'zgartirish va narx-navoni ko'tarish natijasi bo'lishi mumkin va aksincha.

Tannarxni pasaytirish, mahsulotlar hajmini ko'paytirish ijobjiy omillar sifatida qabul qilinsa, narx-navoni ko'tarish va mahsulotlarning assortimenti o'zgartirish – salbiy omillar hisoblanadi. Chunki, narx-navoni ko'tarilishi bozorda yakka hukmronlikdan foydalanish natijasi bo'lishi mumkin. Assortimentning o'zgarishiga kelsak, korxonalar ham

Xo'jalik va aholi ehtiyojini e'tiborga olmasdan ko'p foyda beradigan mahsulotlardan ko'proq ishlab chiqqan bo'lishi mumkin. Endi, iqitisodiy adabiyotda keng foydalaniylayotgan indeks usulidan foydalanim, korxonalar foydasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilamiz.

Korxonalarda sotilgan mahsulotlardan olingen yalpi foydaning umumiy o'zgarishi – bu **dinamika indeksidir**.

$$\frac{Joriy\ davrda\ sotilgan\ mahsulotlar\ joriy}{O'tgan\ davr\ sotilgan\ mahsulotlar\ o'tgan\ davr\ narxlarda} = \frac{Joriy\ davrda\ sotilgan\ mahsulotlar\ joriy\ tannarxda}{O'tgan\ davrda\ sotilgan\ mahsulotlar\ joriy\ narxlarda} =$$

Bu indeks sxema sıfatida:

$K_1$  va  $K_0$  – joriy va o'tgan davrlarda sotilgan mahsulotlarning soni;  $T_{S_1}$  va  $S_0$  – joriy va o'tgan davrlarda sotilgan mahsulotlarga qo'yilgan narxlari;  $S_1$  va  $S_0$  – joriy va o'tgan davrlarda sotilgan mahsulotlarning tannarxi.

Indeksning suratida joriy davrda olingen foyda ko'rsatiladi, chunki sotilgan mahsulotlar joriy narxlarda ( $K_1 S_1$ ) ifodalangan bo'lib, undan joriy davrda sotilgan mahsulotlarni joriy tannarxi ( $K_1 S_1$ ) olib tashlangan. Indeksning maxrajida esa o'tgan davrda olingen foyda ko'rsatiladi, chunki unda o'tgan davrda sotilgan mahsulotlardan olingen tushumdan ( $\Sigma K_0 T_{S_0}$ ) bu mahsulotning tannarxi olib tashilanadi ( $\Sigma K_0 S_0$ ).

Foydaniyaning joriy davrda o'tgan davrga nisbatan o'zgarishiga – dinamikasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni indekslar yordamida aniqlaymiz.

**Sotilgan mahsulotlar hajmining o'zgarishi ta'sirni aniqlovchi indeks:**

Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr tannarxida	$\times$	O'tgan davrda sotilgan mahsulotlar o'igan davr tannarxida
--	----------	---

Bu indeks quyidagi shakli sıfatida yozildi:

$$= \frac{(\sum K_1 C_0) R_0}{\sum K_0 \bar{C}_0 - \sum K_0 \bar{N}_0}.$$

O'tgan davrda rentabellik koefitsiyenti o'sha davrda mahsulot sotuvidan olingen foydani shu mahsulotning tannarxiga bo'lish y'li bilan aniqlangan. Indeks suratida joriy davrda olingen foyda ko'rsatiladi, lekin bu hisob-kitobda mahsulotlarning narxi va tannarxi o'zgarmas deb olingen, faqat sotilgan mahsulotlar hajmi o'zgarishi e'tiborga olingan. Indeks maxrajida, yuqorida ko'rsatilgan mahsulotlar hajmi o'gan davrda sotilgan mahsulotlardan olingen foyda aniqlangan. Demak, bu indeks faqat sotilgan mahsulotlarning hajmi ta'sirini ko'rsatadi. Iqtisosidiy adabiyotda bu o'milning ta'siri odatda, boshqa yo'l bilan aniqlanadi.

O'tgan davrda olingen foyda joriy davrda o'tgan davrga nisbatan sotilgan mahsulotlar dinamika ko'rsatkichiga ko'paytilradi va natija o'tgan davrda olingen foyda bilan solishtiladi. Olingen natija mualliflar fikricha foydaga sotilgan mahsulotlarda hajminning ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, o'tgan davrda olingen foyda 500 ming so'm, sotilgan mahsulotlarning joriy davrda o'tgan davridagiya nisbatan dinamikasi 110 foiz. Demak,  $(500 * 110) / 100 = 550$  ming s.=50 ming s.

Ko'rinib turibdiki, korxonada foydasini sotilgan mahsulotlar hajmining o'zgarishi natijasida 50 ming so'mga ko'paygan.

Fikrimizcha, bu hisob-kitobda sotilgan mahsulotlar hajmining o'zgarishidan tashqari, ularning tarkibiy-assortiment o'zgarishi ta'sirini aniqlaymiz.

ham o'z ichiga oladi. Demak, bu yo'l bilan aniqlanayotgan omil ta'sirini hisoblash asosiz va noto'g'ridir.

#### **Sotilgan mahsulotlar tannarxining ta'siri indeksi:**

Joriy davrda sotilgan mahsulotlar joriy narxlarda	-	Joriy davrda sotilgan mahsulotlar joriy tannarxda
Joriy davrda sotilgan mahsulotlar joriy narxlarda	-	Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr tannarxida

Bu quyidagi shakl sifatida yozildi:

$$= \frac{\sum K_1 O_1 - \sum K_1 N_1}{\sum K_1 O_1 - \sum K_1 N_0}.$$

Ko'rimib turibdiki, indeks suratida joriy davrda olingan foyda ko'rsatilgan, maxrajda ham joriy davrda mahsulot sotishdan olingan foya, lekin bu hisob-kitobda joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'zgarmas, o'lgan davr tanarxida ( $S_0$ ) olingan. Demak, bu indeks korxona foydasiga mahsulotlar tannarxining o'zgarish ta'sirini aniqlaydi.

#### **Sotilgan mahsulotlarga qo'yilgan narx-navolarning ta'siri indeksi:**

Joriy davrda sotilegan mahsulotlar joriy narxlarda	x	Joriy davrda sotilgan mahsulotlari o'tgan davr tanarxida
O'tgan davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr narxlarda	-	Joriy davrda sotilgan mahsulotlari o'tgan davr tanarxida

Bu indeks sxema sifatida:

$$= \frac{\sum K_1 S_0 - \sum K_1 C_0}{(\sum K_1 C_0) \cdot R_0}.$$

Bu gal ham indeksning suratida va maxrajida joriy davrda sotilgan mahsulotlardan olingan foyda ifodalangan. Lekin ko'rimib turibdiki, suratda aniqlangan foyda joriy davrda sotilgan mahsulotlarni hajmiga, o'tgan davr narx-navo va tanarxlariga asoslangan. Maxrajda esa sotilgan mahsulotlardan olingan foyda o'tgan davr rentabellik koeffitsiyentiga asoslangan bo'lib, u o'tgan davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davrdagi tarkibini, assortimentini hisobga olgan.

Shunday qilib, indeksning surati sotilgan mahsulotlardan olingan foyda mahsulotlarning joriy tarkibiga, maxrajda aniqlangan foyda sotilgan mahsulotlardan olingan foyda mahsulotlarning o'tgan davrdagi tarkibiga asoslangan, demak bu indeks mahsulotlarni tarkibiy o'zgarishini korxona, foydasiga ta'sirini aniqlab beradi.

Yuqorida ketirilgan omil indekslari bir-biri bilan bog'iq va ularning ko'paytmasi urnumiy indeksga barobar. Ya'ni:

$$= \frac{\sum K_1 S_0 - \sum K_1 C_0}{\sum K_1 S_0 - \sum K_1 C_0}.$$

Ko'rimib turibdiki, ham suratda, ham maxrajda joriy davrda sotilgan mahsulotlardan olingan foyda aniqlanyapdi. Lekin bajartigan hisob-kitoblarda sotilgan mahsulotlarning tannarxi ( $S_0$ ) o'zgarmas sifatida, ya'ni o'tgan davr darajasida olingan. Sotilgan mahsulotga qo'yilgan narxnavolar o'zgaruvchan. Demak, bu indeks korxona foydasiga narxlardan ta'sirini aniqlaydi.

#### **Sotilgan mahsulotlar tarkibiy, assortiment o'zgarishining ta'siri indeksi:**

Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr tanarxida	-	Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr tanarxida
---	---	---

Bu indeks quyidagi shakl sifatida yozildi:

$$\begin{aligned} Y &= \frac{\sum K_1 S_0 - \sum K_1 C_0}{(\sum K_1 C_0) \cdot R_0} \\ &\quad \times \text{O'tgan davrdagi rentabellik koeffitsiyenti} \end{aligned}$$

Bu indeks quyidagi shakl sifatida yozildi:

$$Y = \frac{\sum K_1 S_0 - \sum K_1 C_0}{(\sum K_1 C_0) \cdot R_0}.$$

$$= \frac{\sum K_i S_i - \sum K_i C_i}{\sum K_o S_o - \sum K_o C_o} = \frac{(\sum K_i S_i) \cdot R_o}{\sum K_o S_o - \sum K_o C_o} \times \frac{\sum K_i S_i - \sum K_i C_i}{\sum K_i S_i - \sum K_i C_o} \times \frac{\sum K_i S_i - \sum K_i C_o}{\sum K_i S_o - \sum K_i C_o} \times \frac{\sum K_i S_o - \sum K_i C_i}{(\sum K_i C_o) \cdot R_o}$$

Yuqorida ko‘rilgan omilli tahlilni o‘tkazish uchun moliyaviy hisobot ma’lumotlaridan tashqari bir kamchi buxgalteriya ma’lumotlaridan foydalnishga to‘g‘ri keladi, lekin bu qo‘sishma mehnat moliyaviy tahlil asosida faoliyatni rejalashtirishda, albatta, o‘zini oqlaydi. Chunki korxonalar faoliyatining moliyaviy yakunlarini baholashda yuqorida keltirilgan omillar ta’sirini miqdoran aniqlash katta ahamiyatga ega.

### **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Biznes. Bashorat. Rejallashtirish. Biznes-reja. Rentabellik. Samaradorlik. Koeffitsiyent. Indeks. Normativ. Korrelyatsiya.

### **Mavzu bo‘yicha savollar:**

1. Korrelyatsiya tahlilining asosiy vazifasiga nima kiradi?
2. Biznes atarnasi mazmunini yoritib bering.
3. Biznes-reja tarkibiy qismi bo‘yicha ma’lumot bering.
4. Rejallashtirish bosqichlari to‘grisida tushunchangizni ifodalang.
5. Rentabellik nimani ifodalashga xizmat qiladi?
6. Samaradorlik ko‘rsatgichi nimani aniqlashga qaratilgan?
7. Koeffitsiyent orqali nima ifodalanishi mumkin?
8. Indeks asosan nimani belgilaydi?
9. Normativ nima uchun kerak?
10. Korrelyatsiya degani nimani anglatadi?

## **6. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA XIZMAT KO'RSATUVCHI BOZOR INFRATUZILMALARI**

- 6.1. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasi turlari.
- 6.2. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning roli.
- 6.3. Kichik biznes va tadbirkorlikni kredit bilan ta'minlash shakllari.
- 6.4 Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida audit va auditorlik taftishini o'tkazish.
- 6.5. «Axborot», «boshqaruva axboroti» tushunchasi, tashkilotning axborot salohiyati.
- 6.6. Tashkilotning axborot tizimi, axborot bilan ishlash texnik vositalari.
- 6.7. Kommunikatsiya turlari va uzatilayotgan axborot oldidagi to'siqlar.
- 6.8. Kommunikatsiyaning mohiyati va elementlari, kommunikatsiya bosqichlari.

### **6.1. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasi turlari**

Respublikamizda kichik tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyat yuritishi va rivojlanib borishi ko'p jihatdan ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarga bog'liq. Kichik tadbirkorlik rivojiga qulay imkoniyatlar yaratadigan shart-sharoitlar orasida infratuzilma xizmatini alohida ajratib ko'rsatish lozim.

«Infratuzilma» so'zi lotin tilidan (infrastructure) tarjima qilinganda «tuzilmadan tashqarida» ma'nosini anglatadi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan infratuzilma mohiyatiga quyidagi izoh ko'proq mos keladi: «inson hayoti va ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida faoliyatlar almashinuvni ta'minlovchi tovarlar va xizmatlar yaratishda o'ziga xos mehnat jarayonlari majmuasi».

Keyingi yillarda infratuzilma yuksak sur'atlari bilan rivojlanib bormoqda. Buni bir qator omillar bilan izohlash mumkin. Xususan, ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari infratuzilmalar rivojidan oldinda bormoqda va bu iqtisodiyotning rivojlanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Infratuzilma

juda keng qarmovli tushuncha bo'lib, bu eng avvalo ishlab chiqarish jarayoniga har taraflama xizmat ko'rsatadigan xizmat turlarini yaratish bilan bog'liq. Infratuzilma bo'linmalari rivojlanib borishidan kichik tadbirkorlik subyektlari katta manfaat ko'radi, negaki bunday bo'linmalar ularni ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ishlardan ozod etib, kuchg'ayratini asosiy faoliyatiga qaratishga imkon yaratadi.


Infratuzilma tomonidan yaratiladigan sharoitlarni o'z navbatida quyidagicha turkumlash mumkin:

- bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatuvchi – moddiy texnika ta'minoti va tayyor mahsulotni sotish, axborotni yig'ish va qayta ishslash, buxgalteriya xizmati.

- texnologik, boshqaruv masalalari bo'yicha maslahat xizmati va boshqalar.

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish shart-sharoitlari – ishchi va xizmatchilaming sog'lig'ini, ta'lim olishi va kasbiy tayyorgarligini, dam olishlarini qo'llab-quvvatlash. Shu paytga qadar infratuzilmani ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalar yig'indisidan iborat deb qarab keligan.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiy tizim kirib kelishi bilan ishlab chiqarish infratuzilmasi ko'lami kengayib, «bozor infratuzilmasi» va «institutsional infratuzilma» so'zлari iste'molga kirib bormoqda (6.1-chizma).



### 6.1-chizma. Biznes va infratuzilma bog'ligi

Bozor infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Uning tarkibiga *yuk transporti*,

*elektr, gaz va suv ta'minoti, ombor xo'jaligi, aloqa, axborot, moddiy- texnika ta'minoti, mahsulotni tashish, saqlash va qayta ishlash, texnik xizmat ko'rsatish, marketing va reklama, axborot-maslahat, auditorlik, moliya-kredit va investitsion kabi xizmat turlari kiradi.*

Ijtimoiy infratuzilma ishlab chiqarish jarayonida ishchi va xizmatchilarga normal mehnat faoliyati yaratish va ishchi kuchini takror hoslil qilish, shuningdek, tadbirkorlarning turli maishiy xizmat turlariga bo'lgan talabini qondirish uchun xizmat qiladi.

## **6.2. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning roli**

Bozor iqtisodiyoti o'tilishi tufayli mamlakatda yangi moliyaviy siyosat ishlab chiqildi va hukumat tomonidan real hayotda amalga oshirilmoqda. Jamiyatdagi har bir iqtisodiy faoliyatning boshlanishi davlatning yaqindan turib bergen moliyaviy yordami tufayli rivojlanib, takomillashib boradi. Jumladan, kichik va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda banklarning rollini oshirib borishga alohida e'tibor beriladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining asosiy faoliyati banklar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular olib borayotgan faoliyat – xomashyoni sotib olish, ishlab chiqarilgan tovarlar, ko'rsatiladigan xizmatlarga haq to'lash, ishlovchilarни ish haqi bilan ta'minlash, turli toifadagi korxonalar, firmalar va boshqalar yuridik shaxslar bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar, ya'ni olingan foydadan, daromaddan soliq to'lash, transport, kommunal xizmatlar uchun to'lovlarning barcha turlari banklar orqali, o'z navbatida, olinadigan kreditlar va boshqa hisob-kitoblar ham banklar orqali amalga oshadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar bank va banklar bilan bo'ladigan turli iqtisodiy munosabatlar unchalik oshkora etilmas edi. Jahon xo'jaligining muhim xo'jalik yuritish qismi bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini barcha faoliyati banklar bilan bog'langanligi bugungi kunda hammaga ma'lumdir.

Banklarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'z mablag'lari bilangina emas, balki omonatchilar va kreditorlar, aksiyadorlar hamda mijozlar ularga ishonib topshirgan mablag'lar bilan, ya'ni keng jamoatchilik bilan ish ko'radi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi eng zarur jamoatchilik muassasalari tizimlaridan biri ekan, har qanday bankning muvaffaqiyatsizligi butun jamiyat miyosida pul taklifi qisqarishi, to'lov tizimi buzilishi hamda hukumat yirik va kutilmagan majburiyatlarning vujudga kelishi kabi salbiy makroiqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni ko'pgina muhim iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi sisatida bank tizimida ham chuqur o'zgarishlarni amalga oshirishini va iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartibga solishning bir butun mexanizmini yaratilishini taqozo etmoqda. Iqtisodiy rivojlanishning o'sishi *bank kreditining* qo'llanilish ko'lamini kengaytirib boradi.

Kredit faqatgina har kunlik faoliyat bilan bog'liq ishlab chiqarish va muomala jarayonining qisqa muddatli ehtiyojlari uchun emas, balki uzoq muddatga kapitalga bo'lgan ehtiyojni qoplashga yo'naltiriladi. Bank kreditining manbai faqat vaqtincha bo'sh mablag'lar va kapital bo'lib qolmasdan, kredit asosida chek-depozit emissiyasi ham amalga oshiriladi. Bank tomonidan beriladigan kredit miqdori mavjud jamg'armalardan ko'p bo'lsa, bank chek-depozit emissiyasini amalga oshirishi mumkin. Bank tizimining muomalaga kredit pullarini chiqarishi depozitlar yaratish yo'li bilan to'laqonli pullar o'mini bosuvchi kredit vositalarini vujudga keltiradi.

Respublika bank tizimini avtomatlashtirish va kompyuterlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida nafaqat bankning ichki ehtiyojlari uchun foydalaniladigan axborot tizimi va lokal dasturlar majmui, balki iqtisodiyotning moliyaviy faoliyatini ta'minlovchi yaxlit milliy to'lov tizimi yaratildi.

Banklar tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalar asosida qulayliklar yaratish maqsadida amalga oshirilib kelinayotgan bir qator chora-tadbirlar ham mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o'z aksini topmoqda.

O'z navbatida, plastik kartochkalar va terminallar yordamida amalga oshirilgan o'tkazmalar hajmini yildan-yilga yuqori sur'atlarda oshirib borish ko'zda tutilgan. Shunga ko'ra amaldagi barcha tegishli me'yoriy hujatlarga, shu jumladan, Markaziy bankning naqd pul muomalasiga taalluqli bo'lgan yo'nqnomalariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Naqd pul muomalasida mavjud bo'lgan barcha cheklolvar bekor qilinishi esa naqd pul va naqd pulsiz hisob-kitoblarni bixillashtirish borasida qo'yilgan muhim qadam bo'ldi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida naqd pul muomalasi yanada mustahkamlanib, naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirishga zamin yaratdi.

Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning banklardagi depozit hisobvaraqlaridan naqd pullarning uzluksiz berib borilishi to'liq ta'minlanib borildi.

### 6.3. Kichik biznes va tadbirkorlikni kredit bilan ta'minlash shakllari

Kichik biznesni kredit bilan ta'minlash deganda, bu ularga pul yoki tovar shaklidagi vositalarni ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar tushuniladi.

#### **Kredit berilish muddatiga ko'ra, uch turga bo'linadi:**

1. Qisqa muddatli kreditlar (muddati bir yilgacha bo'lgan kreditlar).
2. O'rta muddatli kreditlar (muddati bir yildan uch yilgacha bo'lgan kreditlar).
3. Uzoq muddatli kreditlar (muddati uch yildan ortiq bo'lgan kreditlar).

Xalqaro kreditlar berilish muddatiga ko'ra birmuncha farq qiladi. Bunda bir yildan besh yilgacha muddatga berilgan kreditlar o'rta muddatli, besh yil va undan ortiq muddatga berilgan kreditlar uzoq muddatli kreditlar deb hisoblanadi. Kredit obyekti – bu har qanday pul emas, balki faqat vaqtincha bo'sh turgan, berilishi mumkin bo'lgan pullar va tovarlardir.

#### **Kredit to'rt xil vazifani bajaradi:**

**Birinchidan**, pulga tenglashtirilgan to'lov vositalari (masalan, veksel, chek, sertifikat va hokazolar)ni yuzaga chiqarib, ularni xo'jalik oborotiga jalb qiladi.

**Ikkinchidan**, bo'sh pul mablag'larini harakatdagi, ishdagi kapitalga aylantirib, pulni pul topadi, degan qoidani amalga oshiradi.

**Uchinchidan**, qarz berish orqali pul mablag'larini turli tarmoqlar o'rtaida qayta taqsimlash bilan ishlab chiqarish resurslarining ko'chib turishini ta'minlaydi.

**To'rtinchidan**, qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiriladi.

#### **Kreditning quyidagi asosiy shakllari mavjud:**

1. Tijorat krediti.
2. Bank krediti.
3. Iste'molchi krediti.
4. Davlat krediti.
5. Xalqaro kredit.

#### **6.4. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida audit va auditorlik taftishini o'tkazish**

Tadbirkorlarning iqtisodiy faoliyat yuritishlarida moliyaviy va buxgalteriya hisob-kitoblarini to'g'ri amalga oshirishlarida auditorlik firmalari ham muhim rol o'yinaydi. Auditorlik firmalari bozor infratuzilmasining eng muhim elementlaridan biri ho'lib, mulkdorlar va davlatning mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida mustaqil moliyaviy nazoratni amalga oshiradi.

O'zbekistonda audit O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni asosida amalga oshiriladi. Audit – xo'jalik yurituvchi subyektlarni mustaqil ekspertiza va moliyaviy hisobotini tahlil etuvchidir. Buni shunga vakil qilingan shaxslar – auditorlar (auditorlik firmalari) bajaradi.

Auditning asosiy maqsadi – moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining to'g'riligini va ularning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va boshqa me'yoriy hujjatlariga nechog'lik mosligini aniqlashdan, bularning to'la-to'kisligi, aniq-ravshanligi, buxgalteriya hisobi yoki boshqa moliyaviy hisob yuritishga qo'llanilayotgan talablarga nechog'lik monandligini aniqlashdan iboratdir. Audit tarkibiga yana konsalting, ya'ni mijoz bilan shartnoma tuzib, xizmatlar ko'rsatish ham kiradi.

Auditorlik faoliyati xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati ustidan maxsus vakolat olgan davlat idoralarining nazorati o'mini bosmaydi. Auditning asosiy «harakatlanuvchi shaxsi» auditor va auditorlik firmasidir. Auditor belgilangan tartibda auditorlik faoliyati bilan

shug'ullanish huquqini olgan hamda auditorlik kasbi ro'yxatiga kiritilgan mutaxassisidir. Auditorlik firmasi – yuridik va jismoniy shaxs tomonidan tuzilib, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgach, ustaviga ko'ra auditorlik xizmati ko'rsatish bilan shug'ullanadigan tashkilot. Auditorlik firmalari kichik korxonalar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va boshqa korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllarida ochilishi mumkin, ochiq turdag'i aktsiyadorlik jamiyatlar bundan mustasno.

Quyidagilarga auditorlik tekshiruvini o'tkazish taqiplanadi:

- tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari bilan yaqin qarindosh bo'lgan shaxsga;
- tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektda shaxsiy-mulkiy manfaatlari bo'lgan shaxsga;
- xo'jalik yurituvchi subyektning rahbarlariga, muassasalariga yoki mulkdorlariga;
- tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt yoki uning filiallari xodimiga;
- davlat hokimiyyati va boshqaruvi idoralarining mansabdor shaxslariga;
- kreditorlar, investorlar va boshqa manfaatdor shaxslarga.

Auditorlar va auditorlik firmalari davlat ro'yxatidan o'tib, litsenziya olganlaridan keyin faoliyat boshlaydi. Auditorlar va auditorlik firmalari qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasining Adliya Vazirligida davlat ro'yxatidan o'tadi. Auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun litsenziya davlat ro'yxatidan o'tgandan keyin beriladi. Ularni berish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

#### **6.5. «Axborot», «boshqaruva axboroti» tushunchasi, tashkilotning axborot salohiyati**

Biznes faoliyatini yetarli va aniq axborotlarsiz amalga oshirish mumkin emas. Bu axborotlar biznes uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, xabarlar majmuasidan iborat bo'ladi. Axborot ishlab chiqaruvchilar, tovorni sotuvchilar va xaridorlar o'rtaida aloqa shaklidir. Ishbilar-monlar asosan turli xil axborotlar statistik, moliyaviy, operativ, tashkiliy axborotlar, farmoyish tarzidagi axborot, buxgalterlik, marketing axboroti,

ta'minot bo'yicha, xodim-lar bo'yicha, ma'lumotga oid axborot va boshqa axborotlar bilan ishlaydilar.

1. Axborot bu – turli usullarda (og'zaki, yozma, texnik vositalar yordamida) uzatish yo'li bilan takror ishlab chiqarish mumkin bo'lgan, ma'lum bir tilda ifodalangan (belgilar, simvollar, jumladan, moddiy vositaga yozilgan) obyektlar, hodisalar, jarayonlar, atrof-muhitdag'i voqealar haqida har qanday xabarlardir.

Boshqaruv axboroti bu - vaziyatni baholash va boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun foydalilanidigan, boshqariluvchi tizimning (boshqaruv obektining) ichki va tashqi holati to'g'risidagi ma'lumotlar yig'indisi.

2. Hozirgi paytda axborot xuddi an'anaviy resurslar (yer, mehnat, energiya va b.) kabi, olish, qayta ishslash, tarqatish, foydalanish mumkin bo'lgan resurs sifatida ko'rib chiqilmoqda.

*Axborot resursini (salohiyatini)* jamiyatagi ishlab chiqarish va boshqaruvda olinadigan ma'lumotlar sifatida tavsiflash mumkin. Boshqaruv tizimida axborot salohiyatidan tezkor foydalanish ishlab chiqarish hajmi va samaradorligini oshirshiga xizmat qiladi. Axborotlar ummonida yangi bilimni izlab topish bu igna bilan quduq qazigan bilan barobar. Bu masalaning murakkabligini tashkilotdag'i (butun jamiyatdag'i kabi) ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar tezkor va vakolatli boshqaruv qarorlari qabul qilishni tobora ko'proq talab qilinishini yanayam oshiradi. Bunday qaror qabul qilish uchun ulkan hajmdagi axborotlarni qayta ishslash zarur.

Boshqaruvda foydalilanidigan axborotlar xilma-xil bo'lib, ularni turli belgilar bo'yicha tasniflash mumkin:

- aks ettiriladigan munosabatlar turi bo'yicha – iqtisodiy, ijtimoiy, texnik-texnologik, siyosiy;
- aks ettiriladigan obyekt miqyosi bo'yicha – umum davlat, mintaqaviy, mahalliy;
- xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha;
- strukturalanishi bo'yicha – sistemalashtirilgan (ko'rsatkichlar, aniq yo'naltirilganlik bo'yicha va h.k.) va sistemalashtirilmagan;
- muayyan tizimga (tashkilotga) va boshqaruv organiga munosabati bo'yicha – tashqi, ichki, tashkiliy-idora qilish, hisobot va b.;
- axborot vositasining xarakteri bo'yicha – hujjat shaklidagi va verbal.

Axborot to'plash, harakatlantirish, foydalanishda saqlash, qiymat, o'lcham, kommunikativlik, shakllar rang-barangligi kabi ma'lum bir xususiyatlarga ega bo'ladi. Axborotning bu xususiyatlari boshqaruvinning axborot ta'minoti tavsifnomasini tushunishda muhim rol o'yndaydi. Bunday tavsifnomalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: axborotning to'liqligi va qimmatliligi, ishonchliligi, taqdim etish shakli, hajmi, o'z vaqtidaligi, strukturasi. Bu sifatlar birligida tashkilot boshqaruving axborot salohiyatini aks ettiradi.

## **6.6. Tashkilotning axborot tizimi, axborot bilan ishlash texnik vositalari**

**1. Boshqaruv faoliyatining barcha turlari axborot almashinishga asoslangan.**

Zamonaviy tashkilotni boshqarish uchun yuqori samarali axborot texnologiyalarini qo'llash xarakterli. Axborot texnologiyalari (tizimlari) bu – axborot yaratish, to'plash, uzatish, saqlash va qayta ishlash uchun hisoblash texnikasi va aloqa tizimlaridan foydalanishdir.

*Axborot tizimlari* bashorat-tahlil hisob-kitob modellari va matematik statistika tahliliy usullaridan foydalanish bilan birligida axborotni qayta ishlashning texnik vositalaridan foydalanish yo'li bilan ishlab chiqarish jarayoni, axborot va tashkilotning umumiylilik tamoyilini amalga oshiradi. Ishbilarmonlar olamida hozirgi paytda elektron pochta, yangi telefon apparaturasi, telekommunikatsiya vositalari va axborot-kompyuter tarmoqlari keng qo'llanmoqda.

**2. Axborotni to'plash, qayta ishlash, uzatish, olish va saqlash idora texnikalari yordamida amalga oshiriladi. Keng ma'noda idora texnikalari qatoriga oddiy qalamdan tortib shaxsiy kompyuter va hisoblash tizimlarigacha istalgan qurilma va moslamalarni kiritish mumkin.**

«Qog'oz informatikasi»ga yo'naltirilgan, an'anaviy idora texnikalaring dolzarbliyu yuqoriligidcha qolayotgani sababli hujjat shaklidagi axborotlar bilan ishlashning texnik vositalariga misol keltirib o'tamiz.

*Hujjat shaklidagi axborotlar tuzish va tayyorlash* shaxsiy kompyuter va printerlar yordamida amalga oshiriladi. Diktofon va diktofon-kompyuter texnologiyalari ham munosib qo'llanmoqda.

*Hujjatlarni tashish* aravachalar, konveyerlar, lift va pnevmopochta yordamida amalga oshirilishi mumkin.

*Hujjatlarni qayta ishlash vositalari* ko‘plab qurilmalarni qamrab oladi. Bu adreslovchi va markalovchi mashinalar, varaq terish va falsovkalash qurilmalari, qog‘oz kesish, broshyuralash va muqovalash uskunalari, laminator va hokazolardir.

*Hujjatlarni ko‘paytirish va nusxa olish* maqsadlari uchun maxsus texnik vositalar: kserokslar, fotonusxa ko‘chirish vositalari, elektronografik nusxa ko‘chirish, raqamli nusxa ko‘chirish texnologiyalari foydalaniлади. Sifatli poligrafiya mahsulotini tezda olishni ofset bosmasi, rizografiya va boshqa vositalar ta’minlaydi.

*Hujjatlarni saqlash vositalari* qatoriga konvertlar, stellaj, shkaf-registrator, tortma va bloklar, seyflar va boshqalar kiradi.

*Axborot* (boshqaruv apparatining ishini takomillashtirish, mahsulot sifatini oshirish bo‘yicha takliflar) *to‘plash* anketa so‘rovlari, pochta qutilari, telefon aloqasi, og‘zaki so‘rovlari, majlislar va hokazolar yordamida amalga oshiriladi.

Zamonaviy menejment yangi axborot texnikasi – barcha shakl va ko‘rinishlarda qog‘oz va elektron shakldagi axborot bilan ishlash uchun foydalaniладиган vositalarga asoslanadi.

## **6.7. Kommunikatsiyaning mohiyati va elementlari, kommunikatsiya bosqichlari**

**1. Kommunikatsiya** deganda ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasida axborot almashinish tushuniladi. Shu sababli kommunikatsiyalar bog‘lovchi jarayonlar deb ataladi. Kommunikatsiyalar umumiyoqini ichidan boshqaruv jarayoni uchun foydali axborotni tezlik bilan tanlay oladigan boshqaruvchi samarali menejer hisoblanadi.

*Kommunikatsiyalarning to‘rtta asosiy elementi* ajratib ko‘rsatiladi:

- 1). Axborot jo‘natuvchi;
- 2). Xabar – axborot mazmuni;
- 3). Axborot uzatish kanali;
- 4). Axborot oluvchi – adresat.

Axborotni jo‘natuvchidan oluvchiga uzatish jarayonida xabar buzib ko‘rsatilishi yoki yo‘qotilishi mumkin.

**2. Kommunikatsiya** jarayonida *axborot almashinish* bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi:

- xabar g‘oyasini shakllantirish;

- xabarni kodlash va kanal tanlash;
- xabarni uzatish;
- xabarni qayta kodlash.


Qayta kodlash jarayonida jo‘natuvchining simvollari axborot oluvchi uchun tushunarli holga keltiriladi. Xabar olinganligini tasdiqlash uchun axborot oluvchi qaytuvchan aloqa tartibida jo‘natuvchiga mos keluvchi xabar yuboradi. Qaytuvchan aloqa boshlang‘ich xabar qanchalik to‘g‘ri qabul qilinganini va tushunilganini bilihsiga imkon beradi.

**3. Kommunikatsiyalar ikkita katta guruhgaga taqsimlanadi (6.2-chizma):**

- tashkilot va tashqi muhit o‘rtasidagi axborot;
- tashkilotdagi ichki axborotlar.

#### **Tashkilot ichki axborotlari**

#### **Tashkilot**



#### **Tashqi muhiti axborotlari**

### **6.2-chizma. Kommunikatsiya turkumlanishi**

Birinchi guruh tarkibiga ommaviy axborot vositalari, iste’molchi, davlat tartibga solish va sifatni nazorat qilish organlari, soliq xizmati, ta’mintochilar, siyosiy partiyalar va hokazolar kiradi. Kishilar o‘rtasida muloqot va muhokama shaklida tashkilotdagi qator ichki kommunikatsiyalar tashqi kommunikatsiyalar natijasi hisoblanadi.

Ikkinci guruhga bo‘linmalar o‘rtasida vertikal bo‘yicha va gorizontal bo‘yicha kommunikatsiyalar; ishlab chiqarish va boshqaruv darajasi bo‘yicha bo‘linmalardagi ichki kommunikatsiyalar; shaxslararo formal va noformal muloqotlar kiradi.

Rahbar qo'lostidagi xodim va rahbar qo'l-ostidagi xodimlar kommunikatsiyalarini alohida ajratib ko'rsatish zarur.

Qo'l ostidagi xodimlar o'rtasida o'z qarorini amalgaga oshirar ekan, rahbar bunda ularning ro'y beradigan reaksiyalarini boshqara olishi lozim. Ular yoki uning qarorini qo'llab-quvvatlashi, yoki qaramaqarshiliklarda namoyon bo'lishi mumkin. Hisoblanadiki, rahbarning qarorini to'liq qo'llab-quvvatlash bu - tashkilot yoki bo'linmada ahvolning u qadar yaxshi emasligidan darak beradi.

## **6.8. Komunikatsiya turlari va uzatilayotgan axborot oldidagi to'siqlar**

1. Menejment funksiyasi sifatida tashkilot boshqaruva faoliyatining tarkibiy qismi bo'lib, uning mohiyati qo'l ostidagi xodimlar va bo'linmalar harakatlarini muvofiqlashtirish, boshqaruvchi va boshqarilayotgan tizim o'rtasida o'zaro muvofiqlikka erishishdan iborat. Tashkiliy funksiyani bajarish jarayonida axborotning ishlab chiqarish va boshqaruva darajalari bo'yicha harakatlanishi buzib ko'rsatishga (to'siq) duch kelib, ular qasddan qilinmagan yoki atayin qilingan bo'lishi mumkin.

*Qasddan qilinmagan buzib ko'rsatishlar* boshqaruva strukturasining yaxshi o'ylab chiqilmaganligi, axborot bilan ortiqcha yuklanganlik, shaxslararo muloqotlardagi qiyinchiliklar, xatolar va hokazolar bilan izohlanadi.

*Atayin qilingan buzib ko'rsatishlar* odatda axborotni filtrlash – faqat yaxshi yangilik va ma'lumotlarni xabar qilish, jazodan qo'rqish bilan bog'liq.

Kommunikatsiyalar jarayoniga shuningdek, ayrim bo'linmalar o'rtasidagi yomon munosabaflar, ayrim xodimlar va rahbarlar o'rtasida mojaroli vaziyatlar ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2. Shaxslararo kommunikatsiyalar rahbarning ko'p vaqtini oladi. Gap suhbat qurish yo'li bilan to'g'ridan-to'g'ri shaxslararo axborot almashimish haqida ketmoqda.

Shaxslararo kommunikatsiyalar samaradorligi yo'lida axborotni qabul qilishda buzib ko'rsatishlar, semantik to'siqlar, sifatsiz qaytuvchan aloqa kabi to'siqlar vujudga keladi.

Odamlar bilimi, tajribasi, e'tiqodi, ruhiy holati har xilligi tufayli bir xil axborotni turlicha o'zlashtiradilar. Bu axborot tanlab qabul qilishning

sababi hisoblanadi. Kommunikativ jarayonga ochiqlik darajasi, qo'l ostidagi xodimga ishonch darajasi, xolis emaslik,adolatsizlik ta'sir ko'rsatadi.

*Shaxslararo kommunikatsiyalarda to'siq sifatida ko'pincha semantik noaniqliklar – so'zlarni (belgilarni) bir manoda tushunmaslik, shuningdek, noverbal axborot (nutq ohangi, mimika, imo-ishoralar, poza) namoyon bo'ladi.*

Kommunikatsiyalarning samarasiz bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun axborot almashinishga kirishuvchi shaxslar quyidagi tavsiyalarga rioya qilishlari lozim:

- uzatish uchun mo'ljallangan axborot mazmunini o'ylab chiqish;
- tanlab olingan so'z, foydalanilayotgan intonatsiya, poza va imo-ishoralarning aniqligiga e'tibor qaratish;
- hamsuhbat, xabar oluvchining hissiyotlariga yoki ijro uchun ko'rsatmalarga e'tiborli bo'lish;
- qaytuvchan aloqa o'matishg harakat qilish.

### **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Kommunikatsiya, Semantika, Kredit, Infratuzilma, Emissiya, Axborot texnologiyalari, Audit, Litsenziya, Institutsional infratuzilma, Bozor infratuzilmasi, Bank muassasasi.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Bankning passiv va aktiv operatsiyalarining mohiyatini ayтиб беринг?
2. Banklar bilan tadbirdorlar о'rtaсидаги valuta operatsiyalari qандай бajariladi?
3. Kichik biznes va tadbirdorlikni rivojlantirishda axborotlar tizimidan qандай foydalanadilar?
4. Kichik biznes va tadbirdorlik subyektlarini soliqqa tortish, ulardan olinadigan soliq turlari va soliq imtiyozlarini *klaster usulida* chizib беринг.
5. Kichik biznes va tadbirdorlik subyektlarida audit va auditorlik taftishini kim tomonidan о'tkaziladi?

6. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida axborot turlari va ularni avzalliklarini *T-Toifali jadval usulida* yoritib bering.
7. Shaxslararo kommunikatsiyalarda to'siq deganda nimalar tushuniladi?
8. Kommunikatsiyalarning samarasiz bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun qanday tavsiyalarga rivoja qilmoq lozim?
9. Qay rusumda va qanaqa vaziyatlar negizida axborotning buzib ko'rsatilishiga duch kelishimiz mumkin?
10. Kommunikatsiyalar nechta asosiy elementlardan tashkil topgan va ular nimalardan iborat?
11. Axborotni to'plash, qayta ishslash, uzatish, olish va saqlash vositalariga nimalar kiradi?
12. Axborot tizimlari vazifasi bo'yicha ma'lumot bering.
13. Boshqaruvda foydalaniladigan axborotlar xilma-xil ho'lganligi tufayli, ular nimalar orqali tasniflanishi mumkin?
14. Axborot texnologiyalari (tizimlari) bu ... – jumlani davom ettiring.
15. «*Infratuzilma*» so'zi ma'nosi va iqtisodiy nuqtayi nazardan infratuzilma mohiyati qanday izohlanadi?
16. Kredit bilan ta'minlash deganda nima nazarda tutiladi?
17. Auditning asosiy maqsadini so'zlab bering.
18. Qanday vaziyatda auditorga auditorlik tekshiruvini o'tkazish taqiqланади?
19. Kreditning qanday asosiy shakllari mavjud?
20. Kredit vazifasi nimada?

## **7. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA MAHSULOT TANNARXI TAHLILI**

- 7.1. Xarajatlar to‘g‘risida umumiy tushunchalar.
- 7.2. Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi.
- 7.3. Doimiy va o‘zgaruvchan xarajat turlari.
- 7.4. Xarajatlarning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar.
- 7.5. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning asosiy yo‘nalishlari.
- 7.6. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan va kirmaydigan xarajatlar.
- 7.7. Mahsulot tannarxini hisoblash usuli va uni pasaytirish yo‘llari.

### **7.1. Xarajatlar to‘g‘risida umumiy tushunchalar**

Milliy iqtisodiyotdagи ishlab chiqarish birliklari (korxona, firma) o‘z faoliyati natijalaridan ko‘proq daromad olishga harakat qiladi. Har qanday korxona nafaqat o‘zining tovarini ancha yuqori baholarda sotishga, balki mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan sarf-xarajatlarni kamaytirishga ham intiladi.

Inson hayot kechirishi uchun moddiy ne’matlar va xizmatlar taqozo qilinadi. Moddiy ne’matlar yaratish o‘z navbatida xarajat qilishni taqozo etadi. Har bir korxona, firma, (xo‘jalik subyektlari) tovar ishlab chiqarish uchun ma’lum iqtisodiy resurslar xarajatini talab etadi. Iqtisodiy xarajatlar tushunchasini eng avallo resurslar cheklanganligini hamda ularni muqobil (alternativ) ishlatalish imkonini bilan bog‘liq. Masalan, yer resurs sifatida cheklangan. Undan turli maqsadda foydalanish mumkin. Uy qurish, korxona qurish, turli ekinlar ekish va h.k. Har bir xo‘jalik subyekti u yoki bu resursni sotib olib ishlatar ekan, demak bu resursni boshqalar ishlata olmaydi. Resurslarni sotib olgach uni samarali ishlatalish uchun harakat qiladilar. Xarajatlar korxona, firma faoliyatiga baho berishda, yetakchi ko‘rsatkich hisoblanadi.

Tovarlarni sotish baholari asosan korxona faoliyatiga bog‘liq bo‘limgan tashqi sharoitlar bilan belgilansa, ishlab chiqarish sarf-xarajatlari korxonaning ishlab chiqarish va tayyor tovarlarni sotish jarayounlarini tashkil qilish samaradorligi darajasiga bog‘liq. Lekin har

qanday tovarni ishlab chiqarish va sotish uchun ma'lum sarf-xarajatlar talab etiladi.

Korxonalar faoliyat yuritish jarayonida moddiy va pul xarajatlarini sarflaydilar. Korxonaning umumiylar xarajatlari ichida ishlab chiqarish xarajatlari eng katta salmoqqa ega. Ishlab chiqarish xarajatlari majmuasi korxonaga mahsulot ishlab chiqarish qanchaga tushishini ko'rsatadi, ya'ni mahsulotning ishlab chiqarishi tannarxini tashkil qiladi.

Korxonalar, shuningdek, mahsulotni sotish bo'yicha xarajatlarini, ya'ni ishlab chiqarishdan tashqari yoki tijorat (tashish, qadoqlash, saqlash, reklama qilish va hokazo) xarajatlarini ham amalga oshiradilar.

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxini tashkil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra, quyidagi elementlarga asosan guruhlarga taqsimlanadi:

- ❖ moddiy xarajatlar;
- ❖ asosiy fondlar amortizatsiyasi;
- ❖ mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- ❖ ijtimoiy ehtiyojlarga mo'ljallangan xarajatlar;
- ❖ boshqa xarajatlar.

Moddiy xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarining eng katta qismi bo'lib, umumiylar xarajatlarning 60- 80 foizini tashkil qilishi mumkin. Moddiy xarajatlar o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- ❖ xomashyo va materiallar xarajatları;
- ❖ texnologik maqsadlar va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanuvchi yoqilg'i va energiya;
- ❖ xarid qilinuvchi butlovchi qismlar va yarim tayyor mahsulotlar;
- ❖ sotib olingan qadoqlash va o'rov materiallari xarajatları;
- ❖ mashina va asbob-uskunalarni ta'mirlash uchun ehtiyojot qismlar;
- ❖ boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ishlab chiqarish xizmatlari;
- ❖ xizmat davri bir yilgacha bo'lgan kichik qiymatli va tez eskiruvchi predmetlarning eskirishi
- ❖ yoki har bir instrument, inventar, laboratoriya uskunalarini va maxsus kiyim-bosh uchun eng kam oylik
- ❖ ish haqining 50 baravar miqdorigacha qiymati;
- ❖ tabiiy xomashyodan foydalanish bilan bog'liq soliq, yig'im va boshqa to'lovlar;
- ❖ ishlab chiqarishda bekor turib qolish va sisfatsizlik (brak) tufayli yuzaga keladigan yo'qotishlar;

- ❖ tabiiy yo‘qotishlar bilan bog‘liq bo‘lgan yoki aybdor shaxslar mavjud bo‘lmagan holda yuzaga
- ❖ keladigan yo‘qotishlar

Qisqacha qilib aytganda **firmaning xarajati - bu tovar va xizmatlar yaratish va ularni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan sarflardir.** Firmaning xarajatlari safiga biz firmaning ishlab chiqarish xarajatlarini kiritishimiz mumkin.

## **7.2. Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi**

Oldingi paragrafdagi tushunchadan kelib chiqsak, ishlab chiqarish xarajatlari deganda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste’mol-chilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflar tushuniladi. Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari tarkibiga xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg‘i va energiya uchun qilingan xarajatlar, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalari, foiz to‘lovleri va boshqa xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarishga qilingan barcha sarf-xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlarini ikkiga bo‘lib o‘rganish mumkin (7.1-chizma):


- **bevosita ishlab chiqarish xarajatlari**
- **muomala xarajatlari**

Tovar birligining qiymatida ishlab chiqarish xarajatlari faqat uning bir qismini tashkil qlladi. Ishlab chiqarish xarajatlari tovar qiymatidan foyda miqdoriga kam bo‘ladi. Muomala xarajatlari tushunchasi tovarlarni sotish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, shu tovarlarni ishlab chiharuvchidan olib, iste’molchiga yetkazilguncha ketadigan sarflarga aytildi.

Ular ikki guruhg‘a bo‘linadi:

- **qo‘srimcha muomala xarajatlari**
- **sof muomala xarajatlari.**

Tovarlarni o‘rash, qadoqlash, saralash, transportga ortish, tashish va saqlash xarajatlari qo‘srimcha muomala xarajatlari hisoblanadi. Muomala xarajatlarining bu turlari ishlab chiqarish xarajatlarining davomi hisoblanib, tovar qiymatiga kiradi va uning qiymatini oshiradi. Xarajatlar tovarlar sotilgandan keyin olingan pul tushumi summasidan qoplanadi.



### 7.1-chizma. Xarajatlarning namoyon bo'lish sohasiga ko'ra turkumlanishi

Sof muomala xarajatlari sotuvchi maoshi, marketing (iste'molchilar talabini o'rganish), reklama va shu kabi xarajatlardan iborat bo'ladi. Sof muomala xarajatlari tovar qiymatini oshirmaydi va ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tovarni sotgandan keyin olingan foyda hisobidan qoplanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining ikkinchi yo'nalishdagi konsepsiyalari marjinalistlar va neoklassiklar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular bu boradagi klassik nazariyalarни ham ma'lum darajada hisobga oladilar. Biroq, bu konsepsiyalarning o'ziga xos tomoni shundaki, ular ishlab chiqarish xarajatlarini tushuntirishda resurslarning cheklanganligi va ulardan muqobil foydalanish imkoniyatlaridan kelib chiqadilar.


Ma'lumki, muayyan bir resursni ishlab chiqarishning biron-bir yo'nalishi bo'yicha sarflanishi endilikda bu resursdan boshqa yo'nalishlarda foydalanish imkoniyatini cheklab qo'yadi. Shunga ko'ra, tadbirdor (yoki resurs egasi) mazkur resursni eng yuqori darajada naf keltiruvchi yo'nalishga sarflashga harakat qiladi.

Iqtisodiy resurslarni eng yuqori naf olish maqsadida boshqa muqobil yo'nalishlarda ishlatalishiga yo'l qo'ymay o'ziga jaib etish uchun to'lov iqtisodiy yoki zimmasiga tushuvchi xarajat deb ataladi.

Iqtisodiy xarajatlar mikrodarajadagi iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, korxona (firma) miyosida muayyan turdag'i mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning samaradorlik darajasini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Marjinalistik sarf-xarajatlar nazariyasi bo'yicha korxona ishlab chiqarish jarayonida foydalananiladigan resurslar o'z resurslari yoki jaib qilingan resurslar bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra xarajatlar:

- ichki
  - tashqi
- xarajatlarga bo'linadi (7.2-chizma).



**7.2-chizma.** Xarajatlarning jaib etilish manbaiga ko'ra turkumlanishi

**Tashqi xarajatlar korxona uchun zarur resurs va xizmatlarni tashqaridan to'lov asosida jalb etishi natijasida vujudga keladigan xarajatdardir.** Bunday xarajatlarga yollanma ishchilar ish haqi, xomashyo va materiallar uchun to'lovlar, kredit uchun foiz to'lovlari, ijara olingan yer uchun renta, transport xizmati va boshqa har xil xizmatlar uchun to'lovlar kiradi. Tashqi xarajatlar to'lov hujjatlari bilan chizmaiylashtiriladi, shu sababli buxgalteriya xarajatlari deb ham ataladi.

**Korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan foydalanishi bilan bog'liq xarajatlar ichki xarajatlar deyiladi.**

Bunday xarajatlar pul to'lovlari shaklida chiqmaydi. Shu sababli ichki xarajatlar darajasini baholash o'z resurslari qiymatini shunga o'xshash resurslarning bozordagi narxlariga taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Xarajatlarni doimiy ravishda pasaytirib borish korxona foydasini oshirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Zero mahsulot bahosi tarkibining asosiy elementlari bu xarajat va foydadir. Binobarin, xarajatlar qanchalik qisqarib borsa shunga mos foya miqdori oshib boradi.

Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatini ishlab turish uchun zarur bo'lgan to'lov – normal (me'yordagi) foya ham renta va ish haqi bilan birga xarajatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

### **7.3. Doimiy va o'zgaruvchan xarajat turlari**

Mutaxassislar xarajatlarga turli nuqtayi nazaridan turlicha qaraydilar. Buxgalterlar firmalarni faoliyatiga aktiv va passiv nuqtayi nazaridan baho berib firmanın faoliyatini baholaydi. Iqtisodchi va rahbarlar esa firmalarning kelajagi bilan qiziqqan holda xarajatlarga ishlab chiqarishni samaradorligini uzlusiz olib borish nuqtayi nazaridan qaraydi xarajatlar turlicha bo'ladi. Haqiqiy xarajatlar, mahsulot ishlab chiqarish qilingan barcha xarajatlar kiradi. Masalan: ish haqi, amortizatsiya xarajatlari va boshqalar.

Har bir korxona, firma, tadbirkor shaxs o'z ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda bir qancha masalalarni hal qilishga to'g'ri keladi. Jumladan, qancha xomashyo sotib olish kerak, qancha ishchi yollash lozim, qancha ishlab chiqarish vositalari lozim va h.k. Mana shunga o'xshash masalalarni 3 guruhga taqsim etish mumkin.

1. Mavjud ishlab chiqarish quvvatlari asosida qanday qilib ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin?

2. Fan-teknika taraqqiyotining erishilgan yutuqlariga ko'ra qanday yangi quvvatlarni jalb etish mumkin?

3. Texnika taraqqiyotiga burilish bo'ladigan yangiliklarga qanday tartibda moslashish mumkin?

Endi qisqa muddatli davrdagi firma faoliyati xarakteri to'g'risida fikr yuritamiz. Eng avvalo xarajatlar to'g'risida quyidagi tushunchalarni bilishimiz kerak:

1. **Umumiy xarajatlar** (TC) – bu firmanın ma'lum turdagı mahsulotini ishlab chiqarish uchun qilingan jami xarajatidan iborat. Umumiy xarajatlar ikki qismdan iborat (7.3-chizma):


- **umumiy doimiy xarajat** (TFC)

- **umumiy o'zgaruvchan xarajatlar** (TUC)

Ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga (qisqarish yoki ortishi) bog'liq bo'limgan tovarlarning xajmiga ta'sir etmaydigan xarajatlar **doimiy xarajatlar** deyildi.

Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmaydi, uning o'sishiga ham bevosita ta'sir etmaydi va ishlab chiqarishning har qanday, hatto nolinchı hajmida ham mavjud bo'ladi. Bunga korxonaning to'lov majburiyatları (zayomlar bo'yicha foiz va boshqa), soliqlar, amortizatsiya ajratmalari, ijara haqi, qo'riqlash xizmatiga to'lov, uskunalarga xizmat ko'rsatish sarflari, boshqaruv xodimlari maoshi va shu kabilar kiradi.

**Doimiy xarajat** – bular shunday xarajatlarki, ularning miqdori ishlab chiqarishning oz yoki ko'p bo'lishiga qarab o'zgarmaydi, balki qanday bo'lsa, shundayligicha qolaveradi. Masalan: tikuvchilik firmasi binoni 1mln so'mga ijaraga oldi. Bankdan 5mln so'm qarz ko'tarib yiliga 1,0mln so'm foiz to'laydi, hisobchini ishga olib oyiga 75 ming so'm, yiliga esa 900 ming so'm ish haqi to'laydi. Bu xarajatlar jami 2,9mln so'mni ( $1.0+1.0+0.9=2.9$ ) tashkil etadi. Firma 100 ta yoki 500 ta ko'ylak tikmasin, baribir shu 2.9 mln so'm xarajatni qilishi shart. Doimiy xarajatlarga odatda amortizatsiya ajratmasi, doimiy ishga olinganlarning maoshi, ijara haqi, korxona mulkini sug'urtalash puli, bankga beriladigan foiz kabilar kiradi.



**7.3-chizma.** Umumi xarajatning tuzilishiga qarab turkumlanishi

**O'zgaruvchi xarajatlar-- ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir qiladigan xarajatlarga aytildi.**

## **7.4. Xarajatlarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar**

**Xarajatlarning o'zgarishi** – xarajatlarning qaysi yo'nalishda o'zgarishini bilish firmaga qancha ishlab chiqarganda qanday foyda ko'rish mumkinligini aniqlashga yordam beradi.

Xarajatlar o'zgarib turadi, bu esa resurslarning bozor narxiga, ularning tejalishiga, haralatlar turlarining nisbatiga va ishlab chiqarish ko'lamiga bog'liqdir. Xarajatlarga ta'sir etuvchi omillar ikki guruhga bo'linadi:

Birinchisi, firmaga bog'liq omillar, bu ishlab chiqarish ko'lamini o'zgartirish, resurslarni tejab ishlatish.

Ikkinchisi, firmaga bog'liq bo'limgan omillar, bularga resurslar narxi va soliqlar kiradi.

Bir yorqin misol tariqasida firmanın ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir etuvchi omillarni ko'rib chiqamiz


### **Ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir etuvchi omillar (7.3-chizma).**

Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish chuqur tanglikni chetlab o'tishga intilishga, fan va texnikaning ilg'or texnologiyaning eng yangi yutuqlarini izlash va joriy etishga undaydi.

Bularning barchasi pirovard natijada keskin raqobatchilik sharoitida ishlab chiqarishning barqarorligiga erishishga inqirozning oldini olishga yo'naltirilgan. Bu holat kengroq qurilganda, bozorda talab bilan taklif o'tasida qulay muvozanatning ta'minlanishiga olib keladi. Bizga kapitalistik ishlab chiqarish usulining eng katta nuqsoni illati sifatida targ'ib qilib iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning quadratli omiliga aylanmoqda.

Shuning uchun ham mustaqillikga erishganimizdan keyin, prezidentimizning oqilonqa fikrlari, ularning tashabbuslari bilan eng asosiy e'tibor shu sohaga qaratiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlariga yuqorida sanab o'tilgan muhim omillar ta'sir etar ekan, bularning barchasini birgalikda amalga oshirish juda qiyin. Masalan: xomashyo zaxiralaring eng arzon kanallarini qidirib topish va samarali ishlatishni ta'minlash, ishchilarini ijtimoiy muhofazalashni kuchaytirish, fan-texnika taraqqiyotini yuksaltirib, uni ishlab chiqarishga tadbiq qilish, umuman bularni baravariga amalga oshirish murakkab jarayondir. Lekin, shu omillarni barchasini birgalikda olib borilishi iqtisodiy samaradorlikka erishishning asosiy sharti hisoblanadi.



**7.4-chizma.** Ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir etuvchi omillar

#### **7.5. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning asosiy yo'nalishlari**

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining uzluksiz pasayishi bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish usulining qonuniyatidir. U mehnat unumdarligining to'xtovsiz o'sishi, mehnatkashlar madaniy, texnikaviy

darajasini yuksalishi, moddiy va mehnat resurslaridan ratsional foydalanish, xo'jalik yuritish usullarining takomillashtirishi bilan ta'minlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish uchun kurashning axamiyati yildan yilga oshib bormoqda, chunki uni pasaytirishning har bir foizning absolyut hajmi o'sib bormoqda. Umuman Respublika bo'yicha sanoat mahsuloti tannarxini faqat 1% ga pasaytirilsa 3 mld. so'm miqdorida iqtisod qilinadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining pasaytirishning yo'llarini keltiramiz. Ishlab chiqarish xarajatlarining pasaytirishda ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini oshirish katta ta'sir ko'rsatadi. Yangi texnikani joriy qilish va mahsulot tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish jarayonlari xarajatlarning kamayishlga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Ular moddiy resurslardan yanada samaraliroq foydalanish, buyumlarni tayyorlashga ketadigan mehnat sarfini kamaytirish imkonini beradi.

Amaldagi jihozlarni zamонавиylashtirish hamda qo'llanilayotgan texnikadan foydalanishni hisobga olgan holda ishlab chiqarish xarajatlarini anchagina kamaytirishga erishish mumkin. Yangi texnika va progressiv texnologiya asosida o'tgan va jonli mehnatni tejashga erishiladi. Moddiy resurslarda buyumlashgan o'tgan mehnatni tejash xuddi shu miqdordagi xomashyo va materiallardan ko'proq mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi; jonli mehnat sarfini tejash mahsulot unumdarligini oshirish imkonini beradi, ya'ni har bir ishchiga hisoblaganda ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga imkon yaratadi. Bunga fan-teknika taraqqiyoti yordam beradi. Yangi texnika va ilgor texnologiya ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish asosida mehnat unumdarligi oshib boradi bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga olib keladi.

#### **7.6. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan va kirmaydigan xarajatlar**

Tannarxda korxona ishlab chiqarish faoliyatining sifat ko'rsatkichlari – ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligi, ishlab chiqarish texnologiyasi va mehnatni tashkil etish darjasasi, korxonani tejamkorlik bilan va oqilona yuritish omillari, mahsulot ishlab chiqarishni yuksaltirish sharoitlari o'z aksini topadi.

Mahsulot tannarxini hisoblashdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – uni ishlab chiqarishga sarflangan haqiqiy xarajatlarni tegishli hujjatlarda o'z vaqtida, to'liq va ishonchli aks ettirish hamda moddiy, mehnat va

moliyaviy resurslardan tejamkorlik asosida, oqilona foydalanish ustidan nazorat o'matishdir.

Mahsulot tannarxi korxona xarajatlari tushunchasidan farq qiladi. Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish, sotish va boshqa moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijasida yuzaga keladigan barcha xarajatlari mahsulot tannarxiga kiritilmaydi. Mahsulotning (ishning, hizmatning) ishlab chiqarish tannarxiga uni bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lган xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo'ladi:

- bevosita moddiy xarajatlar;
- bevosita mehnat xarajatlar;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lган bilvosita ustama xarajatlar.

Bu xarajatlarning ko'pchiligini naturada, ya'ni dona, kg, metr va boshqa ko'rinishlarda hisobga olib borish va rejalashtirish mumkin. Ammo, mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan barcha xarajatlarni birlgilikda hisobga olish uchun ularni yagona o'lchov birligiga – qiyamat-pul ko'rinishiga keltirish talab etiladi.

Ayrim turdag'i ishlab chiqarish xarajatlarini yaratilayotgan mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri kiritish mumkin. Unga ishlab chiqarishdagi ishchilarning ish haqini va iste'mol qilingan moddiy resurslar sarfini kiritish mumkin. Bunday xarajat turlari bevosita ishlab chiqarish xarajatlar deb yuritiladi.

Ikkinci bir xarajat turlari bir necha xil mahsulot yetishtirish jarayonida ishtirok etishi tufayli (masalan, bir necha xil ekinlarga o'g'it tashigan traktor amortizatsiyasi) ularga ketgan xarajatlarni shu mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi ishtirokiga mutanosib taqsimlashga to'g'ri keladi. Bunday xarajatlar bilvosita ishlab chiqarish xarajatlar yoki ishlab chiqarishga tegishli ustama xarajatlar deb yuritiladi.

Korxonada rejadagi (biznes-rejada belgilangan) va haqiqiy (hisobot bo'yicha haqiqatda erishilgan) tannarx hisoblab borilishi mumkin. Bu rejalashtirilgan ishlab chiqarish xarajatlarini haqiqatda erishilgan daraja bilan solishtirish, ortiqcha moddiy va mehnat resurslari sarflariga yo'l qo'yilgan yoki tejamga erishilganini aniqlash va kelgusida tegishli xulosalar chiqarishga imkon beradi.

«*Mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar*» moddasiga yuqorida keltirilgan moddalarda aks etmagan, ammo ishlab chiqarishga taalluqli bo'lган quyidagi boshqa xarajatlar kiritiladi:

- ishlab chiqarishni xomashyo, materiallar, yonilg'i, energiya, instrument, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta'minlash xarajatlari;
- chetdan jalb etilgan korxonalar tomonidan amalga oshirilgan korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, o'rtacha, joriy va mukammal tuzatish xarajatlari);
- ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo'lgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlari;
  - ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog'liq mehnatning normal sharoitlarini va texnika xavfsizligini ta'minlash xarajatlari;
  - ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qolishi munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarisiz to'lanadigan nafaqalar;
  - xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog'liq xarajatlari;
    - ekinlar, chorva mollari va ishlab chiqarish vositalarini majburiy sug'urtalash xarajatlari;
    - yong'inga qarshi, ekinzorlar, asosiy vositalarni qo'riqlash xarajatlari;
      - ishchilarga bepul beriladigan maxsus kiyim - bosh (xalat, kurtka, etik, fartuk va boshqa), oziq - ovqat xarajatlari;
      - mollarning tagini quruqlashga sepiladigan somon, qirindi va boshqa material xarajatlari;
      - fermalar atrofini devor bilan o'rash, chorva mollari uchun yozgi soyabon va otarlar qurish xarajatlari;
      - ishlab chiqarish ahamiyatiga ega boshqa xarajatlari.

Har bir korxona uchun mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlarini izlab topish iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi. Chunki, mahsulot tannarxi qanchalik arzon bo'lsa, shunchalik korxona oladigan foyda miqdori oshib boradi.

## **7.7. Mahsulot tannarxini hisoblash usuli va uni pasaytirish yo'llari**

Mahsulot (ishlab chiqarish) tannarxi bir turdag'i mahsulotni bevosita va bilvosita ishlab chiqarish jami xarajatlarini shu mahsulot miqdoriga bo'lish orqali topiladi:

$$MT = (MX+IX+ST+A+BIX) / M$$

Bu yerda:

MT – mahsulot tannarxi, so‘m / dona, so‘m / kg va boshqa;

MX – jami ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari, so‘m;

IX – jami ishlab chiqarish xususiyatidagi mehnatga haq to‘lash xarajatlari, so‘m;

ST – jami ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urta to‘lovlar, so‘m;

A – asosiy vositalar amortizatsiyasi, so‘m;

BIX – boshqa ishlab chiqarish xarajatlari, so‘m;

M – mahsulot miqdori, sentner, dona, kg, tonna, ming tn va hakazo.

Mahsulot tannarxini aniqlashda hisoblash obyektlarini bilish muhimdir. Unga qilingan xarajatlarni alohida hisobga olish mumkin bo‘lmaganligidan, umumiy ishlab chiqraish xarajatlarini hisoblash obyektlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlash muximdir.

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan ishlab chiqarish xarajatlari xarajat elementlari va moddalari bo‘yicha guruhlarga ajratiladi. Bunday guruhlar:

- rejalashtirilgan mahsulot ishlab chiqarishning moddiy va mehnat sarflariga ehtiyojni aniqlash;
- xarajatlarni iqtisodiy mazmuniga ko‘ra taqsimlash;
- umumiy ishlab chiqarish xarajatlari miqdorida u yoki bu xarajat elementlarining ulushini aniqlash imkonin beradi.

Masalan, buxgalteriya hisobida mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuni va umumiylig xususiyatlariga ko‘ra quyidagi elementlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlar.

Iqtisodiy hisob-kitoblarda mahsulot tannarxini rejalashtirish va hisoblashda xarajatlarni hisoblash moddalari bo‘yicha guruhlash qabul qilingan. Sanoat korxonalaridan mahsulot tannarxini hisoblash moddalari quyidagilardan tashkil topadi.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajat elementlari va hisoblash moddalari orasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud.

## **Mahsulot tannarxini pasaytirish yo'llari**

Mahsulot tannarxini pasaytirish yo'llari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- ishlab chiqarishga yuqori unumli, ishonchli va arzon ishlab chiqarish vositalarini joriy etish;
- asosiy aylamma fondlardan oqilona va samarali foydalanish;
- ishlab chiqarishning material sig'imini kamaytirish va tejamkorlikka erishish;
- mashina va texnikalarning kunlik va yillik ish unumini ko'tarish;
- resurslarni tejovchi va chiqimsiz texnologiyalardan keng foydalanish;
- ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning ilg'or shakllaridan foydalanish;
- mehnat unumtdorligini oshirish;
- mahsulotlar sifatini oshirish va nobudgarchilik, yo'qtoshlarga yo'l qo'ymaslik;
- qishloq xo'jaligida ekinlar hosildorligi va chorva mollari mahsultdorligin oshirish va boshqalar.

## **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Firmaning xarajati, Mahsulot tannarxi, Moddiy ne'mat, Muqobil, Muomala xarajatlari, Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari, Amortizatsiya, Konsepsiya, Marjinalistik nazariyasi, Korxona foydasi, Renta, O'zgaruvchi xarajatlar, Doimiy xarajat, Foyda, Fan-texnika taraqqiyoti, Mehnat unumtdorli, Texnikaviy daraja, Texnologiya, Resurslaridan foydalanish samaradorligi, Tejamkorlik, Ustama xarajatlar, Solishtirish usuli, Joriy va mukammal tuzatish, Mahsulot (ishlab chiqarish) tannarxi, Xarajatlarning iqtisodiy mazmuni, Ishlab chiqarishning material sig'imi.

## **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Firmaning xarajatiga qisqacha izoh berib o'ting.
2. Tijorat xarajatlari qanday xarajatlar kiradi?
3. Mahsulot tannarxi deganda nimani tushunamiz?
4. Sarf-xarajatlari tarkibi bo'yicha ma'lumot bering.
5. Qo'shimcha muomala xarajatlarida nimalarni nazarda tutish mumkin?

6. Xarajatlar nima orqali qoplanadi?
7. Marjinalistik sarf-xarajatlar nazariyasi bo'yicha axborot bering.
8. Korxona foydasini oshirishning asosiy vositasi nima?
9. O'zgaruvchi xarajatlar dep qanday xarajatlar nazarda tutiladi?
10. Doimiy xarajatlarga kiritiladigan xarajatlar bo'yicha ma'lumot bering.
11. Xarajatlarga ta'sir etuvchi omillar nechta guruhga bo'linadi?
12. Xarajatlarga ta'sir etuvchi har bir guruhdagi omillarini ayтиб о'ting.
13. Iqtisodiy samaradorlikka erishishning asosiy sharti nima?
14. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining uzluksiz pasayishi nimalar asosida ta'minlanadi?
15. Ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini oshirish nimaga katta ta'sir ko'rsatadi?
16. Yangi texnikani joriy qilish va mahsulot tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish jarayonlari natijasi to'grisida so'zlab bering.
17. Mahsulot tannarxini hisoblashdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad nimalardan iborat?
18. Ustama xarajatlar tushunchasi bo'yicha tushuncha bering.
19. Korxonada rejadagi (biznes-rejada belgilangan) va haqiqiy (hisobot bo'yicha haqiqatda erishilgan) tannarx solishtirib borilishi nimani aniqlashga yordam beradi?
20. Mahsulot tannarxiga kirtilmaydigan xarajatlar to'g'risida misol keltiring.
21. Mahsulot (ishlab chiqarish) tannarxi formulasidagi xarajatlar turkimiga kiruvchilar qaysi?
22. Buxgalteriya hisobida mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuni va umumiylig xususiyatlariga ko'ra qanday elementlarga ajratiladi?
23. Mahsulot tannarxini pasaytirish nimalar orqali erishilishi mumkin?

## **8. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY FAOLIYATI TAHLILI**

- 8.1. Moliyaviy tahlilning asosiy talablari va manbalari.
- 8.2. Kichik biznes va tadbirkorlikning moliyaviy faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
- 8.3. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy tahlil uslubining ishlab chiqilishi.
- 8.4. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy mustahkamligi hamda ular faoliyatining moliyaviy natijalari tahlili.
- 8.5. Korxonalar rentabelligi tahlili.

### **8.1. Moliyaviy tahlilning asosiy talablari va manbalari**

Korxonalarning moliyaviy holati bu:

- kompleks ravishdagi tushuncha bo'lib, u o'z ichiga keng ko'rsatkichlar tizimini oladi, ular korxonalarning moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligini va ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi;
- korxonalar faoliyatidagi butun ishlab chiqarish va xo'jalik omillarining harakati, ularning o'zaro aloqadorligi natijasidir;
- korxonalarning mo'tadil ishlab chiqarish, tadbirkorlik va boshqa faoliyati uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanish ifodasidir;
- korxonalarning boshqa xo'jalik subyektlari, organlari va tashkilotlari bilan o'zaro aloqalarni haqiqiy aks ettirishidir.

Korxonalarning ichki va tashqi omillar ta'siri ostida shakllangan moliyaviy holati, ularning istiqbolini aniqlash bilan birga, bu korxona bilan aloqada bo'lgan boshqa tashkilotlar va korxonalarning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Umuman korxonalarning ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatini, jumladan ularning moliyaviy holati tahlili asosini bir butun kompleks iqtisodiy fanlar: iqtisodiy nazariya, makro va mikro iqtisodiyot, menejment va marketing, statistika, buxgalteriya hisobi, audit, moliya, kredit, pul muomalasi va boshqalar tashkil etadi. Demak, tahlilchi mutaxassis-auditorlar keng iqtisodiy ilmga ega bo'lishlari lozim.

Iqtisodiy adabiyotda, ma'lumki, «Moliyaviy tahlil» atamasidan foydalaniladi. «Moliyaviy tahlil» barcha iqtisodiy tahlilning bir shakli

hisoblanadi, ikkinchi shakli – bu «boshqaruvlik tahlili». Demak, mazmunan «Moliyaviy tahlil» va «Korxonalarining moliyaviy holati tahlili» – bu har xil mazmunga ega bo‘lgan iboralar.

Bizning ma’ruzamiz korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishga bag‘ishlangan, lekin iqtisodiy adabiyotda qabul qilinganidek, qisqa ifodalash uchun ma’ruzalarda «Moliyaviy tahlil» atamasidan foydalanilgan. Iqtisodiy adabiyotda korxonalarining moliya holati tahlili jarayoni ham «Moliyaviy tahlil» deb qabul qilinayapti.

Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish, ya’ni moliyaviy tahlil – keng ko‘rsatkichlar yordamida, kompleks usullaridan foydalanib korxonalarining moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasini ifodalashdir.

Moliyaviy tahlil ko‘p qirrali murakkab jarayon bo‘lib, u tashkil qilinishi, buning uchun esa bir qator talablarga asoslanishi kerak. Bu talablar quyidagilardan iborat:

- mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi aloqalarni borligini bllish;

- moliyaviy tahlil mobaynida mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlardan birgalikda foydalanish;

- moliyaviy tahlil mantiqiy ravishda amalga oshirilib, u induktiv usulga — alohida hodisalardan umumiyligi hodisalarga o‘tish, moliyaviy holatning bir shakl ko‘rinishidan umumiyligi ko‘rinishga o‘tish va deduktiv usulga – umumiyligi hodisalardan alohida hodisalarga o‘tishga asoslanib tahlil qilish;

- hamma foydalanilayotgan ko‘rsatkichlar bir xil, asoslangan usulda aniqlanishi lozim;

- moliyaviy holatni tahlil qilishda tahlil qilinayotgan korxona ko‘rsatkichlarini boshqa korxonalar, o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichlari va ilg‘or korxonalar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash;

- moliyaviy tahlilning har tomonlama bo‘lishligi va korxonalarining umumiyligi moliyaviy holatiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil etish;

- moliyaviy tahlilni samarali o‘tkazish uchun kerakli ma’lumotlarni oldindan tayyorlash va bu borada asosiy tasdiqlangan moliyaviy manbalar bilan cheklanmasdan birlamchi buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanish;

- moliyaviy tahlil obyektiv ravishda tashkil qilinib, u korxonalarining moliyaviy holati real darajasini ifodalashi lozim;

- moliyaviy tahlil o‘z vaqtida o‘tkazilib, tahlil yakunlariga asoslanib, moliyaviy holatni yaxshilash choralarini o‘z vaqtida amalga oshirishga imkon berish;

- moliyaviy tahlil kompleks ravishda o‘tkazilib, unda moliyaviy holatning hamma shakl va yo‘nalishlari ifodalanishi lozim;

- moliyaviy tahlil o‘z vaqtida va haqqoniy bo‘lib, u moliyaviy holatni ko‘tarishga bag‘ishlangan tadbirlarni ishlab chiqib, ularni amalga oshirishga imkon berishi;

- moliyaviy holatni tahlil qilish shunday vaqtda o‘tkazilishi lozimki, tahlil yakunlari qo‘yilgan maqsadni amalga oshirib, korxona boshqaruvini takomillashtirishga imkoniyat tug‘dirishi lozim;

- moliyaviy tahlil barcha yig‘ilgan va umumlashtirilgan ma’lumot-larga asoslanib, kerakli ko‘rsatkichlardan foydalanib, bu ko‘rsatkichlarning asosiligi to‘g‘ri usullarda aniqlanishi lozim,

Ko‘rinib turibdiki, moliyaviy tahlil ko‘p qirrali murakkab va muhim bo‘lganligi sababli u bir qancha talablarga asoslangan. Yuqorida ko‘rilgan talablarga oid, moliyaviy tahlil korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilishda quyidagi vazifalarni bajarishga yo‘naltirilishi kerak:

1. Korxonalarning moliyaviy darajasini baholash.

2. Moliyaviy holatning o‘zgarishini aniqlash.

3. Moliya holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tahlil qilish.

4. Korxonalarda qo‘lga kiritilgan moliyaviy holat darajasini ifodalab, bu borada hali foydalilmagan imkoniyatlarni, mavjud zaxiralarni ko‘rsatib berish.

5. Korxonalarda hali foydalilmagan imkoniyatlarni safarbar etish maqsadida tavsiyalar, takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini ko‘rsatib berish.

Bajariladigan vazifalar shuni ko‘rsatayaptiki, moliyaviy holatni tahlil qilish korxonalarda shakllanayotgan boshqaruva tizimini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Moliyaviy tahlil boshlanmasdan tahlilning obyektlari va predmetlari aniqlanishi lozim. Moliyaviy tahlilning asosiy obyekti, xo‘jalik subyektlari, alohida korxonalar, tashkilotlar hisoblanadi. Lekin moliyaviy holat korxonalar guruhi, ishlab chiqarish tarmoqlari miqyosida ham aniqlanishi mumkin.

Moliyaviy tahlilning predmeti korxona va tashkilotlarning moliyaviy faoliyati, ularning moliyaviy resurslaridan foydalanish jarayoni hisoblanadi. Moliyaviy tahlilning maqsadi va uning yo‘nalishini e’tiborga

olsak moliyaviy tahlil har xil shaklda bo'lishi mumkin; tarmoqlararo, tarmoqda, korxonalar miqyosida, joriy va istiqboliy, tezkorlikda, tugallangan bo'lishi mumkin. Tarmoqlararo moliyaviy tahlilda tarmoqlararo iqtisodiy aloqalarni nazarda tutgan holda tahlil qilinayotgan korxonalarining moliyaviy holati o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlari bilan solish-tiriladi.

Tarmoq miqyosida o'tkazilayotgan moliyaviy tahlilda tahlil qilinayotgan korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlari shu tarmoqdagi boshqa korxona hamda ilg'or korxonalar ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Bozor munosabatlari davrida butun korxona va tashkilotlar mustaqil ravishda faoliyat olib borar ekan, moliyaviy tahlilning eng asosiy shakli alohida korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish hisoblanadi.

Tugallangan moliyaviy tahlilda korxonaning butun moliyaviy holati tahlil qilinadi, undan tashqari korxonalar moliyaviy holatining alohida yo'naliishlari, shakllari tahlil qilinishi mumkin.

Tezkor tahlil, korxonalar faoliyatida doimo, uzlusiz bo'lishi kerak. Unda moliyaviy holatning alohida ko'rsatkichlari kuzatib boriladi va ularning o'zgarishiga qarab boshqaruv tadbirdari ishlab chiqilib amalga oshiriladi.

Joriy moliyaviy tahlil chorak va yarim yillik moliyaviy hisobotlar bo'yicha o'tkazilib, moliyaviy holatni yil davomida o'zgartirib, yaxshilab turish imkoniyatini beradi. Faoliyat ko'rsatayotgan har bir korxona o'z istiqboliga ega bo'lishi zarur, bu istiqbol tadbirdari esa korxonalar bo'yicha ishlab chiqilishi kerak. Shu munosabat bilan korxonalarining moliyaviy holati istiqbolini ham tahlil qilib turish kerak.

Moliyaviy tahlilning yo'naltirilganligi nuqtayi nazardan moliyaviy tahlil quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:

- gorizontal tahlilda hisobot davridagi moliyaviy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'tgan davr bilan taqqoslanadi, ya'ni bu ko'rsatkichlarning dinamikasi aniqlanadi;

- vertikal tahlilda moliyaviy holatga taalluqli bo'lgan ko'rsatkichlarning tarkibiy-tuzilmasi o'rGANILADI. Masalan, korxona mablag'larining yoki ularni qoplovchi manbalarining hisobot davridagi tarkibi va uni o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi ifodalanadi;

- nisbiy ko'rsatkichlar tahlilida moliyaviy holat ko'rsatkichlari o'rtasidagi aloqa o'rGANILADI. Masalan, korxona mablag'larining va ularning manbalari o'rtasidagi aloqa, moliyaviy resurslar va ulardan foydalanish o'rtasidagi aloqa ifodalanadi;

- taqqoslash tahlilida korxona bo'yicha moliyaviy holat uning alohida bo'limchalari moliyaviy holati bilan taqqoslanadi, bu korxonaning moliyaviy holati boshqa korxonalarining moliyaviy holati bilan solishtiriladi;
- omillar tahlilida, pirovardida, korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil etiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan moliyaviy tahlilning shakllaridan tashqari yana amaliyotda ichki va tashqi, moliyaviy va boshqaruvchanlik tahlili shakllari qo'llaniladi.

Ichki moliyaviy tahlil korxonalarining xodimlari tomonidan o'tkazilib, shu korxonalarining boshqaruv tizimini kelgusida takomillashtirish va moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida o'tkaziladi.

Tashqi moliyaviy tahlil korxonalarining xodimlari tomonidan emas, balki organlar, tashkilotlar xodimlari tomonidan o'tkaziladi. Bu tahlil korxonalarining iltimosi bo'yicha yoki tashqi organ, tashkilot, korxona xodimlari tomonidan nazorat sifatida o'tkazilishi mumkin.

Bozor munosabatlariga o'tish bilan moliyaviy va boshqaruvlik tahlilidan keng foydalanilmoqda va bu tahlil shakllari katta ahamiyat kasb etayapti.

Moliyaviy tahlil – korxonalarining ochiq tarzdagи moliyaviy hisobotlarining ma'lumotlariga asoslanib o'tkaziladigan tahlildir.

Yuqorida ta'kidlanganidek moliyaviy tahlilni korxonalarining xodimlari o'tkazishi mumkin, lekin moliyaviy hisobot ochiq bo'lganligi uchun bu tahlilni boshqa tashqi organlar, korxonalar va tashkilotlar — soliq, moliya, bank va boshqalar tomonidan o'tkaziladi hamda korxonalarining moliyaviy holatiga baho beriladi.

Boshqaruv tahlil bevosita korxonalar tomonidan o'tkazilib, u ham ochiq, ham yopiq hisobot axborotlariga asoslanadi va bu tahlil yakunlari korxonalar rahbariyati tomonidan boshqaruvlikni takomillashtirish uchun foydalaniladi. Bu tahlilda yopiq ma'lumotlardan foydalanilganligi uchun bu tahlilni asosan tashqi korxona va organlar emas, bevosita korxona xodimlari olib boradilar, chunki bozor munosabatlari davrida har bir korxona o'zining hisob siyosatiga ega. Shuningdek, uning faoliyatida tijorat sirlari bo'lib, ular moliyaviy hisob va hisobotda emas, boshqarma hisob va hisobotida ifodalanaadi.

Moliyaviy va boshqaruv tahlil shakllari bir-birini inkor qilmaydi, ular bir-biri bilan bog'liq, lekin bajaradigan vazifalari va xususiyatlari har xil.

Moliyaviy tahlil quyidagi xususiyatlarga ega:

- moliyaviy tahlilning yakunlari ochiq bo'lib, ulardan hamma foydalanishi mumkin;
- moliyaviy tahlilning subyektlari va bu tahlilning yakunlaridan foydalanuvchi organ, korxona, tashkilotlar tarkibi keng;
- moliyaviy tahlil hamma uchun moslangan, nashr etilgan hisobot ma'lumotlariga asoslanadi;
- moliyaviy tahlil korxonalar ichki boshqaruv muammolarini yechish uchun o'tkaziladi;
- moliyaviy tahlilning yo'nalishi moliyaviy hisobot ma'lumotlari bilan cheklangan bo'lib, unda chegaralangan aniq bir vazifalar yechiladi. Bu moliyaviy mustahkamlik, balans likvidlig'i, foyda, rentabellik darajasi va boshqalardir.

O'z navbatida boshqaruv tahlili quyidagi xususiyatlar bilan ifodalanadi:

- 1) korxona tijorat sirlarini saqlash maqsadida boshqaruvlik tahlilning yopiqligi;
- 2) boshqaruv tahlili o'tkazilganda foydalanadigan ma'lumotlar tarkibi chegaralanmaydi. Bu tahlilda ochiq moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan tashqari, birlamchi buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, maxsus tashkil qilib yig'ilgan ma'lumotlaridan foydalaniladi;
- 3) boshqaruv tahlilida tahlil yo'nalishlari, foydalanilayotgan ko'rsatkichlar, bajariladigan vazifalar chegaralanmaydi;
- 4) boshqaruv tahlilining yakunlari ichki maqsadlar hamda moliyaviy holatni yaxshilash uchun foydalaniladi.

Ko'rinish turibdiki, korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish keng miqyosda va aniq vazifalarni bajarish uchun o'tkaziladi. Korxonalarini ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatining moliyaviy holatini tahlil qilish uchun an'anaviy, qadimdan qo'llanib kelinayotgan usullar bilan birga, keng tarzda statistika usullari, moliyaviy holatni ifodalovchi ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish, statistik kuzatishlarni o'tkazish, mutlaq, nisbiy, o'rtacha, dinamik ko'rsatkichlardan foydalanish, dinamik qatorlardan, iqtisodiy indekslar tizimidan, omillararo korrelyatsiya aloqalarini aniqlash, jadval va chizma tizimidan foydalanish lozim.

Umuman tahlil qilish usullari, ayniqsa, moliyaviy holatni tahlil qilish usullari bozor munosabatlariga o'tish bilan yanada takomillashtirilishi, korxonalararo taqqoslash, raqobatchi va ilg'or korxonalar bilan

taqqoslash hamda korxonalarining istiqbol moliyaviy holatini tahlil qilish usullari katta ahamiyatga ega bo'lib qoladi.

Moliyaviy tahlil ko'p qirrali murakkab ish bo'lib, u o'z ichiga korxonalarda shakllangan moliyaviy holatni, uning alohida yo'naliш bo'yicha moliyaviy holatini aniqlovchi shart-sharoit, omillarni, korxonalar moliyaviy holatini kelgusida ko'tarish imkoniyatlarini, zaxiralarini, yo'naliшlarini tahlil qilishni oladi. Demak, moliyaviy tahlilni har tomonlama tayyorlab, so'ng o'tkazish lozim. Shu sababli moliyaviy tahlilni tayyorlash va o'tkazish bir qancha bosqichlarni o'ziga olib, ular quyidagilardan iborat:

- moliyaviy tahlilni o'tkazishning ishchi dasturini tuzish. Dasturda tahlilning maqsadi va vazifalari aniqlanadi;
- tahlilni o'tkazuvchilarning tarkibini aniqlash, ya'ni tahlil qiluvchilarning ro'yxatini tuzish;
- tahlil uchun foydalaniladigan iqtisodiy ma'lumotlarni toplash;
- moliyaviy tahlilda foydalanadigan ko'rsatkichlar tizimini aniqlash;
- moliyaviy tahlil ko'rsatkichlarini hisoblash usullarini aniqlash;
- tahlilda foydalanadigan ko'rsatkichlarni hisoblash va ularni umumlashtirish;
- tahlil yakunlarini jadvallar va chizmalarda shakllantirish;
- moliyaviy tahlil natijasida xotima tayyorlab, unda tahlil yakunlari bo'yicha xulosalar chiqarib, kelgusida korxonaning moliyaviy holatini ko'tarishga bag'ishlangan tavsiyalar ishlab chiqish;
- moliyaviy tahlil yakunlarini maxsus yig'illshda muhokama qilish;
- tahlil yakunlari bo'yicha muhokama natijalarini e'tiborga olib, korxonaning moliyaviy holatini ko'tarish maqsadida boshqaruv tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan tadbirlar ishlab chiqib, ularni korxona rahbariyatining maxsus qarorida ifodalash.

O'tkazilayotgan moliyaviy tahlilning darajasi va mazmuni foydalanilayotgan ma'lumotlar bazasiga bog'liq iqtisodiy fanlarning rivojlanishi, buxgalteriya hisobi va hisobotlarining takomillashtirilishi bilan ma'lumotlar bazasi ham takomillaшиб boradi. Demak, foydalaniladigan ma'lumotlar moliyaviy tahlilning manbalari bo'lib hisoblanadi. Bunday manbalar sifatida korxonalarining yillik va boshqa hisobotlarini ko'rish mumkin.

## **8.2. Kichik biznes va tadbirkorlikning moliyaviy faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar**

Kichik biznes korxonalarining moliyaviy faoliyati ularning davlat, boshqa korxonalar, tashkilotlar va shaxslar bilan o'zaro munosabatini tartibga solish bilan bog'liq pul hisob-kitoblarini ifodalaydi.

Kichik biznes korxonalarining ish faoliyati uning moliyaviy holati bilan chambarchas bog'langanidir. Moliyaviy holat korxonaning har tomonlama faoliyatining natijalarini aks ettiradi va rejada belgilangan ishlarning bajarilishiga ta'sir ko'rsatadi. Har bir kichik korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyati to'g'ri olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlardan asosiysi foydadir. Korxonalar foydasining turlari quyidagilardan iborat:

a) mahsulotlar sotishdan tushgan yalpi foyda (YAF). Bu sotishdan tushgan sof tushum (ST) va sotilgan mahsulotning tannarxi (MT) o'rtaсидаги farqdan iborat, ya'ni

$$\mathbf{YAF = ST - MT;}$$

b) asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan tusbgan foyda (ICHF). Bu ma'lum davr ichida mahsulotlar sotishdan tushgan yalpi foyda (YAF) va xarajatlar (Aharaj.) o'rtaсидаги farq va plus boshqa asosiy faoliyat sohalari daromadlari (Bdar.) yoki kamomadlari (Bkam.) ayirmasidan iborat, ya'ni:

$$\mathbf{ICHF = YAF - A_{xaraj.} + B_{dar.} B_{kam.};}$$

d) umumiyo xo'jalik faoliyatidagi foyda (UXF). Bu algebraik ifodalar yig'indisi tarzida ifodalanadi: asosiy faoliyatidagi foyda (AFF) plus dividendlar (DD) va foizlar bo'yicha daromadlar (FD) plus (yoki minus) chet el valutalari bo'yicha operatsiyalaridan olingan daromadlar (yoki kamomadlar) (CHEV) plus (yoki minus) qimmatbaho qog'ozlarni qayta baholashdagi daromadlar (yoki kamomadlar) (KKKB) minus foizlar bo'yicha xarajatlardan (FX) iborat, ya'ni:

$$\text{UXF} = \text{AFF} + \text{DD} + \text{FD} \pm \text{CHEV} \pm \text{KKKB FX};$$

e) soliq to'lovlarigacha bo'lgan foyda (SF). Bu ko'rsatkich ham algebraik ifodalar yig'indisi tarzida ifodalanib, umumiy xo'jalik faoliyatidagi foyda (UXF) va tasodifiy (ko'zda tutilmagan) foyda yoki kamomadlar (TFK) saldosidan iborat, ya'ni:

$$\text{SF} = \text{UXF} \pm \text{TFK};$$

d) yillik sof foyda (YSF). Bu barcha soliqlarni to'lab bo'lgandan so'ng korxona hisobiga qoladigan daromad, ya'ni soliq to'lovlarigacha bo'lgan foydadan (SF), daromad yoki foyda solig'ini (FS) hamda boshqa soliqlar yoki to'lovlarini (BS) olib tashlangandan keyin qolgan qismidir, ya'ni:

$$\text{YSF} = \text{SF} - \text{FS} - \text{BS}.$$

Korxonalarning xo'jalik faoliyatini yuritishi davomida kelib chiqadigan xarajatlar o'z xususiyatlariga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

**Mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi:**

- a) to'g'ri va egri meddiy xarajatlar;
- b) to'g'ri va egri mehnat xarajatlari;
- c) boshqa to'g'ri va egri xarajatlar.

**Ma'lum davrdagi xarajatlar:**

- a) sotish bilan bog'liq xarajatlar;
- b) boshqarish bilan bog'liq xarajatlar (ma'muriy xarajatlar);
- c) boshqa jarayonlar bilan bog'liq xarajatlar.

**Moliyaviy faoliyat bilan bog'liq xarajatlar:**

- a) foizlar bo'yicha xarajatlar;
- b) xorijiy valutalar bilan bog'liq operatsiyalarda kurslarning salbiy farqi;
- c) qimmatbaho qog'ozlarni qayta baholash;
- d) moliyaviy faoliyat bilan bog'liq boshqa xarajatlar.

**Tasodifiy xarajatlar (tabiiy ofatlar natijasida kelib chiqadigan xarajatlar).**

Korxonalarning xo'jalik faoliyatining yuritishi davomida kelib tushadigan daromadlari o'z xususiyatlariga ko'ra quyidagicha guruhlanadi va u hisobotlarda quyidagi asosiy bo'limlar bo'yicha aks etadi:

- sotishdan tushgan sof tushumlar;
- asosiy faoliyat sohalaridagi boshqa daromadlar (operatsion daromadlar);
- moliyaviy faoliyat sohalaridagi daromadlar;
- tasodifiy daromadlar.

**Sotishdan tushgan sof tushumlar** mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan tushgan tushumlardan qo'shimcha qiymat solig'i, aksiz solig'i, eksport solig'i (sotib oluvchi tomonidan beriladigan ayrim skidkalar) va boshqa to'lov hamda ajratmalarni olib tashlagandan keyin qolgan qismi sifatida hisoblanadi.

Korxonalarning eksport faoliyati bilan bog'liq operatsiyalardan tushgan foyda va daromadlarni hisoblash, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan tushgan tushumlar hajmini aniqlash kabi belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Asosiy faoliyat sohalaridagi boshqa daromadlar (operatsion daromadlar) hisobot bo'limining «Boshqa daromadlar va tushumlar» moddasida ko'rsatiladi.

Ushbu daromadlarga:

- xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun turli xildagi sanksiyalar, jarimlar, penyalar, shuningdek keltirilgan zarar va kamomadlarni qoplash;
- hisobot yilida, o'tgan yildagi daromadlar va foydalarni hisoblash natijasida topilgan summa;
- mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish yoki ishlab chiqarish jaryonlari bilan bog'liq bo'limgan boshqa daromadlar, ya'ni renta daromadlari, xizmat ko'rsatish tarmoqlaridan tushgan daromadlar, korxona tizimidagi oshxonalar va kafelar hisobidan kelib tushadigan tushumlar;
- asosiy fondlar va korxonaning boshqa mol-mulklarining faoliyati dan kelib tushadigan moliyaviy daromadlar kiradi.

Moliyaviy faoliyat sohalaridagi daromadlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- roylati (litsenziya bitimida ko'rsatilgan narsadan foydalanish huquqi uchun sotuvchiga vaqt-vaqt bilan pul o'tkazib turish) va transfert (egasining nomi yozilgan qimmatbaho qog'ozlarni bir kishi nomidan boshqa kishiga o'tkazish) kapitallarini to'plash;

- korxona tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqlarning qimmatbaho qog'ozlarga qo'shgan ulushlaridan kelib tushadigan dividendlar hisobidagi daromadlar;
- valuta schyotlari bo'yicha kurslar farqining ijobiy saldolari;
- shu'ba korxonalarining qimmatbaho qog'ozlarga sarflangan mablag'larini qayta baholash hisobidan kelib tushadigan foydalar va boshqalar.

**Tasodifiy foyda yoki daromadlar** xo'jalik faoliyatini yuritish davomida ko'zda tutilmagan tasodiflar, hodisalar, e'tiborga olinmagan jarayonlar va voqealar tufayli vujudga keladigan daromadlardir. Bularga, asosiy faoliyat yuritish davomida ifodalangan hisobotlarda aks etgan boshqa daromadlar bo'limi moddasidagi daromadlar kiritilmaydi.

Xo'jalik faoliyatini yuritish davomida korxonalar o'z mablag'lari darajasini aniqlashi va nazorat qilishi muhim o'rinn tutadi. Chunki mulkiy javobgarlik, tuzilgan kontraktlar va shartnomalar asosida kelib chiqadigan o'zaro kelishmovchiliklar yoki muammolar mana shu mulkka bo'lgan egalik huquqlari bo'yicha kafolatlanadi.

Mulkiy javobgarlik, mulk shaklidan qat'iy nazar faqat korxonaning o'z mablag'lariga qo'yilishi mumkin. O'z mablag'larning miqdori buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asosan aniqlanadi.

### **8.3. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy tahlil uslubining ishlab chiqilishi**

Korxonalarining umumiyligi iqtisodiy, xo'jalik faoliyatini, jumladan, moliyaviy faoliyatini tahlil qilish muammolari odatda ikki yo'nalishda olib boriladi:

Birinchidan, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, maqolalar, qo'llanmalar, monografiyalar chop etiladi.

Ikkinchidan, moliya vazirligi va korxonalarining moliyaviy faoliyatidan manfaatdor bo'lgan boshqa organ, tashkilotlar tomonidan moliyaviy tahlilning me'yoriy asoslari, uslubiy ko'rsatmalari barpo etiladi.

Bu odad hozirgi paytda ham respublikada davom etayapdi. Ilmiy-tadqiqot ishlari bajariyapti, me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilyapti. Bu ishlar bozor munosabatlariiga moslangan ravishda respublikada boshlangan bo'lsada, lekin bajarilgan ishlardan moliya tahlil uslubini hali batafsil shakllangan deb bo'lmaydi.

Toshkent Moliya instituti tahtil kafedrasining mudiri iqtisod fanlari nomzodi, dotsent Akramjon Ibrahimovning o'zbek tilida chop etilgan «Moliyaviy tahlil» nomli risolasida moliyaviy tahlilni o'tkazish uchun quyidagi ko'rsatkichlar tasnifi tavsiya etilgan:

1. Korxonaning moliyaviy faoliyati tahlili: balans tahlili; mol-mulk tarkibi tahlili; korxona mablag'larining manbalari tahlili; moliyaviy mustahkamlik tahlili; qarzlarni qaytib berish qadrining tahlili; korxona mablag'larini harakati tahlili.

2. Korxona moliyaviy faoliyati yakunlari tahlili: balansdagi foydanning tarkibiy va dinamik tahlili; mahsulot realizatsiyasidan olingen foyda va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili; korxonaning boshqa daromadlari va xarajatlari tahlili; korxonaning yalpi va sof foydasi tahlili; korxona rentabelligi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili; korxona foydasining taqsimlanishi tahlili. Ko'rinish turibdiki, yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar tasnifida korxonalar moliyaviy holatining hamma yo'nalishlari shakllari ifodalangan emas. Masalan, balans likvidligi va hokazo.

1995-yili Moliya vazirligi tomonidan har oyda chop etiladigan «O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari» to'plamida A.N. Li va S.I. Shevchenkolarning «Korxonalar moliyaviy tahlilining asosiy tamoyillari» nomli maqolasida moliyaviy tahlil uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etilgan:

1. Moliyaviy holatni umumiylash.

2. Moliyaviy barqarorlikni (mustahkamlikni) tahlil etish koeffitsiyentlari, likvidlik koeffitsiyentlari, korxona kapitalining tarkibiy koeffitsiyentlari, moliyaviy mustahkamlikni baholash mezoni.

3. Korxonalar faoliyati samaradorligining tahlili korxonalarining haqiqiy samaradorligi, rentabellik koeffitsiyentlari, bozorga oid aktivlik koeffitsiyentlari, korxonalarining potensial ko'rsatkichlari, ishchanlik-aktivlik koeffitsiyentlari hamda korxona xarajatlariga, foydasiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

Mualliflar tavsiyalarida moliyaviy holatning mustahkamligini barqarorlik bilan, moliyaviy mustahkamlikni balans likvidliligi bilan aralashtirgan va korxonalarining moliyaviy faoliyatini hamma shakllari emas, bir qism shakllari, yo'nalishlari ifodalangan.

Moliyaviy tahlil muammolari bo'yicha respublikada ko'zga ko'rning iqtisodchi olimlardan, Samarcand kooperativ institut professori, iqtisod fanlari doktori I.T. Abdukarimovning ham rus, ham o'zbek tilida

chop etilgan «Moliyaviy hisobotni qanday o‘qish va tahlil qilish kerak» nomli monografiyasida moliyaviy tahlil quyidagi ikki bosqichda amalgamoshiriladi:

1. Moliyaviy hisobot, uning tavsifi. Bu bosqichda moliyaviy hisobotning mohiyati, mazmuni, tarkibi quriladi, buxgalteriya balansi moliyaviy tahlilning asosiy manbai sifatida ifodalanadi, buxgalteriya balansining boshqa moliyaviy hisobot shakllari bilan aloqasi yoritilgan va buxgalteriya balansini haqiqiyligini va balansni tahlil qilishga tayyorlash muammolari yoritilgan.

2. Moliyaviy hisobotga asoslanib, korxonalarning moliyaviy faoliyatini tahlil qilish yoritilgan. Bu bosqichda bozor munosabatlari davrida moliyaviy tahlilning tutgan o‘rnini, korxona balansining tarkibini tahlil qilish korxona mablag‘larining holati va foydalanish darajasi tahlili, korxona mablag‘larining manbalari tahlili, qarzlarni qaytib berish qadri, moliyaviy mustahkamlik, debitorlik, kreditorlik qarzlarni tahlil qilish, shaxmat balansini tuzish muammolari, korxonalar faoliyatini moliyaviy yakunlarini tahlil qilish masalalari ko‘rilgan.

Mualif tavsiyalarida bozor munosabatlari talablari kengroq e’tiborga olingan va moliyaviy tahlil ketma-ket o’tkazilishi ifodalangan.

O‘zbekiston Respublikasi yosh iqtisodchi olimlaridan iqtisod fanlari nomzodlari M.K. Pardayev, B.I. Isroilovlar 1999-yili «Moliyaviy tahlil» nomli uslubiy ko‘rgazmalar va tavsiyalar albomini chop etdilar. Bu to‘planma uch qismdan iborat.

Birinchi qism, «Moliyaviy tahlilning nazariy asosi»da moliyaviy tahlilning mazmuni, tarkibi, shakllari va maqsadi ko‘rilgan.

Ikkinci qism, «Korxona moliyaviy holatining tahlili»da korxonalarning iqtisodiy salohiyatini baholash va tahlil qilish, korxona mablag‘larining alohida turlari tahlili, korxonalarning o‘zlik va tashqaridan olingan mablag‘lar tahlili, korxona barqarorligi, likvidlitligini, moliyaviy mustahkamligini, bankrotlikni va bozor faoliyatining tahlil qilish ko‘rsatkichlari ko‘rilgan.

Uchinchi qism, «Moliyaviy natijalar tahlili»da moliyaviy yakunlar tahlili, korxonada foya tahlili, rentabellikni, savdo, aksiyadorlik jamiyatlarida foya va rentabellik ko‘rsatkichlari tahlil etilgan.

Qo‘llanmada berilgan tahlil bosqichlari bo‘yicha moliyaviy tahlilda foydalanadigan ko‘rsatkichlarning va ularga ta’sir ko‘rsatuvchi

omillarning tasnifi, ko'rsatkichlarni aniqlash usullari, olingan natijalarni chizma jadvallarda ifodalanishi yaqqol ko'rsatib berilgan.

Respublikada moliyaviy tahlil usulini shakllanishida kerakli uslubiy-me'yoriy materiallarni tayyorlash ham o'z o'mini topgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan kerakli materiallar ishlab chiqarilmoqda. Yuqorida aytiganidek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi o'z buyrug'i bilan 1997-yil 15-yanvarda yangi moliyaviy hisobot tizimini tasdiqladi, 1998-yil 26-iyulda qabul qilingan buyrug'iga binoan korxona balansiga ilova bo'lmish «Moliya-iqtisodiyot holati to'g'risida ma'lumotnomasi»ni to'ldirish buyurtnomasi tasdiqlandi.

1997-yil 17-aprelda korxonalarini bankrot va sanatsiya masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Hukumat komissiyasi tomonidan «Korxonaning moliyaviy tahlili bo'yicha uslubiy tavsiyalar» qabul qilinib, unda quyidagi moliyaviy tahlil shakllari o'tkazilishi ko'zda tutilgan:

1. Moliyaviy holatning tahlili — balans valutasi dinamikasini, balans passivlari tarkibini, asosiy vositalar va aylanmadan tashqari aktivlar va moliyaviy natijalar tahlili.

2. Moliyaviy mustahkamlikning tahlili - zaxira va xarajatlarni shakllantirish manbalari bilan ta'minlanganligi, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentlari, o'z va qarzga olingan mablag'larning o'rtaqidagi nisbat, zaxira va xarajatlarni o'z manbalari bilan ta'minlanganligi, qarzlarni qaytib berishga qodirlik koeffitsiyenti.

3. Korxonalarining iqtisodiy holati tahlili — qarzlarni qaytarib berish qobiliyatini tiklash koeffitsiyenti, faoliyatni manevrash koeffitsiyenti, korxonaning ishlab chiqarish mol-mulkini real qiymati koeffitsiyenti.

4. Korxona rentabelligi tahlili - mahsulotlarni realizatsiya qilishning real koeffitsiyenti, asosiy vositalarning rentabellik koeffitsiyenti, permanent kapitalining rentabellik koeffitsiyenti, kapitalning umumiyligini aylanishining rentabellik koeffitsiyenti.

Bu uslubiy ko'rsatmalarda korxonalar moliyaviy faoliyatining shakllari, yo'nalishlari to'liq ravishda o'z ifodasini topmagan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mol-mulk qo'mitasi tomonidan 1996-yili tasdiqlangan «Korxona moliyaviy holatining tahliliy uslubi»da moliyaviy holat quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilinishi tavsiya etilgan:

1. Moliyaviy holatni umumiyligini baholash, balans valutasining dinamikasini, korxona mablag'lari va ularning manbalari ko'rsatkichlari.

2. Korxonaning moliyaviy mustahkamligi tahlili — moliyaviy mustahkamlikning mutlaq, me'yoriy, nome'yoriy va inqiroz shakldagi ko'rsatkichlari, korxonaning o'zlik va qarzga olingan mablag'lari o'rtaqidagi nisbat, tashqaridan olingan qarzlarni uzoq muddatlik koefitsiyenti, o'z mablag'larning manevrlik koeffitsiyenti, asosiy vositalar va moddiy aylanma mablag'lar qiyamatining reallik koeffitsiyenti.

3. Korxona tomonidan olingan qarzlarni qaytarish qadri (likvidlik) ko'rsatkichlari — balans likvidligining mutlaq, o'tish va umumiyligini koeffitsiyentlari, sof foyda koeffitsiyenti.

Bu yerda ham tavsiya etilgan moliyaviy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar to'liq emas.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mol-mulk qo'mitasi qoshida tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy nochorlik masalalari bo'yicha qo'mitaning 1997 yilda tasdiqlangan «Qishloq xo'jalik korxonalarini moliyaviy holatini tahlil qilishning uslubiy tavsiyaları»da quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanilgan:

1. Moliyaviy holati tahlili — balansning aktiv va passiv tomonidagi ma'lumotlar tahlili.

2. Moliyaviy mustahkamlik tahlili — moliyaviy mustahkamlikning mutlaq, me'yoriy, nome'yoriy va inqiroz darajadagi ko'rsatkichlari.

3. Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili — qarzlarni qaytarish qadri, o'zlik va qarzga olingan mablag'lar o'rtaqidagi nisbat, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyentlari.

4. Moliyaviy yakunlar tahlili — mahsulot va korxona aktivlari rentabelligi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlar va topshirish konseptual asoslari tasdiqlandi, respublikada moliyaviy tahlilga taalluqli bo'lgan milliy andozalardan «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot», «Asosiy xo'jalik faoliyatidan daromadlar», «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» va boshqa me'yoriy materiallarni qabul qilindi. 1999-yil 27-iyulda O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi qoshidagi korxonalarining iqtisodiy holatsizligi masalalari bo'yicha qo'mita tomonidan «Korxonalarining iqtisodiy noholatsizligini aniqlash mezonlari tizimi» tasdiqlandi.

Yuqorida ko'rilgan me'yoriy, uslubiy ko'rsatmalar bozor munosabatlarining talablariga javoban ishlab chiqildi. Ular korxonalarini moliyaviy

faoliyatini tahlil qilish uslublarini shakllanishida, albatta, katta ahamiyatga ega. Lekin respublika miqyosida bu ishlarni muvofiqlashtirilmaganligi sababli moliyaviy tahlil muammolarini ishlab chiqishda, tadqiqot ishlarini olib borishda yechilmagan masalalar, o‘zaro kelishmovchiliklar hali kam emas. Bu muammolarni muvofiqlashtirish, aniq nazorat o‘tkazish Respublika Moliya vazirligi tomonidan amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘lur edi. Chunki, bu borada Moliya vazirligi tomonidan bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, vazirlik tomonidan har oyda «O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari» nomi bilan materiallar to‘plami chop etilayotir. 1995 yil bu to‘plamga 3-ilova sifatida «Moliyaviy hisob va hisobotning asosiy shakllari va ko‘rsatkichlari bo‘yicha eslatma» chiqarildi. Bu eslatma moliyaviy hisob va hisobot mazmuni bilan birga moliyaviy tahlilda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etilgan:

1. Likvidlik koeffitsiyentlari: joriy likvidlik; shoshilinch likvidlik; mutlaq likvidlik; sof aylanma mablag‘lar.
2. Ishchanlik-aktivlik koeffitsiyentlari: aktivlarning aylanib turishi; debitorlik qarzlarning aylanib turishi; kreditorlik qarzlarni aylanib turishi; moddiy ishlab chiqarish zaxiralarini aylanib turishi; operatsion sikli muddati.
3. Rentabellik koeffitsiyentlari: aktivlar rentabelligi; realizatsiya rentabelligi; o‘zlik kapitali rentabelligi; bir aktsiyaning foydaliligi.
4. Kapitalning tarkibiy koeffitsiyentlari: moliyaviy nomustaqillik koeffitsiyenti; mulk koeffitsiyenti; kreditorlarni himoyalash koeffitsiyenti;
5. Bozor-aktivlik koeffitsiyentlari: narx-foyda nisbati; aksiyaning daromadlligi; aksiyaning balansdagi narxi; to‘langan dividendlarning salmog‘i.

1996-yil «O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari» to‘plamining 5-ilovasida davlat tasarrufidan chiqarilgan boshqa mulk shakllariga aylantirilgan korxonalar investitsiya loyihalari va kredit resurslarni olish uchun biznes-rejalar tuzish to‘g‘risidagi tavsiyalar chop etilgan. Bu tavsiyalarda korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilish maqsadida quyidagi moliyaviy koeffitsiyentlar tasdiqlangan:

- joriy likvidlik koeffitsiyenti;
- moliyaviy nomustaqillik koeffitsiyenti;
- mulk mustaqillik koeffitsiyenti;

- moliyaviy mustahkamlik koeffitsiyenti;
- manevrlik koeffitsiyenti;
- asosiy fondlarni tiklash koeffitsiyenti;
- aktivlar rentabelligi;
- realizatsiya rentabelligi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi materiallardan ko'rinish turibdiki, ishlab chiqarilgan tavsiyalarda bozor munosabatlarining talablar e'tiborga olingen. Demak, respublikada korxonalarni moliyaviy holatini tahlil qilishning ham nazariy, ham amaliy-uslubiy muammolari bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqot va me'yoriy materiallarni tayyorlash bo'yicha zaruriy ishlar amalgalga oshirilayapti. Lekin respublikada shakllanayotgan moliya tahlili uslubi hali to'liq bozor munosabatlarining talablariga javob bermaydi.

Yuqorida tahlil qilingan, umumlashtirilgan, respublikada mavjud iqtisodiy adabiyot va ishlab chiqilgan me'yoriy materiallar bizni quyidagi xulosalarga otib keldi:

- korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilish bo'yicha bajarilgan ishlarda har xil yo'nalishlar tavsiya etilgan;
- moliyaviy tahlilni o'tkazish uchun organ va tashkilotlar har xil shaklda bo'lgan ko'rsatkichlarni tavsiya etganlar;
- ko'p qilingan tavsiyalarda korxonalar moliyaviy faoliyatini ifodalovchi moliyaviy ko'rsatkichlar bilan birga moliyaviy holatga aloqasi bo'lмаган ко'rsatkichlar ham foydalaniлган;
- tavsiya etilgan ko'rsatkichlar tizimida, tahlil etish bosqichlarida hamma vaqt ham asoslangan ketma-ketlik talablari e'tiborga olinmagan;
- korxonalarning moliyaviy holati tahlili va korxonalarning iqtisodiy noholatsiz yoki iqtisodiy holatning qoniqarsizligi alohida ko'rilmagan, yoritilmagan.

Bu xulosalar shuni tasdiqlaydiki, respublikada moliyaviy tahlil muammolari ham nazariy, ham amaliy nuqtayi nazardan yana tadqiq etilishi maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha bu borada kerakli ishlarni davom ettirishda, bajarishda quyidagi tamoyillarga e'tibor berish lozim:

1. Moliyaviy tahlilda hisob va hisobot tizimini bozor munosabatlari ga moslab takomillashtirishni, ularni xalqaro andozalarga o'tkazishni e'tiborga olish, chunki bu ishlar moliyaviy tahlil axborot manbalarini boyitadi va foydalaniлayotgan ko'rsatkichlar tarkibini o'zgartiradi.

2. O'tkazilayotgan moliyaviy tahlil respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatga bo'ysundirgan, respublikada ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllanishiga yordam berishi kerak.

3. Respublikada bozor munosabatlari tobora shakllanib borar ekan, moliyaviy tahlil usuli ham tobora takomillashib borishi lozim.

4. Respublikada bozor munosabatlari shakllanib borar ekan, korxonalararo raqobat munosabatlari ham rivojlanib boradi. Demak, moliyaviy tahlilda tahlil qilinayotgan korxonaning moliyaviy faoliyatি boshqa korxonalar, ayniqsa, raqobatdagи korxonalar moliyaviy holati bilan hamma vaqt taqqoslanib turilishi lozim.

5. Albatta, moliyaviy tahlilning maqsadi korxonalarning moliyaviy faoliyatini yaxshilashdan iborat ekan, moliyaviy tahlil hamma vaqt, demak, kerakli tavsiya va takliflar bilan yakunlanishi maqsadga muvofiq.

6. Bozor munosabatlari shakllanishi davrida korxona va umuman xalq xo'jaligining boshqaruв tizimi yangidan barpo etilishi lozim. Moliyaviy tahlil korxonalarda boshqaruв tizimini takomillashtirishda asosiy qurollardan, omillardan biriga aylanishi kerak.

Kelgusi boblarda xorijiy mamlakatlarning moliyaviy tahlilini o'tkazish tajribasidan foydalanib, respublikada shakllanayotgan moliyaviy tahlil usuliga asoslanib, bozor munosabatlari davrida moliyaviy tahlil oldiga qo'yilgan vazifalarni e'tiborga olib, korxonalar moliyaviy faoliyatini kompleks ravishda tahlil etish usullari qurilgan.

Shu maqsadda moliyaviy tahlilni quyidagi bosqichlarda o'tkazish yoritiladi:

- korxonalarning moliyaviy faoliyatini umumiylaholash;
- korxonalarning moliyaviy mustahkamligi tahlili;
- buxgalteriya balansining likvidlik tahlili;
- aylanma mablag'larning aylanib turishi va korxonalarning moliyaviy holati;
- mahsulotlarning tannarxi va korxonalarning moliyaviy holati.

#### **8.4. Kichik biznes va tadbirdorlik subyektlarining moliyaviy mustahkamligi hamda ular faoliyatining moliyaviy natijalari tahlili**

Korxonalar moliyaviy holatini umumiylaholashdan keyingi moliyaviy tahlil besqichi korxonalarning moliyaviy mustahkamligi tahlili

hisoblanadi. Moliyaviy mustahkamlikni tahlil qilishdan oldin moliyaviy mustahkamlikning mazmuni to‘g‘risida kelishib olishimiz lozim.

Iqtisodiy adabiyotda moliyaviy mustahkamlikka va balans likvidligiga bir xil ta‘rif berishadi va aniqlanayotgan ko‘rsatkichni yoki moliyaviy mustahkamlik yoki balans likvidligi, ya’ni korxonalarning olingan qarzlarni qaytarib berish qobiliyatiga egalik deb tushuniladi. Moliyaviy mustahkamlik va balans likvidligi — bu o‘z mazmuniga ega bo‘lgan ikki xil moliyaviy ko‘rsatkichlar bo‘lib, korxonalar moliyaviy faoliyatini har xil nuqtayi nazardan ifodalaydi.

Moliyaviy mustahkamlik ko‘rsatkichi kompleks sifatidagi ko‘rsatkich bo‘lib, u:

- korxonalarning murakkab bozor munosabatlari davrida ishlab chiqarishni saqlanib qolish imkoniyatini;
- korxona mablag‘laridan erkin ravishda foydalanish imkoniyati borligini;
- ishlab chiqarishni to‘xtatmasdan, mahsulot sotish imkoniyati borligini;
- korxonalar faoliyatining umumiy mustahkamligini;
- korxonalar faoliyatiga turli boshqaruvlik qilinayotganligini;
- korxonalarda mavjud moliyaviy resurslarni bozor munosabatlarining talablariga javob berishligini;
- korxonalarning zaxira va xarajatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qeplovchi manbalar borligi darajasini ko‘rsatadi.

Demak, moliyaviy mustahkamlik korxonalar moliyaviy resurslaring shakllanishi va ulardan foydalanish bilan aniqlanadi. Moliyaviy mustahkamlikka korxonalarning butun xo‘jalik ishlab chiqarish faoliyatining hamma yo‘nalishlari ta’sir ko‘rsatadi. Unga ham ichki, ham tashqi omillar, shart-sharoitlar ta’sir etadi.

Ichki omillar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: korxonada ishlab chiqarishning barqarorligi; ishlab chiqarishni tashkil qilish; ishlab chiqarishni boshqarish; korxona nizom fondining hajmi; korxona xarajat va daromadlarining nisbati; o‘zlik mablag‘larining manbalari va korxona majburiyatlarining nisbati; korxona aylanma mablag‘lari tarkibi.

Korxonalar o‘z faoliyatida boshqa korxona va tashkilotlar bilan iqtisodiy aloqalarda bo‘lar ekan, korxonalar moliyaviy mustahkamligiga tashqi omillar ham ta’sir etadi, ular tarkibida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- korxonaning tovarlar bozoridagi holati;
- korxonaning eksport va import aloqalari;
- korxonaning boshqa korxonalar, ta'minlovchi va iste'molchi korxonalar bilan aloqalarda bo'lishi, ishga oid aktivligi;
- bank organlari, debitor va kreditorlar bilan aloqalar;
- respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat, soliq, narxnavo va moliya, bank siyosati, texnika, texnologiya siyosati.

Shunday qilib, moliyaviy mustahkamlikka korxona ichidagi va undan tashqaridagi vaziyat, omillar, shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatar ekan, lekin shu bilan birga moliyaviy mustahkamlik darajasi korxonalarning hozirgi va kelgusi faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, moliyaviy mustahkamlikning darajasiga binoan korxonada quyidagi muammolar yechiladi: korxona xodimlariga o'z vaqtida ish haqi to'lab turish; ta'minlovchi va iste'molchi korxonalar bilan iqtisodiy aloqalarni kerakli darajada olib borish; banklardan olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytarib turish; davlat budjetiga tegishli soliq va to'lovlarni o'z vaqtida o'tkazib turish; boshqa korxona va tashkilotlardan olingan qarzlarini o'z vaqtida qaytarib turish; korxona xodimlarini moddiy rag'batlantirib borish; korxona jamoasining sotsial rivojlanishini ta'minlash; korxonani texnikaviy darajasini ko'tarib turish.

Demak, moliyaviy mustahkamlik bir qancha omillar, shart-sharoitlar ta'sirining yakuni bo'lib, u o'z navbatida korxona faoliyatining ko'p tomonlariga ta'sirini ko'rsatadi. Moliyaviy mustahkamlikni tahlil qilishni boshlamasdan oldin yana bir muammoni ko'rib chiqishimiz kerak.

Bu moliyaviy mustahkamlikning mazmuni shundan iboratki, moliyaviy mustahkamlikni o'lhash, baholash uchun foydalananiladigan ko'rsatkichlar tizimini chegaralab olish lozim.

V.G. Artyemenko, M.V. Bellendirlarning fikricha moliyaviy mustahkamlik korxona moliyaviy resurslarini shakllanish, taqsimlanish va foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

Lekin ma'lumki, korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanish, taqsimlanish va foydalanish samaradorligi ularning umuman moliyaviy holati bo'lsa, moliyaviy mustahkamligi korxonalar faoliyatining faqat bir shaklini, yo'nalishini ifodalaydi.

A.D. Sheremet, R.S Sayfulinlarning fikricha moliyaviy mustahkamlik va to'lashga qodirlik bir mazmunga ega bo'lib, to'lashga qodirlik moliyaviy mustahkamlikning tashqi ko'rinishini ifodalaydi.

Xuddi shu fikrga A.N. Li va S.I. Shevchenkolar ham ega. Ular o‘z maqolalarida moliyaviy mustahkamlik koeffitsiyentining tahlili to‘g‘risida to‘xtalib, to‘lashga qodirlik ko‘rsatkichini tahlil etganlar.

Haqiqatda moliyaviy mustahkamlik va to‘lashga qodirlik har xil mazmunga ega bo‘lib, bu moliyaviy ko‘rsatkichlar turli usulda aniqlanadi. Undan tashqari A.N. Li va S.I. Shevchenkolar moliyaviy mustahkamlikni moliyaviy barqarorlik deb qabul qilishgan. Bu ham noto‘g‘ri. Moliyaviy barqarorlik bu -- korxonalarining moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishini, pasaymasligini ifodalaydi.

Moliyaviy mustahkamlik to‘g‘risida gap borar ekan, yana ikkita narsaga e’tibor berish lozim. Bu moliyaviy mustahkamlikning mezoni va moliyaviy mustahkamlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi. A.N. Li va S.I. Shevchenkolarning fikricha, moliyaviy mustahkamlik mezoni aniqlanishi lozim va bu mezon sifatida korxonalarining bankrot bo‘lishi ehtimolligining past darajasi tavsiya etiladi. Avvalambor moliyaviy mustahkamlik darajasiga binoan korxonalarining bankrot bo‘lish ehtimolligi aniqlanmaydi.

Fikrimizcha, moliyaviy ko‘rsatkichlarni, shu jumladan, moliyaviy mustahkamlik bo‘yicha ham mezonlar emas, optimal yoki me’yoriy darajalari tasdiqlanishi kerak.

Iqtisodiy adabiyotda moliyaviy mustahkamlik darajasini o‘lchash uchun har xil ko‘rsatkich tizimlari tavsiya etiladi. A.N. Li va S.I. Shevchenkolar moliyaviy mustahkamlikni aniqlash uchun korxona kapitalining tarkibiy ko‘rsatkichlari, V.G.Artemenko va M.V.Bellendirlar esa moliyaviy mustahkamlikni tahlil etishda nisbiy ko‘rsatkichlar bilan birga mutlaq ko‘rsatkichlardan ham foydalanishgan.

Moliyaviy mustahkamlik albatta, nisbiy ko‘rsatkichlar, zaxiralar va xarajatlar hamda ularni qoplovchi manbalar nisbati bilan aniqlanishi lozim. Zaxira va xarajatlar bilan ularni qoplovchi manbalar o‘rtasidagi farq — mutlaq ko‘rsatkichlar moliyaviy mustahkamlikni ko‘rsatmaydi. Ulardan faqat moliyaviy mustahkamlikni aniqlash uchun axborot bazasi sifatida foydalaniladi. Shunday qilib, iqtisodiy adabiyotda moliyaviy mustahkamlikni tahlil qilishda eng asosiy muammo, uning iqtisodiy mazmuni bo‘yicha iqtisodchi olimlar o‘rtasida hali kelishuv yo‘q. Moliyaviy mustahkamlik ko‘rsatkichlarini hisoblash uslubiyati bo‘yicha ham iqtisodiy adabiyotda xatoliklarga yo‘l quyishgan. Masalan A.N.Li va

S.I.Shevchenkolar tomonidan moliyaviy mustahkamlikning bir guruh ko'rsatkichlari quyidagicha aniqlanadi.<sup>1</sup>

1. Mulkiy mustaqillik =  $\frac{\text{Korxonaning kapitali}}{\text{Korxona aktivlarining o'rtacha qiymati}}$  (avtonomiya) koeffitsiyenti.

2. Moliyaviy mustahkamlik =  $\frac{\text{Korxona kapitali} + \text{uzoq muddatli majburiyatlar}}{\text{Korxona aktivlarining o'rtacha qiymati}}$  koeffitsiyenti.

3. Moliyaviy koeffitsiyenti =  $\frac{\text{Ichki kapital}}{\text{Korxona aktivlarining o'rtacha qiymati}}$

Ma'lumki, dinamik ko'rsatkichlar ikki shaklda bo'lishi mumkin. Bu lahzalik (momentlik) dinamik ko'rsatkichlar va oraliq dinamik ko'rsatkichlar.

Lahzalik dinamik ko'rsatkichlar — amiq kunga keltirilgan ma'lumotlar, ya'mi har cy, har chorakni bиринчи kuniga, yilni boshiga, oxiriga keltirilgan ma'lumotlar.

Oraliq dinamik ko'rsatkichlar - har bir davrga aniqlangan o'rtacha miqdor ma'lumotlar, ya'ni o'rtacha bir oyga, bir chorakka, bir yilga.

Hodisalarni miqdoriy ifodalash qonuniyatining talablaridan biri shundan iboratki, lahzalik dinamik ko'rsatkichlar asosan lahzalik dinamik ko'rsatkichlari bilan, oraliq dinamik ko'rsatkichlar intervallik ko'rsatkichlari bilan taqqoslanishi lozim. Ko'rinish turibdiki, yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni aniqlash uslubi bu talabga javob bermaydi.

Ko'rsatkichlarning maxrajida korxona aktivlarining o'rtacha qiymati keltirilgan, ya'ni oraliq dinamik ko'rsatkichlar. Bu ko'rsatkichlarning sur'atida esa, o'zlik kapitalning, uzoq muddatli majburiyatlar, ishchi kapitalning qoldiq summalarini (davrning boshiga yoki oxiriga), ya'ni lahzalik dinamik ko'rsatkichlar keltirilgan. Demak, foydalanilayotgan ko'rsatkichlar noto'g'ri hisoblangan. Pirovardida, moliyaviy mustahkamlik tahlilini boshlamasdan avval yana bir muammoni qurishga to'g'ri keladi. Bu — moliyaviy mustahkamlikni tahlil etishda foydalilanidigan

ko'rsatkichlar tizimidir. Bu borada ham mualliflarning tavsiyalari turlicha.

A.N.Li, S.I.Shevchenko'lar quyidagi ko'rsatkichlar tizimini tavsiya etganlar:

- joriy likvidlik (qo'llash; muhitli likvidlik; mutlaq likvidlik; harakatchan likvidlik; ishchi kapitalning foydalanish samaradorligi; qarzdorlik dinamik omili; moliyaviy qaramlik: o'zlik-qaramlik; moliyaviy mustahkamlik; manyovrganlik; bankrotlik koeffitsiyenti; asosiy vositalarni yan-gilash; qarzlar ta'minlanish; kreditorlarni mudofalanganligi koeffitsiyenti; debitorlik va kreditorlik qarzlar o'rtasidagi nisbat; aylanma va aylanmadan tashqari mablag'lar o'rtasidagi nisbat).

Ko'rinish turibdiki, tavsiya qilingan ko'rsatkichlar tizimida moliyaviy mustahkamlik keng ravishda quriladi, moliya mustahkamligiga bog'liq bo'lmagan ko'rsatkichlar ham tavsiya etiladi.

A.D. Sheremet, R.S. Sayfullin «Bozor mustahkamligini baholash» sarlavhasi ostida moliyaviy mustahkamlikni tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimini tavsiya etganlar: avtonomiya; o'z mablag'lari va qarzga olingan mablag'lar o'rtasidagi nisbat; harakatchan va noharakat-chan mablag'lar o'rtasidagi nisbat; chaqqon harakat qilish; o'z mablag'lari bilan ta'minlanish; ishlab chiqarish mol-mulk; uzoq muddatga qarz olish; qisqa muddatga olingan qarzlar; zaxiralarni xarajatlarning shakllanish manbalari koeffitsiyenti.

Bu mualliflar ham moliyaviy mustahkamlikni keng ravishda ifoda etganlar. V.G. Artemenko, M.V. Bellendir moliyaviy mustahkamlikni tahlil etish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanishgan: o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti; moddiy zaxiralarni o'z mablag'lar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti; o'z kapitalining chaqqon harakat qilish koeffitsiyenti; doimiy aktivlar indeksi; uzoq muddatga qarz olish koeffitsiyenti; eskirish koeffitsiyenti; kapitalning real qiymati koeffitsiyenti; avtonomiya koeffitsiyenti; o'zlik va qarzga olingan mablag'lar o'rtasidagi nisbat koeffitsiyenti.

Bu tavsiya qilingan ko'rsatkichlar tizimida bevosita moliyaviy mustahkamlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar kam bo'lib (bitta-ikkita), ular moliyaviy mustahkamlik darajasini tahlil etish imkoniyatini bermaydi.

I.T. Abdurakov o'z monografiyasiga moliyaviy mustaqillikni tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalangan: avtonomiya;

<sup>1</sup> Akramov E.A. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili: O'quv qo'llanna. – T., TДИУ, 2008. -41 6.

moliyaviy mustahkamlik; moliyaviy qaramlik; o'z kapitalining chaqqonlik; qarzga olingan mablag'larni yiriklashtirish; qarzga olingan o'zlik kapitallar o'rtaсидаги nisbat koeffitsiyenti.

Fikrimizcha bu ko'rsatkichlar tizimi ham moliyaviy mustahkamlikni har tomonlama tahlil qilish imkoniyatiga ega emas.

Yuqorida keltirilgan mualliflarning tavsiyalarini tahlil qilish ba'zan quyidagi xulosalarga olib keldi:

Birinchidan, moliyaviy mustahkamlikni mazmuni mualliflar tomonidan har xil ifodalanyapti.

Ikkinchidan, moliyaviy mustahkamlik moliyaviy holatning boshqa yo'nalishlari, shakllari-moliyaviy barqarorlik, balans likvidligi bilan aralashtirilib yuborilmogda.

Uchinchidan, moliyaviy mustahkamlikni tahlil etish uchun har xil tizimdagи ko'rsatkichlar tavsiya etilmoqda va bu ko'rsatkichlar tarkibida moliyaviy mustahkamlikka aloqasi bo'limgan ko'rsatkichlar tavsiya etilmoqda.

To'rtinchidan, tavsiya etilgan ko'rsatkichlar mualliflar tomonidan har xil usulda aniqlanadi va bu borada xatoliklarga ham yo'l qo'yilmoqda.

Beshinchidan, qurilgan tavsiyalarda moliyaviy mustahkamlik ko'rsatkichlari asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlarga bo'linmayapti.

Ma'lumki, moliyaviy mustahkamlik korxonalarda foydalanmayotgan ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlari yoki moddiy aylanna mablag'lар bilan ularni qoplovchi manbalar o'rtaсидаги o'zaro nisbatni ta'riflaydi, baholaydi.

Moliyaviy mustahkamlikning har xil shakllarini, har tomonlama tahlil etish uchun ikki guruh ko'rsatkichlardan foydalanish lozim, ya'ni:

1. Asosiy ko'rsatkichlar;
2. Qo'shimcha ko'rsatkichlar.

### **Asosiy ko'rsatkichlar.**

Ma'lumki, moliyaviy mustahkamlik zaxira va xarajatlar, ularni qoplovchi manbalar o'rtaсидаги nisbat bilan aniqlanadi. Bu manbalar uch xil bo'lishi mumkin.

#### **1. O'zlik manbalar.**

Korxona moddiy mablag'larni qoplash uchun umumiy o'z manbalarining bir qismidan foydalanadi. Qolgan qismidan uzoq muddatli

aktivlarni qoplash uchun foydalaniadi. Demak, o‘z manbalarini aniqlash uchun korxona umumiy o‘z manbalaridan uzoq muddatli aktivlarning qiymatini ayirib tashlashi lozim.

Birinchi manbaning simvoli ye<sup>s</sup>.

**2. O‘zlik manbalari va korxonaning uzoq muddatli majburiyatlar.** Demak, o‘z manbalariga korxonaning uzoq muddatli majburiyatlar qo‘shiladi.

Ikkinchi manbaning simvoli ye<sup>t</sup>.

**3. Manbalarning hammasi, ya’ni o‘z manbalari va korxonaning muddatli majburiyatlar.**

Yuqorida ko‘rilgan manbalar, ya’ni ye<sup>s</sup>, ye<sup>t</sup> va ye<sup>E</sup> bilan avval balans shakli bo‘yicha «Zaxiralar va xaratjatlar», 2004 yilda kiritilgan balans shakli bo‘yicha «tovar – moddiy zaxiralar» ya’ni moddiy aylanma mablag‘lar bilan ularni qoplovchi manbalar o‘rtasidagi nisbatga binoan moliyaviy mustahkamlik to‘rt shaklda bo‘lishi mumkin:

1. Mutlaq moliyaviy mustahkamlik;
2. Me’yoriy moliyaviy mustahkamlik;
3. Nome’yoriy moliyaviy mustahkamlik;
4. Inqirozga uchragan moliyaviy holat.

Mutlaq moliyaviy mustahkamlik deb shunday vaziyat tushuniladiki, korxonaning moddiy aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyoji o‘zlik mablag‘lar manbalari bilan to‘liq qoplanadi va korxona yana uzoq va qisqa muddatli majburiyatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Demak, korxona o‘z ehtiyojini qoplash bilan birga ortiqcha manbalarga ega, undan ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa ehtiyojlarga foydalanish mumkin. Xulosa: mutlaq moliyaviy mustahkamlik moliyaviy mustahkamlikning eng yuqori darajasi hisoblanadi.

Me’yoriy moliyaviy mustahkamlik shunday vaziyatki, korxonaning moddiy aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini qoplash uchun o‘z mablag‘lari manbalari yetishmaysadi va shu sababli korxona uzoq-qisqa muddatli majburiyatlardan foydalanadi. Demak, korxonaning moddiy aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyoji bu manbalar bilan qoplangan, uning ko‘p ortiqcha mablag‘lari bo‘imasligi mumkin. Lekin korxona me’yoriy ravishda o‘z faoliyatini davom ettirishi mumkin.

Nome’yoriy moliyaviy mustahkamlikda korxona og‘ir ahvolga tushib qolgan hisoblanadi, korxonaning moddiy aylanma mablag‘larga

bo‘lgan ehtiyojini o‘z mablag‘lari manbalari va uzoq muddatli majburiyatlar qoplamaydi, qoplanmagan qismi faqat qisqa muddatga olingan majburiyatlar hisobidan qoplanadi. Bu majburiyatlarni tez fursatda qaytarish lozim. Agar korxona o‘z moliyaviy holatini yaxshilash uchun kerakli tadbirlarni amalga oshirmasa, u moliyaviy inqirozga duchor bo‘lish arafasida bo‘ladi.

Inqirozga uchragan moliyaviy holatda korxonaning zaxira va xarajatlarga bo‘lgan ehtiyoji butun mavjud manbalardan foydalanilsa ham to‘liq qoplanmaydi.

Yuqorida ko‘rsatilgan moliyaviy mustahkamlikning shakllari har xil moliyaviy vaziyatlarda bo‘lishi mumkin. Har bir shakl uch vaziyatga ega. Bu vaziyatlarni aniqlash uchun moliyaviy mustahkamlik shakllari bo‘yicha Yuqorida keltirilgan manbalar «tovar – moddiy zaxiralar» – TMZ bilan taqqoslanadi.

Endi shu vaziyatlarning shakllanishini ko‘rib chiqamiz.

### **1. Mutlaq moliyaviy mustahkamlik**

Bu moliyaviy mustahkamlik bo‘lishi uchun korxonaning moddiy aylanma mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyoji bilan uni qoplovchi manbalar o‘rtasidagi nisbat quyidagi moliyaviy vaziyatlar talablariga javob berishi lozim:

1.  $(E^s : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .
2.  $(E^t : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .
3.  $(E^z : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .

Keltirilgan moliyaviy vaziyatlar shuni ko‘rsatadiki, korxonalar o‘zining moddiy aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlarini hanu o‘z manbalari, ham korxona majburiyatları — uzoq va qisqa muddatga olingan qarzlar bilan qoplashi mumkin.

Lekin Yuqorida ifodalangan uchta manbalar bilan korxonaning moddiy aylanma mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyoji o‘rtasidagi nisbat hamma vaziyatlar bo‘yicha 100 foizga barobar yoki undan ko‘p bo‘lishi lozim. Demak, moliyaviy mustahkamlik mutlaq darajada bo‘lishi uchun korxona ehtiyoji o‘z manbalari bilan to‘liq qoplanishi kerak. Korxona shu vaziyatda ham tashqi majburiyat manbalaridan foydalanishi mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, korxona e‘zining moddiy aylanma mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qoplash bilan ortiqcha manbalarga ega bo‘lib, undan ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa maqsadlarda foydalanishi mumkin.

Mutlaq moliyaviy mustahkamlik – moliyaviy mustahkamlikni eng yuqori darajasi , bozor munosabatlariga o‘tilayotgan murakkab, og‘ir shart-sharoitlarda ham mavjud.

## **2. Me’yoriy moliyaviy mustahkamlik.**

Bu moliyaviy mustahkamlik bo‘lishi uchun korxonaning moddiy aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyoji bilan uni qoplovchi manbalar o‘rtasidagi nisbat quyidagi moliyaviy vaziyatlar talablariga javob berishi lozim:

1.  $(E^s : TMZ) \times 100 < 100\%$ .
2.  $(E^t : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .
3.  $(E^\Sigma : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .

Ko‘rinib turibdiki, korxonaning moddiy aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini qoplash uchun korxonaning o‘zlik manbalari hamda uzoq muddatga olingan qarzlar yetishmaydi va korxona o‘z ehtiyojini qisqa muddatga olingan qarzlar hisobidan qoplaydi. Ma‘lumki, qisqa muddatli qarzlar bir yil muddatgacha olinadi, demak, ular yaqin fursatda qaytarilishi lozim.

Nome’yoriy moliyaviy mustahkamlikka uchragan korxonalarni jonlantirish bo‘limiga tushib qolgan kasallar bilan taqqoslash mumkin. Bu korxonalarda moliyaviy holatni yaxshilash uchun kerakli tadbirlar amalga oshirilmasa, ularning faoliyatini to‘xtab qolishi turgan gap.

Hayot shuni tasdiqlayaptiki, murakkab bozor munosabatlari davrida nome’yoriy moliyaviy mustahkamlikka ega bo‘lgan korxonalar ko‘proq uchrab turibdi.

## **4. Inqirozga uchragan moliyaviy holat**

1.  $(E^s : TMZ) \times 100 < 100\%$ .
2.  $(E^t : TMZ) \times 100 < 100\%$ .
3.  $(E^\Sigma : TMZ) \times 100 < 100\%$ .

Inqirozga uchragan moliyaviy holat shuni ko‘rsatadiki, na o‘zlik manbalari, na uzoq va qisqa muddatga olingan qarzlar korxonani moddiy aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini qoplamaydi. Demak, korxona o‘z faoliyatini mo‘tadil ravishda davom ettirolmaydi. Korxona o‘z majburiyatlaridan qutilish imkoniyatiga ega emas. Bu sharoitda korxonaga kredit bergen banklar, korxonaning ta‘minlovchilari, kreditorlari uning ustidan xo‘jalik sudiga arizalar topshirib, korxonani bankrot deb e‘lon qilish iltimosini havola etishi mumkin.

Arizalar xo‘jalik sudi organlarida ko‘rib, natijalari ikki xil shaklda bayon qilinishi mumkin.

1. Inqirozga uchragan moliyaviy holatlari korxona, agar o'ziga mablag'lar bilan yordam beruvchi korxona va tashkilotlarni, ya'ni homiylarni topsa yoki kerakli organlarning qarorlariga binoan bu korxonani ishlab chiqarish, moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida tashqaridan boshqaruvchi tayinlangan taqdirda, xo'jalik sudi organlari bu korxonani sanoatda 1,5, qishloq xo'jaligida bo'lsa, 2 yil muddatgacha sanatsiyaga o'tkazishi mumkin.

Bu muhlat tamom bo'lishi bilan xo'jalik sudi organlari masalaga yana qaytib, korxonaning moliyaviy holati yaxshilangan bo'lsa, uni ro'yxatdan o'chiradi, biroq korxonaning moliyaviy holati yaxshilangan bo'lmasa, uni bankrot deb e'lon qiladi, mol-mulki kim oshdi savdosida solilib, korxona qarzlarini egalariga qaytarib beriladi.

2. Inqirozga uchragan moliyaviy holatlari korxona kerakli homiylarni topa olmasa, unga tashqaridan boshqaruvchi tayinlanmasa, korxona xo'jalik sudi organlarining qaroriga binoan bankrot deb e'lon qilinadi va mol-mulki kim oshdi savdosida soliladi.

Respublikada bankrot deb e'lon qilingan korxona va tashkilotlar kam emas. 1999 yili bunday korxona va tashkilotlarni soni 969 ni tashkil etgan. Shunday qilib, moliyaviy mustahkamlikni shakllanishi moliyaviy vaziyatlari umuman quyidagicha bo'ladi:

**1. Mutlaq moliyaviy mustahkamlik:**

1.  $(E^s : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .
2.  $(E^t : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .
3.  $(E^\Sigma : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .

**2. Me'yoriy moliyaviy mustahkamlik:**

1.  $(E^s : TMZ) \times 100 < 100\%$ .
2.  $(E^t : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .
3.  $(E^\Sigma : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .

**3. Nome'yoriy moliyaviy mustahkamlik:**

1.  $(E^s : TMZ) \times 100 < 100\%$ .
2.  $(E^t : TMZ) \times 100 < 100\%$ .
3.  $(E^\Sigma : TMZ) \times 100 \geq 100\%$ .

**4. Inqirozga uchragan moliyaviy holat:**

1.  $(E^s : TMZ) \times 100 < 100\%$ .
2.  $(E^t : TMZ) \times 100 < 100\%$ .
3.  $(E^\Sigma : TMZ) \times 100 < 100\%$ .

Yuqorida ko‘rilgan moliyaviy mustahkamlik ko‘rsatkichi, uning to‘rt turdag‘i shakllari asosiy ko‘rsatkich bo‘lib, iqtisodiy adabiyotda moliyaviy mustahkamlikni tahlil etish uchun bir qancha boshqa ko‘rsatkichlar ham tavsiya etilgan. Fikrimizcha ularni ko‘rsatkichlar sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq.

Fikrimizcha, shunday ko‘rsatkichlar sifatida quyidagi moliyaviy koeffitsiyentlardan foydalanish maqsadga muvofiq: aylanma mablag‘larni o‘z manbalar bilan ta‘minlanganlik; majburiyat va o‘zlik manbalarning nisbat; moliyaviy qaramlik; o‘zlik kapitalning chaqqonlik; moliyalashtirish; kapitalni qarzga olish koeffitsiyentlari.

Bu qo‘shimcha moliyaviy mustahkamlik ko‘rsatkichlarini aniqlash uslubi quyidagicha (yangi balans shakli bo‘yicha):

1. Aylanma mablag‘larni o‘z manbalarini bilan ta‘minlanganlik koeffitsiyenti:

O‘z mablag‘larining manbalari – Uzoq muddatli

1. aktivlar

Joriy aktivlar

2. Uzoq muddatli majburiyatlar + Joriy majburiyatlar

O‘z mablag‘larining manbalari

Balans valutasi

3. O‘z mablag‘larining manbalari

4. O‘z mablag‘larining manbalari – Uzoq muddatli

aktivlar

O‘z mablag‘larining manbalari

5. O‘z mablag‘larining manbalari

Uzoq muddatli majburiyatlar + Joriy majburiyatlar

6. Uzoq muddatli majburiyatlar + Joriy majburiyatlar

Balans valutasi

Bu koeffitsiyentlardan har biri o‘z mazmuniga ega, moliyaviy mustahkamlikni alohida tomonlarini ifodalaydi va ular amaliyotda keng

foydalaniladi. Ularni moliyaviy mustahkamlikni tahlil qilishdagi ahamiyatini ko‘zda tutib, iqtisodiy adabiyotda, moliyaviy tahlilda foydalanish uchun bu koeffitsiyentlarning me’yoriy, optimal darajalari shakllangan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Aylanma mablag‘larni o‘z manbalari bilan ta’minlanganlik koeffitsiyenti	$\geq 1,0$ yoki 100 foiz, yoki undan yuqori
2. Majburiyat va o‘z manbalari nisbat koeffitsiyenti	$\geq 1,0$ yoki 100 foiz, yoki undan yuqori
3. Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti	$\geq 2,0$ yoki 200 foiz, yoki undan yuqori
4. O‘z kapitalining chaqqonlik koeffitsiyenti	$\geq 0,5$ yoki 50 foiz, yoki undan yuqori
5. Moliyalashtirish koeffitsiyenti	$\geq 1,0$ yoki 100 foiz, yoki undan yuqori
6. Kapitalni qarzga olish koeffitsiyenti	$\geq 0,5$ yoki 50 foiz, yoki undan yuqori

#### **Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining moliyaviy natijalari tahlili.**

Moliyaviy holatini alohida tomonlari va yo‘nalishlarini tahlil qilish masalalari avvallroq keltirilgan mavzuda ko‘rib chiqilgan edi. Moliyaviy tahlilning yakuniy bosqichi bo‘lib, korxonalar faoliyatining moliyaviy yakunlari tahlili hisoblanadi. Korxonalar faoliyatining moliyaviy yakunlari foyda va rentabellik ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Foya ijtimoiy ishlab chiqarish hamma bosqichlarining iqtisodiy toifasidir.

Qayerda ijtimoiy ishlab chiqarish barpo etilgan bo‘lsa, unda qatnashuvchilarining mehnati ikkiga bo‘linadi – birinchi qismi ishlab chiqarish qatnashchilarini shaxsiy ehtiyojlarini ta’minlash, qoplash uchun foydalaniladi, ikkinchi qismi esa mulkdorlarni, davlat va ijtimoiy ehtiyojlarni qoplashga safarbar etiladi.

Foya iqtisodiy kategoriya va moliyaviy yakun sifatida o‘zining eng yuqori ahamiyatiga bozor munosabatlari, bozor iqtisodiyeti davrida

ko‘tariladi. Foydani barpo etish, uni realizatsiya qilish bu kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishni, qiymat qonunini va xo‘jalik yuritish usuli sifatida foydalanadigan xo‘jalik hisobotining obyektiv talabidir.

Kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish ishlab chiqarishning doimo kengayishini, uning texnikaviy darajasini muntazam ko‘tarib turishni talab etadi. Buning uchun ishlab chiqarishda hamma vaqt foydaga erishilishi, realizatsiya qilinishi va undan ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalanish lozim.

Qiymat qonuni alohida korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlar – ijtimoiy-zaruriy xarajatlar darajasida yoki undan kam bo‘lishini talab etadi. Bu talabni amalga oshirish uchun korxonalar foydaga ega bo‘ladilar va ularning rentabellik darajasi o‘rtacha yoki undan yuqori bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, xo‘jalik hisebining asosiy talabi – korxonalar faoliyati rentabelli bo‘lishi, ya’ni korxonalar o‘z faoliyatini foyda olish bilan yakunlashlaridir. Foyda – mutlaq ko‘rsatkich bo‘lib, u korxonalar faoliyati samarasini ifodalaydi. Foyda korxonalar faoliyatining har xil yo‘nalishlarini moliyaviy yakunidir. Shu sababli foyda turli shaklda bo‘lishi mumkin.

Sof foyda – korxonalarning o‘zida qoladigan daromad bo‘lib, u korxonalarning ehtiyojlari uchun foydalanadigan daromadlardir. Yuqorida ko‘rilgan korxonalarning foyda shakllari moliyaviy holami tahlil qilishda katta ahamiyatga ega, lekin yana bir tahlilni o‘tkazish zarur, ya’ni bu omilli tahlil.

Omilli tahlilning murakkab emasligi quyidagi jadval materiallaridan ko‘rinib turibdi:

**Omillarning sotilgan mahsulotlardan olingan foydaga ta'sirini aniqlash uslubiyati (ming so'm)**

N	Ma'lumotlar bazasi	Ma'lumotlar	Hisob-kitoh usuli	Natija
1	2	3	4	5
1	Joriy davrda sotilgan mahsulotlar, joriy narxlarda ( $\sum K_i S_i$ )	40000	-	-
2	Joriy davrda sotilgan mahsulotlarning joriy tannarxi ( $\sum K_i C_i$ )	30000	-	-
3	Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr narxlarida ( $\sum K_i S_o$ )	35000	-	-
4	Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr tannarxida ( $\sum K_i C_o$ )	33000	-	-
5	O'tgan davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr narxlarida ( $\sum K_o S_o$ )	25000	-	-
6	O'tgan davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr tannarxida ( $\sum K_o C_o$ )	20000	-	-
7	O'tgan davrda rentabellik koeffitsiyenti ( $R_o$ )	-	$\frac{25000 - 20000}{20000}$	0,25 yoki 25 %
Omillar ta'sirining hisob-kitobi				
1	Sotilgan mahsulotlardan olingan foydaning umumiyligi dinamikasi, umumiyligi indeks	-	$\frac{40000 - 30000}{25000 - 20000}$	Foydaning o'sishi 5 ming so'm dinamikasi 200 %

**186-betdag'i jadvalning davomi**

2	Mahsulot hajmining o'zgarishi ta'siri, mahsulot hajmi indeksi	-	$\frac{33000 \times 0,25}{25000 - 20000}$	Foydaning o'sishi 3,25 ming so'm, dinamikasi 165 %
3	Mahsulot tannarxining o'zgarishi ta'siri, tannarx indeksi	-	$\frac{40000 - 30000}{40000 - 33000}$	Foydaning o'sishi 3,0 ming so'm, dinamikasi 143 %
4	Mahsulotlarga qo'yilgan narxlarning o'zgarishi ta'siri, narx indeksi	-	$\frac{40000 - 33000}{35000 - 33000}$	Foydaning o'sishi 5,0 ming so'm, dinamikasi 350 %
5	Mahsulotning tarkibiy o'zgarishi ta'siri, assortiment indeksi	-	$\frac{35000 - 33000}{33000 \times 0,25}$	Foydaning kamayishi 6,25 ming so'm, dinamikasi 24 %

Ko'rinish turibdiki, joriy davrda o'tgan davrga nisbatan korxonada sotilgan mahsulotlardan olingan foyda ikki marotaba ko'paydi – 5 ming so'mdan 10 ming so'mga yetdi. Demak, o'sish hajmi 5 ming so'mni tashkil qildi.

Bu o'sish quyidagi omillarning ta'siridir:

- mahsulot hajmi + 3,25 ming so'm yoki 165 %;
- mahsulot tannarxi + 3,0 ming so'm yoki 143 %;
- mahsulot narxları + 5,0 ming so'm yoki 350 %;
- mahsulot tarkibi - 6,25 ming so'm yoki 24 %

Jami o'sish + 5,0 ming so'm yoki 200 %.

Yoki omil indekslarni ko'paytmasi umumiyligi foyda dinamikasi indeksga barobar,

$$\frac{165}{100} \cdot \frac{143}{100} \cdot \frac{350}{100} \cdot \frac{24}{100} = 200\%.$$

Demak, korxona faoliyatida sotilgan-mahsulotlardan olinadigan foydani 2 marta ko'paytirishda — sotilgan mahsulotlarning ko'payishi, ularning tannarxini kamayishi, mahsulotlarga qo'yilgan narxlarни oshirilishi ijobjiy ahamiyatga ega bo'ladi. lekin mahsulotlarning tarkibiy o'zgarishi foyda ko'rishda saibiyligi bo'lgan.

Bir xil sabablarga ko'ra joriy davrda o'tgan davrga nisbatan ko'p foyda keltiradigan mahsulotlar kam ishlab chiqarilgan, sotilgan, ularning salmog'i butun sotilgan mahsulotlar tarkibida qisqartirilgan, natijada sotilgan mahsulotlardan olinadigan foyda 6,25 ming so'mga kamaygan.

Shunday qilib, korxonalar foydasini tahlil qilish katta ahamiyatga ega bo'lib, korxonalar faoliyati moliyaviy yakunlarining birinchi, oldingi bosqichi bo'lib hisoblanadi. Korxonalar faoliyatining moliyaviy yakunlari tahlili rentabellik ko'rsatkichiari tahlili bilan yakunlanadi.

## 8.5. Korxonalar rentabelligi tahlili

Korxonaning rentabelligi nisbiy ko'rsatkichi bo'lib, korxona faoliyati samaradorlik darajasini ifodalaydi. Demak, korxonalar faoliyatini baholashda asosiy, sifatlari ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Rentabellik darajasi korxonalar faoliyatida bajarishayotgan vazifalarni oldindan aniqlaydi. Bunday vazifalar bo'lib quyidagilar hisoblanadi.

1. Rentabellik ko'rsatkichi korxonalar faoliyatiga sarflangan sarmoyalarni o'zini o'zi qoplashini aniqlaydi. Sobiq Ittifoq davrida xalqxo'jalik miqyosida o'rtacha o'zini o'zi qoplash muhlati sifatida 7-9 yil qabul qilingan edi. Demak, korxonalar o'zini o'zi qoplash uchun ularning faoliyatida rentabellik 12-14 % dan kam bo'lmasligi kerak.

2. Hozirgi paytda hamma korxonalar faoliyatida kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish amalga oshirilishi, moliyalashtirish imkoniyatlariga ega bo'lishlari kerak, ya'ni olingan foyda hisobidan ishlab chiqarishni kengaytirib, uning texnikaviy darajasini ko'tarib borish lozim. Buning uchun, ya'ni o'zini o'zi moliyalashtirish uchun, korxonalarning rentabellik darajasi 20-25 % dan kam bo'lishi kerak emas.

3. Ma'lumki, korxonalar o'zlarining mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun o'z manbalaridan, ya'ni korxonalarga tegishli manbalardan hamda tashqaridan olinadigan uzoq va qisqa muddatli qarzlardan foydalanishi mumkin. Lekin, bu qarzlarni o'z

vaqtida qaytarib berish kerak. Buning uchun ham korxonalarning rentabelligi kerakli darajada bo'lishi lozim.

4. Respublikada ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti ko'rilayapti. Buning uchun respublikada kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirilayapti. Bu siyosat ham xalq xo'jaligida, ham alohida korxonalar miqyosida o'tkazilyapti. Korxonalarda bu masalani yechish uchun ular kerakli darajada rentabellikka ega bo'lishlari lozim.

Shunday qilib, rentabellik katta ahamiyatga ega bo'lib, uni tahlil etish moliyaviy tahlilda o'z o'mini topishi lozim.

Rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilishdan oldin ikki narsani aniqlab olish lozim:

**Birinchidan**, rentabellik qanday shakkarda bo'lishi mumkin?

**Ikkinchidan**, rentabellik nisbiy ko'rsatkichi ekan, uning darajasi qanday aniqlanishi, nimaga nisbat hisoblanishi lozim?

Avvalambor shuni ta'kidlash kerakki, rentabellik iqtisodiy toifa, atama bo'lib, sotsializm bilan bog'liq sobiq sotsialistik korxonalar samaradorligini o'lhash uchun o'ylab chiqilgan va shakllantirilgandi. Sho'ro davrida korxonalarning rentabellik ko'rsatkichi kapitalizm tizimiga taalluqli foyda me'yoriga qarshi, uning o'miga o'ylab chiqilgandi.

Ma'lumki, kapitalizm davrida foyda me'yori ikki shaklda aniqlangan:

- kapitalistik foydani kapitalistik ishlab chiqarish joriy xarajatlarga bo'lish yo'li bilan, bizning terminamologiyamiz bo'yicha bu foydani sotilgan mahsulotlarning tannarxiga bo'lish bilan;

- kapitalistik foydani kapitalistik korxonalarda avanslashtirilgan fondlarga – doimiy kapitalga, bizning terminlarimiz bo'yicha ishlab chiqish asosiy va aylanma fondlarga va o'zgaruvchan kapitalga, bizning terminalogiyamiz bo'yicha ish haqiga sarflangan kapitalmablag'larga bo'lish yo'li bilan aniqlangan.

Respublika bozor munosabatlariiga o'tar ekan, korxonalarning moliyaviy holatini baholashda yuqorida ko'rsatilgan foyda me'yor ko'rsatkichlariga o'tishi kerak edi, lekin bozor munosabatlariiga o'tish davrida rentabellik ko'rsatkichlari saqlab qolmoqda. Rentabellik ko'p qirrali, murakkab iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, u o'z shakllanish ta'rifiga ega.

Sho'ro davriming birinchi yillarda sotsializm tizimiga moslashirilgan butun iqtisodiy muammolar, ko'rsatkichlar shakllana boshladi,

jumladan, rentabellik ko'rsatkichi ham. Sho'ro davrida faoliyat kechirayotgan, yangidan tashkil qilinayotgan korxonalar ishiga baho berib, trotskiychilar foyda keltirmayotgan, demak, davlat budjetiga hech narsa o'tkazmayotgan korxonalarни yopishni, tugatishni ta'lab qildilar. Bunga qarshi sotsializm tizimiga moslashgan rentabellik ko'rsatkichni asoslash lozim edi. Shu maqsadda sotsializm tizimi davrida 1928 yildan boshlab, korxonalarning rentabelligi ikki shaklda ifodalanishi tasdiqlangan: **joriy rentabellik va xalq xo'jaligi rentabelligi**.

Joriy rentabellik foyda bilan bog'liq bo'lib, u korxonalar foyda ko'rsa, demak, ularda joriy rentabellik mavjud. Joriy rentabellikkda korxonalar faoliyati pul jamg'arnalarini ishlab chiqarish, foyda keltirish nuqtayi nazaridan baholanadi. Korxonalarda foyda bo'lmasa, joriy rentabellik yo'q, demakdir.

Lekin foyda keltirmaydigan korxonalar xalq xo'jaligiga, aholiga kerakli mahsulotlar ishlab chiqarishi mumkin. Bu vaziyat e'tiborga olingan holda xalq xo'jaligi rentabelligi aniqlangan. Xalq xo'jaligi rentabelligi – korxonalar faoliyatini xalq xo'jalik nuqtayi nazaridan baholashdir. Korxonalar foyda keltirmasa ham, agarda ular xalq xo'jaligi, aholi ehtiyojlarini ta'minlayotgan bo'lsa, bu korxonalar joriy rentabellikkiga ega emas, lekin xalq xo'jaligi rentabelligiga ega.

Joriy va xalq xo'jaligi rentabelliklarining tasdiqlanishi, qabul qilinishi, mamlakatda budjet ehtiyojlari nuqtayi nazaridan zarar keltiruvchi, lekin xalq xo'jaligini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan korxonaarni saqlab qolish imkoniyatini berdi. Rentabellik nazariyasi, amaliyoti yanada takomillasha bordi.

Birinchi rentabellik shakli joriy rentabellik deyilsa, ikkinchi shaklini istiqbollik rentabellik deb atash kerak edi. Bu holatda hozir joriy rentabellikkha ega bo'lмаган korxonalarни kelgusida bu rentabellikkha yetishishi hisob-kitob qilinsa, unda istiqbol rentabelligi kelib chiqishi mumkin edi. Bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida joriy va xalq xo'jaligi rentabellik shakllari o'miga biznesning ilmiy tadqiqotlariniizda 1955-1956 yillarda **xalq xo'jalik hisobi** va **xalq xo'jaligi rentabelligi** tavsiya etildi.

Xo'jalik hisobi rentabelligi xo'jalik yuritish uslubi sifatida qabul qilingan xo'jalik hisobi bilan bog'liq. Ma'lumki, xo'jalik hisobining eng asosiy talabi - korxonalar faoliyatida foyda keltirish, rentabellik faoliyatini ta'minlashdan iborat.

Demak, xo'jalik hisobi rentabelligi bu korxonalar faoliyatini xo'jalik hisobi talablari nuqtayi nazardan baholash, xalq xo'jaligi rentabelligi – korxonalar faoliyatini xalq xo'jaligi ehtiyojlarini qondirish, ta'minlash nuqtayi nazaridan baholashdir.

60-yillardan boshlab iqtisodiy adabiyot va amaliyotda joriy rentabellik atamasi kam ishlatalib, keyinchalik umuman ishlatilmay qo'ydi, uning o'miga xo'jalik hisobi rentabelligi iborasi ishlatilyapti. Xalq xo'jaligi rentabelligi hozirgi paytda ham o'z kuchini, ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

1965-yili qabul qilingan, amalga oshirilgan xo'jalik islohoti ~ «Yangi rejalahtirish va iqtisodiy rag'batlantirish tizimi» xo'jalik hisobi rentabelligi ko'rsatkichlarini yanada takomillashtirdi, umumiy va hisob-kitob rentabelligi ko'rsatkichlari tavsiya etildi. Umumiy rentabellik korxonalar faoliyatining moliyaviy holatini baholash uchun foydalanilib, bu ko'rsatkich korxona foydasini, uning ishlab chiqish fondlariga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Hisob-kitob rentabelligi 1965-yil xo'jalik islohoti tomonidan tasdiqlangan uchta rag'batlantirish fondlarini shakllantirish: ishlab chiqarishni rivojlantirish, korxonani ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish fondlariga mablag' ajratish bazasi sifatida qabul qilishi.

Bu rentabellik ko'rsatkichini aniqlash uchun korxonaning umumiy foydasidan fondlar uchun to'lovlarni, bank kreditlari uchun to'langan foizlarni, qayd qilingan to'lovlarni to'lab, qolgan korxona foydasini ishlab chiqish fondlariga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Shunday qilib, rentabellik ko'rsatkichining mohiyati va shakllari yillar davomida o'zgarib, takomillasha bordi. Rentabellik nisbiy ko'rsatkich ekan, uning darajasini aniqlash ham katta ahamiyatga ega.

1965-yilgacha mamlakatda barcha korxonalar rentabelligi quyida-gicha aniqlangan:

Korxona foydasi  
Sotilgan mahsulotning  
tannarxi

Ko'rinish turibdiki, u paytda qabul qilingan rentabellik ko'rsatkichi korxonaning joriy xarajatlari samaradorligini ifodalagan, chunki-

rentabellik foydani sotilgan mahsulotlarni tannarxiga bo'lish yo'li bilan aniqlangan.

Rejalashtirish tizimida mahsulotlarga narx-navolar, asosan, davlat tomonidan tasdiqlangan, davlat tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning assortimenti ham tasdiqlanar edi. Demak, korxonalar narx-navo va mahsulot assortimentini o'zgartirib, ular hisobidan foydani ko'paytirish imkoniyatiga ega emas edilar. Korxonalar olinadigan foydanning sotiladigan mahsulotlar hajmini ko'paytirish va bu mahsulotlarning tannarxini pasaytirish yo'li bilan ko'paytirardi.

Ma'lumki, rentabellik darajasiga har xil omillar ta'sir ko'rsatadi: texnikaviy, texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, ichki va tashqi omillar va hokazo. Korxonalar ulardan keng foydalanib, ularni safarbar etishardi.

Lekin qabul qilingan rentabellikni aniqlash usuli korxonalarni joriy xarajatlarini pasaytirishga safarbar etib, ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishni rag'batlantirmas edi. Natijada korxonalarda milliard-milliard so'mlik asosiy va aylanma fondlar ishlab chiqarishga kiritilmasdan, ishlatilmasdan yotardi. Qabul qilingan xo'jalik yuritish usullari korxonalarni ulardan oqilona foydalanishga safarbar etmasdi.

1965-yili qabul qilingan xo'jalik islohoti ishlab chiqarishda asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanish vazifasini ikki yo'nalishda yechadi.

Birinchidan, korxona va tashkilotlarga ortiqcha, kerak bo'lmagan moddiy resurslarni sotish huquqini berdi.

Ikkinchidan, rentabellik ko'rsatkichini hisoblash usulini takomillashirib, rentabellikni aniqlash orqali korxonalarning asosiy va aylanma mablag'lardan samarali foydalanishini rag'batlantirdi.

1965-yildan boshlab korxonalar va tashkilotlarning rentabellik darajasi quyidagi yo'l bilan hisoblanadigan bo'ldi:

#### Korxona foydasi

Isblab chiqarishning asosiy va  
me'yorlashtirilgan aylanma mablag'larining  
o'rtacha qiymati

Tavsiya etilgan yangi rentabellik ko'rsatkichi ilgari foydalanilgan rentabellik ko'rsatkichini inkor qilmaydi. Bu ko'rsatkichlar bir-birini

boyitadi, bir-birini to'ldiradi shu sababli amaliyotda ham eski, ham yangi rentabellik ko'rsatkichlardan foydalanilmoqda, chunki ular mustaqil iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'lib, ilgari foydalanilgan ko'rsatkichlar korxonalarning joriy xarajatlari samaradorligini ifodalasa, yangi rentabellik ko'rsatkichi korxonalarning ishlab chiqish asosiy va aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

Rentabellik ko'rsatkichi korxonalar faoliyatining asosiy moliyaviy natijasi hisoblanar ekan, uni tahlil etishga korxonalarning moliyaviy holati tahlilida kerakli o'rinn ajratish lozim. Shu munosabat bilan savol tug'iladi, bozor munosabatlari sharoitlarida rentabellik darajasi qanday aniqlanishi kerak va rentabellikni o'chash uchun qanday ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq?

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining hozirgi davrda professori, iqtisod fanlari doktori M. Tulaxo'jayeva xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanib, rentabellikni tahlil etish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni tavsiya etgan.

Hamma aktivlarning  
rentabellik koeffitsiyenti

= Korxonaning sof foydasi  
Balans valutasining o'rtacha qiymati

Mahsulot sotish  
rentabellik koeffitsiyenti

= Korxonaning sof foydasi  
Mahsulot sotishdan tushum

Korxonaga tegishli  
kapitalning rentabellik  
koeffitsiyenti

= Korxonaning sof foydasi  
Korxonaga tegishli kapitalning  
o'rtacha qiymati

Bitta aksiyaning rentabellik  
koeffitsiyenti

= Korxonaning sof foydasi  
Muomaladagi aksiyalar soni

Respublika iqtisodchilariidan A.N. Li S.I. Shevchenko quyidagi rentabellik koeffitsiyentlarini tavsiya qilganlar:

Aktivlar rentabelligi

= Operatsiya yoki sof foyda  
Aktivlarning o'rtacha yillik  
qiymati

Mahsulot sotish rentabelligi	=	$\frac{\text{Yalpi yoki sof foyda}}{\text{Mahsulot sotishdan sof tushum}}$	Joriy aktivlar rentabelligi	=	$\frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Joriy aktivlarning o'rtacha qiymati}}$	
Korxonaga tegishli kapital rentabelligi	=	$\frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Korxonaga tegishli kapitalning o'rtacha qiymati}}$	Investitsiya rentabelligi	=	$\frac{\text{Korxonaning umumiyl foydasi}}{\text{Asosiy mablag'lar, aylanmadan tashqari aktivlar, uzoq muddatli qarzlar, kreditlarni o'rtacha qiymati}}$	
Qarzga olingan kapitalning foydalanish samaradorligi	=	$\frac{\text{Korxonaga tegishli kapitalning rentabelligi}}{\text{Qarzga olingan mablag'larning o'rtacha foiz stavkasi}}$	Korxonaga tegishli kapitalning rentabelligi	=	$\frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Korxonaga tegishli kapitalning o'rtacha qiymati}}$	
Mahsulot rentabelligi darajasi	=	$\frac{\text{Yalpi yoki sof foyda}}{\text{Sotilgan mahsulot tannarxi}}$	Sotuv rentabelligi	=	$\frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Sotilgan mahsulotlardan tushum}}$	
Moddiy ishlab chiqarish zaxiralarining birikish koeffitsiyenti	=	$\frac{\text{Moddiy ishlab chiqarish zaxiralari}}{\text{Mahsulot sotisbdan sof tushum}}$	A.D. Sheremet va R.S. Sayfulin Rentabellikni tahlil qilish uchun quyidagi rentabellik koeffitsiyentlarni tavsiya etishgan:			
Bitta aktsiyaning foydaliligi	=	$\frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Muomaladagi aksiyalar soni}}$	Sotuv rentabelligi	=	$\frac{\text{Mahsulot sotishdan foyda}}{\text{Sotilgan mahsulotdan tushum}}$	
Fond sig'imi koeffitsiyenti	=	$\frac{\text{Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati}}{\text{Mahsulotlar sotishdan sof tushum}}$	Jami kapitalning rentabelligi	=	$\frac{\text{Korxona balansi bo'yicha foyda}}{\text{Balans valutasining o'rtacha qiymati}}$	
Kumulyativ foyda koeffitsiyenti	=	$\frac{\text{Taqsimlangan foyda}}{\text{Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati}}$	Asosiy vositalar va aylanmadan tashqari aktivlar rentabelligi	=	$\frac{\text{Korxona balansi bo'yicha sof foyda}}{\text{Asosiy vositalar va aylanmadan tashqari aktivlarning o'rtacha qiymati}}$	
O.R. Yefimova quyidagi rentabellik ko'satkichlaridan foydalangan:						
Aktivlar rentabelligi	=	$\frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Balans valutasining o'rtacha yillik qiymati}}$	Permanent kapitali rentabelligi	=	$\frac{\text{Korxona balansi bo'yicha sof foyda}}{\text{Korxonaga tegishli kapital va uzoq muddatga solingan qarzlar, kreditlarning o'rtacha qiymati}}$	

V.G. Artemenko va M.V. Bellendirlar quyidagi rentabellik ko'rsatkichlardan foydalanishgan.

$$\text{Mol-mulk rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Balans valutasining o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Joriy aktivlar rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Joriy aktivlarning o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Investitsiya rentabelligi} = \frac{\text{Korxona yalpi foydasi}}{\text{Korxonaning tegishli kapitali va uzoq muddatga olinigan qarzlarining o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Korxonaga tegishli kapital rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Korxonaning tegishli kapitalning o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Asosiy faoliyat rentabelligi} = \frac{\text{Mahsulot sotishdan foyda}}{\text{Mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar}}$$

$$\text{Ishlab chiqarish fondlar rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaning yalpi foydasi}}{\text{Ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati}}$$

Korxonalar bankrotligi va sanatsiyasi masalalari bo'yicha O'zbekistan Respublikasi hukumat hay'ati tomonidan 1997-yil 17-aprelda qabul qilingan «Moliya tahlili bo'yicha uslubiy tavsiyalarda» quyidagi rentabellik ko'rsatkichlari foydalanilgan:

$$\text{Mahsulot sotish rentabellik koeffitsiyenti} = \frac{\text{Sotilgan mahsulotdan foyda}}{\text{Sotilgan mahsulotdan tushum}}$$

$$\text{Asosiy vositalar rentabellik koeffitsiyenti} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Asosiy vositaarning o'rtacha qiymati}}$$

$$\frac{\text{Korxonaga tegishli kapitalning rentabellik koeffitsiyenti}}{\text{Korxonaning sof foydasi}} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Korxonaga tegishli kapitalning o'rtacha qiymati}}$$

$$\frac{\text{Permanent kapitalining rentabellik koeffitsiyenti}}{\text{Korxonaning sof foydasi}} = \frac{\text{Korxonaga qarashli kapitalning hamda uzoq olinigan qarzlar va kreditlarning o'rtacha qiymati}}{\text{Korxonaning sof foydasi}}$$

$$\frac{\text{Kapitalning umumiylayish rentabellik koeffitsiyenti}}{\text{Sotilgan mahsulotdan tushum}} = \frac{\text{Sotilgan mahsulotdan tushum}}{\text{Balans valutasining o'rtacha qiymati}}$$

O'zbekiston Respublikasi korxonalarini iqtisodiy nomutanosiblik ishlari bo'yicha Qo'mitasi tomonidan 1997-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy tahlili bo'yicha uslubiy tavsiyalar» va «Qishloq xo'jalik korxonalarini iqtisodiy nomutanosib deb hisoblashning vaqtincha tartibi»da rentabellik darajasini o'lchash uchun quyidagi ko'rsatkichlar tavsiya etilgan:

$$\text{Mahsulot rentabellik koeffitsiyenti} = \frac{\text{Mahsulot sotishdan foyda}}{\text{Sotilgan mahsulotning tannarxi}}$$

$$\text{Aktsialar rentabellik koeffitsiyenti} = \frac{\text{Korxonaning umumiylayish foydasi}}{\text{Balans valutasining o'rtacha qiymati}}$$

Samarqand kooperativ institutining professori, iqtisod fanlari doktori I.T. Abdurakov rentabellikni tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalangan:

$$\text{Mahsulot sotish rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaning yalpi foydasi}}{\text{Mahsulot sotishdan sof tushum}}$$

$$\text{Korxonaga tegishli kapital rentabelligi} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Korxonaga tegishli kapitalning o'rtacha qiymati}}$$

$$\text{Xarajatlar rentabelligi} = \frac{\text{Korxona asosiy faoliyatidan foyda}}{\text{Asosiy faoliyat xarajatlari}}$$

Rentabellikni tahlil qilish uchun yuqorida keltirilgan tavsiyalarga e'tiborimizni jalb qilishimizning sabablari:

1. Rentabellikni o'lhash uchun adabiyotda har xil ko'rsatkichlar tizimlari tavsiya etilgan, demak mualliflar tomonidan rentabellik mazmuni har xil tushuniladi.

2. Rentabellik ko'rsatkichlari shakllanishiga mualliflar har xil qarashadi, natijada rentabellikni baholash uchun ikkitadan yettagacha ko'rsatkichlar tavsiya etildi.

3. Yuqorida ko'rsatilgan tavsiyalardan ko'riniib turibdiki, ko'pchilik mualliflar korxonalar rentabelligini sof foydaga asoslanib aniqlaydilar. Fikrimizcha bu noto'g'ri, asoslanmagan tavsiya. Rentabellikni o'lhashdan maqsad — korxonalar faoliyatini samaradorligini aniqlash ekan, rentabellikni hisoblashda sof foyda emas, yalpi foyda yoki sotilgan mahsulotlardan olingan foyda e'tiborga olinishi lozim.

4. Mualliflar rentabellikka taalluqli bo'limgan ko'rsatkichlarni tavsiya etishgan. Masalan, bitta aktsiya rentabelli, ishlab chiqarish zaxirlarini birkitish koeffitsiyentlari fond hajmi koeffitsiyenti, kapitalning umumiyligi aylanish rentabelligi.

5. Aniq bir rentabellik ko'rsatkichiga har xil nom berishadi. Masalan: sotuv rentabelligi, realizatsiya rentabelligi, sotilgan mahsulot rentabelligi va bu ko'rsatkich har xil usul bilan aniqlanadi. Masalan: yalpi yoki sof foydani sotilgan mahsulotlar tannarxiga, sof foydani sotilgan mahsulotdan olingan tushumga, sotilgan mahsulotlardan olingan foydani sotilgan mahsulot tushumiga bo'lish yo'llari bilan aniqlanadi.

6. Ma'lumki, rentabellik korxonalar faoliyatini, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini umuman ifodalashi lozim.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkich tizimlaridan ko'riniib turibdiki, mualliflar korxona resurslarining alohida elementlari rentabelligini aniqlashni tavsiya etganlar. Masalan: asosiy vositalarni, permanent kapitalini, investitsiyalarni, qarzga olingan kapitalni, korxonaga tegishli kapitalni, asosiy va moddiy aylanma mablag'larni rentabellik ko'rsatkichlari. Bu ko'rsatkichlar sanaradorlik ko'rsatkichlari bo'lib, mazmunan rentabellikka to'g'ri kelmaydi.

Shunday qilib, umuman moliyaviy tahlilga o'xshab, rentabellik darajasini o'lhashda ham umumiyligi qabul qilingan uslub, ko'rsatkichlar tuzilmasi hali shakllanmagan.

Rentabellik darajasini o'lhash uslubi, rentabellik ko'rsatkichlari tizimining shakllanishi quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- rentabellik ko'rsatkichlari asosiy va qo'shimcha shakllarda bo'lishi kerak. Asosiy ko'rsatkichlar korxona faoliyatining umumiyligi natijasi samaradorligini ifodalab bersa, qo'shimcha rentabellik ko'rsatkichlari esa korxona resurslarining alohida elementlari samaradorligini ifodalaydi;

- rentabellik ko'rsatkichi korxona faoliyatini umumiyligi-moliyaviy natijasini ifodalar ekan, rentabellik ko'rsatkichi, avvalambor, korxonaning yalpi yoki uning asosiy faoliyatidan olingan foyda asosida aniqlanishi lozim, lekin ba'zi paytlarda rentabellikni o'lhash oldiga qo'yilgan maqsadga binoan rentabellik ko'rsatkichi sotilgan mahsulotdan olingan foydaga asosan ham aniqlanadi.

Bu tamoyillarga binoan korxonalar rentabelligini tahlil etishda, fikrimizga, quyidagi rentabellik ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq.

#### 1. Rentabellikning asosiy ko'rsatkichlari:

- korxona aktivlarining yoki mol-mulkining rentabelligi;  
- ishlab chiqarish rentabelligi yoki ishlab chiqarish asosiy va aylanma fondlarining rentabelligi;

- korxona joriy xarajatlarining rentabelligi;  
- mahsulot rentabelligi.

#### 2. Rentabellikning qo'shimcha ko'rsatkichlari:

- korxonaga tegishli kapitalning rentabelligi;  
- asosiy kapitalning rentabelligi;  
- aylanma kapitalning rentabelligi;  
- investitsiyalarning rentabelligi;  
- permanent kapitalining rentabelligi;  
- qarzga olingan kapitalning rentabelligi.

Ko'riniib turibdiki, tavsiya qilinayotgan rentabellik ko'rsatkichlar tizimi aniq bir tartibga solinib, unda yuqorida keltirilgan mualliflarning fikrlari ham e'tiborga olingan. Bu ko'rsatkichlarning aniqlash uslubiyatlari quyidagicha bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

#### 1. Rentabellikning asosiy ko'rsatkichlari:

$$\frac{\text{Soliq to'lanishdan oldingi foyda}}{\text{Mol-mulkning rentabelligi}} = \frac{}{\text{Korxona mol-mulkining o'rtacha qiymati}}$$

Bu ko'rsatkich butun korxona mol-mulki samaradorligini ifodalaydi. Mol-mulk korxonaning butun ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyati uchun xizmat qiladi. Shu sababli bu ko'rsatkich korxonaning yalpi foydasi soliqlar to'lanishdan oldingi foydaga asosan aniqlanishi lozim.

**Ishlab chiqarish rentabelligi** korxonalarda ishlatilayotgan ishlab chiqarish asosiy va aylanma fondlardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi. Ishlab chiqarish fondlar korxona faoliyatini moddiy bazasini tashkil etib, ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lib hisoblanadi. Shu sababli bu ko'rsatkich ham korxonaning soliq to'lashdan oldingi foydasi asosida aniqlanishi lozim.

$$\text{Ishlab chiqarish rentabelligi} = \frac{\text{Soliq to'lashdan oldingi foyda}}{\text{Ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati}}$$

Moliyaviy hisobotlarga binoan aniqlasak soliq to'lashdan oldingi foyda hisoboti 2-shaklidan, ishlab chiqarish asosiy va aylanma fondlarning o'rtacha qiymati buxgalteriya balansi yoki buxgalteriya birlamchi hisobot ma'lumotlariga binoan aniqlanadi.

**Joriy xarajatlar rentabelligi** ilgaridan foydalanadigan rentabellik ko'rsatkichi bo'lib, u korxona xarajatlarini mahsulotni ishlab chiqarib, uni sotishga ketgan xarajatlar samaradorligini ifodalaydi. Demak, bu ko'rsatkich mahsulot sotish bilan bog'langan bo'lib, mahsulot sotishdan olingan foydaga asosan aniqlanadi.

$$\text{Joriy xarajatlar rentabelligi} = \frac{\text{Mahsulot sotishdan foyda}}{\text{Sotilgan mahsulot tarmoksi}}$$

**Mahsulot rentabelligi**, odatda, savdo tashkilotlarida keng foydalanib, hozirgi paytda foydalanish uchun boshqa tarmoqlarga ham tavsija etilyapti. Bu ko'rsatkich va demak, u sotilgan mahsulotdan olingan foyda asosida aniqlanishi lozim.

$$\text{Mahsulot rentabelligi} = \frac{\text{Mahsulot sotishdan olingan foyda}}{\text{Mahsulot sotishdan tushum}}$$

Sotilgan mahsulotdan olingan tushum sof bo'lishi lozim. Ya'ni yalpi tushumdan qo'shilgan qiymatga solinadigan soliq va aksiz soliqlar olib tashlanishi kerak.

## 2. Qo'shimcha rentabellik ko'rsatkichlari:

Korxonaga tegishli kapitalning rentabelligi. Ma'lumki, korxonalar o'zlik va tashqaridan safarbar etilgan mablag'lardan foydalanadilar. Ularning samaradorligini alohida aniqlash, moliyaviy tahlilni chuqurlash-tirishga yordam beradi.

$$\text{Korxonaga tegishli kapitalning rentabelligi} = \frac{\text{Soliq to'lanishdan oldingi foyda}}{\text{Korxonaga tegishli kapitalning o'rtacha qiymati}}$$

Qarzga olingan kapitalning rentabelligi uzoq va qisqa muddatga olingan qarzlar samaradorligini ko'rsatadi. Bu qarzlar ham korxonaning butun ishlab chiqarish - xo'jalik faoliyatiga xizmat qiladi va shu sababli ular samaradorligi korxonaning yalpi foydasi asosida aniqlanadi.

$$\text{Qarzga olingan kapitalning rentabelligi} = \frac{\text{Soliq to'lanishdan oldingi foyda}}{\text{Qarzga olingan kapitalning o'rtacha qiymati}}$$

Asosiy kapitalning rentabelligi ham korxonaning yalpi foydasi asosida aniqlanishi lozim. Chunki asosiy kapital korxonaning butun faoliyatiga xizmat qiladi va uning rentabelligi asosiy fondlarni korxona foydasi asosida aniqlangan fondlar qaytimidir.

$$\text{Asosiy kapitalning rentabelligi} = \frac{\text{Soliq to'lanishdan oldingi foyda}}{\text{Asosiy kapitalning o'rtacha qiymati}}$$

Aylanma kapitalning rentabelligi ham korxonaning yalpi foydasi asosida aniqlanishi lozim. Chunki aylanma mablag'lari ham korxonaning butun faoliyatiga xizmat qiladi. Bu ko'rsatkich korxona moddiy va pul aylanma mablag'lari samaradorligini ifodalaydi.

$$\text{Aylanma kapitalning rentabelligi} = \frac{\text{Soliq to'lanishdan oldingi foyda}}{\text{Aylanma kapitalning o'rtacha qiymati}}$$

Investitsiyalar rentabelligi ham korxonaning yalpi foydasi asosida aniqlanib, bu ko'rsatkich korxona asosiy kapitalini hamda uzoq muddatga olingan kredit va qarzlar samaradorligini ifodalaydi.

$$\text{Investitsiya rentabelligi} = \frac{\text{Soliq to'lanishdan oldingi foyda}}{\text{Asosiy kapital va uzoq muddatga olingan kredit qarzlarning o'rtacha qiymati}}$$

Shunday qilib, korxonalarining moliyaviy holatiga moliyaviy resurslarning alohida elementlari ta'sir ko'rsatar ekan, demak, bu elementlarning ham rentabelligini tahlil qilish katta ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, korxona resurslarining alohida elementlari korxonalarining moliyaviy holatini umumiy darajasiga ta'sir ko'rsatar ekan, bu resurslarning rentabelligi aniqlanganda, soliq to'lashdan oldingi, ya'ni yalpi foyda e'tiborga olinishi lozim.

Endi yuqorida ko'rilgan rentabellikning asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlarini korxonamiz misolida ko'ramiz (quyidagi jadval asosida).

#### Rentabellik ko'rsatkichlari hisob-kitobi (ming so'm)

Ma'lumotlar bazasi	Joriy davr	O'tgan davr	Dinamika
1	2	3	4
1. Korxona aktivlarining o'rtacha qiymati	7622,7	6901,1	110,5
2. Ishlab chiqarish fondiarining o'rtacha qiymati	4311,9	3133,0	137,4
3. Korxonaga tegishli kapitalning o'rtacha qiymati	5972,2	4537,8	137,6
4. Asosiy kapitalning o'rtacha qiymati	5535,2	3799,3	145,7
5. Aylanma mablag'larning o'rtacha qiymati	2087,7	3101,0	67,3
6. Uzoq muddatli qarzlarning o'rtacha qiymati	1065,7	-	-

	202-betdag'i jadvalning davomi		
7. Mahsulotlar sotishdan tushum	9536,0	3279,6	103,8
3. Sotilgan mahsulotlarning tannarxi	5273,4	6017,1	87,0
9. Soliq to'lashdan olingan foyda	4550,0	3622,4	125,6
10. Mahsulotlar sotishdan olingan foyda	4362,6	3262,9	133,7
2. Rentabellik ko'rsatkichlari			
A) Asosiy ko'rsatkichlar, foiz			
1. Korxona aktivlarining rentabelligi (9:1)	59,7	52,5	113,7
2. Ishlab chiqarish rentabelligi (9:2)	105,5	115,3	91,5
3. Korxona joriy xarajatlarning rentabelligi (10:8)	86,2	54,2	159,0
4. Mahsulot rentabelligi (10:7)	47,3	35,2	134,1
B) Qo'shimcha ko'rsatkichlar, foiz			
1. Korxonaga tegishli kapitalning rentabelligi (9:3)	76,2	79,8	95,5
2. Qarzga olingan kapitalning rentabelligi (9:6)	426,8	-	-
3. Asosiy kapitalning rentabelligi (9:4)	32,2	95,3	86,3
4. Aylanma kapitalning rentabelligi (9:5)	21,9	116,8	186,9
5. Investitsiyalarning rentabelligi 9:(3 + 6)	61,2	79,8	76,7

Jadval ma'lumotlariga va aniqlangan rentabellik ko'rsatkichlariga binoan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- rentabellik ko'rsatkichlari joriy davrda o'tgan davrga nisbatan umuman ko'tarilgan. Demak, korxona faoliyatining moliyaviy natijalari yaxshilangan;
- lekin rentabellik ko'rsatkichlari har xil o'zgargan. Demak, ularning o'zgarishiga har xil omillar ta'sir ko'rsatgan;
  - eng yuqori sur'atlarda ko'tarilgan ko'rsatkichlar — bu joriy xarajatlarning va aylanma mablag'larning rentabellik ko'rsatkichlaridir;
  - joriy xarajatlarning rentabelligini oshishi - sotilgan mahsulotlarning tannarxini pasaytirish yo'li bilan qo'lga kiritilgan;
  - aylanma mablag'lar rentabelligining ko'tarilishi, fikrimizcha, korxonada me'yordan yuqori aylanma mablag'larni yo'q qilish natijasi bo'lsa kerak.

- sotilgan mahsulotlarning rentabelligi - sotilgan mahsulotlar tannarxining pasaytirishi natijasidir. Ko'rinib turibdiki, sotilgan mahsulotlarning hajmi 3,8 % ga ko'paygan, sotilgan mahsulotlar tannarxi shu davrda 12,4 % ga pasaygan;

- korxona aktivlarining rentabelligi ko'tarilgan, lekin shu davrda ishlab chiqarish fondlarining rentabelligi pasaygan. Bunga sabab o'rganilayotgan davrda korxonada ishlab chiqarish fondlari 37,4 % ga ko'paygan. Yangi fondlar hali o'zlashtirilmagan. Shu sababli ishlab chiqarish fondlari samaradorligi pasaygan;

- xuddi shu sababli yangi fondlarning o'zlashtirilmaganligi natijasida korxonaga tegishli kapitalining va investitsiyalarning rentabellik darajasi kamaygan.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, rentabellikni tahlil qilishda ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish kerak. Bu ko'rsatkichlardan har biri korxonalar moliyaviy natijasining alohida tomonlarini, xususiyatlarini ifodalaydi va bu moliyaviy natijalarni har tomonlama tahlil qilishga imkoniyat beradi. Rentabellikni tahlil etish rentabellik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish bilan yakunlanishi lozim. Yuqorida keltirilgan rentabellik ko'rsatkichlariga, ulardan har biri bilan bog'liq bo'lgan omillar ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, korxona aktivlari rentabelligiga aylanma mablag'larning aylanishi, mahsulot rentabelligi o'zgarishi; ishlab chiqarish rentabelligiga – aylanma mablag'larni birkitish, mahsulot rentabelligi o'zgarishi va mahsulot fond sig'imi, fondlar qaytimi; mahsulot rentabelligiga mahsulot tannarxi, mahsulotlarga qo'yilgan narxlar; joriy xarajatlar rentabelligiga narxlar va sotilgan mahsulotning tarkibiy o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi.

#### **Joriy xarajatlar rentabelligi omillari.**

Yuqorida aytilganidek, joriy xarajatlar rentabelligiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- sotilgan mahsulot tannarxining o'zgarishi;
- sotilgan mahsulot narxining o'zgarishi;
- sotilgan mahsulotning tarkibiy o'zgarishi.

Omilli tahlil uchun indeks usulidan foydalanamiz, buning uchun joriy xarajatlar rentabelligini umumiyl dinamika va omilli indekslarini hisoblaymiz.

Joriy xarajatlar rentabeiligi dinamikasi, ya'ni joriy davrda o'tgan davrga nisbatan o'zgarish indeksi, bu:

Joriy davrda sotilgan mahsulotdan olingen foyda  
Joriy davrda sotilgan mahsulotning tannarxi

O'tgan davrda sotilgan mahsulotdan olingen foyda  
O'tgan davrda sotilgan mahsulotning tannarxi

Umumiy dinamik indeksining shakli:

$$\frac{\sum M_1 B_1 - \sum M_0 T_1}{\sum M_1 T_1} : \frac{\sum M_0 B_0 - \sum M_0 T_0}{\sum M_0 T_0},$$

bu yerda:

$M_1$  va  $M_0$  – joriy va o'tgan davrda sotilgan mahsulotlarni turlari bo'yicha miqdori;

$B_1$  va  $B_0$  – joriy va o'tgan davrda mahsulot turlari bo'yicha, narxnavolar;

$T_1$  va  $T_0$  – joriy va o'tgan davrda mahsulotlarni turlari bo'yicha tannarxi.

$\Sigma M_1 B_1$  – joriy davrda sotilgan mahsulotlar tushumi;

$\Sigma M_0 B_0$  – o'tgan davrda sotilgan mahsulotlar tushumi;

$\Sigma M_1 T_1$  – joriy davrda sotilgan mahsulotlar tannarxi;

$\Sigma M_0 T_0$  – o'tgan davrda sotilgan mahsulotlar tannarxi.

Indeksdan ko'rinib turibdiki, joriy xarajatlar rentabelligi dinamikasini aniqlash uchun bu rentabellikning joriy davrdagi darajasi o'tgan davrdagi darajasi bilan taqqoslanadi. Joriy xarajatlar rentabelligi darajasi joriy va o'tgan davrda sotilgan mahsulotdan olingen foydani sotilgan mahsulotning tannarxiga bo'lish bilan aniqlanadi.

Endi omilli indekslarni keltiramiz.

#### **Tannarxning ta'siri indeksi:**

Joriy davrda sotilgan mahsulotdan foyda  
Joriy davrda sotilgan mahsulotning tannarxi

Joriy davrda sotilgan mahsulotdan foyda, mahsulotning o'tgan davr tannarxi bo'yicha  
Joriy davrda sotilgan mahsulotning tannarxi

Tannarx ta'siri indeksining shakli:

$$\frac{\sum M_1 B_1 - \sum M_1 T_0}{\sum M_1 T_1} : \frac{\sum M_1 B_1 - \sum M_1 T_0}{\sum M_1 T_1}$$

bu yerda:

$\Sigma M_1 T_0$  — joriy davrda sotilgan mahsulotlarning o'tgan yilgi tannarxi.

Bu indeksda ham sotilgan mahsulotdan olingan foyda dinamikasi aniqlanadi, lekin bu gal joriy davrda olingan foyda o'tgan davr tannarxiga asoslangan foyda bilan taqqoslanadi.

Ko'rinib turibdiki, taqqoslashda faqat sotilgan mahsulotning tannarxi o'zgaryapti. Demak, bu indeks tannarxning joriy xarajatlar rentabelligiga ta'sirini ifodalaydi.

#### Narx-navo ta'siri indeksi:

Joriy davrda o'tgan davr tannarxi asosida sotilgan mahsulotdan foyda

Joriy davrda o'tgan davr narx-navosi va tannarxi asosida sotilgan mahsulotdan foyda

Joriy davrda sotilgan mahsulotning tannarxi

Joriy davrda sotilgan mahsulotning tannarxi

#### Narx-navo ta'siri indeksi shakli:

$$\frac{\sum M_1 B_0 - \sum M_1 T_0}{\sum M_1 T_1} : \frac{\sum M_0 B_0 - \sum M_0 T_0}{\sum M_0 T_1}$$

Ko'rinib turibdiki, bu indeksda joriy davrda sotilgan mahsulot ( $M_1$ ) asosida aniqlangan ikki joriy xarajatlar rentabelligi darajasi taqqoslyapti. Sotilgan mahsulotdan olingan foydalar aniqlanganda, sotilgan mahsulot soni ( $M_1$ ), sotilgan mahsulot tannarxi ham ( $T_0$ ) o'zgarmayapti, narx-navo esa ( $B_1$  va  $B_0$ ) o'zgaryapti. Demak, bu hisobkitcoba joriy xarajatlar rentabelligi dinamikasiga narx-navo o'zgarishi ta'siri aniqlanadi.

#### Mahsulet tarkibi ta'siri indeksi:

O'tgan davrgi narx va tannarxda joriy davrda sotilgan mahsulotlardan foyda  
Joriy davrda sotilgan mahsulotning tannarxi

O'tgan davrda sotilgan mahsulotdan olingan foyda  
O'tgan davrda sotilgan mahsulot tannarxi

#### Narx-navo ta'siri indeksi shakli:

$$\frac{\sum M_1 B_0 - \sum M_1 T_0}{\sum M_1 T_1} : \frac{\sum M_0 B_0 - \sum M_0 T_0}{\sum M_0 T_1}$$

bu yerda:

$M_1 B_0$  — sotilgan mahsulotdan joriy davrda o'tgan davr narxi asosida olingan tushum.

$M_1 T_0$  — joriy davrda sotilgan mahsulotning o'tgan davr tannarxida hisoblangan hajmi.

Ko'rinib turibdiki, bu indeksda joriy davrdagi joriy xarajatlarni rentabellik darajasi o'tgan davrdagi rentabellik darajasi bilan taqqoslanadi, lekin bu rentabellik ko'rsatkichlarida faqat mahsulotlar tarkibi o'zgargan. Demak, bu indeks joriy xarajatlar rentabelligiga mahsulotlar tarkibiy o'zgarishi ta'sirini ifodalaydi.

Yuqorida foydalanilgan indekslarni aniqlash ko'p qiyin emas. Moliyaviy hisobotda mahsulotlar sotish tushumi, sotilgan mahsulotlar tannarxi va sotilgan mahsulotlardan olingan foyda to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Buxgalteriya birlamchi hisobidan faqat joriy davrda sotilgan mahsulotlarni o'tgan davr narx-navolarida ( $\Sigma M_1 B_0$ ) va o'tgan davr tannarxida baholanish ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olishga to'g'ri keladi ( $\Sigma M_1 B_1$ ).

Aniqlangan omilli indekslar o'zaro aloqada bo'lib, ular bir-biriga ko'paytirilsa, joriy xarajatlar rentabelligi umumiy indeksi olinadi, ularning mutlaq o'zgarish farqlari olinsa, ularning summasi umumiy indeksning farqiga barobar.

Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanib tasdiqlaymiz:

## Joriy xarajatlar rentabelligi omillari ta'siri

N	Ma'lumotlar bazasi	Ming so'm
1	Joriy davrda sotilgan mahsulotlardan tushum ( $\Sigma M_1 B_1$ )	800
2	Joriy davrda sotilgan mahsulotlar tannarxi ( $\Sigma M_1 T_1$ )	640
3	O'tgan davrda sotilgan mahsulotlardan tushum ( $\Sigma M_0 B_0$ )	595
4	O'tgan davrda sotilgan mahsulotlar tannarxi ( $\Sigma M_0 T_0$ )	490
5	Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr narxnavolari ( $\Sigma M_1 B_0$ )	680
6	Joriy davrda sotilgan mahsulotlar o'tgan davr tannarxida ( $\Sigma M_1 T_0$ )	560

### 1. Joriy xarajatlar rentabelligining umumiyligi indeksi

$$\frac{800 - 640}{640} : \frac{595 - 490}{490} = (0,250 : 0,214) \cdot 100 = 116,7 \%$$

Demak, joriy xarajatlar rentabelligi joriy davrda o'tgan davrga nisbatan 16,7 % ga oshgan.

### 2. Sotilgan mahsulotlar tannarxining ta'siri:

$$\frac{800 - 640}{640} : \frac{800 - 560}{640} = (0,250 : 0,375) \cdot 100 = 66,6 \%$$

Demak, korxonada sotilgan mahsulotlar tannarxining o'zgarishi joriy xarajatlar rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, natijada joriy xarajatlar rentabelligi 33,4 % ga kamaygan (100-66,6). Joriy davrda o'tgan davrga nisbatan sotilgan mahsulotlarning tannarxi ko'tarilgan. Masalan, sotilgan mahsulotlarni bir so'mga nisbatan sarf etilgan xarajatlar o'tgan davrda 17,6 tiyindan joriy davrda 20 tiyinga ko'tarildi.

### 3. Sotilgan mahsulotlarga quyilgan narx-navoning ta'siri:

$$\frac{800 - 560}{640} : \frac{680 - 560}{640} = (0,375 : 0,186) \cdot 100 = 200 \%$$

Ko'rinish turibdiki, korxona mahsulotlari narx-navolar ko'tarilgan, natijada joriy xarajatlar rentabelligi darajasi ikki marta ko'tarilgan. Demak, narx-navolarni o'zgartirish rentabellikka ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

### 4. Sotilgan mahsulotlarning tarkibiy o'zgartirilishi ta'siri:

$$\frac{680 - 560}{640} : \frac{595 - 490}{490} = (0,186 : 0,314) \cdot 100 = 87,6 \%$$

Joriy davrda o'tgan davrga nisbatan sotilgan mahsulotlarning tarkibi o'zgardi va bu o'zgarish joriy xarajatlar rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu omil ta'sirida joriy xarajatlar rentabelligi 12,4 % ga kamaygan (100-87,6).

Umumiyligi dinamika indeksi bilan omilli indekslar o'rtasidagi bog'lanish quydagi tasdiqlanadi:

Rentabellik darajasi	Joriy davr	O'tgan davr	+o'sish / -kamayish
Umumiyligi rentabellik	25,0	21,4	+ 3,6
Tannarxi ta'siri	25,0	37,5	-12,5
Narx-navo ta'siri	37,5	18,6	+ 18,9
Mahsulot tarkibi ta'siri	18,6	21,4	-2,8
Jami	X	X	3,6

yoki

$$\frac{25}{21,4} = \frac{25}{37,5} \cdot \frac{37,5}{18,6} \cdot \frac{18,6}{21,4}$$

yoki

$$1,167 = (0,666 \cdot 2 \cdot 0,876) yoki 116,7\%$$

Demak, joriy xarajatlar rentabelligining umumiyligi indeksi uch omilli indekslar ko'paytmasiga barobar.

Ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarish asosiy va aylanma fondlarning rentabelligiga, yuqorida aytligandek quydagi uch omil ta'sir ko'rsatadi:

- mahsulotlar rentabelligining o'zgarishi;
- fondlar sig'imining o'zgarishi;
- aylanma mablag'larni birkitish ko'rsatkichining o'zgarshi.

Yana umumiy dinamik va omillar ko'rsatkichlarini aniqlaymiz.

### **1. Ishlab chiqarish rentabellining umumiy dinamikasi:**

Joriy davrda olingen  
yalpi foyda

O'tgan davrda olingen  
yalpi foyda

Joriy davrda ishlab chiqarish  
fondlarining o'rtacha qiymati

O'tgan davrda ishlab chiqarish  
fondlarining o'rtacha qiymati

Ishlab chiqarish rentabelligi dinamikasi – demak, bu joriy davrdagi rentabellik ko'rsatkich darajasini o'tgan davrdagi rentabellik ko'rsatkichi darajasi bilan solishtirishdir.

### **2. Ishlab chiqarish rentabelligiga mahsulot rentabelligi o'zgarishining ta'siri:**

Joriy davrdagi rentabellik  
darajasi

O'tgan davrdagi ishlab  
chiqarish rentabellik darajasi

O'tgan fondlar sig'imining  
darajasi

Fondlar sig'imi darajasi – bu o'tgan davrda asosiy fondlar qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'linishidir, ya'ni, o'tgan davrda har bir so'mlik mahsulotga asosiy fondlarining qancha qiymati to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

### **3. Fondlar sig'imining o'zgarishi ta'siri:**

Joriy davrdagi fondlar sig'imi  
va o'tgan davrdagi aylanma  
mablag'larni birkitish  
ko'rsatkichiga asoslangan  
joriy davr ishlab chiqarish  
rentabellik darajasi

O'tgan davrdagi fondlar  
sig'imi va o'tgan davrdagi  
aylanma mablag'larning  
birkitish ko'rsatkichiga  
asoslangan ishlab chiqarish  
rentabellik darajasi

Hisob-kitob qilingan ishlab chiqarish rentabellik ko'rsatkichlarida faqat mahsulotning fondlarga qaytishi o'zgaryapti, demak, bu omilni ta'siri aniqlanyapti.

### **4. Aylanma mablag'larning birkitish ko'rsatkichi o'zgarishining ta'siri:**

Joriy davrdagi ishlab chiqarish rentabellik darajasi

Aylanma mablag'larni o'tgan davrdagi birkitish ko'rsatkichiga asoslangan joriy davrdagi ishlab chiqarish rentabelligi darajasi

Endi yuqorida ko'rilgan umumiy va omilli ishlab chiqarish rentabelligi ko'rsatkichlarini misolda miqdoran aniqlaymiz. Ishlab chiqarish rentabellining umumiy o'zgarishi.

$$\frac{200}{300} : \frac{120}{200} = (0,667 : 0,600) \cdot 111,2$$

Demak, joriy davrda o'tgan yilga nisbatan ishlab chiqarish rentabelligi 11,2 % ga oshgan.

### **1. Mahsulot rentabelligi ta'siri:**

$$(\frac{180}{550} : \frac{120}{200}) : \frac{120}{200} = (0,654 : 0,600) \cdot 100 = 109$$

### **Ishlab chiqarish rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillarning hisob-kitobi (ming so'm)**

N	Ma'lumotlar bazasi	Joriy davr	O'tgan davr	Dinamika
1	2	3	4	5
1	Sotilgan mahsulotdan tushum	550	400	137,5
2	Ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha qiymati	300	200	150,0
3	Asosiy kapitalning o'rtacha qiymati	220	150	146,7
4	Aylanma kapitalning o'rtacha qiymati	80	50	160,0
5	Soliq to'lashdan oldingi foyda	200	120	166,7

6	Mahsulot sotishdan foyda	180	110	163,6
7	Ishlab chiqarish rentabelligi (5:2)	66,7	60,0	111,2
8	Mahsulot rentabelligi (6:1)	32,7	27,5	113,8
9	Fond sig'imi — bir so'mlik tushumga asosiy kapital qiymati (3:1) tiyin	40,0	37,5	106,7

Demak, mahsulot rentabelligining o'zgarishi ishlab chiqarish rentabelligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi va natijada ishlab chiqarish rentabelligi 9 % ga oshdi.

## 2. Fondlar qiymati (fond sig'imi) o'zgarishining ta'siri:

$$[\frac{180}{550} : (\frac{220}{550} + \frac{50}{400})] : (\frac{180}{550} : \frac{200}{400}) = (0,622 : 0,654) \cdot 100 = 95,1$$

Fondlar qaytimi tushumning bir so'miga nisbatan 37,5 tiyindan 40,0 tiyinda ko'tarilishi ishlab chiqarish rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada ishlab chiqarish rentabelligi darajasi 4,9 % ga pasaydi.

## 3. Aylanma kapitalning birkitish ko'rsatkichi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{200}{300} : [\frac{180}{550} : (\frac{220}{550} + \frac{50}{400})] = (0,666 : 0,623) \cdot 100 = 106,9$$

Aylanma kapitalni birkitish ko'rsatkichi o'zgarishi ishlab chiqarishlar rentabelligini 6,9 % ga ko'tardi.

Demak, ishlab chiqarish rentabelligiga mahsulot rentabelligini va aylanma kapitalni birkitish ko'rsatkichlari ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Fondlarning qaytimi esa salbiy ta'sir ko'rsatdi. Endi korxonalar aktivlari rentabelligi va unga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rib chiqamiz.

## Korxonalar aktivlari rentabelligining umumiyl o'zgarishi:

Korxona aktivlarining joriy davrdagi rentabellik darajasi

Korxona aktivlarining o'tgan davrdagi rentabellik darajasi

## Korxonalar aktivlari rentabelligiga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

1. Korxona aktivlarining aylanishi.
2. Mahsulot rentabelligi.

### 1. Korxona aktivlari rentabelligiga korxona aktivlari aylanishining ta'siri:

$$(O'tgan davrdagi mahsulot rentabelligi) \times (Korxona aktivlarining aylanish miqdori)$$

O'tgan davrdagi korxona aktivlari rentabelligi

### 2. Korxona aktivlari rentabelligiga mahsulot rentabelligi ta'siri:

Joriy davrda korxona aktivlari rentabelligi

$$O'tgan davrdagi mahsulot rentabelligi \times (Korxona aktivlarining aylanish miqdori)$$

Bu hisob-kitoblarni korxona ma'lumotlarida ko'rib chiqamiz.

## Korxona aktivlarining rentabelligi (ming so'm)

Ma'lumotlar bazasi	Joriy davr	O'tgan davr			
			1	2	3
1. Sotilgan mahsulotdan tushum			600	500	
2. So'liq to'lanmasdan oldingi foyda			150	100	
3. Korxona aktivlarining o'rtacha qiymati			45	40	
4. Korxona aktivlarining aylanish miqdori (1:3)			13,3	12,5	
5. Mahsulot rentabellik darajasi (2:1)			25	20	
6. Korxonalar aktivlarining rentabellik darajasi (2:3)			250	333	

Joriy davrda o'tgan davrga nisbatan korxona aktivlarining rentabelligi 33,2 foizga oshdi. Ko'rinish turibdiki, korxonalar aktivlarining

aylanishi tezlashgan — 12,5 martadan 13,3 martagacha ko'paygan. Demak, bu omilning ta'siri:

$(20 \times 13,3) : 250 = (266 : 250) \times 100 = 106,4\%$  ijobiy bo'lib, aktivlar rentabelligini 6,4 % ga ko'tarishga imkon bergan.

Mahsulot rentabelligi ham tahlil qilinayotgan davrda ko'tarilgan, demak, bu omil ham aktivlar rentabelligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ya'ni:

$$333 : (20 \times 133) = (333 : 266) \times 100 = 125,2\text{ foiz.}$$

Korxona aktivlari rentabelligini 25,2 % ga ko'tarishga imkon bergan. Ikki omilning ko'paytmasi korxonalar aktivlari rentabelligining umumiyligi dinamikasiga teng, ya'ni:

$$\frac{106,4 \cdot 125,2}{100} = 133,2\%.$$

Korxona rentabellik ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar moliyaviy hisobotlarda va birlamchi buxgalteriya hisobida mavjud.

Omillar tahlili bo'yicha yuqorida keltirilgan axborotlar umuman moliyaviy tahlilda, ayniqsa, rentabellik tahlilida omillar bo'yicha tahlil o'tkazishning obyektiv zarurligini isbotlayapti va omillar bo'yicha o'tkazilgan tahlil korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishni chuqurlashtiradi hamda yangi xulosalar chiqarishga, tavsiyalar berishga imkoniyat yaratadi.

### Asosiy atamalar va tushunchalar

Buxgalteriya hisobi va hisobotlari. Ma'lumotlar bazasi. Moliyaviy tahlil. Moliyaviy holat. Boshqaruva tizimi. Moliyaviy tahlil natijasi xotimasi, Taqqoslash, Boshqaruva tahlili, Statistika, Iqtisodiy indekslar tizimi, Dinamik qatorlar, Omillararo korrelyatsiya, Gorizontal va Vertikal tahlil, Nisbiy ko'rsatkichlar, Auditor, Moliyaviy faoliyat, Daromad, Tasodifiy foya, Buxgalteriya balansi, Sho'ba korxona, Valyuta, Qimmatbaho qog'oz, Royalti, Transfert, Dividend, Asosiy fondlar, Kapital, Sotishdan tushgan sof tushum, Umumiyligi xo'jalik faoliyatidagi foya, Moliyaviy mustahkamlik. Buxgalteriya balansining likvidligi, Aylanma mablag'lar, Balans valutasi.

### Mavzu bo'yicha savollar:

1. Moliyaviy tahlil natijasida xotima tayyorlash nima uchun kerak?
2. Buxgalteriya hisobi va hisobotlari moliyaviy tahlilga ahamiyatini ifodalab bering.
3. Moliyaviy tahlilning manbalari bo'lib nimalar hisoblanadi?
4. Moliyaviy tahlilni tayyorlash va o'tkazish qanday bosqich va nimalardan iborat?
5. Moliyaviy tahlil ko'p qirrali murakkab ish bo'lib, u o'z ichiga nimalarni tahlil qilishni va aniqlashga qaratilgan bo'ldi?
6. Korxonalarining moliyaviy holati bu — ... jumlanvi davom ettiring.
7. Moliyaviy tahlil qanday xususiyatlarga ega?
8. Boshqaruva tahlili xususiyatlarini ifodalab bering.
9. Omillararo korrelyatsiya, iqtisodiy indekslar va dinamik qatorlar ko'rsatkichlar ifodalashuvchilari nimalar hisoblanadi?
10. Boshqaruva tahlil kim tomonidan o'tkaziladi, qanday ma'lumotlar va maqsadi nimadan iborat bo'ldi?
11. Moliyaviy tahlil korxonalarining qanaqa tarzdagi moliyaviy hisobotlarining ma'lumotlariga asoslanib o'tkaziladi?
12. Gorizontal tahlil natijasida nima aniqlanishi mumkin?
13. Nisbiy ko'rsatkichlar orqali nima ifodalanishi mumkin bo'lishi to'g'risida ma'lumlang.
14. Moliyaviy tahlilning predmeti bo'lib nima hisoblanadi?
15. Moliyaviy tahlilning maqsadi nima va uning yo'nalishini e'tiborga olsak moliyaviy tahlil qay shaklda bo'lishi mumkin?
16. Moliyaviy tahlil korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishda qanday vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim?
17. Moliyaviy tahlil nimalar yordamida, qanday usullaridan foydalanib korxonalarining qanday moliyaviy jihatlarini ifodalashga qaratilgan?
18. Kichik biznes korxonalarining moliyaviy faoliyati deganda nimalarni tushunasiz?
19. Sotishdan tushgan sof tushum aniqlanishi to'g'risida ma'lumot bering.
20. Moliyaviy faoliyat sohalaridagi daromadlar nimalar asosida shakllintiriladi?
21. Korxonalar foydasining turlari bo'yicha axborot bering.

22. Umumiy xo'jalik faoliyatidagi foyda qay rusumda aniqlanadi?
23. Moliyaviy holat korxonaning nimasiga ta'sir ko'rsatadi?
24. Buxgalteriya balansining likvidligi deb, uning qanday holatiga aytish mumkin?
25. Aylanma mablag'lar bo'yicha tushunchaga egamisiz? Unday bo'lsa aylanma mablag' to'g'risida bat afsil axborot berib o'ting
26. Balans valutasi bo'yicha tushunchangiz bormi?

## **9. TADBIRKORLIK ETIKASI VA MADANIYATI, ISHBILARMONLIK MULOQOTI ASOSLARI**

- 9.1. Korxona madaniyatini shakllantirish.
- 9.2. Tadbirkorlik etikasi va odob-axloq qoidalari.
- 9.3. Tadbirkorning shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish.
- 9.4. Xizmat yuzasidan munosabatlar.


### **9.1. Korxona madaniyatini shakllantirish**

Umuman olganda, tadbirkorlik madaniyati tadbirkorlik tashkilotlari madaniyati, tadbirkorlarning o'z madaniyati, tadbirkorlik etikasi, biznes etikasi va madaniyat kabi tushunchalarni tashkil etuvchi boshqa ko'plab elementlarga bog'liq.

Tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish ko'plab omillar bilan belgilanadi, ular orasida birinchi o'rinnarni sivilizatsiyalashgan tashqi tadbirkorlik muhiti, ijtimoiy va davlatiy tafakkur, haqiqatan ham mayjud bo'lgan huquqiy normalar, ularni tajovuzkor muhitdan himoya qiladigan tadbirkorlarning huquqlari, majburiyatlari va majburiyatlari, va, albatta, tadbirkorning o'zi va uning o'ziga tegishli korporativ madaniyat.

So'nggi yillarda imidj so'zi bizning hayotimizga qat'iy kirib bordi, bu ham yakka tartibdagi tadbirkor, ham kompaniyaning mavqeini belgilaydi. Tadbirkorga nisbatan, bu uning axloqiy, intellektual, kasbiy va axloqiy fazilatlarini atrofdagilar tomonidan baholanishi. Tabiiyki, har bir kishi boshqalarga ijobjiy taassurot qoldirishga intiladi. Tasvirni shakllantirish o'z-o'zimi anglashdan boshlanadi, keyin esa – kasbiy fazilatlarni rivojlantirish, ijodiy potensialni ro'yobga chiqarish, odob-axloqni rivojlantirish, xushmuomalalik va hokazo. Odamning qiyofasi kompaniya korxona, tashkilot qiyofasi bilan to'liq bog'liq bo'lishi mumkin.

Kompaniyaning madaniyati, qoida tariqasida, quyidagi ichki omillar bilan belgilanadi (9.1-chizma):



**9.1-chizma.** Kompaniyaning madaniyati ichki omillari

Korporativ identifikatsiya va imidj - kelajakka erishish maqsadida keng jamoatchilikka namoyish qilinadigan korxona (kompaniya) butun faoliyatining yakuniy mahsuloti. Va, har bir ishbilarmon, tabiiyki, ijobiy taassurot qoldirishga, ya'ni ijobji imidj yaratishga intiladi. Sxematik tarzda korxona madaniyati shakllanishi 9.2-chizmada keltirilgan.

Tadbirkorlik madaniyati

Tadbirkorlik tashkilotlari madaniyati,

Tadbirkorlarning o'z madaniyati,

Tadbirkorlik etikasi,

Biznes etikasi

Madaniyat kabi tushunchalarni tashkil etuvchi boshqa ko'plab elementlar

### 9.2-chizma. Korxona madaniyatini shakllantirish

U ko'plab tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi – ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, sheriklar va mijozlar bilan munosabatlar, binolarning tashqi dizayni, tashrif buyuruvchilar bilan ishlash va kompaniyaning mahsulot dizayniga qadar (9.3-chizma):

ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish,

sheriklar va mijozlar bilan munosabatlar,

binolarning tashqi dizayni,

tashrif buyuruvchilar bilan ishlash

kompaniyaning mahsulot dizayni

### 9.3-chizma. Korxona imidji tarkibiy qismlari

Ehtimol, imidj konsepsiyasining mazmuni obro‘ va obro‘ga nisbatan ancha kengroqdir, chunki bu tadbirkorning bevosita faoliyati doirasiga kirmaydigan masalalar bilan bog‘liq. Bu ofisning ichki dizayni, zarur mebel va yordamchi jihozlarning mavjudligi, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni o‘qitish va hokazolarga taalluqlidir. Oxir oqibatda tadbirkor uchun foyda va foyda olish uchun barcha oqilona vositalar foyda keltiradi.

## 9.2. Tadbirkorlik etikasi va odob-axloq qoidalari

Tadbirkorlik etikasi – bu ishbilarmonlik tuzilmalari va davlat, ishlab chiharuvchi va iste’molchi, mijoz va sotuvchi, ishbilarmonlar, raqobatchilar hamda korxona ichidagi ishlovchilar orasidagi ma’naviylik me’yorlari tizimidir. Biznes etikasi me’yorlari mamlakatdagi ishchanlik ruxi va uning xususiyatlarini belgilaydi.

Etika tushunchasi ikkita jihatni o‘z ichiga oladi: etika – bu, ma’lum jamiyat, kishilar guruhi, kasbkorlar uchun qo’llaniladigan ruxiy va axloqiy me’yorlar tizimidir; etikaviy me’yorlar huquq bilan, ya’ni davlat tomonidan belgilangan yoki sanksiyalangan umummajburiy o‘zini turish qoidalari va me’yorlari majmuasi bilan bog‘liqidir.

Shunday qilib, insonning har qanday faoliyati, shu jumladan ishbilarmonlik ham, etika va huquqiy o‘lchovlari bilan baholanadi. Amaldagi qonunchilik jamiyatda o‘z xohish-irodasini biznesning axloqiy-huquqiy o‘lchovlari asosida ifodalash uchun imkon yaratadi. Ishbilarmon qonunni buzganligi uchun ma’lum jazo belgilansa, uning biznesda etika va ahloqiy-huquqiy me’yorlarni buzganligi uchun u jamiyatning qahrg‘azabiga duchor bo’ladi. Buning uchun, jamiyatda yuqori etikaviy me’yorlariga amal qilinishi kerak. O‘z ishini qonun bo‘yicha olib borish etik va ruhiy-ahloqiy o‘lchovlarga rioya qilish bilan bit xil emas. Biznesda deyarli tez-tez shunday vaziyatlar yaratiladiki, unda, qonunni buzmay turib etikaviy me’yor va qoidalardan og‘ish kuzatiladi, bu esa biznesning nafaqat o‘zi uchun, balki jamiyat uchun ham salbiy natijalar keltirishi mumkin.

Keyingi o‘n yillikda G‘arbda biznes etikasiga rioya qilish muammosi jamiyat qayotida eng og‘riq nuqtalardan biriga aylandi. Qozirgi sharoitlarda bu masala bizning respublikamizda ham muhim bo‘lib bormoqda. Hufiyona biznes sohasining kengayishi, korruksiyaning kuchayishi, nohaq raqobat, ishlab chiqarishda ehtiyoikorlik me’yorlari,

mahsulot sifati standartlari bilan hisoblashmaslik, atrof muhitning ifloslanishi kabi holatlар ishbilarmonning roli to'g'risida jamiyatda salbiy fikr paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi.

Ijtimoiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra bizning Vatanimiz ishbilarmoniarining ilmiy saviyasi rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan past ekanligi aniqlandi. Bunda umuman, hamdo'stik mamlakatlaridagi, biznesning o'zi faoliyat sohasi sifatida ijobjiy qabul qilinsada, uning amalga oshirilish shakli ijobjiy baholab bo'lmaydigan darajada deb hisoblanadi. O'z navbatida, ishbilarmonlar haqidagi jamiyatning salbiy fikrlari ham albatta, biznesning normal taraqqiyotiga putur yetkazishi turgan gap.

Biznes etikasining asosiy qoidalariga quyidagilar kiradi: qonunni hurmat qilish, to'g'rilik, o'z so'ziga va tuzilgan shartnomaga javob berish, ishonchlik, ishonch va ijtimoiy javobgarlik, hech qachon va hech qanday sharoitda o'z xizmatchilarini, buyurtmachilarni, hissadorlarni, rahbarlarini, mol yetkazib beruvchilarni, nazorat qiluvchi idoralarini aldamaslik majburiyatlari va boshqalar. Taraqqiy topgan davlatlarda, ayniqsa Yaponiya va AQSHda firmalarning «Etika kodeksi» va biznesmenlarning alohida kasb ustalari guruuhlarining «Ishbilarmonlar kodeksi» keng qo'llaniladi. Ularni sex etikasi kodeksi deb ham atash mumkin. Ushbu kodekslarga binoan u yoki bu tarmoq firmalari bir xil etika o'lchovilarini qo'llaydilar. Bunday kodekslar raqobatchilarining etikaga xilof hulqlarini aniqlashni osonlashtiradi. Ishbilarmon biznes kodeksining asosiy qismlaridan biri ishbilarmon va iste'molchi o'rtaсидagi munosabatlar hisoblanadi.

Eng birinchi «Biznesmen kodeksi» amerikaliklar tomonidan 1913-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, unda yetta ish yuritish qoidasi qabul qilingan. Bu qoidalalar bitta asosga jamlangan bo'lib, bu biznes sohasidagi usui va siyosatni baholashda ularning haqiqat va adolatilik tushunchalariga mos kelishi bilan belgilanganidir. Vaqt o'tishi bilan kodeks bir necha bor takomillashdi. Natijada, bu borada turli firmalar va kompaniyalar tomonidan to'plangan, ularning tajribasiga asoslangan, umumlashgan G'arb ishbilarmonlik dunyosida keng ma'ium bo'lgan ishbilarmonlikning o'n nasihatni bunga asos bo'ldi. Bu nasihatlarga har bir tadbirkor amal qilishi kerak.

Ular quyidagilardan iborat:

Tadbirkorlik ishiga oid g'oya topish.

Siz bozorga qanday tovar (mol), xizmat turlarini taklif qilayotganingiz haqida aniq tasavvurga ega bo'lishingiz kerak. Avval o'zingiz qila oladigan narsadan nimani sotish mumkinligini hal qilib, so'ngra ishlab chiqarish lozim.

#### *Yangilikni qidiring.*

Raqobatdan qo'rqmang. Bu – bozorda bor narsa, unga o'ylanib o'tirish yaramaydi. Sizda raqobatchilarga qarshi uchta kuchli quroq borligini esda tuting – ular sifat, narx va reklamadir.

Sifat – bu iste'mol xususiyatlarining (xossalaring) majmuidir. Xaridorga oxir-oqibatda shunchaki buyumlar yoki xizmatlar kerak emas. Unga o'z muammolarining yechimi kerak. Aynan shu katta pul turadi va eng ko'p foyda beradi. Masalan, devor bloklarini ishlab chiqarish va sotish mumkin. Ammo butun kuch-quvvatini jamlab, xaridorga tayyor uy taklif qilish ancha foydaliroqdir.

#### *Biznes-reja tuzing.*

Unda: Nima sotish kerak? Ularni nimadan tayyorlash kerak? Bu qancha turadi? Kim uni sotib oladi? Xaridorlar tovar haqida bilishlari uchun nima qilish kerak? Sotuvni qanday qilib kengaytirish va boshqa masalalar ifodalanishi zarur.

#### *Narxni tushirishdan xavfsiramang, uni ko'tarishdan qo'rqing.*

Foya, ikkita buyumni qimmat sotishda emas, balki ikki ming, ikki million xaridorga o'z tovaringizni yoki xizmatingizni ularga mos narxda sotishingizdir.

O'z tovaringizni reklama qiling. Mahalliy ro'znomada o'z ishingiz haqida ma'lumot bering. Xaridor bo'lish ehtimoli borlarga xat yuboring. E'lonlar, plakatlarga buyurtma bering va joylarga yopishdirib chiqing. Sotmoqchi bo'lgan narsangiz haqidagi ma'lumotlarni qanday qilib qisqa va aniq bayon qilish haqida o'ylab ko'ring.

#### *Kredit olish mumkin bo'lsa, uni olishdan qo'rqmang.*

Siz, yoki pul topib kreditni qaytarasiz, yoki pul topmaysiz va uni qaytarmaysiz. Bor muammo shu. Yuqoridagi kredit miqdori – bank tavakkali uchun to'lovdir. Omonat bankidan uy qurilishi uchun kredit oling, uni ko'ring va ishlab chiqarish asosi sifatida ishlating. Xo'jalik blokini ko'ring – bu sizning omborxonangiz bo'ladi. O'sha joydan yana kredit oling – usiz ish qilish qiyin, yoki, mashinani xaydovchisi bilan ijara ga oling.

#### *Xayrixoh bo'ling.*

Axir, har bir ishbilarmon sherik, sizga bo'ysunuvchi har bir xodim xuddi siz kabi insondir. Bunday odam bilan birga ishlash shaxsan siz uchun juda yoqimlidir. O'zingiz ham shunday bo'ling va odamlardan birdaniga ko'p narsa talab qilmang.


Tadbirkorlik madaniyat ijtimoiy-madaniy tizimning bir qismidir va jamiyat rivojlanishi evolyutsiyalanganligi sababli, tadbirkorlik madaniyat iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy vogeliklar evolyutsiyasi bilan birga rivojlanib boradi. Shuning uchun biz burjua oldidan, burjua va postindustriya madaniyatini farqlashimiz mumkin, bu qadriyatlar, yo'nalish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni tashkil etish tamoyillari bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, tadbirkorlik faoliyati – bu qobiliyatli fuqarolar va (yoki) ularning birlashmalarining erkin faoliyati. Ammo tadbirkorlik faoliyatini analga oshirishda iqtisodiy erkinlik uning ishtirokchilari tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning belgilangan prinsiplari va usullariga riosa qilmaslikdan ozod bo'lishini anglatmaydi. Iqtisodiy erkinlik tadbirkorlik madaniyatining asosi bo'lib, uning alohida ishtirokchilari – ulkan moliyaviy ahvol egalari (oligarxlar deb ataladigan) uchun ruxsat berilishini namoyish etmaydi. Davlat tadbirkorlik faoliyatining ayrim vakillari tomonidan tadbirkorlik faoliyatining boshqa ishtirokchilarining va umuman bozor iqtisodiyotining boshqa subyektlarining, umuman jamiyatning manfaatlarini va iqtisodiy erkinliklarini himoya qilish maqsadida har tomonlama iqtisodiy erkinliklarning namoyon bo'lishini cheklash uchun muayyan to'siqlami o'matmoqda.

Tadbirkorlik madaniyatining birinchi universal elementi, tadbirkorlik faoliyati uning qonuniyligidir. O'z faoliyati jarayonida tashkilot davlat bilan, jamiyat bilan, yetkazib beruvchilar va iste'molchilar bilan, ishchilar bilan turli munosabatlarni o'rnatadi. Shu bilan birga, u tadbirkorlikni rivojlantirishga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan amaldagi huquqiy hujjatlar, standartlar, qoidalar, normalarga qat'iy riosa qilishi shart.

Ikkinci element - sheriklar, raqobatchilar, iste'molchilar va ishchilarga moddiy va nomoddiy zarar yetkazilishida namoyon bo'ladigan huquqiy hujjatlar, shartnomaviy munosabatlar va huquqiy bitimlar, tijorat oborotidan kelib chiqadigan majburiyat va majburiyatlarning qat'iy bajarilishi.

Biznes etikasining asosiy qoidalariga 9.4-chizmada namoyon etilganlar kiradi.



#### 9.4-chizma. Biznes etikasining asosiy qoidalari

Tadbirkor o'z imidjini yaratishi, tadbirkor odob-axloq qoidalariga rioya qilishi kerak. U xushmuomalalik, xushmuomalalik kabi fe'l-atvor nafaqat «jamiatda o'zini tutish qobiliyati» uchun, balki oddiy hayotiy pozitsiya uchun ham zarur ekanligini aniq tushunishi kerak. Muloqot madaniyati, mutanosiblik, yaxshi niyat haqida unutmasligimiz kerak, siz his-tuyg'ularingizni to'liq nazorat qilishingiz kerak. O'zingizning madaniyati yurish-turishingiz, o'zingizning oljanob imidjingiz, nafaqat yutuqning yarmini, balki uning faoliyatidan doimiy qoniqishni kafolatlaydigan tadbirkor qiyofasiga ega bo'lishingiz kerak.

Tadbirkor odob-axloqi – bu tashqi ko'rinish bilan, tashqi dunyo bilan, boshqa tadbirkorlar, raqobatchilar, ishchilar bilan, tadbirkor nafaqat o'z biznesini amalga oshirishda, balki har qanday hayotiy vaziyatda aloqada bo'lgan barcha shaxslar bilan munosabatlarni tartibga soladigan tadbirkorlik axloq qoidalari.

**To'g'ri xulq-atvor ko'nikmalarini egallash uchun siz tanishish va tanishish qoidalariga rioya qilishingiz kerak (9.5-chizma).**

#### Ish aloqalarini olib borish qoidalari

#### Muzokaralarda axloq qoidalari

#### Tashqi ko'rinishga

#### Ish kiyimiga qo'yiladigan talablar

#### Nutqqa talablar

**9.5-chizma. To'g'ri xulq-atvor ko'nikmalarini egallash uchun tanishish va tanishish qoidalari**

Bunaqa ko'nikmalarga ega bo'lish uchun, ish aloqalarini olib borish qoidalari, muzokaralarda axloq qoidalari, tashqi ko'rinishga, ish kiyimiga qo'yiladigan talablar, nutqqa talablar, chizmai axloqiy me'yordarning ajralmas qismi bo'lgan chizmai hujjatlar va tadbirkorlik etikasining boshqa elementlariga rioya etmoq zarur.

#### 9.3. Tadbirkorning shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish

Tadbirkor shaxsiy sifatlarining strukturaviy modelini ikki xil sistema ko'rinishida namoyish qilish mumkin. Birinchi modelda tadbirkorning umumijtimoiy sifatlari keltiriladi. Ikkinci modelda esa, kasb sifatlari yig'indisi keltirilgan.

Shunday qilib, tadbirkor bo'lishga ahd qilgan kishi, o'zining imkoniyatlari, qobiliyatları, shu jumladan o'z izlanuvchilik qobiliyatini aniq o'chay bilishi kerak. Biznes – bu ishni chuqur bilish, kundalik tinimsiz mehnat, bir me'yordagi iqtisodiy sharoitdagi yuz beradigan doimiy raqobat, unga faqat o'z ishining ustasigina turib bera oladi.

Tadbirkorning umumijtimoiy sifatlariga: ma'naviy sifatlar, ijtimoiy, ruqiy va tabiiy-genetik sifatlar kiradi.

Ma'naviy va ijtimoiy-ruhiy sifatlari 9.6-chizmada keltiriladi.

**Ma'naviy sifatlar** — bu tadbirkorlik faoliyatida zarur bo'lgan sifatlardan bo'lib, unga tadbirkorning dunyoqarashi, tarbiyasi, e'tiqodi kabilalar kiradi.

**Ijtimoiy-ruhiy sifatlar** — bu tadbirkorning jamiyatga foydali bo'lishini ta'minlovchi, unga tabiat tomonidan berilgan sifatlardir.

### 9.6-chizma. Tadbirkoming ma'naviy va ijtimoiy sifatlari


Tadbirkorning kasb sifatlariga quyidagilar kiradi: ishni miridan-sirigacha bilish, intellektual-irodaviy, tashkilotchilik sifatlari. Ishni miridan-sirigacha bilish — bu kishini lavozimga saylashda eng muhim bo'lgan sifatdir.

Kompetentlik degani — tadbirkorning biror masalani yechish yuzasidan va tajribaning yetarliligi va huquqiy jihatdan asoslanishi, ya'ni masalani hal qilishga haqqi borligini bildiradi. Shuning uchun tadbirkor, huquq, tadbirkorlik, menejment, marketing asoslari sobasida maxsus bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Intellektual irodaviy sifatlar — bu tadbirkoming aql-ifodasi, sabot va matonati kabi sifatlarini o'z ichiga oladi. To'g'rilik — odamlar bilan odobaxloq asosiga qurilgan munosabatni, xush fe'lilikni, to'g'rilik esa har qanday vaziyatda o'zini tuta bilishni anglatadi.

Xushmuomalalik — xulq-atvorning kundalik xususiyati bo'lib, odamlarni hurmat qilishni anglatuvchi axloqiy qadriyatdir.

Tashkilotchilik sifatlariga esa tadbirkorning faoliyatini uyushtirish va boshqarish, shu jumladan, ishchi-xizmatchilarni ishga yondashish ularni ishontira olish va ilqomlantirish kabi sifatlar kiradi.



### 9.7-chizma. Tadbirkoming shaxsiy sifatlari

Tadbirkoming shaxsiy sifatlari tarkibini yana quyidagi sifatlar bilan to'ldirish mumkin: odamlar bilan ishlay olish tajribasi, oliv ma'lumot hajmidagi maxsus bilimlar, ijodiy faoliyk, omilkorlik, vaziyatga baho bera olish, kelajakni ko'ra olish va boshhalar (9.7-chizmaga qarang).

Ammo, yuqorida qayd qilingan hamma sifatlarga ega bo'lgan to'kis bir tadbirkomi topish qiyin, chunki, odatda, bir kishida bunday xislatlarning hammasi jamul-jam bo'lishi mungkin emas. Shunday bo'lsada tadbirkorlar bunday xislatlarga to'liq ega bo'lishga intilishlari lozim.

### 9.4. Xizmat yuzasidan munosabatlar

Biznes yutug'i nafaqat firma ishini iqtisodiy ko'rsatkichlariga, balki sezilarli darajada tadbirkorning o'z xizmatchilari bilan munosabati naqadar to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga ham bog'liq. Yuqori natijaga erishayotgan ishbilarmonlar o'z ishida inson omiliga katta e'tibor beradilar, ya'ni o'z xizmatchilari bilan munosabatlarini o'zaro hurmat, tartib, haqguo'ylik, odillik asosida quradilar. Tadbirkor va ishchilarning munosabatlari asosiy ish bitimida belgilanadi. Ish bitimidagi asosiy tartib-tamoyiilar 9.8- chizmada keltirilgan.

- Ishchi majburiyatları.
- Ish haqini to'lanishi va muddati.
- Ish kuming davomiyligi.
- Bevosita rasbari.
- Maiaka oshirish, ish haqini oshirish sharti va boshqa masalalar.
- Mehnat ta'tilining davomiyligi va sharti, kasallik varaqasi bo'yicha haq to'lash va boshqa yengillik hamda ijtimoiy imtiyozlar.
- Ishga olinayotgan har bir kishiga uch oydan olti oygacha sinov muddati belgilash ma'qui. Shu davr ichida yangi ishchining aynan biror ishni mutaxassislik darajasiga va malakasiga, lavozim tafabularini hisobga oлган holda o'rganish mumkin.

#### **9.8-chizma.** Asosiy ish bitimida qisman yuqoridaqilar izohlanadi

Insorning jamoa bilan kirishib ketishi, spirtli ichimliklarga munosabati, intizomiylig va uning kasb sifariga bevosita bog'liq bo'lmagan sifatlari kuzatish manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin emas. Tekshirish davomida kuzatilayotgan ishchilarning zarur bilim va amaliy mahorati aniqlanadi. Tadbirkor boshliqlar, mutaxassislar va xizmatchilarning majburiyatları hajmi haqida qo'shimcha ko'rsatma va nizomlarda ko'rsatib qisqartirish yoki ko'paytirish mumkin. Bunday holda ishchi mahalliy sharoitga nisbatan ma'lum ko'rsatmalarda ko'rsatilgan vazifalarni bajara olishligi bo'yicha sinovdan o'tkaziladi. Ishchini sinash faqat tadbirkor tomonidan emas, balki ikkala tomonning roziligi bilan o'tkaziladi, chunki u mehnat shartnomasining qo'shimcha shartlarini aks ettiradi.

Agar mehnat shartnomasi tuzilayotganda sinov o'matilganligi haqida tomonlarning roziligi bo'yicha bitimlar bo'limsa, ishchi sinova bardosh bermaganligini sabab qilib uni ishdan bo'shatish mumkin emas. Sinov shartlar ishga qabul qilish haqidagi buyruqda albatta o'z aksini topishi kerak. Aks holda agar u arizasida yoki og'zaki holda ishga qabul qilinganligiga rozi bo'lgan bo'lsa, u sinov shartisiz ishga qabul qilingan hisoblanadi.

Tadbirkor strukturalarida kasb va lavozimlar o'zaro bog'liqligi bu tadbirkor jamoalarning birgalikda ishlashga intilishini oshiradi, ishlab chiqarish jarayonida tashkilotchilik va boshqarish yuzasidagi masalalarni hal qilishni yengillashtiradi, mehnat jamoasining ishchilar o'rtasida u yoki bu ishchining taqsimotini tekshirishni ta'minlashga imkon beradi.

**Tadbirkorning o'z xizmatchilari bilan munosabatini mustahkamlashida quyidagilar katta ahamiyatga ega (9.9-chizma):**

Ishchi va xizmatchilarning firma ishini muhim masalalarini mubokama qilish va yechishga kengroq jab qilish, firma bo'linmalarining boshliqlari bilan mutazam ravishda muloqot qilish.

Ishchi va xizmatchilar orasida javobgarlikni oshirish maqsadida va ishdagi bir oqanglikni yo'qotish muammosini hal qilish uchun ishni vaqtiga vaqtiga bilan taqsimlab berish. Masalan, konveyerda ishlayotgan ishchiga biror bir mashinani butun bir qismini yig'ishni, kotibaga direktor yordamchisi vazifalarini bajarishni topshirish mumkin, bular uning shaxsiy qadriyat qissalarini oshiradi.


O'z ishchilarining malakasini oshirish haqida qayg'urish. malakali xodim firma ishining samaradorligini oshiradi, yangiliklarni faolroq tafbiq etadi.

Ish haqini ishchining kasb mahoratini o'sishiga qarab oshirib borish.

O'z xizmatchilarining farovonligi haqida doimo qayg'urish.

**9.9-chizma.** Tadbirkorning o'z xizmatchilari bilan munosabatini mustahkamlash tartibi

Tadbirkorlar mijozlari bilan aloqa o'matishda quyidagilarni bajarishi zarur (9.10-chizma):



#### **9.10-chizma. Tadbirkorlar mijozlari bilan aloqa o'matish qoydasi**

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyati individual va jamoaviy mehnatni biridir. Shuning uchun tadbirkorlik madaniyati mohiyatini o'rganish ayniqsa, O'zbekiston uchun muhim va dolzarbdir, chunki bozor munosabatlari rivojlanishi, jamiyatning yangi tuzilishini shakllantirish, an'anaviy boshqaruv tizimlarining o'zgarishi iqtisodiy mustaqillikning kengayishi, tadbirkorlik sohalari ushbu jarayonlarga mos keladigan tashkil etishning eng muhim shaklidir.

Tijorat va notijorat sohalarda tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish davlatning sivilizatsiyalashgan bozor manusabatlarini barpo etishdagi uzoq muddatli strategik vazifalaridan mentalitet va tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishni talab qiladi.

#### **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Etika. Tadbirkorlik madaniyati. Tafakkur. Korporativ madaniyat. Imidj. Mavqeい. Odob-axloq. Tadbirkorlik etikasi. Me'yor. Qoida Ishbilmonlar kodeksi. Etika kodeksi. Biznesmen kodeksi. Muloqot madaniyati. Tadbirkor odob-axloqi. Model. Sifat. Qobiliyat. Raqobat. Tadbirkorning umumijtimoiy sifatlari. Omilkorlik. Ish bitimi. Intizomiylit. Mehnat shartnomasi. Mentalitet.

#### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Tadbirkorlik madaniyati nimalar bilan chambarchas bog'liq?
2. Tadbirkorlik madaniyatini shakllanishida birinchi o'rinnlar qaysi omillar bilan belgilanadi?
3. Tadbirkor imidjini ifodalab bering.
4. Tashkilot qiyofasi tarkibiy qismlari nimalarni o'z ichiga olgan?
5. Kompaniyaning madaniyati qanday ichki omillar bilan belgilanadi?
6. Tadbirkorlik etikasi deganda nimani tushunasiz?
7. Etika atamasini yoritib bering.
8. Biznes etikasining asosiy qoidalariaga nimalar kiradi?
9. Biznesmen kodeksi kimlar tomonidan ishlab chiqilgan va unda nechta ish yuritish qoidasi mavjud?
10. Tadbirkor odob-axloqi deganda nimani tushunishimiz mumkin?
11. Tadbirkor shaxsiy sifatlarining strukturaviy modelini necha xil sistema ko'rinishida namoyish qilish mumkin? Har birida qanday sifatlar keltirilgan?
12. Tadbirkor bo'lishga ahd qilgan kishi, nimalarni aniq o'lchay bilishi kerak?
13. Biznes – bu ish jarayon ekanligi nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, aytinchi, undagi hodisa va faoliyat nimaldan iborat bo'ladi?
14. Tadbirkorning umumijtimoiy sifatlari to'g'risida ma'lumot bering.
15. Omilkorlik fazilat nimani anglatishi mumkin?
16. O'z xizmatchilari bilan tadbirkor munosabatlarini nimalarga asoslaantirishi darkor?
17. Mehnat shartnomasi bo'yicha nimalar nazarda tutiladi?
18. Nima uchun tadbirkorlik madaniyati mohiyatini o'rganish ayniqsa, O'zbekiston uchun muhim va dolzarbdir?

## **10. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINING EKSPORT SALOHIYATINI BAHOLASH**

- 10.1. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyati va eksportyor korxonalarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi.
- 10.2. Kichik biznes va tadbirkorlikning eksport salohiyati.
- 10.3. O'zbekistonning eksport bo'yicha ko'satkichlari.
- 10.4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyati uchun yaratilgan imkoniyatlar.
- 10.5. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi.
- 10.6. Eksportning tovar va geografik tarkibini takomillashtirish.

### **10.1. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyati va eksportyor korxonalarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi**

Eksport diversifikatsiyasi, ya'ni xorijga sotilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasining kengayishi, jami eksportda alohida tovar yoki xizmat turi (ayniqsa, xom ashyo) ulushining katta bo'lishiga barham berilishi, mahsulotlarimiz eksport qilinayotgan mamlakatlar geografiyasini kengaytirish eksport hajmining barqaror bo'lishini ta'minlaydi, milliy iqtisodiyotning tashqi bozordagi salbiy o'zarishlarga ta'sirchanligi darajasini pasaytiradi.

Eksport tarkibida bir yoki bir necha tovarlar ulushining sezilarli darajada ortib ketishi bu tovarlar narxi pasaygan yoki ularga tashqi talab qisqargan holatlarda eksportchi korxonalarini og'ir ahvolga solib qo'yishi mumkin. Buning natijasida eksport hajmining qisqarishi valuta tushumlarining kamayishi, tashqi savdo balansining yomonlashuvi va korxonalar moliyaviy ahvolining tanglikka yuz tutishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, eksport umumiy hajmining kam sonii davlatlarga bog'lanib qolishi ham qaltis holat hisoblanadi. Prezidentimiz tomonidan ma'rizada ilgari surilgan tayyor raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar yetkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirish vazifasini amalga oshirish eksport hajmini barqaror o'stirish, tashqi bozordagi o'zgarishlar ta'sirida uning hajmi keskin kamayish xavfini bartaraf etish imkonini beradi. Eksport qilinayotgan tovarlarni diversifikasiya qilish, ularni import qiluvchi

mamlakatlar geografiyasini kengaytirish bu mamlakatlardan biri yoki bir guruhining iqtisodiyotida muammolar ro'y berganda ham eksport hajmining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi.

O'tgan yillar mobaynida eksport qiluvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotimizning eksport salohiyatini yuksaltirish, tashqi savdo tarkibida ijobjiy siljishlarga erishish, uning hajmini barqaror o'stirish imkonini bermoqda.

### **10.2. Kichik biznes va tadbirkorlikning eksport salohiyati**

Hozirgi kunda aholini ish bilan band qilishlik darajasi dunyoning ko'pgina mamlakatlarida katta qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda, aholinning yetarli darajada o'z daromadiga ega bo'lmasligi esa davlatning ishlab chiqarishiga be'vosita ta'sir ko'rsatadi.

Chetdan olib kelimayotgan mahsulotlar – ya'ni import tovarlar shahar, qishloq va ovullar aholisi tomonidan yaxshi kutib olinmasa, sotib olinmasa bunday hol ma'lum bir qarzlik holatini keltirib chiqaradi. Biznesda mablag' aylanmasi har tomonlama to'g'ri yo'lga qo'yilgan taqdirdagina ishlab chiqarish jadal rivojlanadi. Iqtisodiy bo'g'in ham to'xtamay faoliyatida davom etib ketadi. Importning justi bo'lgan so'z bu eksportdir.

Eksport bu – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi. Tovarlarni bir mamlakat orqali olib o'tish – **tranzit**, bir mamlakatdan olib kelgingan tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotish uchun chiqarish – **reeksport** deb yuritiladi.

Har qanday davlat uchun eksport import va chet ellarda boshqa xarajatlarni to'lash uchun zarur bo'lgan chet el valutasining asosiy manbai. Eksportni kengaytirish muhim masala hisoblanadi va davlat eksport uchun muljallangan ishlab chiqarishni qo'llab quvvatlashning turli shakllarini keng qo'llaydi – bular, soliq imtiyozlari va boshqa moliyaviy ko'maklardir, eksportni davlat tomonidan kreditlash ham shular jumlasidandir.

Eksportni cheklash aksariyat hollarda muayyan mamlakatlar bilan olib boriladigan savdoga embargo joriy etish yo'li bilan siyosiy maqsadlarda amalga oshiriladi. Ayrim tovarlar eksporti ba'zan iqtisodiy yoki ekologik sabablarga ko'ra cheklanadi. O'zbekiston Respublikasining

Bojxona kodeksiga muvofiq, tovarlar eksporti bojxona rejimida, bojxona te'lovlari va/yoki yig'imi to'langanidan keyin, iqtisodiy siyosat tadbirlariga rioya etilgan va qonunchilikda nazarda utilgan boshqa talablar bajarilgan hollarda O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan chetga chiqariladi.

Eksport bilan shug'ullanuvchi ko'pgina mamlakatlarda eksport tovarlari qo'shilgan qiymat solig'idan va shunga o'xshash soliqlardan ozod qilinadi. Mamlakatning o'zida ishlab chiqarilayotgan moddiy boyliklar eksport tarkibi milliy iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari, uning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'mi bilan bog'liq. Sanoait rivojlangan mamlakatlarga sanoat mahsulotlari, ayniqsa, mashinasozlik mahsulotlari va texnologiyalar eksport qilish xos bo'lsa, agrar iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlar eksportida xomashyo va oziq-ovqat asosiy rol o'ynaydi. Yakka ziroatchilik xo'jaliklari hukmon bo'lgan mamlakatlar eksportida 1-2 tovar turi asosiy o'rinni egallaydi.

Har bir davlatning o'z eksport mahsuloti mavjud. Shu jumladan, O'zbekistondan eksport qilinuvchi tovarlar ham mavjud bo'lib ular soni yil sayin oshib bormoqda. Ularning tarkibiga neft mahsulotlari, energiya tashuvchilar, qora va rangli metallurgiya, kimyoiy mahsulotlar va ularning sanoati, paxta, avtomobilsozlik mahsulotlari va boshqalar kiradi. 2017-yilgi statistikaga ko'ra eksportimiz 13,953 mlrd dollarni tashkil etdi.

### **10.3. O'zbekistonning eksport bo'yicha ko'rsatkichlari**

O'zbekistonning eksportida so'nggi bir necha yildan beri xizmatlar eksportining ulushi tobora o'sib bormoqda. Ayni vaqtida, terimiga har yil kuzda minglab boshqa kasb egalari ham jalb etiladigan paxta tolasining eksporti yildan yilga qisqarib bormoqda. «Daryo» O'zbekistonning 2006-yildan 2017 yilgacha bo'lgan eksport ko'rsatkichlarini bir sahfaga jamlashga urinib ko'rdi. Bunda O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari va Massachusets texnologiya institutining Media laboratoriysi tomonidan tayyorlangan OEC loyihasida e'lon qilingan raqamlarga tayanildi.

OEC loyihasida e'lon qilingan raqamlar BMTning UN Comtrade dasturidan olingan va unda, eng asosan, xizmatlar eksportining ulushi hisobga olinmagan. BMTning ushbu sho'basi esa mazkur statistik axborotni O'zbekistonning davlat idora va muassasalaridan, shuningdek,

O'zbekiston a'zo hisoblangan xalqaro tashkilotlardan olgan. OECdagi bazada eksport qilingan mahsulotlar nomi konkret ko'rsatilgan, shuningdek, ular nisbatan aniqroq turkumlangan. Xususan, eksport qilingan mashina va uskunalar tarkibida avtomobilarning, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida meva-sabzavotning ulushini aniq ko'rish mumkin. Aksincha, paxta xomashyosi va paxta tolsi bilan bog'liq mahsulotlar turi shu qadar ko'pki, ularni aniq xomashyo va tola sifatida ajratib olish mushkul. Shu bois, paxta va uni qayta ishlash natijasida hosil bo'ladigan barcha mahsulotlari yengil sanoatga aloqador bo'lganidan kelib chiqib, butun to'qimachilik sanoati bir turkum sifatida ajratildi.

**Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosidagi O'zbekistonning eksport -import ko'rsatkichlari:**

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi kamayib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 89,5 foizni tashkil etdi. Shuningdek, qurilish ishlari hajmi 6,5 foizga o'sdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan chakana tovar aylanmasi 3,8 foizga, xizmat ko'rsatish 9,9 foizga oshdi.

2020 yil yanvar-mart oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi 8,1 mlrd. AQSH dollarini, shu jumladan eksport – 3,37 mlrd. AQSH dollarini, import 4,76 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi.

Tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilga nisbatan kamaydi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 89,8 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, eksport hajmi importga nisbatan kamayib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 89,1 foizni, import esa 90,3 foizni tashkil etdi.

Tashqi savdo balansining saldosini salbiy bo'lib, 1 390,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Ko'plab yo'naliishlarda birinchi chorak ko'rsatkichlari etarlicha ijobji natijani qayd etgani ushbu davring ko'p qismida O'zbekiston iqtisodiyoti koronavirus infeksiyasi bilan bog'liq cheklov choralar ta'sirini sezinaganidan dalolat beradi. Shunga qaramay, boshqa mamlakatlar tomonidan pandemiyaga qarshi kurash bo'yicha ko'rilib yotgan choralar tashqi iqtisodiy faoliyat natijalariga allaqachon o'zining salbiy ta'sirini etkazdi. Boisi cheklov choralar boshqa mamlakatlar tomonidan ancha avval qo'llanila boshlangan.

#### **10.4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyatini yaratilgan imkoniyatlar**

2017- 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini yanada rag'batlantirish maqsadida keng ko'lamli institutsional va tizimi islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tizimi qaytadan isloh qilinib, biznes rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda yangi yondashuvlar tadbiq etilgani, tadbirkorlik subyektlarining qonuniy manfaat va huquqlarini himoya qilishning mutlaqo yangi tizimi joriy etilgani, biznes bilan muloqot qilishning, ayniqsa, viloyat, shahar va tumanlarda samarali mexanizmi joriy etilgani mamlakatimizda ushbu sohada olib borilayotgan ishlarga misol bo'la oladi.

Shu bilan birga, respublikamiz tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlardagi ishtiroki va eksport faoliyatini yanada kengaytirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Ma'lumki, hozirda tashqi bozorlarda keskin raqobat va davom etayotgan iqtisodiy inqiroz sharoitida emin-erkin eksport faoliyatini yuritish, yangi bozorlarga kirib borish murakkab masala. Ushbu vaziyatda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'zining egiluvchanligi, qiyin sharoitlarga tezda moslasha olishi bilan eksport faoliyatining dinamikasini ta'minlaydi.

Shuni inobatga olgan holda, davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyatini rivojlantirish uchun ham so'nggi yillarda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini yanada kengaytirish, ularga zamonaviy, chet el bozorlarida raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishda va uni eksportga chiqarishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatish, mamlakatimizning eksport qiluvchi tadbirkorlarini tashqi bozor kon'yunkturasi o'zgarishlari xavf-xatarlaridan ishonchli himoya qilishni ta'minlash maqsadida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etildi. Joriy yilning o'zida ushbu Fond tomonidan 2 162 ta tadbirkorlik subyektlariga o'z tovar va xizmatlarini eksport qilishda huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatilgan, jumladan, 1 767 ta tadbirkorlik subyektlariga tashqi bozorlarni o'rganishda, 127 ta tadbirkorlik subyektlariga xorijiy

hamkor topishda, 135ta tadbirkorlik subyektlariga xalqaro ko'rgazmalarda ishtirot etish, xalqaro sertifikatlar olish va bojxona chizmaiylashtiruvni amalga oshirishda ko'mak berilgan. Buning natijasida joriy yilning to'qqiz oyiyakunlari bo'yicha 395 ta tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 093 mln. dollarlik eksport amalga oshirilgan. Tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida esa Fond tomonidan umumiy qiymati 5 219 mln. so'm, shundan 4 030 mln. so'm miqdorida foizsiz moliyaviy qarzga moliyaviy ko'mak ajratilgan.

#### **United Nations Development Programme: Human Development Index**

Davlat	Reytingdagi pozitsiya	IRI
Belarus	50	0.798
Rossiya	50	0.798
Qozog'iston	56	0.788
Ozarbayjon	78	0.751
Ukraina	81	0.747
Armaniston	85	0.733
Moldaviya	107	0.693
Turkmaniston	109	0.688
O'zbekiston	114	0.675
Qirg'iziston	120	0.655
Tojikiston	129	0.624

Yuqoridaagi jadvalda ko'rinishi bo'yicha, O'zbekistonning 10 ta mamlakat ichida inson rivojlanishi indeksi 0.675 tashkil qilishi va umumjahon reytingdagi 114 o'mini band etgan. Mamlakatimizning tovar aylanmasi hajmi 146,8%. eksport esa 131,1% o'sish sur'atlarini ta'minlanishiga erishildi.


Bundan tashqari, yaratilayotgan imkoniyatlar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligining oshishiga zamin bo'lib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlar eksportining mamlakatimiz umumiy eksportidagi ulushi oxirgi 15 yilda 3 marotaba oshgan va bugungi kunda 27 foizga yetgan. Keyingi 5 yilda esa, eksport faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar soni 1,5 barobar, kichik biznes subyektlari soni 1,6 barobarga oshgan.

## 10.5. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi

Import tarkibining asosiy ulushi 38,9% bilan mashina va asbob-uskunalar guruhi va 16,5% bilan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar guruhi hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Quyidagi rasmida tovar va xiznatlarning import tarkibi, jamiga nisbatan foizda (tashqi aylana 2017-yil yanvar-dekabr, ichki aylana 2016-yil yanvar-dekabr uchun) ko'rsatilgan:

### O'zbekiston Respublikasining I chorak tashqi savdo aylanmasi quyidagi bajmda bo'lgan:



Shuni ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbari o'tkazgan kengaytirilgan yig'ilishda belgilab berilgan Fond faoliyatini yanada takomillashtirish, viloyatlarda tadbirkorlik subyektlariga eksport faoliyatini amalga

oshirishda ko'maklashish samarali faoliyatini tashkil etishga qaratilgan markazlar tashkil etishni nazarda tutuvchi hukumat qarori loyihasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan. Uning qabul qilinishi tashqi bozorlarga chiqishda zarur moliyaviy, marketing va tashkiliy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtiradi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining eksportga qaratilgan faoliyatini rag'batlantirish uchun bir qator soliq, bojxona imtiyozlari, boshqa preferensiyalar yaratishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining mos ravishda 212- va 230-moddalariga asosan:

- tovarlarni chet el valutasida eksportga realizatsiya qilish cborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi;
- aksiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilarini tomonidan eksportga realizatsiya qilishga aksiz solig'i solinmaydi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yilning 5-iyundagi 2613-soni Farmoniga asosan eksport qiluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi umumiy sotish hajmida o'zları ishlab chiqargan va erkin almashtiriladigan valutaga sotilgan tovar (ish, xiznat)lar eksportidagi ulushi 15 foizdan 30 foizgacha miqdorda bo'lganida – 30 foizga qisqarishi va 30 va undan ko'proq foiz bo'lganida – 2 marotaba kamaytirilishi belgilab berilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3077-soni qaroriga asosan, ushu imtiyozlar o'zları egasi bo'lgan mahsulotlarni eksport qiluvchi tadbirkorlik subyektlariga ham tadbiq etilishi belgilab berildi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga yangi meva-sabzavot, uzum va poliz mahsulotlari haqini oldindan 100 foiz to'lash sharti bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida eksport qilishga ham ruxsat etildi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining «Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlarning eksport qilinishi va raqobatdoshligini ta'minlashni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 5057-soni Farmoniga asosan, tadbirkorlik subyektlari uchun 100 ming dollargacha bo'lgan miqdordagi tashqi bozorlarga mahsulot yetkazib berish uchun oldindan to'lov shartisiz eksport qilishga ham huquqi berildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Valuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida» 5177-soni Farmoni bilan respublikamizda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga, ishlab chiqarish uchun zarur mahsulotlarni import qilishda xorijiy

valutaga ehtiyoj bo'yicha mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan zarur shart-sharoitlar yaratib berildi. Ma'lumki, ushbu farmon bilan yana joriy yilning sentabr oyidan eksport qiluvchi xo'jalik subyektlari uchun mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) eksport qilishdan valuta tushumlarining majburiy sotish bo'yicha talab harn bekor qilindi. Yana shuni alohida ta'kidlash zarurki, eksportbop, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish, korxonalarimiz raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida, Prezidentimiz tomonidan «O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 3303-soni qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan respublikamizda ishlab chiqarilmaydigan xomashyo, material, asbob-uskuna bilan korxonalarni ta'minlash maqsadida ushbu tovarlarga bojaxona boji va aksiz solig'i stavkalari deyarli olib tashlandi. Yaratilayotgan bunday imkoniyatlardan shubhasiz iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirishga, uning tayanchi bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yanada rivojlanishiga, ularning qulay ishlab chiqarish muhitida faoliyat olib borishiga va pirovardida eksportni yanada rag'batlantirishga xizmat qiladi.

#### **10.6. Eksportning tovar va geografik tarkibini takomillashtirish**

Respublikamiz eksporti va importining tovar va geografik tarkibini takomillashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish bir qator vazifalarning amalga oshirilishini taqozo etadi. Xorijiy davlatlarda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan, yoki ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin bo'lgan mahsulotlarga bo'lgan talabni o'rghanish, bunday tovarlar bozorlariga kirib borish va raqobat qilish strategiyasini ishlab chiqish eksport qilinayotgan tovarlar sonini va mamlakatlar geografiyasini kengaytirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Jahan bozorlarida korxonalarimiz mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda quydagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi:

- eksport qiluvchi korxonalarga mahsulot tayyorlash va sotish xarajatlarini kamaytirishda ko'maklashish;
- ularni tashqi bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlar, istiqbolli bozorlar, raqobatchilar to'g'risida olib borilgan tadqiqotlar natijalari bilan tanishtirish;
- transport-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantrish;
- yangi transport yo'laklarini ochish orqali transport xarajatlarini kamaytirish va h.k.

Bu borada har bir tarmoq uchun ishlab chiqilishi ko'zda tutilayotgan 2017 – 2020-yilga mo'ljallangan tayyor mahsulotni yangi tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha maxsus dasturlarda eksport hajmini oshirish, eksport qilinadigan yuklarni tashish tizimini takomillashtirish, eksportchi korxonalarini marketing, moliya va tashkiliy-huquqiy qo'llab-quvvatlash masalalari o'z aksini topadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, eksport hajmini oshirish, uning tarkibini takomillashtirish, umuman tashqi savdo aylanmasini diversifikatsiya qilish iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishida sifat o'zgarishlariga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy yuksalish va aholi turmush farovonligini yanada ko'tarish maqsadlariga xizmat qiladi.

#### **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Eksport. Nomenklatura. Tashqi savdo balansi, Diversifikatsiya, Import. Mavqeい. Daromad. Tranzit. Reeksport. Embargo. Bojaxona. Xalqaro mehnat taqsimoti. Ziroatchilik. Loyha. Xizmatlar. Birlashgan Millatlar Tashkileti (BMT), Muassasa. Strategiya. Raqobatdosh. Bozor konyunkturasi. Qo'llab-quvvatlash jamg'armasi. Sertifikat. Preferensiya. Realizatsiya. Aksiz solig'i. Mikrofirmalar. Eksportbop mahsulot. Tashqi savdo aylanmasi saldosi. Geografik tarkib.

#### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Eksport tushunchasiga ta'rif bering.
2. Tashqi savdo balansi deganda nima tushuniladi?
3. Tashqi bozordagi o'zgarishlar ta'sirida eksportning hajmi keskin kamayishi xavfini bartaraf etish imkonini beruvchi choralar to'g'risida ma'lumot bering.
4. Eksport qilinayotgan tovarlarni diversifikatsiya qilish nima uchun zarur?
5. Chetdan otib kelinayotgan mahsulotlar – ya'ni import tovarlar shahar, qishloq va ovullar aholisi tomonidan yaxshi kutib olinmasa, sotib olinmasa nimani keltirib chiqarishi mumkin?
6. Biznesda nimani kerakli yo'lga qo'yilgan taqdirdagina ishlab chiqarish jadal rivojlanadi?
7. Tranzit atamasini yoritib bering.

8. Reeksport degani nima?
9. Embargo – bu qanday chora?
10. O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan eksport qilinmoqchi bo‘lgan tovarlar tadbirkorlar tomonidan qanday talablar bajarilgandan so‘ng chiqariladi?
11. O‘zbekistondan eksport qilinuvchi tovarlarni misol keltiring.
12. Xizmatlar eksporti deganda nimani tushunmoq kerak?
13. Sanoat – bu biron bir mahsulotlar turiga qarab turkumlangan ishlab chiqarish soha ekanligi nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, aytinchchi, undagi mahsulot ixtisoslashuvi nima asosida shakllantirilgan bo‘ladi?
14. 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini yanada rag‘batlantirish maqsadida nimalar nazarda tutilgan?
15. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etilishini boisi nimada?
16. Tadbirkorlik subyektlarining eksportga qaratilgan faoliyatini rag‘batlantirish uchun nimalarni yaratilishi taqozo etiladi?
17. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yanada rivojlanishiga, ularning qulay ishlab chiqarish muhitida faoliyat olib borishiga va pirovardida eksportni yanada rag‘batlantirishga xizmat qiluvchi davlat organlari tomonidan qanday qaror va farmonlar mavjud?
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yilning 5-iyundagi 2613-sonli Farmonida eksport qiluvchilarga nimalar nazarda tutilgan?
19. Tashqi savdo aylanmasi saldosi nimani anglatadi?
20. Respublikamiz eksporti geografik tarkibini kengaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni keltirib o‘ting.
21. Jahon bozorlarida korxonalarimiz mahsulotlarining raqobatbar-doshligini ta’minlashda qaysi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi?

## **11. TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA ISHLAB CHIQARISHNI KLASTER USULIDA TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH**

- 11.1. Ishlab chiqarish klasterlari samaradorligini nazariy-uslubiy asoslari.
- 11.2. Ishlab chiqarishni klaster asosida boshqarishni tashkil etishning xorijiy tajribasi.
- 11.3. O‘zbekiston yengil sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish klasteri samaradorligi.

### **11.1. Ishlab chiqarish klasterlari samaradorligini nazariy-uslubiy asoslari**


«Klaster» atarnasi fransuzcha so‘z bo‘lib, o‘zbekcha tarjimasi «panja», «bosh», «bog‘lam», «guruh», «to‘planish», «turg‘un» ma’nolarini beradi.

Klaster (ing. Cluster) – ma’lum bir yo‘nalishda ishlab chiqarilgan mahalliylashtirilgan ishlab chiqarish sohasi yoki xizmatlarining almashinadigan elementi. Iqtisodiy klaster – bu ma’lum bir hududda to‘plangan o‘zaro bog‘liq tashkilotlar (kompaniyalar, korporatsiyalar, universitetlar, banklar va boshqalar); mahsulotlar, butlovchi qismlar va ixtisoslashitirilgan xizmatlarni yetkazib beruvchilar; infratuzilma; ilmiy-tadqiqot institutlari; bir-birini to‘ldiradigan va alohida kompaniyalar va umuman klasterning raqobatdosh ustunliklarini oshiradigan boshqa tashkilotlar.

Klaster o‘z ishtirokchilarining o‘zaro raqobati, ishtirokchilarining hamkorligi, mintaqaning noyob kompetentsiyalarini shakllantirish, ma’lum bir hududda korxona va tashkilotlarning konsentratsiyasini shakllantirish xususiyatlariiga ega.

Klasterlar – bu qo‘shma qiymatlar zanjiri doirasidagi tashkilotlar va ijtimoiy guruhlarning o‘zaro ta’sir shakli. Klasterlarni xoldinglar, professional uyushmalar, texnoparklar, texnoparklar va tumanlar, hududi innovatsion tizimlar, hududi ishlab chiqarish komplekslari va sanoat aglomeratsiyalari ajratib turishi kerak.

«Klaster» nazariyasini o‘rganish jahon hamjamiyatida tez sur’atlarda o‘sib bormoqda va uni amaliyatda qo‘llash esa, milliy va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishiga aylanmoqda, o‘zining quyidagi chizma (11.1-chizma)da keltirilgan samaradorligi sababi bois.



### 11.1-chizma. Sanoat klasterida ishlab chiqarish tuzilmalari faoliyati samaradorligi mezonlari

Klaster tashabbusi – bu klasterni yaratish va rivojlantirishning yo'naltirilgan jarayoni. Klaster siyosati – bu davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan klasterlar va klaster tashabbuslarining o'sishini rag'batlan-tirish jarayoni. Faylasuf Konfutsiy haqidagi shunday hikoyat bor: u yosh-ligida baliqchining oldiga boribdi. Baliqchi unga balig'idan tutqazibdi. Shunda u baliqchiga qarab, «Menga yordam bermoqchi bo'lsangiz, baliq bermang, balki uni tutishni o'rgating. Shunda men bu hunar bilan oilamni boqaman, undan ortsu, qo'shnilarimga, undan ham ortsu, xalqqa beraman», debdi.

Yaqinda nashrdan chiqqan «Klaster – integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o'sish» kitobini o'qib chiqsangiz, bu hikmatning mohiyatini yanada teran anglaysiz. Negaki, bugun tilimizga yangi atama – klaster kirib keldi. Uning mohiyatini amaliyotga birinchilardan bo'lib tattbiq etayotganlar nihoyatda yaxshi bilishadi.

Mazkur kitob mualliflaridan biri Murtazo Rahmatov tashabbusi bilan Buxoro viloyatida innovatsion loyiha – paxta-to'qimachilik klasteri loyihasi ro'yobga chiqarilmogda. Unga ko'ra, klaster tizimida jami sakkizta korxona faoliyati yo'lga qo'yiladi. Paxta ekishdan to tayyor

mahsulotgacha bo'lgan jarayonni yagona texnologik zanjirga birlash-tirgan ushbu majmualar sohada innovatsion iqtisodiyotga o'tishning muhim bosqichi hisoblanadi.

Ekspertlar hisob-kitoblariga ko'ra, bugungi kunda dunyodagi ilg'or davlatlar iqtisodiyotining qariyb 50 foizi klaster usuliga o'tgan. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2 mingdan ziyod klasterlar mavjud bo'lib, ularda ishchi kuchining 38 foizi qamrab olingan. Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiya sanoatida to'liq klaster usuli tattbiq qilingan. AQSHda esa mamlakatdagi mavjud korxonalarining yarmidan ziyodi shu tizimda ishlab, ular tomonidan tayyorlanayotgan tovarlar yalpi ichki mahsulotning 60 foizini tashkil qiladi.

Ularning eng mashhuri sizu bizga tanish bo'lgan «Silikon vodiysi»dir. 87 mingta kompaniya, 40 ta tadqiqot markazi va o'nlab universitetlar faoliyat yuritadigan mazkur innovatsion klaster infratuzilmasiga 180 ta venchur firmasi, 47 ta investitsiya va 700 ta tijorat banki xizmat ko'rsatib keladi. Xo'sh, nima uchun jahoning eng ilg'or iqtisodiyotlari aynan klasterlashtirish yo'lidan bormoqda?

Germaniyalik mutaxassislar fikricha, aynan klaster kelajakdag'i kuchli, murosasiz raqobat muhitida yutib chiqishning eng oqilonasi yo'lidir. Zero, bunday mexanizm har qanday sharoitga moslasha oladi, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy muammolarni izchillik bilan samarali yechib beradi, nafaqat muayyan hudud, balki davlatning xalqaro maydonidagi raqobatdoshligini mustahkamlaydi, nufuzini oshiradi. Qolaversa, innovatsion iqtisodiyotga o'tishning muhim bosqichi hisoblangan ushbu tizim ilrn-fan, ta'lif hamda ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, yangi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etishga xizmat qiladi.


O'zbekistonda ham mamlakat va jamiyatning mukammal innovatsion qiyofasini yaratishda klaster usulidan foydalanishga katta e'tibor qaratilyapti. Bunga agrar sohadagi sa'y-harakatlar yaqqol misol bo'la oladi. Ayni paytda paxta-to'qimachilik klasterlari soni ko'payib borayot-gani, kelgusida paxta yetishtiruvchi 133 tumandan 70 tasi to'liq klaster tizimiga o'tishi, yangi tuzilayotgan klasterlar tomonidan 41 korxona tashkil etilib, 25 mingga yaqin ish o'rinnari yaratilishi rejalashtirilayotgani diqqatga sazovor.

## **11.2. Ishlab chiqarishni klaster asosida boshqarishni tashkil etishning xorijiy tajribasi**

«Ishlab chiqarishni klaster asosida boshqarishni tashkil etishning xorijiy tajribasi» klasterlarni tashkil etishning zamonaviy konsepsiyalari, rivojlangan mamlakatlar tajribasi, yengil sanoat tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlarini umumlashtirish asosida klasterlashtirish mexanizmlarini me'yoriy-huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jihatdan takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Keyingi 10 yil mobaynida 20 ta mamlakatda amalga oshirilgan 500 dan ortiq klaster tashabbuslarining tahlili keltirilgan. Ushbu mamlakatlar raqobatbardoshligining yuqoriligi raqobatbardoshlik lokomotivlari hisoblangan ayrim klasterlarning kuchli pozisiyalariga bog'liqligi asoslangan. Klaster turidagi eng mashhur tizimlarga Silikon vodiysidagi (AQSH) kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalari sohasi, Xelsinkidagi (Finlyandiya) aloqa va telekommunikatsiyalar, Gollivuddagi (AQSH) kino ishlab chiqarish, Moskva mintaqasidagi aerokosmik sanoat sohasi kompaniyalarining kooperatsiyasi misol bo'la oladi.

Quyidagi diagramma (11.2-chizma)da dunyoning rivojlangan mamlakatlarda tashkil etilgan va samarali faoliyat yuritayotgan klasterlarning umumiy soni tasvirlangan.



**11.2-chizma. Jahoning ayrim mamlakatlari iqtisodiy otie: klasterlashtirish darajasi (birlikda)**

Bugungi kunda jahon biznesi rivojlanishida xalqaro klasterlar, shu jumladan, alohida mintaqalar doirasidan tashqariga chiquvchi klasterlar sonining tobora ko'payib borayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Masalan, Yevropa maqomiga ega ko'plab klasterlar xalqaro darajaga chiqishga intilmoqda. Bu asosan xalqaro va transchegaraviy loyihalarga taalluqli. Fransuz farmasevtik klasteri Lui Paster universiteti orqali Kanadaning «Invivo» klasteri bilan hamkorlik qiladi. Bunday hamkorlikdan ko'zlangan maqsad – ushbu klasterlar uchun Shimoliy Amerika va Yevropada istiqbolli sotish bozorlarini topishdan iborat. Agar yaqin vaqtga qadar klasterlar eng rivojlangan iqtisodiyotlarda tashkil etilgan bo'lsa, oxirgi yillarda ular rivojlanayotgan mamlakatlarda ham paydo bo'lmoqda. Vengriya, Polsha, Chexiya, Sloveniyada klasterlashtirish maxsus dasturlar bilan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Yevropa iqtisodiyoti uchun ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirishning ahamiyati shundan iboratki, XX asrning 90-yillarida sanoatni rivojlantirish bo'yicha Birlashgan millatlar tashkiloti (UNIDO) xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha bo'lim (Private Sector Development Branch) yordamida Yevropa mamlakatlari hukumatlari va Yevropa xususiy biznesining klasterlar hamda kichik korxonalar tarmoqlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etishda o'zaro hamkorlik qilishiga yordam berish uchun bir qator tavsiyalarni tayyorladi.

2006-yil iyulda Yel tomonidan «Yel mamlakatlarda klasterlashtirish Manifesti» ma'qullanib, qabul qilindi, 2007-yil dekabrda «Yevropa klaster Memorandumi» ma'qullanib, tasdiqlash uchun taqdim etildi va 2008-yil 21-yanvarda Stokgolmida Yevropa innovatsiyalar va klasterlar bo'yicha prezidentlar konferensiyasida tasdiqlandi. 2009-yil 7 – 10-mayda Pragada bo'lib o'tgan «Sharqiylar hamkorlik» mavzusidagi Yevropa Ittifoqi sammiti Yevropaning o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda klasterlashtirish jarayonlarining amalga oshirilishiga yordam berdi. Qabul qilingan hujjalarning asosiy maqsadi – alohida mamlakatlarning ham, Yevropa Ittifoqining ham raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir ko'rsatishga qodir klasterlar sonini oshirishdan iborat. Eng muvaffaqiyatli iqtisodiy tizimlar faoliyatining jahon amaliyotiga ko'ra, birinchi galda, yangi texnologiyalarning yoyilishini rag'batlantiruvchi omillar yuqori darajadagi raqobatbardoshlik va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

### 11.3. O'zbekiston yengil sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish klasteri samaradorligi


To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini (keyingi o'rnlarda to'qimachilik sanoati deb yuritiladi) modernizatsiya va diversifikatsiya qilish tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan ishlab chiqarilayotgan tayyor raqobatbardosh mahsulotlarning hajmi va turlarini kengaytirish, paxta xomashyosini yetishtirish va qayta ishlash samaradorligi va rentabelligini oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Shuni inobatga olgan holda, mamlakatimizda mazkur sohani yanada rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar izchil ro'yobga chiqariimoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-dekabrdagi PQ-2687-son qarori bilan 2017 – 2019-yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlangan.

Bugungi kunda respublikada 7 mingga yaqin korxona faoliyat olib borayotgan yuqori ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lgan to'qimachilik tarmog'i shakkantirildi. 1,4 million tonna hajmdagi paxta tolasini ishlab chiqarish quvvatlari yaratildi, shundan 60 foizga yaqinidan mahalliy to'qimachilik korxonalarining ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanilmoqda. Yengil sanoatda tarmoqlararo klasterning umumiy modelini quyidagi sxema orqali ko'rishimiz mimkin (11.3-chizma).

Eng avvalo, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish, tarmoqni boshqarishni tashkil etish, resurs va ishlab chiqarish quvvatlaringa taqsimlanishi, kadrlar malakasining yuqori emasligi bilan bog'liq tizimli muammolarning mavjudligi paxta xomashyosini yetishtirishning past rentabelligiga va uni qayta ishlashga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilishning yetarli darajada emasligiga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmon mavjud muammolarni hal etish, shuningdek, yuqori sifatli to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va uni jahon bozorlariga ilgari surish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar kompleksini belgilab berdi.



11.3-chizma. Yengil sanoatda tarmoqlararo klasterning umumiy modeli

Ushbu hujjat bilan to'qimachilik sanoatini yanada isloh qilishning quyidagi muhim yo'nalishlari belgilandi, xususan:

- to'qimachilik sanoatining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik mahsulotlarining hajmi va sifatini oshirish;
- to'qimachilik sanoatining boshqaruv tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish;

- to'qimachilik sanoati sohasida standartlashtirish va sertifikatlash-tizimini yanada takomillashtirish;
- tarmoqqa ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;
- to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning klaster modelini amalg'a oshirish;
- logistika va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish bilan o'zaro uzziy bog'liqlikda xomashyo resurslari taqsimotining va tashkil etilayotgan tarmoq korxonalari joylashuvining muvozanatini ta'minlash;
- ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or innovatsiya texnologiyalari, nou-xau, dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy etish, furnitura va aksessuarlar ning zamонавиј намуналарини ishlab chiqarishni mahalliylashtirish;
- to'qimachilik sanoati uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish.

Ta'kidlash joizki, mazkur farmon iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sir ko'rsatishni yanada qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirishni nazarda tutadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-son farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini amaliy ro'yobga chiqarishda muhim qadam hisoblanadi.

Xususan, farmon bilan boshqaruv va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarish, to'qimachilik sanoatining texnologik jarayonini modernizatsiya qilish va infratuzilmasini rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish, to'qimachilik sanoatiga xalqaro standartlarni joriy etish bo'yicha 20 dan ortiq tadbirdardan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish «Yo'l xaritasi» tasdiqlandi.

Paxta xom ashvosini ishlab chiqarishni tashkil qilishda sog'lem raqobat muhitini rivojlantirish va bozor mexanizmlarini joriy etish maqsadida farmon bilan eksperiment o'tkazish nazarda tutilgan bo'lib, uning doirasida birinchi bor mahalliy to'qimachilik sanoati korxonalari tomonidan fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan paxta xomashyosiga to'g'ridan-to'g'ri buyurtma berish tizimini joriy etish rejalashtirildi.

Bugungi kunga qadar mahalliy to'qimachilik korxonalari paxta tolasini eksport narxlar bo'yicha monopol yetkazib beruvchi «O'zpaxtasanoateksport»dan xarid qilishga majbur edi. Mazkur tafsib

to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning rentabelligi va raqobatbardoshligini pasaytirgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tashabbus qilingan eksperimentga muvofiq, to'qimachilik sanoati korxonalari fermer xo'jaliklari paxta xomashyosini yetishtirish bo'yicha asosiy xarajatlarining tuzilgan shartnomasi qiyomatining kamida 60 foizini avans berish yo'li bilan moliyalashtirishni amalg'a oshiradi. Bunda korxonalarga yetkazib berilgan paxta xomashyosidan faqatgina keyinchalik chuqur qayta ishlash va tayyor raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida foydalaniadi.

Bundan tashqari, Davlat rahbari o'zining farmonida to'qimachilik sanoati korxonalari, «O'zbekyengilsanoat» AJ aksiyadorlari yig'ilishining va qator idoralarning «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasini tashkil etish to'g'risidagi taklifini qo'llab-quvvatladi. Bunda davlatning tartibga solish va xo'jalik funksiyalarini o'z ichiga olgan «O'zbekyengilsanoat» AJ tugatiladi.

Mazkur uyushmaga respublika to'qimachilik tarmog'ini barqaror rivojlantirish bo'yicha keng doiradagi vazifalar yuklatildi.

«O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining asosiy vazifalari etib belgilansin:

- xomashyoni qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiyamatli tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha yagona kompleks sifatida, shu jumladan sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarida tadqiqotlar o'tkazish asosida tarmoqni barqaror rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish;
- to'qimachilik sanoati sohasidagi standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini xalqaro talab va standartlarga uyg'unlashtirish, shuningdek, mahsulotlar sinov laboratoriyalarini modernizatsiya qilish va akkreditatsiyadan o'tkazish orqali takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rish;
- to'qimachilik sanoati korxonalarining faoliyatiga innovatsion texnologiyalar, shu jumladan dizaynerlik ishlanmalar, nou-xau, sifat menejmenti tizimlari va zamонавиј marketing xizmatlari keng joriy etilishini ta'minlash;

- ichki bozorni yuqori sifatlari mahalliy to'qimachilik mahsulotlari bilan to'ldirish va uning eksport geografiyasini, shu jumladan turli axborot resurslarida hamda mamlakatdagi va xorijdagi ko'rgazma tadbirlarida milliy brendlarni yo'naltirishni ilgari surish va to'qimachilik sanoati korxonalarining salohiyatini namoyish qilish orqali kengaytirish bo'yicha tizimli kompleks chora-tadbirlarni amalgalashish;

- to'qimachilik sanoatiga chet el investitsiyalarini, shu jumladan logistika va muhandislik infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida faol jalg qilish;

- to'qimachilik sanoati korxonalarini, paxta-to'qimachilik klasterlarini hududlar salohiyatining yanada rivojlanish istiqbollaridan, xomashyo bazasi, infratuzilmasi, mehnat resurslari va bozorlarning mavjudligidan kelib chiqib joylashtirishga ko'maklashish;

- tarmoqning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda to'qimachilik sanoati sohasida kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni va ularni tayyorlashning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash, mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirishda ishtiroy etish, ushbu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarni chuqurlashtirish;

- tarmoqning jadal rivojlanishi va to'qimachilik sanoati korxonalarining barqaror faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda bartaraf etish, mazkur sohadagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Sohani boshqarish tizimi to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalariga javob bermasligi, ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga qodir emasligi mazkur qaroring qabul qilinishini taqozo etdi.

Masalan, «O'zbekyengilsanoat» AJ tarkibiga 436 ta korxona kiradi, bu esa ular umumiyligi sonining atigi 6 foizini tashkil etadi. Ushbu jamiyatning faoliyati asosan statistikani to'plash, turli xil yig'ilishlar o'tkazish, ko'rgazmalarni tashkillashtirishga qaratilgan. Uning tashkiliy shakli ham aksiyadorlik jamiyatining huquqiy holatiga mos kelmaydi.

«O'zbekyengilsanoat» AJ tarkibiga kiruvchi korxonalarini eksport xajmi 1 jadvalda berilgan.

## «O'zbekyengilsanoat» AJ korxonalarini eksport imkoniyatlarining o'sishi

1-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar							
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
O'zbekiston bo'yicha eksport hajmi, mln. AQSH doll.	13023	15021	13600	14323	14109	12870	9016	5969
«O'zbekyengilsanoat» AJ korxonalarini eksporti, mln. AQSH doll.	619	661	706	827	862	868	1145	1232
Mamlakat eksporti hajmida «O'zbekyengilsanoat» AJ ulushi, %	4,8	4,4	5,2	5,8	6,1	6,7	12,7	14,2

Xorijiy mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatdiki, to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning samarali shakllaridan biri klasterlarni tashkil etish hisoblanadi. Mazkur model paxta xomashyosini yetishtirish, dastlabki ishlov berish, mahsulotni paxta tozalash korxonalarida keyingi qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan yagona ishlab chiqarish siklini tashkil etishni ko'zda tutadi.

Bundan kelib chiqib, maxsus Ishchi komissiyaga Paxta-to'qimachilik klasterlarini o'rta muddatli istiqbolda rivojlantirish konsepsiysi loyihasini, shunday klasterlarni Buxoro va Navoiy viloyatlarida tashkil etish narijalarini hisobga olgan holda ishlab chiqish topshirildi.

Shu bilan bir qatorda, farmon bilan to'qimachilik sanoati korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar, shu jumladan bozonha to'lovlari to'lash bo'yicha imtiyozlar taqdim etish nazarda tutilmoxda.

Ta'kidlash joizki, mahsulotlarni sinovdan o'tkazish bo'yicha laboratoriyalarning past samaradorligi, ularning ko'pchiligidagi xalqaro akkreditatsiyaning mavjud emasligi mahalliy to'qimachilik sanoati ishlab

chiqaruvchilarining tashqi bozorlarga chiqishiga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun to'qimachilik sanoati sohasida standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish, shu jumladan xalqaro standartlarni joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish nazarda tutildi.

Umuman olganda, Davlat rahbari farmonining analga oshirilishi:


- tarmoqning boshqaruv tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarish, narxlarни shakllantirish va paxtani sotish jarayoniga bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish;
- paxta eksporti hajmini tobora qisqartirish va ichki bozorda uni chuqur qayta ishlashning o'sishini ta'minlash;
- mamlakatda ishlab chiqari maydigan xomashyo, materiallarni ishlab chiqarishni, shu jumladan mahsulotning alohida turlarini mahalliylashtirish orqali rag'batlantirish;
- texnologik va marketing innovatsiyalarini keng joriy etish;
- davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalangan holda to'qimachilik komplekslarini qurish;
- xalqaro akkreditatsiyaga ega mahalliy laboratoriylar sonini ko'paytirish, to'qimachilik sanoati milliy standartlarini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish hisobiga to'qimachilik sanoatining jada rivojlanishini ta'minlaydi.

Birgina Toshkent viloyatining Piskent, O'rta Chirchiq, Quyi Chirchiq, Oqqo'rg'on va Bo'ka tumanlarida paxta-to'qimachilik klaster loyihalari amalgalga oshiriladi. Xususan, Quyi Chirchiq tumanida 2018-2020-yillarda paxta yetishtirishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonni o'zida to'la jamlagan klaster loyihasi amalgalga oshirilishi rejalashtirilgan. Bu maqsadlar uchun 59 million dollardan ziyod investitsiya jalb etiladi, 600 dan ortiq ish o'mi yaratiladi.

Toshkent viloyati to'qimachilik klasteri mexanizmi quyida keltirilgan (11.4-chizma).

Joriy yilda mamlakatimizda 60 dan ziyod ana shunday loyiha amalgalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Mazkur model paxta xomashyosini yetishtirish, dastlabki ishlov berish, mahsulotni paxta tozalash korxonalarida keyingi qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan yagona ishlab chiqarish siklini tashkil etishni ko'zda tutadi.



#### 11.4-chizma. Toshkent viloyati to'qimachilik klasteri mexanizmi

#### Asosiy atamalar va tushunchalar

Klaster. Iqtisodiy klaster. Institut. Qo'shma qiymatlar zanjiri. Texnopark. Integratsiya. Ekspert. Innovatsion iqtisodiyot. Ilmiy-texnikaviy. To'qimachilik. Modernizatsiya. Logistika. Muhandislik infratuzilma. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Ma'muriy islohotlar. Xalqaro standart. Eksperiment. Monopol. Rentabelliik. Tendensiya.

#### Mavzu bo'yicha savollar:

1. Klaster tushunchasi qanday ta'rifga ega?
2. Iqtisodiy klasterlarni shakllantirish negizida nima nazarda tutilgan bo'lishi mumkin?
3. Qo'shma qiymatlar zanjiri to'g'risida ma'lumot bering.
4. Ilm-fan, ta'lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasi bilan nimaga kulay sharoit yaratiladi?

5. «Klaster» atamasi qaysi tilining so‘zi bo‘lib hisoblanadi va uning o‘zbekcha tarjimasi qanday ma’nolarini anglatadi?

6. Dunyodagi klaster turidagi eng mashhur tizimlari to‘g‘risida ma’lumot bering.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-dekabrdagi PQ-2687-son qarori bilan 2017 – 2019-yillarda iqtisodiyotning qaysi sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlangan?

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonida to‘qimachilik sanoatini yanada isloh qilishning muhim yo‘nalishlarini yoritib bering.

9. O‘zbekiston Respublikasida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish «Yo‘l xaritasi»da nechta sonidan ortiq tadbirda qanday yo‘nalishlar nazarda tutilgan?

10. «O‘zto‘qimachiliksanoat» uyushmasining asosiy vazifalari etib nimalar belgilandi?

## **12. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISH**

12.1. Innovatsion faoliyat, uning iqtisodiy mazmuni va mohiyati.

12.2. Innovatsion tadbirkorlik haqida tushuncha va uning bosqichlari.

12.3. Kichik biznes korxonalarini innovatsion faoliyatining asosiy xususiyatlari.

12.4. Kichik biznesning innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jarayonlari yo‘nalishlari.

12.5. O‘zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘nalishlari.

12.6. Kichik korxonalarda innovatsion tadbirkorlik faoliyati ustunliklari.

### **12.1. Innovatsion faoliyat, uning iqtisodiy mazmuni va mohiyati**

Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar hamda ilmiytadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari; Innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni tijoratlashtirish va ishlab chiqarishga joriy qilish ishlarini yanada kengaytirish, shunungdek, innovatsion tashkilotlar faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida hamda xo‘jalik boshqaruvi organlari va yirik davlat korxonalaridagi innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risidagi namunaviy Nizomni tasdiqlash haqida qabul qilingan Hukumat qarorlari; O‘zbekiston Respublikasini innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasida jamiyat va davlat hayotini har tomonlama rivojlantirish, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini Arnalga oshiruvchi davlat organi tashkil etilganligi innovatsion faoliyat borasidagi rivojlantirish strategiyalarni belgilovchi tashkiliy-huquqiy asoslaridir. Bunga sabab, bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha rivojlangan mamlakatlar o‘zlarining yuksak taraqqiyot darajasiga fan va texnika sohasida qo‘lga kiritilayotgan ilmiy-texnikaviy yutuqlar va ularni

hayotga tezda va keng miqiyosida tadbiqu qilish, ayniqsa, ishlab chiqarishga samarali joriy etish natijasida erishayotganligi.

Bugungi kunda har yili Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihami amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi PQ-3682-son 27.04.2018-yildagi Qarorida: «Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlariga ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalarini va nou-xau ishlanmalarni keng joriy etish, ushbu yo'nalishda ilmiy muassasalar va real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalar o'ritasida yaqin hamkorlikni o'matish mamlakatni jadal innovatsion rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi» deb aytilib o'tilgan.

Prezidentimizning «Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihami amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi PQ-3682-son 27.04.2018-yildagi Qarorida: «Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlariga ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalarini va nou-xau ishlanmalarni keng joriy etish, ushbu yo'nalishda ilmiy muassasalar va real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalar o'ritasida yaqin hamkorlikni o'matish mamlakatni jadal innovatsion rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi» deb aytilib o'tilgan.

Mamlakatimizda to'laqonli innovatsion muhitni shakllantirishdan asosiy maqsad – ilm sarfi yuqori va yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish hajmini o'stirish uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, kichik innovatsion tadbirkorlikning mutassil rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalari rivojlanishidagi dolzarb muammolarni yechish uchun ilmiy, ilmiytadqiqot va loyiha-konstrukturlik tashkilotlarining ilmiy-texnik salohiyatidan samarali foydalanish, korxonalarning, ayniqsa kichik biznes korxonalarining investitsion va innovatsion faolligini oshirishga turki berish hamda innovatsion faoliyatni kengaytirishga investitsiyalarni jalb qilishdir.

Fanda «Innovatsiya» iborasi inglizcha «innovation» so'zidan olingan bo'lib, «yangilik kiritish» degan ma'nomi bildiradi. Buning zaminida esa yangi tartib, yangi odat, yangi usul, kashfiyot, yangi qarash va g'oyalar yotadi. Innovatsiya deganda yangi ilmiy texnik yutuqni ifodalab, yangi mahsulotni yaratish, amalda qo'llash jarayoni ham tushuniladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda «innovatsiya» tushunchasi ilmiy-teknika salohiyatini real, yangi mahsulot va texnologiyalarni yuzaga chiqaradigan jarayon sifatida talqin etiladi.

Innovatsiyalar yoki «yangi kombinatsiyalarni amalga oshirish» tushunchasiga yirik iqtisodchi olim Shumpeter tashkilot, mahsulot yoki ishlab chiqarish jarayonini doimiy takomillashtirish yo'li bilan olinuvchi strategik afzallik va yutuqlarni kiritigan.

Shumpeterning qarashlarida innovatsiya sifatida quyidagi besh hol nazarda tutilganligini ko'nish mumkin:

-yangi ne'mat tayyorlash

-ishlab chiqarishning yangi usulini joriy qilish

-yangi sotuv bozorini o'zlashtirish

-xomashyo yoki yarim tayyor mahsulotlar yangi inanbasiga ega bo'lish

-tegishlichqa qayta tashkil qilish, masalan, monopol holatini ta'minlash

Shuningdek, mash'hur tadqiqotchi olim P.Druker ham innovatsiyaning iqtisodiy mazmunini asoslab berishga harakat qiladi va tadbirkorlar uning yordamida yangi xizmatlar yoki biznes turini amalga oshirish kabi o'zgarishlardan foydalanadigan o'ziga xos bir alohida vositali sifatida ta'riflaydi.

P. Drukerning ta'rifi Y. Shumpeterning klassik ta'rifi mohiyatini to'ldirib, bir vaqtning o'zida samarali rivojlanishning sharti sifatida tashkiliy-iqtisodiy omilning ahamiyatini va yangi tovarlarni amaliyotda qo'llash zaruratinini ta'kidlaydi.

Innovatsion faoliyatning mohiyati birinchidan, amaliyotga yangi, takomillashgan ishlab chiqarishni joriy etish, ikkinchidan, mahsulot ishlab chiqarish xarakatlarning barcha turlarini qisqartirish, uchinchidan, ishlab chiqariladigan mahsulotlar narxlarini pasaytirishda ularni iste'mol va sifat xususiyatlarini doimiy ravishda oshirib borish bilan izohlanadi.

Shunday qilib, ilmiy asoslangan yangiliklar tarqatilish va joriy etilish paytidan boshlab innovatsiyalarga aylanadi. Innovatsiyalarni

bozorga tatbiq etish jarayoni innovatsiyalarni tijoratlashtirish jarayoni deb ataladi.

Bizning fikrimizcha, innovatsiya – bu qandaydir yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayonni, marketingning yangi uslubini, ish amaliyotida, ish joylarini tashkil qilishda yoki tashqi aloqalarda yangi tashkiliy uslubni iste'molga kiritishdir.

Innovatsiya – bu kapitalni yangi texnika yoki texnologiyaga, ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllariga, xizmat ko'rsatishga, boshqarishga va boshqalarga jalb etishdan olingan moddiylashtirilgan natijadir. Innovatsiyalarni yaratish, o'zlashtirish va tarqatish jarayoni innovatsion faoliyat yoki innovatsion jarayon sifatida tushuniladi.

Innovatsion faoliyatning natijasini innovatsion mahsulot deb ham atash mumkin.

Innovatsiya yangi turdag'i yoki takomillashtirilgan va bozorda sotishga mo'ljallangan mahsulot yaratishni, amaliy faoliyatda qo'llanildigan yangi turdag'i yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonni o'zida aks ettiradigan innovatsion faoliyatning pirovard natijasidir.

Innovatsiya faoliyatini o'rganish predmeti ikkita tarkibiy qismdan iboratdir: innovatsiya faoliyati subyekti va innovatsiya faoliyati obyektlari.

Innovatsiya faoliyati subyektlari sifatida quy'idagilar hisoblanadi:

- innovatsiya faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan davlat tashkilotlari;
- innovatsiyalarni yaratayotgan va amalga oshirayotgan jismoniy va yuridik shaxslar;
- asosiy faoliyati innovatsiyalarni yaratish, ulardan foydalanish, tijoratlashtirish va tarqalishiga ixtisoslashgan subyektlari (texnologik parklar, innovatsiya fondlar, innovatsiya markazlari, innovatsiya faoliyati infratuzilmasining innovatsion va boshqa tashkilotlari).

Innovatsiya faoliyati obyektlari bo'lib quy'idagilar hisoblanadi:

- davlat innovatsiya ishlari dasturlari va innovatsiya ilmiy-teknika loyibalari;
- ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va texnologik ishlar va intellektual faoliyat natijalari: ixtiolar, foydalı modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, dasturiy mahsulotlar, nou-xau, yangi

texnologiyalar, texnik, texnologik va qurilish injiniring obyektlari va boshqa innovatsiya mahsulotlari.

Bugungi kunda samarali innovations faoliyatni ta'minlashda ularga ko'maklashuvchi turli tashkilotlardan tashkil topgan innovations infratuzilmaning shakllanishi shartdir.

Innovatsion infratuzilma – bu tashkiliy, boshqaruvi, moddiy-teknik, moliyaviy, axborot, kadrlar bo'yicha, konsalting va boshqa xizmatlarni mujassamlagan, innovatsiya loyihalarini amalga oshirishga imkon beruvchi innovatsiya faoliyati subyektlarining majmuasidir. Innovatsion infratuzilmaga tarkibiy jihatdan quyidagi asosiy funksiyaviy elementlarni kiritish mumkin:

- davlat innovatsiya loyihalari va dasturlarining buyurtmachilari (keyingi o'rnlarda – buyurtmachilar deb yuritiladi);
- ilmiy-tadqiqot, loyihalash-konstrukturlik va ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish tashkilotlari va ularning birlashmalari; innovatsion tashkilotlar;
- innovatsiya markazlari;
- innovatsiya va venchur fondlari;
- innovatsiya faoliyatida ishtirok etuvchi nodavlat notijorat tashkilotlar;
- innovatsiya faoliyatini amalga oshirayotgan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar;
- qonunchilikka muvofiq innovatsiya faoliyatini amalga oshirayotgan boshqa tashkilotlar.

Vujudga kelish manfaati bo'yicha innovatsiyalar asosan uch turga bo'linadi:

- fan va texnikani rivojlanishi bilan bog'liq innovatsiyalar;
- ishlab chiqarish ehtiyoji bilan bog'liq innovatsiyalar;
- bozor talabi bilan bog'liq innovatsiyalar.


Korxonalarning faoliyati turlariga qarab innovatsiyalar texnologik, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, savdo va boshqarish sohasi ko'rinishida ham kvalifikatsiyalanadi.

## 12.2. Innovatsion tadbirkorlik haqida tushuncha va uning bosqichlari

Innovatsion tadbirkorlik – yangilik yaratishning alohida ijodkorlik jarayonidir, xo'jalik jarayoni, uning zamirida muntazam yangi imkoniyatlarni izlash, inovatsiyalarga yo'naltirilganlik yotadi. Bu mavjud loyihami takomillashtirish yoki yangisini amalga oshirishdagi tavakkal-chilikni, shuningdek, bu jarayonda yuzaga keladigan moliyaviy, ma'naviy va ijtimoiy javobgarlikni tadbirkor o'z zimmasiga olishga tayyorligi hilan bog'liq.

Innovatsion tadbirkorlik jarayonida o'z xususiyatlariga ko'ra innovatsiyalar orqali yangilik kiritish amaliy foydalanish orqali (mahsulot va xizmatlar, oliy mahsulotlar) va texnologiyalar vositasida ishlab chiqariladi.

Innovatsion tadbirkorlikning birinchi turi mos ravishda korxonaning sotish salohiyatini yangilash, mo'ljallangan jarayoni, o'z navbatida, olinadigan foya hajmini ko'paytirish, bozordagi ulushining kengaytirilishi, mijozlarni ushlab turish, mustaqil holatni mustahkamlash, nufuzini oshirish, yangi ish joylarini yaratishga qaratilgan. Innovatsion tadbirkorlikning asosiy turlari quyida keltirilgan (12.1-chizma):



12.1-chizma. Innovatsion tadbirkorlikning turlanishi

Texnologik innovatsiyalar – energiya, ishlab chiqarish salohiyatini yangilash jarayoni bo'lib, tejash va mehnat unumdarligini oshirishga va energiya xomashyesi va boshqa resurslarni oshirishga qaratilgan, bu korxona foya hajmini oshirishga imkon beradi. Texnika xavfsizligini takomillashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazish, firma ichki axborot tizimlaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Innovatsion jarayoni tashkil etish usuli asosida korxonada innovatsion tadbirkorlikning uch modelini alohida ko'rsatish mumkin:

1). Ichki tashkilotchilik asosida innovatsion tadbirkorlik, bunda innovatsiya firma ichida uning maxsus bo'linmalari tomonidan innovatsion loyiha bo'yicha ularning rejalashtirish va nazorat asosida o'zaro harakatida yaratiladi.

2). Sharhnomalar yordamida tashqi tashkilot asosida innovatsion tadbirkorlik, bunda va/yoki o'zlashtirishga buyurtma, innovatsiya tarafdir tashkilotlar o'rasisida joylashtiriladi.

3). Venchurlar yordamida tashqi tashkilot asosida innovatsion tadbirkorlik, bunda firma innovatsion loyihaning tatbiqi uchun qo'shimcha tomonlarning mablag'larini jalb etuvchi sho'ba venchurlik firmalarini ta'sis etadi.

Ko'p hollarda innovatsion tadbirkorlikning ikkinchi modeli foydalilanadi, ya'ni korxona yangiliklarni ishlab chiqishga buyurtma bermaydi, balki ularni o'z kuchi bilan o'zlashtiradi.

Umumiy holda innovatsion tadbirkorlik bosqichlari quyidagi sxemada nomoyon etilgan (12.2-chizma).

Ilmiy-teknik mahsulot (tovar, xizmat)lar ishlab chiqarish uchun korxonaga, shuningdek, inshoot ko'rinishida asosiy vositalar, bino, maxsus asbob-uskuna, dastgoh va boshqalar zarur. Tashkilot ularni sotib olishi yoki asosiy vosita egalaridan ma'lum vaqtga ijara olishi mumkin. Innovatsion faoliyatga zarur bo'lgan narsalar uchun mulkdorlarga pul miqdorini to'lashi lozim, pul miqdori asosiy vositalarning turi, soni va bahosiga bog'liq. Asosiy vositalarning ijarasida to'lov uning ishlatilish muddatiga bog'liq bo'ladi.

Innovatsiyalar generatsiyasi
Ilg'or g'oy alarni baholash va saralash
Biznes rejalar ishlab chiqish
Biznes rejalarini baholash
Zarur resurslarni izlash
Innovatsion tashkilotlami ro'yxatdan o'tkazish
Eksperimental namunani yaratish va tadbiq etish
Yaratilgan intellektual mahsulotni himoya qilish
Sotuvni tahlil qilish va unga ko'ra tuzatishlar kiritish
Yangi mahsulotni ommaviy ishlab chiqarish
Innovatsion faoliyatdan daromad olish

## 12.2-chizma. Innovatsion tadbirkorlik bosqichlari

Innovatsion tadbirkorlikni amalga oshirish uchun tashkilot ma'lum pul resurslarini (DB) sarflagan holda, shuningdek, ilmiy-texnik kadrlarni, ishlab chiqarish xodimi, ya'ni ishchi kuchini (RS-I) jalb qilishi zarur.

Agar korxona o'zining pul mablag'lariga ega bo'lmasa yoki innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun ular yetarli miqdorda bo'lmasa, bunda mablag' keyingi to'lov va foizli kredit (Dk) asosida korxona tomonidan kommersiya banklaridan olinishi mumkin.

Bundan tashqari, pulli asosda o'z vaqtida zarur axborot (Di) olmay turib innovatsion tadbirkorlik bo'lishi mumkin emas.

Korxona innovatsion faoliyatni tatbiq qilishda zarur bo'lgan ayrim ish va xizmatlarni bajarish uchun buyurtmalarini pulli asosda talabgor tashkilotlarda joylashtirishi mumkin (Du).

Innovatsion tadbirkorlikni amalga oshirish uchun zarur pul mablag'lariga ehtiyoj mos ravishda quyidagi formula orqali baholanadi:

$$D = D_m + D_o + D_r + D_i + D_k + D_u,$$

bunda:

D<sub>m</sub> – materiallar, xomashyo, energiya, yarim tayyor mahsulotlar sotib olish uchun zaruriy pul mablag'ları;

D<sub>o</sub> – asosiy fond, mehnat vositalari, binolardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar;

D<sub>r</sub> – yollangan ishchilarga ish haqi uchun zarur pul mablag'ları;

D<sub>i</sub> – qo'shimcha axborot olish uchun zarur pul mablag'ları;

D<sub>k</sub> – kredit mablag'lardan foydalanilganlik uchun to'lanadigan pul mablag'ları;

D<sub>u</sub> – tarafdar tashkilot va shaxslarning xizmatlari to'lovi.

Innovatsion tadbirkorlikning natijasi sifatida tayyor tovar (mahsulot) yuzaga keladi. Uni korxona, innovatsion mahsulot iste'molchisi korxona va innovatsion faoliyatni amalga oshirishdagi sarf-xarajatlar va daromadini o'z ichiga olgan narxda (D+P) sotadi.

Shunday qilib, innovatsion tadbirkorlik xo'jalik yuritishning alohida ijodkorlik jarayoni bo'lib, uning asosida yangi imkoniyatlarni muttazam izlash, innovatsiyaga yo'naltirilganlik, turli-tuman manballardan doimiy masalalarni hal etish uchun resurslar izlashni uddalash va ulardan foydalanish demakdir. U tadbirkorning mavjud loyihami yaxshilash yoki yangisini tatbiq etish bilan bog'liq barcha tavakkalchilikni o'z zimmasiga ko'ngilli ravishda olishga tayyorligi, moddiy daromad olib keladigan jarayon uchun moliviyyi, ma'naviyi va ijtimoiy javobgarlikni o'ziga olishi va bundan o'zi ham qoniqish hosil qilishi bilan tavsiflanadi. Innovatsion tadbirkorlik – tadbirkorlik faoliyati barcha jahbalarining asosidir.

### **12.3. Kichik biznes korxonalari innovatsion faoliyatining asosiy xususiyatlari**

Ma'lumki, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi ko'p jihatdan turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik subyektlarining, korxonalarining qay darajada shakllanganligiga bog'liq. Faqat turli mulkililik munosabatlariiga asoslangan xo'jalik subyektlari orasidagi optimal nisbatgina yuqori samaradorli ishlab chiqarishni tashkil etishga katta imkon yaratadi.

Innovatsion jarayonni kichik biznes sohasidagi muhitga muvofiq-lashtirish, uning samarasini oshirish mavjud ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlardan to'liq foydalanishni taqozo etadi. Asosiy e'tibor bozor raqobati sharoitida eng oqilona variantlarni tanlash, foydalilik darajasini ta'minlash va kichik korxona faoliyatini jadallashtirishga qaratilishi lozim bo'ladi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ko'plab rivojlangan mamlakatlar yuksak taraqqiyot darajasiga fan va texnika sohasidagi eng so'ngi innovatsiyalarni ishlab chiqarishga tez va keng ko'lamda joriy etish hisobiga erishmoqdalar.

Kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish ko'p jihatdan uning boshqaruvi tizimi samaradorligiga bog'liq. Kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishdan maqsad butun ishlab chiqarish tizimini yangilash hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ilmiy-texnik, intellektual va iqtisodiy salohiyatdan samaraliroq foydalanish asosida soha raqobatbardoshligini oshirishdan iboratdir.

Mukammal raqobat jamiyat uchun juda kuchli stimul bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlarini minimumlashtirishiga va ish haqini uning me'yoriy unumdarligiga maksimal yaqinlashtiradi.

Kichik biznes rivojlangan va rivojlanayotgan har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosidir. Kichik biznesni jadal rivojlantirish barqator iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik vazifasi, mamlakat yalpi ichki mahsulotini shakllantirishning asosiy bo'g'ini, aholini ish bilan ta'minlash va uning daromadlari manbai, milliy farovonlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Kichik korxonalarda yirik korxonalarga qaraganda, ayniqsa iqtisodiyotning istiqbollı tarmoqlarida innovatsion jarayonlar, tadbir korlik ruhi ko'proq ko'rindi. Shuning uchun ham kichik va o'rta biznes

zamonaviy tarmoqlar hisoblangan elektronika, kompyuterlash va boshqa sohalarda ko'proq o'rinn egallagan.

### **12.4. Kichik biznesning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash jarayonlari yo'nalishlari**

Kichik biznesning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash jarayonlari asosan quyidagi 3 ta yo'nalishni o'z ichiga oladi:

1. Kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyati uchun yetarlicha ishbilarmonlik shart-sharoitlarini va muhitini yaratish.
2. Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini bevosita rag'batlantirish.
3. Kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini o'z vaqtida to'g'ri moliyalashtirish.

Tadbirkorlikni kreditlashning ko'plab ilg'or shakllarini joriy etishga sharoit yaratildi. Birja savdolarini rivojlanishi bilan tadbirkorlikni moddiy-texnik resurslarini erkin sotib olishga qulay sharoit yaratildi va bu sohaga bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolar o'z yechimini topdi.

Ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulotlarini majburiy standartlashtirish va sertifikatlash tizimi soddalashtirildi, erkinlashtirildi va bu islohotlar davom etmoqda. Ruxsat berish bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina funksiyalar takomillashtirildi va soddalashtirildi. Chakana va ulgurji savdo tizimi erkinlashtirildi.

Moliya, soliq va statistika hisobotlarining barcha shakllari va muddatları keskin qisqartirilmoqda. Soliqqa tortish stavkalari unifikatsiya qilindi va kamaytirildi.

Nazorat qiluvchi organlarning nazorat va kuzatuv funksiyalariga yondashuv tubdan o'zgardi. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan yo'l qo'yilgan qonun buzilishlarni baholash me'zonlari qayta ko'rib chiqilib, tadbirkorlarga nisbatan qo'llaniladigan ko'plab jarimalar miqdori sezilarli darajada kamaytirildi, ayrim jarima turlari esa butunlay bekor qilindi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini, uning innovatsion faoliyatini


qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish tizimi shakllangan bo'lib, uning tavsifini tahlillarimiz asosida 12.3-chizmada keltiramiz.

Bizning fikrimizcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning innovatsion faoliyatini rivojlanishini qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish asosan quyidagi 5 ta yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin: ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy-teknologik va huquqiy-siyosiy sohalar bo'yicha.

Kichik biznesning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish nafaqat davlat organlari tomonidan, balki turli nodavlat taskkilotlar, tijorat banklari, milliy va xorijiy kompaniyalar, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.


O'zbekistan Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi o'z funksiya va vazifalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, shu jumladan biznesni yuritishga qulay shart-sharoitlarni yaratish va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish orqali rivojlantirishga oid uzoq muddatlari dasturlarni tayyorlash hamda innovatsion g'oyalar, ishlamalar va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish orqali innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash jarayonlari yo'nalishlari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirdilar to'g'risida»gi 2018-yil 5-may PQ-3697-sonli Qarorida O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining davlat-xususiy sheriklik shartlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida innovatsion loyihibalar-startaplarni ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish va o'zlashtirish, innovatsion faoliyat natijalarini transfer qilish va tijoratlashtirishni amalga oshiruvchi innovatsion g'oyalar, ishlamalar va texnologiyalar markazlarini tashkil etish ma'qullanganligi innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishga zamin yaratdi.



## 12.5. O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nashlari

Quyidagi 12.4-chizmada ushbu markazlarning asosiy vazifalaridan ba'zilari aks ettirilgan:



### 12.4-chizma. Davlat-xususiy asosidagi markazlarning ba'zib vazifalari

Innovatsion faoliyat markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan turda moliyalashtiriladi. Birinchi usulda pul mablag'lari: davlat budgeti, ilmiy-teknik rivojlanish davlat dasturiga kiritilgan loyihalarni maqsadli moliyalashtirish; tanlov ishlarini bajarish bo'yicha jamqarmalar; muayyan loyiha uchun ajratilgan va qaytarilishi kutilmaydigan grantlar hamda subsidiyalar; hokimiyatlar va boshqaruv organlari maxsus buyurtmalarini moliyalashtirish; davlat banklarning kreditlari hisobidan taqdim etiladi.

Moliyalashtirishning markazlashtirilmagan usuli korxonalarning xususiy mablag'lari, xususiy shaxslar, maxsus moliya yoki xayriya jamg'armalari hamda kredit mablag'lardan foydalanishga asoslangan. Masalan, AQSHda sanoat kompaniyalari va banklari, universitetlar, kollejlar, federal hukumat idoralari hamda mahalliy boshqaruv organlari.

sohalar va ularning uyushmalari, xususiy shaxslar ilmiy jamg'armalarini tashkil qilishda faol qatnashadilar.

O'zbekistonning davlat investitsiya siyosati birinchi navbatda iqtisodiyotda tuzilmaviy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, korxonalar investitsiya faoliyatini jadallashtirish hamda chet el investitsiyalarini keng miqyosda jaib qilish, shuningdek, investitsiya loyihalari tanlovi asosida ijtimoiy masalalarni hal etishga yo'naltirilgandir.

Shuni ta'kidlash joizki, amaldagi soliq tizimi kichik korxonalar, jumladan, innovatsiya korxonalari faoliyat yuritish sharoitlarini hisobga olmaydi. Innovatsiya korxonalari, boshqa xususiy korxonalar kabi, foyda soliqlarini to'plash paytida soliqqa tortiladigan foyda miqdorini aniqlashda imtiyozga egadirlar. Jumladan, ularga ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tashkil qilish, texnikaviy jihozlash uchun yunaltirilgan foydani chegirish huquqi taqdim etilgan. Ishlab chiqarish uchun mo'ljalangan mahsulot hamda qurilish materiallarini yetkazib beradigan ba'zi bir korxonalar olgan foydasi ushbu korxona ro'yxatga olingan kundan boshlab, dastlabki ikki yil mobaynida soliqqa tortilmaydi.

## 12.6. Kichik korxonalarda innovatsion tadbirkorlik faoliyati ustunliklari


Mazkur imtiyoz tugatilgan yoki davlat tasarrufidan chiqarilgan yoxud sanksiya natijasida qayta tuzilgan innovatsiya korxonalari, ularning filiallari hamda tuzilmaviy bo'lmalariga tegishli emas.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar tajribasiga ko'ra, innovatsiya korxonalari uchun respublikada qabul qilingan hamda iqtisodiyotning ustuvor sohalarida amal qilayotgan barcha imtiyozlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ilmiy izdanishlarni bajarayotgan innovatsiya korxonalari tadqiqot ishlari uchun ilmiy-teknik asbob-uskunalar sotib olgan yilning ozidayoq, 50 foizli amortizatsiya huquqiga, qolgan asosiy mablag'lar hisobidan esa jadallahgan amortizatsiya huquqiga ega bo'lishlari lozim.

Kichik korxonalarda innovatsion tadbirkorlik faoliyati ustunliklari quyidagi chizmada berilgan (12.5-chizma).

Innovatsion tadbirkorlik uchun biznes muhit asosiy hisoblanadi, chunki yangiliklarni kashf etish va uni amaliyatga tadbiq qilish yetarli tadbirkorlik muhitini talab qiladi.

Tadbirkorlik muhiti – bu biror bir maqsadga yo'naltirilgan izlanish (tadqiqot) olib borish va uni amalga tadbiq qilish uchun sharoit yaratib beruvchi muhitdir.



### 12.5-chizma. Kichik korxonalarda innovatsion tadbirkorlik faoliyati ustunliklari


Bunday muhitning asosiy elementlarini bozorda erkin harakatlanuvchi, o'z moliyaviy mablag'iga ega bo'lgan investorlar, raqobatbardosh tovar ishlab chiqaruvchilar va ularga xizmat qiluvchi bozor infratuzilmalari tashkil qiladi. Iqtisodiyotda bunday bozor muhitini yaratish – hozirgi kundagi mamlakatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Kichik biznes kafolatlarini mustaqkamlash, uning rivoji uchun qulay muhit yaratish maqsadida davlat boshqaruvi idoralari va bozor institutlarida ma'muriy protseduralarni bajarish bilan bog'liq, ancha yuqori darajada bo'lib turgan biznes xarajatlarini kamaytirish lozim. Biznes muhit mamlakatimizda vujudga kelayotgan innovatsion tadbirkorlikni asosini tashkil etadi.

Innovatsion tadbirkorlikning tashkiliy – huquqiy asoslari turlichadir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda katta risk (tavakkalchilik) bilan ishlaydigan maxsus venchur firmalari mavjud bo'lib, ular yangi Tovar va xizmatlar yaratish ustida tadqiqotlar olib boradilar.

Venchur firma asoschilari – injener, olimlar o'z tadqiqot natijalarini eksperter, patient va kommutant firmalarga topshiradilar.

- Innovatsion tadbirkorlikning yana bir territorial tashkiliy turi – ilmiy texnologik park (texnopark) lar bo'lib, bu strukturna innovatsion biznes mahsulotini ishlab chiqarish va bozorda sotishni tashkil qilishga yordam beradi va shu orqali kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlanishiga yordam beradi. Texnoparklarning asosiy vazifasi 12.6-chizmada aks ettirilgan.



### 12.6-chizma. Texnoparklar faoliyatining vazifalari

Biznes inkubatorlar – kichik kichik innovatsion korxona faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit yaratuvchi strukturadir. Biznes inkubatorlar bir qancha funksiyalarni bajaradilar:

- kichik biznes korxonalariga imtiyozli shartlarda asbob-uskunalar yetkazib beradilar, huquqiy maslahat va axborot xizmatlarini ko'rsatadilar;

- ilmiy texnologiyalarni tijorat asosida sotadilar;
- tadbirkorlarning malakasini oshiradilar va boshqalar.

Oqilona investitsiya siyosatini yuritishda davlat tomonidan innovatsion tadbirkorlikka sarmoya qo'yishning o'ziga xos afzalliklari mavjud. Salohiyatli sarmoyadorlarning erkin pul mablag'larini jaib etishida eng muhim iqtisodiy instrument fond bozoridir. Aksiyalar likvidligi, firmanın reklama-axborot faoliyati, valuta maydonchasida

sotuvga qo'yilgan aksiyalar harakatining tahlili va aksiyalar paketini chet el investorlariga sotish fond bozori holatining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Innovatsion biznes bo'yicha faoliyat yuritadigan tadbirkorlar va investorlarning daromadi, investitsiya korxonalari aktivlarining bozor qiymati o'sishiga belgilangan soliq stavkasiga, ya'ni fond bozorida sotiladigan qimmatli qog'ozlarning sotuv qiymatiga o'matiladigan soliq stavkasiga bog'liqdir. Soliq stavkasi innovatsiya korxonalarini moliyalashtirish tavakkalchiligi darajasini oshiruvchi yoki kamaytiruvchi emil hisoblanadi. Shuning uchun ham qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarda dividendlardan, qimmatli qog'ozlarni sotib olishdan undiriladigan soliq, shuningdek, tarkibiga qimmatli qog'ozlar qiymati kiritilgan korxonalar mulkidan olinadigan soliq, kabi undiriladigan turli xil qayta-qayta soliqarga yo'l qoymaslik lozim. Soliq solishning bu kabi amaliyoti natijasida ishbilarmonlik faoliigli pasayadi, ya'ni innovatsion korxonalar tashkil topishi sur'atlari qisqaradi, oqibatda hozirgi kunda korxonalarning faoliyat yuritish imkoniyatlari kamayib boradi. Soliq yukining pasayishi innovatsion tadbirkorlikka hamda iqtisodiyotning xususiy sektoriga investitsiyalar jalb qilishda ikkilamchi kapital (qimmatli qoqozlar bozori)ning ahamiyatini oshiradi.

### **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Innovatsiya. Ilmiy texnik yutuq. Investitsiya. Strategik afzallik. Yutuqlar. Konstrukturlik. Fan. Yuqori texnologiya. Ekspert. Innovatsion iqtisodiyot. Ilmiy-texnikaviy. Yarmarka. Modernizatsiya. Ixtirochi. Rationalizator. Ilmiy-amaliy tadbiqotlar. Tajriba-konstrukturlik tashkilot. Axborotlar almashinuvi. Texnik va texnologik yangilash. Kashfiyot. Sanot namuna. Foydali model. Seleksiya yutuqlari. Dasturiy mahsulotlar. Nou-xau. Injiniring. Nodavlat notijorat tashkilotlar. Kvalifikatsiyalanish.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Innovatsiya deganda nima tushuniladi?
2. Iqtisodiy adabiyotlarda «innovatsiya» tushunchasi qanday jarayon sifatida talqin etilgan?

3. Fanda «Innovatsiya» iborasi qaysi jahon tili so'zidan olingan va nima degan ma'noni bildiradi?

4. Mamlakatimizda to'laqonli innovatsion muhitni shakllantirishdan asosiy maqsadi nimadan iborat?

5. Bugungi kunda har yili Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihiilar Respublika Yarmarkasi o'tkazilmoqda. Shu bois, Innovatsion yarmarkaning maqsadi to'g'risida batafsil ma'lumot bering.

6. Innovatsiyalar yoki «yangi kombinatsiyalarni amalga oshirish» tushunchasiga yirik iqtisodchi olim Shumpeter nimani kiritgan?

7. Innovatsiya faoliyatini o'r ganish predmeti nechta tarkibiy qismdan va u nimalarni o'r ganishdan iborat?

8. Innovatsion infratuzilma deganda nimani tushinasiz?

9. Ilm-fan, ta'lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasi bilan niinaga qulay sharoit yaratiladi?

10. Innovatsion infratuzilmaga tarkibiy jihatdan qanday asosiy funksiyaviy elementlar kiritilgan?

11. Vujudga kelish manfaati bo'yicha innovatsiyalar asosan uch turga bo'linadi, ular qaysilar?

12. Innovatsion tadbirkorlik bosqichlarini so'zlab bering.

13. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ko'plab rivojlangan mamlakatlar yuksak taraqqiyot darajasiga qanaqa choralarini qo'llash evaziga erishib kelyapti?

### **13. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FOLIYATIDA BANKROTLIK VA FRANCHAYZING**

- 13.1. Bankrotlik tushunchasi va bunday inqirozga uchrashi sabablari.
- 13.2. Kichik biznes subyektlarini tugatish va ishdan bo'shatilayotgan ishchining huquqiy kafolatlari.
- 13.3. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida franchayzing korxonalari haqida tushuncha.
- 13.4. Franchayzingning chet el tajribasi.

#### **13.1. Bankrotlik tushunchasi va bunday inqirozga uchrashi sabablari**

**Bankrotlik** (ital. – singan kursi), ya'ni sinish – fuqaro, korxona, firma yoki bankning mablag'i yetishmasligidan o'z majburiyatlar bo'yicha qarzlarni to'lashga qurbi yetmasligi, qarzdorning majburiyatlar mol-mulkidan oshib ketganligi sababli tovar (ishlar, xizmatlar)ga haq to'lash yuzasidan kreditorlarning talablarini qondirishga qodir emasligi, shuningdek, byudjetga va boshqa fondlarga majburiy to'lovlarini ta'minlashga qodir emasligi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-aprel 474-II-sonli «Bankrotlik to'g'risida»gi yangi tahriridagi qonunida bankrotlik tushunchasi quyidagicha ifodalanilgan: «Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) – iqtisodiy sud tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlar bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi».

Bankrotlik odatda, korxonaning yopilishiga olib keladi. Chunki qarz (kredit) beruvchining talabini qondirish uchun mol-mulkini sotishdan o'zga chorasi qolmaydi. Iqtisodiy inqirozlar davrida kasodga uchragan korxonalarning soni keskin oshib ketadi, uning oqibatida ishsizlik kuchayadi. 1987-yildan e'tiboran korxonaning to'lov qobiliyatini yo'qligi tushunchasi amaliyotga kiritildi.

Bankrotlik amalda korxonaning byudjet, bank va mol yetkazib beruvchilar oldida o'z majburiyatlarini bajarishga ojizligini bildiradi. Bankrot deb e'lon qilingan korxonalarga nisbatan qator sanatsiya

tadbirlari o'tkaziladi, unga har tomonlama yordam ko'rsatiladi (soliqlardan ozod etiladi, qarzlarini to'lash kechiktiriladi). Bozor iqtisodiyoti sharoitida bankrotga uchragan korxonalar boshqa korxonalarga sotiladi yoki qo'shib yuboriladi, korxona jamoa a'zolariga ijara beriladi va boshqa.

Korxonalar sudlar, xo'jalik sudlari qarori bilan bankrot deb e'lon qilinadi. O'zbekiston Respublikasida kreditorlarning da'volarini qondirish maqsadida xo'jalik yuritish subyektlari bo'lmish yuridik va jismoniy shaxslarni bankrot bo'lgan deb e'tirof etish shartlari va tartibi O'zRning (1994-y. 5-mayda) qabul qilingan «Bankrotlik to'g'risida» Qonunida belgilab berilgan (bu qonun o'z faoliyatini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiradigan korxona, tashkilotlarga nisbatan tadbiq etilmaydi).

**Bankrotlik** – bu xo'jalik sudining qarori bilan kichik biznes subyektning iqtisodiy qashshoqligi, uni qarz majburiyatlar bo'yicha to'lovga qobiliyatsizligini oshkora e'lon qilinishi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat kurashi natijasida vujudga keladigan oddiy holat bo'lib, unda nochor tadbirkorlik tizimi o'zining xo'jalik faoliyatini to'xtatadi. Kreditorlarga qarzni qaytarish maqsadida bankrotlikka uchragan tadbirkor yoki korxona mulkini sotadi. Hozirgi kunda respublikamizdagи ko'pgina tadbirkorlik tizimlariga bankrotlik og'ir moliyaviy ahvoldan chiqishga, xo'jalik yurituvchi subyektlarga yordam ko'rsatishga, avvalgi turg'unlikni tiklashga va yana to'lash qobiliyatiga ega bo'lishiga yo'l ochib bermoqda.

**Bankrot** – bu jismoniy yoki yuridik shaxs (xo'jalik yurituvchi subyekt), xo'jalik sudi qarori bilan iqtisodiy qibiliyatsiz korxonani qarzdar deb atalishidir. Ikkinchisi variant amaliyotda tadbirkorlik tarkibini sog'lomlashtirish (sanatsiya) usuli sifatida ishlatalishi mumkin.

**Sanatsiya** (lotincha – davolash, sog'lomlashtirish ma'nosini bildiradi) – bu sanoat, savdo va boshqa korxonalarini bankrotlikdan saqlab qolish uchun yirik banklar va davlat tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar tizimidir. «Iqtisodiy qashshoqlik va bankrotlik haqidagi» qonun bankrotlik jarayonini favqulotda voqeа deb qaraydi. Korxonaning fuqaroviy huquqiy majburiyatlarini bajarmasligi, qarzlarini aktivlardan ortiqligi subyektni bankrot deb bilishga asos bo'lolmaydi. To'lay olmaslik qobiliyati uzoq muddatli bo'lishi, ayrim sabablarga ko'ra o'zgaruvchan bo'lishi ham muunkin.

Bankrotlik qarzdor va kreditorlar orasida qarzlarni to'lash to'g'risida tinchlik yo'li bilan kelishish imkonini ko'zda tutadi. Tinchlik yo'li bilan kelishuvning qarorini kreditorlarning unumiy majlisida qabul qilinadi va xo'jalik sudi tasdiqlaydi.

Bankrotlik zamini - bu ma'lum haqiqiy holat bo'lib, uni aniq sharoitni hisobga olib baholash zarur. Yomon niyat va qalbaki bankrotlik muammosini qo'shimcha ravishda qayta ko'rib chiqish talab etiladi.

Biroq, hozirgi vaqtida MDH ning bir qator davlatlarida lizing beruvchi mulkni foydalanishga bergan tomonning to'lovg'a layoqatsizligini aniqlansada, uni faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari to'liq o'matilmagan. Chunki lizing oluvchi tomon bankrot deb e'lon qilinsada, u mulkning haqiqiy egasi hisoblanmaydi va unda to'lovni undirish masalasi to'liq hal etilmagan.

Bankrotlik holatida lizing bitimi lizing oluvchining aybi bilan bekor qilingan hisoblanadi, lizing oluvchi lizing beruvchiga bitim buzilganligi natijasida yuzaga keladigan zararlarni to'liq qoplashi shart. Bankrot bo'lgan korxona o'zining majburiyatlarini to'lashda kontragentlari qatoriga lizing beruvchi ham o'ziga to'lovlarni undirishi uchun navbatga, ya'ni ro'yxatga qo'yiladi va o'matilgan tartibda to'lov amalga oshiriladi.

#### Kichik biznes korxonalarining inqirozga uchrashi sabablari.

Xorijiy davlatlardagi korxonalarning oyoqqa turishi va taraqqiyotiga oid tajribalardan kelib chiqqan holda shuni aytish kerakki, kichik biznes korxonalar moliyaviy krizisi va bankrotligining sabablari – bu talabni qisqarishi, ishlab chiqarish hajmini pasayishi, uni izdan chiqishi va ma'lum boshqaruv tizimining yo'qligidir.

Kichik xo'jalik yurutuvchi subyektlarning moliyaviy qashshoqligi va bankrot bo'lishi tadbirkorlar, rahbarlar, firmaning menejerlari tomonidan yo'l qo'yiladigan bir qator kamchiliklarga bog'iq. Shuning uchun biznesni tashkil etishda imkoniyatlarni, resurslarni va tavakkalliklarni hayotiy siklini barcha bosqichlarida puxta tahlil qilish kerak bo'ladi.

Demak, bankrotlikga uchrashning sabablari tovar ishlab chiqarishda qiymat qonunning amal qilishi, raqobat va inflyatsiya bilan belgilanadi.

Iqtisodiy inqirozlar davrida kasodga uchragan korxonalarining soni keskin oshib ketadi, uning oqibatida ishsizlik kuchayadi.

*Kichik biznes korxonalarini bankrot bo'lish imkonini baholashda quydagi ko'rsatgichlar nisbatini tahlil qilish zarur (13.1-chizma):*

barcha aktivlarga oborot kapitalini nisbati;  
qarzlarni aksionerlik kapitalga nisbati;

barcha passivlarni barcha aktivlarga nisbati;  
asosiy kapitalni aksionerlik kapitaliga  
nisbati;

sof foydani barcha aktivlarga,  
operatsiyalardan kelib tushadigan naqd  
pullami barcha passivlarga nisbati;

sof foya plus kredit bo'yicha foizni kredit  
bo'yicha foizlarga nisbati.

#### 13.1-chizma. Kichik biznes korxonalari bankrot bo'lish imkonini baholash

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan (24-iyun 2005-yilda) qabul qilingan «Tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik sohasidagi huquqbazarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to'g'risida» Farmonida quyidagilar belgilab qo'yildi:

**birinchidan**, tadbirkorlik subyektlari tomonidan birinchi marta sodir etilgan, qasddan qilingan va kam ahamiyatli, shuningdek Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar kamroq tushishiga olib kelmaydigan huquqbazarliklar uchun mansabdor shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan tartibda materiallarni sud organlariga taqdim etmasdan faqat ma'muriy javobgarlik choralar qo'llaniladi;

**ikkinchidan**, materiallar sud instansiyalariga topshirilgan hollarda, tadbirkorlik subyekti soliqlar, yigimlar va boshqa majburiy to'lovlarни to'lamaganlik uchun sodir etilgan huquqbazarlik tufayli yetkazilgan

zararning o'mini bir oy mobaynida ixtiyoriy ravishda qoplagan hamda uning oqibatlarini bartaraf etgan, jumladan penya to'lagan tadbirkorlik subyekti moliyavii sanksiyalar qo'llanilishidan ozod etilishi belgilab qo'yildi.

### **13.2. Kichik biznes subyektlarini tugatish va ishdan bo'shatilayotgan ishchining huquqiy kafolatlari**

Iqtisodiy nochor korxonalar qonunga muvofiq bankrotlik to'g'risida e'lon berish yo'li bilan majburan (ixtiyoriy ravishda) tugatilishi kerak.

Qarzdorga (bankrotga) nisbatan xo'jalik sudi tomonidan quyidagi choralar ko'riliши mumkin: sanatsiya, tugatish, tinchlik kelishuvi. Bu yerda sanatsiya deganda tarkibni qayta tuzish tartibi, mulk huquqini o'zgarishi, qarzdorni mulk tomonidan, yoki vakolat berilgan idora, yoki boshqa shaxslar tomonidan ushbu qarzdorni va uning mehnat jamoasini saqlab qolish niyatida moliyaviy qo'llab quvvatlash tushuniladi. Agar xo'jalik sudi qarzdorni mulki bankrotlik ishi bo'yicha olib boriladigan ishlar xarajatiga yetmasligini aniqlasa, unda sud qarzdorni bankrot deb e'lon qiladi va bankrotlik ishini tugadi deb hisoblaydi. Agar bankrotlik tinchlik kelishuvi tuzish bilan tugasa yoki bankrotlik ishini xo'jalik sudi to'xtatsa, yoki qarzdorda o'z faoliyatini davom ettirish uchun barcha shikoyatlardan so'ng yetarli mulki qoisa unda yuridik shaxs tugatilmaydi.

Tinchlik kelishuvi –bu qarzdor va kreditorlar orasidagi qarzlarni to'lash to'g'risidagi kelishuv bo'lib, unda qarziarni kamaytirish yoki ularni to'lash muddatini o'zaytirish va boshqa tomonlarni kelishuvi bilan analga oshiriladigan shartnomalar ko'zda tutiladi.

Tinchlik kelishuvi ta'sir qilish muhlati kreditorlarning umumiyligi majlisida qarzdorning taklifi asosida belgilanadi. Xo'jalik sudi bosh-qaruvchining yoki kreditorning taklifi bilan tinchlik kelishuvini quyidagi hollarda tugatadi, agar: qarzdor atayin yoki qalbaki bankrotlikni amalga oshirsa; qarzdor tinchlik kelishuvida ko'zda tutilgan majburiyatlarini bajarmasa; tinchlik kelishuvining ta'sir qilish muddatining yarmidan kaan bo'Imagan qismi o'tgandan keyin qarzdor tinchlik kelishuvini shartini bajara olmasa. Agar tinchlik kelishuvi tugatilsa, unda bankrotlik ishini ko'rish yana tiklanadi.

### **Ishdan bo'shatilayotgan ishchining huquqiy kafolatlari**

Agar korxona bankrot deb topilsa, korxonani boshqaruvchi rahbar mehnat shartnomalarining shartini bajarishni davom ettiradi yoki ularni qonuniy hujjatlarga asosan bekor qiladi.

Ish beruvchilar bankrot deb topilganda ularning ishchilariga to'lanmagan maosh kompensatsiya sifatida davlat tomonidan to'lanadi, bunda to'lanadigan pul miqdori ikki oylik o'rtacha maoshdan ortiq bo'lmasligi zarur (agar respublika qonuniyatida boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa).

Agar ishchilariga ish beruvchini bankrotligi sababli davlat kompensatsiya to'lasa, mehnat shartnomasini tugatilishida yoki boshqa qonuniy hujjatlar asosida bankrotlik ishi ko'riliishi shu kompensatsiyani to'lagan davlat idorasi kreditor sifatida chiqadi.

Qarzdorni bankrotligi munosabati bilan yashab turishi uchun pul mablag'i — hayot kechirish uchun butunlay mablag'i bo'lmaganda beriladi. Bunda qarzdorning arizasi asosida xo'jalik sudi unga va uning qaramog'idaqilariga bankrotning mulki hisobidan yashash uchun zarur bo'lgan mablag' miqdorida ikki oygacha to'lab turadi. Aytim hollarda, bu muddat xo'jalik sudi tomonidan uzaytirilishi mumkin.

Xalqaro tajribada bankrotlik asosida korxonani tugatish uncha ham xush ko'rilmaydi. Uning o'miga uni yana normal faoliyat olib ketishiga ko'maklashish ko'zda tutilgan. Mamlakatimizdagi analdagi bankrotlik to'g'risidagi qonunda ham ana shunga qaratilgan tamoyil mayjud, ya'ni: «Bankrotlikning oldini olish maqsadida qarzdorning muassislar (ish-tirokchilari), boshqaruv organi yoki qarzdorning mol-mulki egasi qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza iqtisodiy sudga taqdim etilgunga qadar qarzdorni moliyaviy jihatdan sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'radi. Qarzdorni moliyaviy jihatdan sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar qarzdor bilan tuzilgan bitimga asosan kreditorlar yoki boshqa shaxslar tomonidan ham ko'riliishi mumkin».

### **13.3. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida franchayzing korxonalari haqida tushuncha**

Bugungi kunda kooperatsiya aloqalarining xomashyo yetkazib berishdan iborat oddiy ko'rinishidan tortib to franchayzing tizimini qo'llash kabi murakkab turlarigacha mavjud.

**Kooperatsiya aloqalari** – mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha bir yoki bir necha korxonaning hamkorligi.

Ba'zida ma'lum bilimga, tajribaga, qobiliyatga ega bo'lgan ishbilarmonga o'zining shaxsiy biznesining tashkiliy shaklini tanlab olish uchun dadillik, mardlik xususiyati yetishmaydi, shu sababli u o'ziga ishlatalish uchun tayyor korxonani imtiyozli shart bilan boshqa davlatdan yoki O'zbekistondan, yirik firmadan yoki ularning texnologiyasidan, tovar markasi (belgisi)dan foydalanish huquqiga ega bo'ladi, ya'ni franchayzing oladi.

**Franchayzing** – bu tomonlarning o'zaro manfaatli bitimga asoslangan biznes olib borish usulidir. Bu bitim yirik kompaniya hamda mayda firma yoki alohida ishbilarmonlar o'ttasida tuziladi. Bu bitimning mohiyati kichik biznesga o'z ishini maxsus tanlangan joyda va ma'lum vaqt davomiyligida olib borish imkonini berishdan iborat. Har qanday franchayzing tizimining asosini tomonlarning vazifalarini o'z ichiga oluvchi franchayzing shartnomasi tashkil qiladi.

**Franshiza** – biznes yuritishning bir turi bo'lib, xarajatlarning tez qoplanishi va daromadliligi bilan tanilgan. Bugungi kunda bu biznesni yo'lga qo'yishning eng oson yo'llaridan biri, unda boshlovchi tadbirkor ilk besh yillik oyoqqa turib olish bosqichini tashlab, bevosita yirik daromadlarga o'tish imkoniga ega bo'ladi.

Savdo markasidan foydalanishda, odatda, kompaniyalar paushal badal to'lashadi – bu bir martalik to'lov bo'lib, qaytarib berilmaydi, lekin franchayzer brendidan foydalanish huquqi uchun kafolat sifatida xizmat qiladi. Yana bir to'lov bor – roylati, u har oy franchayzi aylanmasidan brend egasiga to'lanadi. Franshiza ochishdagi eng muhim omil – tikiladigan mablag' miqdori, chunki boshlovchi biznesmen biznesga qancha investitsiya kiritish lozimligini har doim ham bilavermaydi. Butun dunyoda o'nlab, yuzlab do'konlari bor tajribali franchayzer esa, yaxshi maslahatchi bo'la oladi – u franchayzining muvaffaqiyatli ishlashidan manfaatdordir. Paushal badal va roylatiga ketadigan dastlabki

xarajatlardan tashqari, jihozlar, reklama va xodimlar ish haqlari uchun mablag' talab etiladi.

Starbucks franshizasini olish istagida bo'lganlar qahvaxonaning har bir kvadratiga 2–2,5 ming dollar tikishlariga to'g'ri keladi, qahvaxona umumiylar maydoni esa, 75–85 m<sup>2</sup> bo'lishi lozim. Shu tariqa, Starbucksga investitsiyalarning o'zi biznesmenga 150–175 ming AQSH dollariga tushadi, bunga hali paushal badal va roylati kirmaydi. Shuningdek, kompaniya loyiha ikki yildan keyingina foydaga kirishini va'da qiladi. Kompaniya o'z obro'sini shunchalik avaylaydiki, hatto, juda foydalii bitim taklif etilganda ham, biznesmen shubha uyg'otsa yoki, tajribasi kam bo'lsa, rad javobi beriladi.

Subway – umumiylar ovqatlanish restoranlari bo'yicha jahondagi yetakchi tarmoq, dunyoning 112 ta mamlakatida mavjud, kompaniya brendi ostida 44 800 ta restoran faoliyat yuritadi. Starbucksga qaraganda, Subway potensial franchayzi uchun yumshoqroq shartlar qo'yadi. Sendvichxonalar tarmog'i bilan hamkorlik qilish uchun tajriba yoki ajoyib biznesmen obro'si talab etilmaydi.

O'zbekiston franshiza bozorida Interkontinental, Radisson, Hyatt va boshqa mashhur mehmonxona brendlari uchratish mumkin. Yana bir qancha kiyim-kechak brendlari vakillari bor, ular orasida eng mashhurlari – Adidas, Giovanni Gentile, MEXX, Tommy Hilfiger, umumiylar ovqatlanish yo'nalishidagi taniqli brendlardan rossiyalik «Shokoladnitsa» yaqinda ish boshlaydi. Bundan tashqari, franshizalarning noan'anaviy ko'rinishlari ham uchraydi, bunga «Mozgoboynya» intellektual-ko'ngilochar o'yini misol bo'ladi.

### **13.4. Franchayzingning chet el tajribasi**

Tojikistondagi vaziyatni o'rgansak, u yerda ham bizdagidek, franshiza yetarlicha rivojlanmaganligini ko'ramiz. Hozirda Tojikistonda Burger King, «Ashan», MEXX, Coca-Cola va boshqalar franshizalari ishlamoqda. Aksariyat xorijiy yirik tarmoqlar katta investitsiya kompaniyalarini tomonidan yoki davlat ko'magida ochilmoqda.

News.tj keltirishicha, «East Star Capital Kyrgyz Republic» bosh direktori Alua Maulen shunday deydi: «Markaziy Osiyo uchun franshizalar to'plashda biz moliyaviy jihatga ham e'tibor beramiz. Bu bozor qimmatbaho franshizalar uchun emasligini tushunamiz. Markaziy

Osiyo bozori uchun franshizalar narxi – \$15 mingdan \$2 milliongacha. Bundan tashqari, franchayzi har yili umumiy daromadining 7 foizini franchayzerga to‘lab borishi kerak».

McDonald’s ni bizga olib kirish qanchaga tushadi?

McDonalds bilan shartnomalardan tuzgach, franchayzi 15 ta restoran qurishi, ularning tovar aylanmasi keyingi besh yilda 1,5 mln. dollar bo‘lishi, qolaversa barcha mahsulot – masalliqdan tortib tish kavlagichgacha – AQSHdan keltirilishi lozim bo‘ladi. Bunday shartlarga uncha-muncha tadbirkor chidash bera olmaydi. Bu esa, xususiy shaxslar yirik loyihalarga pul tikishga qodir emasliklari yoki bundan cho‘chishlarini anglatadi.

Qozog‘istonda sharoit ancha yaxshi, bu mamlakatda ko‘plab xalqaro franchayzing tarmoqlari – mehmonxonalar, restoranlar, kiyim-kechak do‘konlarining turli xillarini ko‘rasiz. McDonalds Qozog‘istonda 2016-yil martda ochildi, keyingi yillarda yana 15 ta ochish rejalashtirilgan. Turmush darajasi yuqoriqoq ho‘lgani sababli, franshizalar Qozog‘istonda o‘zini qoplashi osonroq, ko‘pincha kompaniyalar Markaziy Osiyo bozoriga kirishni aynan Qozog‘istondan boshlaydilar (Coca-Cola, Burger King, Adidas, KFC, Marriott, Interkontinental va h.k.). Bu hudud lakinus qog‘ozchasi kabi: agar muhit samarali bo‘lsa mintaqaning boshqa qismlariga ham tarqalish mumkin, zero Markaziy Osiyo mamlakatlari ko‘p mezonlarga ko‘ra o‘xshashdirlar.

Markaziy Osiyo franchiza haqida Sho‘rolar Ittifoqi tarqalganidan keyin xabar topdi va mintaqaga mamlakatlari ushbu biznes modelini endigina o‘zlashtirmoqdalar. Bu mamlakatlarda franchiza tez va oson ildiz otadi, deyish xato bo‘lardi. Axir chorak asr oldin bu tushunchaning o‘zi yo‘q edi.

Ushbu faoliyat turi franchayzer uchun ham, franchayzi uchun ham birdek manfaat keltiradi. O‘z tovar belgisini ijaraga berar ekan, mahsulotlar sotuvidan kafolatlangan doimiy daromad olib turadi. Shu bilan birlgilikda, tayyor mahsulot belgisi va brendni ommaga tanitish, reklama-marketing siyosatini olib borishda qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Umuman olganda, franchayzing mamlakat iqtisodiyoti uchun katta foyda keltirib, muvaffaqiyatli ish olib borish modellari va zamonaviy texnologiyalarning tarqalishi hamda ko‘payishiga xizmat qiladi. Kichik biznes uchun esa samarali «tarbiya maktabi» bo‘lib, amaliy

natija beradigan tadbirkorlarning ko‘payishiga, iqtisodiyotga odamlar va ular jamg‘armalarining jalb qilinishiga olib keladi.

O‘z franshizini bozorga taqdim etar ekan, franchayzer biznes-tizimini, uning samaradorligini ko‘rsatib bera olishi lozim. Shu bilan ijara oluvchilar uchun o‘z samaradorligini amalda ko‘rsata olgan, tekshirilgan va foydalanish uchun shay holga keltirilgan biznes-model imkoniyatlari namoyish etiladi. O‘z-o‘zidan, franchayzilar bozordagi tayyor o‘rniga, potensial xaridorlar guruhiга ham ega bo‘ladi.

Franchayzer hamkoriga biznes-shaklini taqdim etar ekan, nafaqat mexanizmning o‘zini, balki undan samarali foydalanish qoidalarini ham taqdim etadi. Shuningdek, u o‘z hamkorlarini biznesni qanday qilib yuritish, uning nozik jihatlarini ham o‘rgatadi. Kerak bo‘lsa, xodimlarning malakasini oshirishga ko‘maklashadi.

Franchayzingning yana bir afzal jihat shundaki, u orqali «qaroq-chilik», ya’ni, savdo belgisidan noqonuniy foydalanish, soxta mahsulotlarni ishlab chiqarishga qarshi samarali kurash olib borish mumkin. Chunki franchayzi franchayzer «oyog‘i yetmaydigan» hududlarda faoliyat ko‘rsatib, uning savdo belgisi hamda tijoriy manfaatlarini himoyalaydi.

O‘zgalar tomonidan ishlab chiqilgan va oyoqqa turg‘izilgan faoliyat asosida tabdirkorlik bilan shug‘ullanish muayyan tartib-qoidalar va cheklov larga rioya qilish zaruratinini ham keltirib chiqaradi. Ijaraga oluvchi shaxs ko‘p hollarda franchayzer tomonidan belgilangan yekazib beruvchilardan xomashyo va mahsulotlarni sotib olishga majbur bo‘lib qoladi. Natijada erkin bozorga chiqish, o‘zi istagan narxda xomashyo va mahsulotlarni sotib olish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi.

Franchayzingning eng keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri, franchayzer tomonidan patentlangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi texnologiya ijrarachiga taqdim etiladi. Asosiy shart esa franchayzer uni xomashyoni ta‘minlaydi va ishlab chiqarish jarayoni ustidan nazorat o‘rnatadi. Bunday uslub asosan hududlardagi alkogolsiz salqin ichimliklar ishlab chiqarish sohasida keng tarqalgan. Mahalliy franchayzilar asosiy kompaniya bilan sherklikda unga tegishli bo‘lgan brend ostida mahsulot ishlab chiqarib foyda ko‘raveradi.

Franchayzing xizmat ko‘rsatish sohasida ham keng tarqalgan. Bunda franchayzi reklama fondi uchun ma‘lum miqdorda qo‘shimcha mablag‘ to‘lab turishiga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, tez tayyor bo‘luvchi taomlar

savdosi bilan shug'ullanadigan kichik kafelar tarmog'iida franchayzing keng tarqalgan bo'lib, ular asosiy kompaniya qo'ygan umumiy talablar asosida faoliyat ko'rsatadi. Bu shartlar qatorida ishchi-xodimlarning bir xil libosda bo'lishi, kafe dizayni, ranglarning o'xshashligi, taomlarni tayyorlash texnologiyasidagi umumiyliliklarni sanab o'tish mumkin.

### **Asosiy atamalar va tushunchalar**

Moliyaviy qashshoqlik. Zarar. Davlat maqsadli jamg'armalari. Huquqbuzarlik. Mansabdar shaxs. Ma'muriy javobgarlik. Sanatsiya. Bankrot. Kreditor. Aktivlar. Passivlar. Kapital. Oborot kapitali. Instansiya. Penya. Sanksiya. Inflyatsiya. Qiymat. Kompensatsiya. Kooperatsiya. Franchayzing. Savdo markasi. Paushal badali. Royalti. Franshiza. Biznesmen. Brend. Patent.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan (24-iyun 2005-yilda) qabul qilingan «Tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik sohasidagi xuquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to'g'risida» Farmonida qanday tartib-tamoyillar belgilab qo'yildi?
2. Kichik biznes korxonalari bankrot bo'lish imkonini baholashda qaysi ko'rsatgichlar nisbatini tahlil qilish zarur?
3. Fanda «Sanatsiya» atamasi qaysi til so'zidan olingan va ma'nosi qanday?
4. Bankrot ifodasani yoritib bering.
5. Kreditor deganda nima tushuniladi?
6. Aktivlar va passivlar ma'nosini anglatuvchilar nimalardan iborat?
7. Kapital atamasiga nisbatan nimalarни aytish mumkin?
8. Penya deganda nimani tushinasiz?
9. Majburiy to'lovlar turkumiga nimalar kiritilgan?
10. Sanksiya mazmunini yoritib bering.
11. Bozor iqtisodiyoti sharoitida inflyatsiya jarayoni doim sodir bo'luvchi hodisa ekanligini nazarda tutgan holda, aytinchchi, bunga sabab va omillari sifatida nimalar bo'lishi mumkin?
12. Qiymat yaritilish jarayoni bosqichlarini so'zlab bering.
13. Kompensatsiya nimani anglatadi?

14. Kooperatsiya aloqalari – bu ... jumlanı to'ldiring.
15. Franchayzing atamasi qanday mazmunga ega?
16. Paushal badal to'g'risida axborot bering.
17. Royalti bo'yicha tushunchangizni keltirib o'tsangiz.
18. Franshiza deganda nima anglanilishi lozim?
19. Savdo markasidan soydalanish(franshiza)da qanday talab va shartlar mavjud?
20. Franchayzing orqali nimaga qarshi samarali kurash olib borish mumkin?

## **14. TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI, UNI BAHOLASH VA BOSHQARISH USULLARI**

14.1. Tavakkalchilik tushunchasi va undagi sug‘urta bilan bog‘liq va bog‘liq bo‘limgan xavflar.

14.2. Tavakkalchilik turlari va uni boshqarish.

14.3. Tavakkalchilikni baholash usullari.

### **14.1. Tavakkalchilik tushunchasi va undagi xavflar**

O‘zbek tilining izohli lug‘atida «tavakkal» tushunchasi: uzoq mulohaza qilib o‘tirmay, nima bo‘lsa bo‘lar, «yo ostidan yo ustidan» zaylida qilingan harakat ma’nosida talqin qilinadi.

Tavakkalchilik tushunchasi esa tavakkaliga, tavakkal tushunchasi va tavakkaliga, tavakkal bilan ish qiluvchi ma’nosini beradi.

Amerikalik ishbilarmonlarga xos bo‘lgan tavakkalchilikni Amerika iqtisodiyoti «chapani» muhojirlar olib kelganlar va singdirganlar. Ular o‘troq va ehtiyyotkor yerli aholini o‘z ishbilarmonlik faoliyatida tavakkalchilik ham qilib turishga majbur etishgan.

Yana o‘zbek tilining izohli lug‘atiga murojaat qilamiz. Unda bu iboralar quyidagicha talqin qilingan:

**Xavf** – biror ko‘ngilsiz hodisa yoki falokat yuz berishi ehtimolligi; xatar; qo‘rqinch.


**Xatar** – biror baxtsizlikka, falokatga olib kelishi mumkin bo‘lgan sharoit; xavf; tahlika.

**Xavf - xatar** – xavf va xatar, biror narsadan qo‘rqish.

Ko‘rib turibmizki, xavf tushunchasi ehtimollik bilan bog‘lanayotgan bo‘lsa, xatar iborasida esa asosiy urg‘u sharoitga, vaziyatga berilyapti. Uchinchisida har ikkala tushuncha bir xil ma’noda talqin qilinyapti.

**Tavakkalchilikda xavfning asosiy og‘rligi.**

Amerikacha ta’rifga ko‘ra, tavakkalchilik – bu biron ish bilan shug‘ullanish oqibatida zarar ko‘rib qolishdan qutulib qolish imkoniyati. Albatta, ba’zi xavflarni sug‘urta kompaniyalari bilan shartnoma tuzish orqali oldini olish mumkin. Biroq xavfning asosiy og‘rligi sifatida quyidagilar nazarda tutiladi, ya’ni (14.1-chizma):



#### **14.1-chizma. Xavfning asosiy og'irligi**

Ammo umuman, xorij tajribasi ishbilarmonlik tavakkalchiliksiz mumkin emasligidan guvohlik beradi. Kimki, hech bir tavakkal qilmasa, oxir oqibatda xonavayron bo'ladi.

Tavakkalchilik foydadan mahrum bo'lish va boshqa sabablarga ko'ra zarar ko'rish singari yomon oqibatlar ro'y berish ehtimoli bilan ifodalanadi. Shu ma'noda:

Tavakkalchilik – bu oqibatning yaxshi bo'lishiga umid bog'lab, xavf ehtimolligini zimmasiga olgan holda qilinadigan harakat.

Tavakkalchilik – bu resurs yoki daromaddan to'la yoki qisman yo'qotish xavfi.

Tavakkalchilik – noaniqlik sharoitida har qanday dovyurak menejer uchun tabiiy holat, vaziyat. Tavakkal botirning ishi.

Tavakkalchilik – bu omadsiz oqibatning niqdoriy baholanishi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun korxona boshqaruvchilari samarali boshqaruv uslublarini bilishlari, tavakkalchilik chegaralarini aniqlay olishlari, mavjud variantlardan eng maqbulini tanlay olishlari kerak. Bu esa uning ishbilarmonlik qobiliyati bilan belgilanadi va har bir boshqaruvchidan ma'lum darajada bilim va maiaka talab qiladi. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'ida xususiy lashtirish jarayoni nihoyasiga yetkazilib, minglab xususiy tadbirkorlik subyektlari, ya'ni fermer va dehqon xo'jaliklari, shirkatlar va boshqa biznes tuzilmalari vujudga kelmoqda. Biznes va tadbirkorlik faoliyati esa muqarrar ravishda tavakkalchilik (risk) elementlari bilan bog'liq faoliyatdir.

**Tadbirkorlik** – foyda olish maqsadida o‘z mol-mulkini tavakkalchilik asosida biznesga tikish jarayoni ekanligi tufayli, bunday faoliyat doimiy ravishda ma’lum bir xatarlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Mamlakatimiz va xorijda to‘plangan tajribalar tadbirkorlik faoliyatini tavakkalchiliksiz amalga oshirib bo‘lmasligini ko‘rsatmoqda.

**Tavakkalchilik** – kelgusidagi vaziyat noaniq sharoitda pirovard natiya yaxshi bo‘lishiga umid bog‘lab, mol-mulk yoki foydadan mahrum bo‘lish (to‘liq yoki qisman) xavfini o‘z bo‘yniga olib qilinadigan tadbirkorlik faoliyatidir.

**Tavakkalchilikda sug‘urta bilan bog‘liq bo‘lgan va bog‘liq bo‘lмаган xavflar.**

**Sug‘urta bilan bog‘liq bo‘lмаган xavf turlari:**

1. Menejerlar xatosi.
2. Tijoratchilikdagi xavf.
3. Resurslarni noto‘g‘ri taqsimlanish xavfi.
4. Iqtisodiy beqarorlik va talabning o‘zgarishi.
5. Raqobatdoshlarning harakati .
6. Moliyaviy xavf.
7. Narx, talab, daromadlar darajasining o‘zgarish xavfi.
8. Kutilmagan iqtisodiy va tabiiy falokatlar, ekologiya ofatlari xavfi.
9. Loyihani tanlashda xato qilish xavfi.
10. Mazkur biznes uchun og‘ir oqibatlar keltiruvchi kutilmagan siyosiy voqealar.
11. Milliy va millatlararo ko‘tarilish xavfi.
12. Hukumatning kutilmagan qarorlari (qonunlardagi, narx va soliqlardagi o‘zgarishlar).
13. Xodimlar noroziligi.
14. Firma boyligi nuqtayi nazardan uncha ulkan bo‘lмаган mol-mulkarning nobud bo‘lish xavfi.
15. Ko‘p sonli, bir tipli mol-mulkning nobud bo‘lishi xavfi.

**Sug‘urta** – bu inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo‘ladigan tabiiy ofatlari, favqulotda hodisa va boshqa voqealar natijasida yetkazilgan zarar handa talofatlarning jismoniy va yuridik shaxslar to‘lagan sug‘urta badallari (sug‘urta puli)dan hosil qilinadigan pul fondlari hisobidan to‘liq va qisman qoplash bilan jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlari sug‘urtalanishini ta‘minlashga doir munosabatlar, demakdir.

**Sug‘urta qilib qo‘yish maqbul bo‘lgan xavflar:**

1. Yong‘in va boshqa tabiiy ofatlari.
2. Avtomobil halokatlari.
3. Yukning tashilishda buzilishi yoki nobud bo‘lish xavfi.
4. Firma hodimlari ehtiyoitsizligi.
5. Firmaga hodimlar noinsofligi bois yetkaziladigan moddiy va ma‘naviy zarar.
6. Butun loyihaning bajarilishiga javobgar bo‘lgan hodimlardan biri yoki bir guruhning o‘z vazifalarini bajarmasligiga aloqador xavf.
7. Korxonaning (turli sabablarga ko‘ra) ish faolligini vaqtinchalik to‘xtab qolishi.
8. Firma rahbari, yetakchi xodim yoki boshqa firmaning muvaffaqiyatining uning faoliyat ko‘rsatishi bilan bog‘liq bo‘lgan mutaxassisning o‘limi yoki kasalligidan yuzaga keladigan xavf.
9. Xodimning o‘limi, kasal bo‘lib qolishi yoki baxtsiz hodisaga uchrashi bilan bog‘liq xavf.

#### **14.2. Tavakkalchilik turlari va uni boshqarish**

Amaliyotda rahbar yoki tadbirkor o‘z faoliyatida:

- mol-mulk talafotiga;
  - moliyaviy yo‘qotishlarga;
  - daromadlarning kamayishiga;
  - foyda darajasini aniqlashdagi xatoliklarga
- yo‘l qo‘ymaslik va shu jihatlarni yaxshilash maqsadida turli-tuman tavakkalchilikka boradilar.

Shunday sharoitda qaysi bir turdag'i tavakkalchilikni tanlash, qaysi biri ko‘proq samara berishi mumkinligini aniqlash ko‘p jihatdan tavakkalchilik turlarining ilmiy asoslangan tavsifnomasini bilishni taqozo etadi. Shunday tavsifnomma quyidagi ko‘rinishga ega.

**Sof tavakkalchilik** salbiy (zarar, ziyor) yoki nol natijaga erishish ehtimolini bildiradi. Shunday turdag'i tavakkalchilikka tabiyat, ekologiya, siyosat, transport va qisman tijorat bilan bog‘liq tavakkalchiliklar kiradi.

**Chayqovchilik** (спекулятив) tavakkalchilik ham salbiy (zarar, ziyor), ham ijobjiy natija (yutuq, foyda)ga erishish ehtimolini bildiradi. Bu turdag'i tavakkalchilikka moliya bilan bog‘liq bo‘lgan ikki turdag'i,

ya'ni investitsiya va pulning sotib olish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchiliklar kiradi.

**Tabiyat bilan bog'liq tavakkalchilik** turiga tabiiy ofatlar oqibatida ehtimol (tavakkal) qilinadigan zararlar kiradi, masalan, yer qimirlashi, suv toshqini, dovul, epidemiya va boshqalar tufayli keltirilgan zarar darajasi.

**Ekologiya bilan bog'liq tavakkalchilik** – bu atrof-muhitni ifloslanishi oqibatida ehtimol (tavakkal qilinadigan zarar yoki qo'shimcha xarajat).

**Siyosat bilan bog'liq tavakkalchilik** – bu siyosat beqarorlik oqibatida ehtimol qilinadigan moddiy (moliyaviy) zararlar. Bu tavakkalchilik korxona faoliyatiga emas balki mamlakatdagi sotsial siyosiy barqarorlikka bog'liq.

**Transport bilan bog'liq tavakkalchilik** – bu avtomobil, temir yo'l, dengiz, havo transportlarida yuklarni tashish jarayonida ehtimol (tavakkal) qilinadigan zararlar.

**Tijorat bilan bog'liq tavakkalchilik** – bu xo'jalik subyektlarining tadbirdorlik faoliyati oqibatida ehtimol (tavakkal) qilinadigan zararlardir. Bunday turdag'i tavakkalchilik o'z navbatida ishlab chiqarish, savdo va qisman moliya bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchiliklarga bo'linadi.

**Ishlab chiqarish bilan bog'liq tavakkalchilik** – bu ishlab chiqarish jarayonining to'xtab qolishi yoki bir maromda ishlayotganligi, texnologiyaning buzilishi, sifatsiz xom ashyo oqibati yoki xodimlarning sifatsiz ishlashlari evaziga ehtimol (tavakkal) qilinadigan zarar yoki qo'shimcha xarajatlardir.

**Savdo bilan bog'liq tavakkalchilik** – bu o'zaro to'lovlarining kechiktirilishi, shartnomalarining bajarilmasligi oqibatida ehtimol (tavakkal) qilinadigan zarur yoki olinmaydigan daromad.

**Moliya bilan bog'liq tavakkalchilik** – bu ehtimol qilinadigan moliyaviy zararlar bo'lib, u o'z navbatida investitsiya va pulning sotib olish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan, oxirgisi esa o'z navbatida:

\* inflyatsiya va

\* valuta bilan bog'liq bo'gan tavakkalchilik turlariga bo'linadi.

**Inflyatsiya bilan bog'liq tavakkalchilik** – bu olingan daromadlarning qadri yuqori inflyatsiya oqibatida tezroq qadsizlanishini bildiradi.

**Valuta bilan bog'liq tavakkalchilik** – bu chet el valutasi kursining o'zgarishi oqibatida ko'rildigan katta zararni bildiradi. Bu tavakkalchilik

eksport-import operatsiyalarini, shuningdek, valuta operatsiyalarini baholashda o'ta zarurdir.

**Tizimli tavakkalchilik** – bu, u yoki bu bozorda konyukturaning yomonlashishi yoki tushib ketishi oqibatida ehtimol qilinadigan zarar. Bu tavakkalchilik investitsiyani aniq bir obyektga emas, balki muayyan bozor (masalan, valuta bozori, qo'zg'almas mulk bozori va boshqalar) uchun barcha qo'yilgan mablag' bo'yicha tavakkalchilikni ifodalaydi.

**Selektiv tavakkalchilik** – bu u yoki bu bozorda obyektni noto'g'ri tanlab olishi oqibatida ko'rildigan tavakkal zarar yoki boy berilgan naf.

**Kredit tavakkalchiligi** – bu qarz olgan tomonning o'z majburiyatlarini to'lay olmasligi xavfi.

**Regional tavakkalchilik** – muayyan regionallarning iqtisodiy holati bilan bog'langan bo'ladi.

**Tarmoq bilan bog'liq tavakkalchilik** – ayrim tarmoq iqtisodiyoti bilan bog'liq bo'lib, u ikkita omil ta'siri ostida bo'ladi:

- tarmoqdagi davriy beqarorlikka;
- tarmoq ishlab chiqarishining hayotiy bosqichlariga.

**Korxona tavakkalchiligi** – investitsiya obyekti bo'lgan aniq korxona faoliyatini bilan bog'liq.

**Investitsiya tavakkalchiligi** deganda yangi tovar yoki xizmat, yangi texnologiyani ishlab chiqish va joriy qilish uchun sarflangan xarajatlarining qoplanmasligi oqibatida ko'rildigan tavakkal zarar tushuniladi.

Demak, tadbirdorlik subyekti faoliyati bilan bog'liq tavakkalchilik turlarini mobiyati va kelib chiqish xususiyatlariga ko'ra quyidagicha turkumlash mumkin:

1. Tabiiy jarayonlar bilan bog'liq tavakkalchilik
  2. Ishlab chiqarish faoliyatiga oid tavakkalchilik.
  3. Mahsulotlarni tashish va saqlash jarayoni bilan bog'liq tavakkalchilik.
  4. Tijorat faoliyatiga oid tavakkalchilik.
  5. Moliyaviy faoliyatga oid tavakkalchilik.
  6. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy xaraktyerdagi tavakkalchilik.
- Tavakkalchilikni tug'diradigan xavf turlari xilma-xil bo'lib, ularning ba'zi birlari korxonaning o'z faoliyatini natijasida yuzaga kelsa, ikkinchi birlari unga bog'liq bo'lmagan tashqi omillar ta'sirida yuzaga keladi.

**Tavakkalchilikni boshqarish tizimi.** Har qanday xo‘jalik korxonasi tavakkalchilik bilan bog‘liq faoliyat olib borar ekan, doimiy ravishda tavakkalchilik turlarini aniqlaydi, ma‘qul bo‘lgan tavakkalchilik chegarasini belgilaydi hamda uning keskin oqibatlaridan o‘zini himoyalash yo‘llarini qidiradi.

Tavakkalchilikdagi xavf darajasini aniqlash, uning oldini olish yo‘llarini izlab topish va uning oqibatida yuz berishi mumkin bo‘lgan zararlarni pasaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga oid faoliyat **tavakkalchilikni boshqarish tizimi** deb ataladi.

Tadbirkorning **tavakkalchilikni boshqarish** doirasidagi faoliyati o‘z korxonasini uning daromadligiga tahdid soluvchi tavakkalchiliklar ta’siridan himoya qilishga yo‘naltirilgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, aksariyat hollarda iqtisodiy baholashlar va boshqaruva qarorlari ko‘p yariantli bo‘lib ehtimollik xarakteriga ega. Shu sababli xato va yanglishishlar bu jarayonda tabiiy bo‘lganda, baribir noxush holdir. Shunday sharoitda menejer:

- tavakkalchilikdagi xavf ehtimolini;
- u xavf darajasini pasaytirish choralarini;
- ehtiinol qilinayotgan zararni qoplash yo‘llarini oldindan hisobkitobi qilishi lozim.

Tavakkalchilikni boshqarishning mohiyati ham ana shunda.

**Tavakkalchilikni boshqarishdan maqsad** – bu korxonani faqat bankrotlikdan saqlab qolish emas, balki qanday sharoitda bo‘lsa ham foydani minimal darajadan past bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaslikdir.

Tavakkalchilikning maqsadga muvofiqligi baho berish uchun eng avvalo ehtiinol qilinayatgan, xavf darajasiga qarab tavakkalchilikning tayin zonalarini ajratib olish zarur.

Zarar kutilinaydigan, ya’ni xo‘jalik faoliyatining natijasi ijobjiy bo‘lgan zona **xavfsiz zona** deb ataladi.

**Yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xavf zonasini** deganda ehtimol (tavakkal) qilinayotgan zarar kutiladigan foydadidan ko‘p bo‘lmagan zona tushuniladi. Shunda tadbirkorlar faoliyati iqtisodiy nuqtayi nazardan maqsadga muvofiq deb yuritiladi. Yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xavfzonasining chegarasi quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

Zarar darajasi ko‘lami	= Hisoblangan foyda darajasi, ko‘lami
---------------------------	--

Jiddiy (keskin) xavf zonasini deganda ehtimol (tavakkal) qilinayotgan zarar nafaqat kutiladigan foyda, shuningdek, hisoblangan naqd pul daromaddan ham ko‘p bo‘lgan zona tushuniladi, ya’ni jiddiy xavf zonasining chegarasi quyidagicha bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, bu yerda tadbirkor nafaqat hech qanday foyda olinishi, shuningdek barcha ishlab chiqarish xarajatlari miqdorida to‘g‘ridan to‘g‘ri zarar ko‘rishgacha tavakkal qiladi.

Fojiali xavf zonasini deganda ehtimol (tavakkal) qilinayotgan zararning jiddiy xavf zonasini o‘z domiga tortib, undan oshib korxonaning xususiy kapitaliga teng bo‘lgan zona tushuniladi. Bunday tavakkalchilik cqibati korxonaning yoki tadbirkoring bankrotlikka va yemirilishiga olib keladi. Fojiali xavf tadbirkor hayoti, uni sog‘lig‘iga xavf tug‘dirishi mumkin.


#### 14.3. Tavakkalchilikni baholash usullari

Tavakkalchilikni baholash jarayoni tavakkalchilik boshqaruvida muhim o‘rin egallaydi. Tavakkalchilik boshqaruvida tavakkalchilikka berilgan baho asosida korxona o‘z biznes faoliyati samaradorligini oshirish mumkin (14.2-chizma).

**Tavakkalchilikni baholash** – tavakkalchilik darajasini miqdoriy yoki sifat o‘lchamlari bilan aniqlashdir.

Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik tavakkalchiliklarini baholashning 4 usuli keltiriladi:

1. Statistika usuli.
2. Ekspert usuli.
3. Analitik usul.
4. Kombinatsiyalashtirilgan usul.



#### 14.2-chizma. Tavakkalchilikni boshqarish jarayoni

**Statistika usulida** korxona va tarmoqdagi boshqa turdosh korxonalarining bir necha yillik faoliyati davomida yuz bergan tavakkalchilik hodisalari hamda ular natijasida ko'rilgan zararlar darajasi o'rganib chiqiladi.

**Ekspert usulida** ish tajribasi yuqori va mazkur sohada ekspert hisoblangan yuqori malakali mutaxassislarining fikrlari, aniq hisobkitoblari va tavsiyalari e'tiborga olinadi.

**Analitik usulda** iqtisodiy-matematik usullar, vaziyatli ish o'yinlari va ehtimollar nazariyasidagi modellar yordamida tavakkalchilik darajasiga baho beriladi.

**Kombinatsiyalashtirilgan usul** yuqorida keltirilgan barcha usullarni yoki ulardan bir nechtasini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

O'z faoliyati uchun ma'qul bo'lgan tavakkalchilik darajasi, qoida bo'yicha, aktivlar va xususiy kapital qiymati, pul oqimlari miqdori, to'lovga qobillik darajasi, sof foyda va rentabellik kabi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi.

Tavakkalchilikning **yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan, jiddiy zarar tug'diradigan va o'ta xavfli** darajalari mavjud bo'ladi.

**Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan** tavakkalchilik darajasida ko'rilgan zararlar miqdori korxonaning haqiqatda erishgan sof foydasi miqdoridan oshib ketmagani ma'qul.

#### Asosiy atamalar va tushunchalar

Tavakkal. Tavakkalchilik. Xavf. Xatar. Samarali boshqaruvi usulbilar. Tavakkalchilik (risk) elementlari. Biznes. Tadbirkorlik. Sug'urta. Ti-joratchilik. Iqtisodiy beqarorlik. Talofat. Moddiy va ma'naviy zarar. Yetakchi hodim. Sof tavakkalchilik. Chayqovchilik (спекулятив) tavakkalchilik. Tabiiy ofatlar. Inflyatsiya bilan bog'liq tavakkalchilik. Selektiv tavakkalchilik. Tavakkalchilikni boshqarish. Tavakkalchilikni boshqarish tizimi. Bankrotlik. Hisob-kitob. Xavf zonasi. Fojiali xavf zonasi. Tavakkalchilikni baholash. Statistika usuli. Ekspert. Ehtimollar nazariyasi. Tavakkalchilik darajasi.

#### Mavzu ho'yicha savollar:

1. O'zbek tilining izohli lug'atida «tavakkal» tushunchasi qanday talqin qilinadi?
2. Xavf ma'nosini yoritib bering.
3. Xatar deganda nimalar tushunilishi mumkin?
4. Xavf va xatar iboralari orasida qanaqa farq mavjud?
5. Bozor iqtisodiyoti sharoitda muvaffaqiyatlari faoliyat yuritish uchun korxona boshqaruvchilari nimani bilishlari, aniqlay olishlari, tanlay olishlari kerak?
6. Sug'urta – bu ... jumlanı davom ettiring.
7. Sug'urta bilan bog'liq bo'lmagan xavf turlari qanday?
8. Menejerlar xatosi deganda nimani tushunishimiz lozim?
9. Iqtisodiy beqarorlik atamasi qanaqa holatni ifodalashidan iborat?
10. Kutilmagan iqtisodiy, siyosiy va tabiiy falokatlar, Mlliy va millatlararo ko'tarilish, ekologiya ofatlari hamda hukumatning kutilmagan qarorlari (qonunlardagi, narx va soliqlardagi o'zgarishlar) xavfi qanday vaziat deyiladi?
11. Bozor iqtisodiyoti sharoitida inflyatsiya jarayoni doim sodir bo'luchchi hodisa ekanligini nazarda tutgan holda, aytinchchi, bunga sabab va omillari sifatida nimalar bo'lishi mumkin?

12. Moddiy va ma'naviy zarar bo'yicha tushuncha bering.
13. Sug'urta qilib qo'yish maqbui bo'lgan xavflar qatoriga nimalar kiradi?
14. Yetakchi xodim – bu ... jumlanı to'ldiring.
15. Sof tavakkalchilik atamasi qanday mazmunni anglatadi?
16. Chayqovchilik (**спекулятив**) tavakkalchilik to'g'risida axborot bering.
17. Tabiyat bilan bog'liq tavakkalchilik turi bo'yicha tushunchangizni keltirib o'tsangiz.
18. Inflyatsiya bilan bog'liq tavakkalchilik deganda nimani anglash lozim?
19. Investitsiya tavakkalchiligi deganimizda, gap qanday zarar to'g'risida ketadi?
20. Selektiv tavakkalchilik – bu nimaning oqibatida ko'riladigan tavakkal zarar yoki boy berilgan naf?
21. Tavakkalchilikni boshqarishdagi maqsad nima bo'lishi mumkin?
22. Nimaga yonaltirilgan faoliyat tavakkalchilikni boshqarish tizimi deb ataladi?
23. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xavf zonası deganda nima tushuniladi?
24. Fojiali xavf zonası deb qanaqa zonaga aytish mumkin?
25. Tavakkalchilikni baholashni ta'riflab bering.
26. Statistika usuli yordamida nima o'r ganib chiqilishi nazarda tutilgan?
27. Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik tavakkalchiliklarini baholashning nechta usuli keltiriladi va ular qanday usullar?
28. Tavakkalchilik darajasi deganda nimani nazarga ilmoq kerak?

## **15. KICHIK BIZNES FAOLIYATIDA INVESTITSIYALARING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI**

15.1. Investitsiyalarning nazariy asoslari: mazmun-mohiyati, vazifasi va turlari.

15.2. Davlat investitsiya siyosati va uning rivojlanishi.

15.3. Investitsiya manbalari va ulardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari.

15.4. Investitsiya faoliyatini amalga oshirish va mo'ljallangan obyektga ko'ra investitsiyalarning turlari.

### **15.1. Investitsiyalarning nazariy asoslari: mazmun-mohiyati, vazifasi va turlari**

Mamlakatimiz iqtisodiy farovonligi oshishi va kelajak rivojlanishi uchun investitsya muhum poydevor sifatida qaralishi bezij emas. Bu boroda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, «...iqtisodiyotni yuqori sur'atlar bilan rivojlantirish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish zarur. Investitsiya jalb etishning samarali vositalardan biri bo'lgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini transport, energetika, yo'l, kommunal, tibbiyot, ta'lim kabi sohalarga keng tafbiq etish kerak. ... Islahotlarimizga jiddiy to'sqinlik qilayotgan «yashirin iqtisodiyot»ga barham berilmas ekan, sog'lom raqobat ham, qulay investitsiya muhiti ham shakllanmaydi».<sup>2</sup> Bunga ko'ra, iqtisodiyotni rivojlantirish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish, keng miqyosda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini tafbiq etishni jadallashtirish va «yashirin iqtisodiyot»ga barham berish bo'yicha aniq va to'liq choralar ko'riliishi zarur. Madomiki, investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi kuch ekan, uning nazariy va me'yoriy-huquqiy asoslarini, rivojlantirish yo'nalishlarini o'rganib borishimiz, pirovardida, iqtisodiyotimizning investitsion jozibadorligi yanada oshirishimiz lozim.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi (24.01.2020).  
<https://president.uz/uz/lists/view/3324>

Investitsiya lotincha «investire» (kiyintirish, yasantirish), nemischa «investition» so‘zidan kelib chiqib, uzoq muddatga qandaydir ishga yoki korxonaga kapital mablag‘ qo‘yishni bildiradi. Investitsiya so‘zidan investor – omonatchi so‘zi kelib chiqib, u omonat beruvchi shaxs, tashkilot yoki davlatni anglatadi. Investorlar qatoriga qimmatli qog‘ozlarni sotib oladigan va bu bilan o‘zlarining bo‘s sh mablag‘ini joylashtiradigan yuridik hamda jismoniy shaxslar ham kiradi.

**Investitsiya** – bu moliyaviy (pul) yoki real kapitalga mablag‘ qo‘yish. U pul mablag‘lari, kredit, qimmatbaho qog‘oz shaklda olib boriladi va ko‘chma, ko‘clima bo‘lman mol-mulkka, intellektual mulkka, ne‘matlarga bo‘lgan huquqqa va boshqa qimmatliklarga qo‘yiladi, ya‘ni korxonaning barcha aktivlarga ishlatalidi.

**Investitsiyalar** – korxonalar va xalq xo‘jaligi miqyosida yangi ishlab chiqarish korxonalarini yaratish yoki mavjud korxonalarni zamonaviy-lashtirish, ilg‘or texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish, mahsulot ishlab chiqarish va foyda (daromad) olishni ko‘paytirish maqsadida uzoq muddatli mablag‘lar kiritilishidir. Investitsiyalar ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi nomutanosibliklarini bartaraf qilish va iste’mol bozorini ta’minlashda alohida e’tiborga ega. Investitsiyalarni shakkantirish va ulardan foydalanish, mamlakat va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsion siyosati asosida amalgalashiriladi.

**Kapital qo‘yilmalar** asosiy fondlarni qayta tiklash va o‘stirish uchun sarflanuvchi moddiy, mehnat va pul resurslaridir. Ular asosan bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladigan xarakterga ega bo‘lib, ishlab chiqarish xarajatlari yoki mahsulot tannarxi shaklidagi, joriy xarajatlar dan farq qiladi. Kapital qo‘yilmalar maqsadli xarakterga ega bo‘ladi hamda xodimlarga mukofot to‘lash, xizmat safari (komandirovka) xarajatlari va hokazolarga sarflanishi mumkin emas.

**Moliyaviy investitsiyalar** qimmatbaho qog‘ozlar, aksiya va obligatsiyalar sotib olish, pul mablag‘larini banklarga foiz olish maqsadida depozit hisob raqamlariga qo‘yish bilan ifodalanadi.

**Real investitsiyalar** pul mablag‘larini kapital qurilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga kiritishni ifodalarydi. Real investitsiyalar korxona, tarmoq va butun xalq xo‘jaligining kuch-qvvatini belgilab beradi.

Moliyaviy (pul) kapitaliga (moliyaviy mablag‘larga kredit sifatida, qimmatbaho qog‘ozlarga) qo‘yilgan investitsiyani bir qismi tezlik bilan real kapitalga aylanishi mumkin, ikkinchisi – kengroq, ya‘ni qandaydir vaqt o‘tgandan keyin, uchinchisi esa – umuman real kapitalga aylanmasligi mumkin (masalan, chiqarilgan yoki sotib olingan qimmatbaho qog‘oz o‘z qiyamatini yo‘qotsa, oddiy so‘z bilan aytganda simsa). Shu sababli moliyaviy investtsiyada investorga moliyaviy xatar ko‘proq bo‘ladi.

**Investitsiya** – moliya bozorining elementi hisoblanadi. Moliya bozori muayyan moliya muassasalari orqali o‘zaro aloqada bo‘ladigan mulk egalari bilan sarmoya, qarz oluvchilar o‘rtasidagi munosabatni ifodalarydi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan investitsiya asosiy va aylanma mablag‘larni jamg‘arishni anglatadi. Moliyaviy nuqtayi nazardan moliyaviy resurslarni daromad (foyda) olish uchun to‘plashni ko‘rsatadi. Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazardan hisobotning aktiv va passivining bir necha moddalariga ishlataligan kapital xarajatlarni birlashishini ifodalarydi.

**Investitsiyalarning amal qilinishi bo‘yicha quyidagi turlarga tasniflanadi:**

1. Maqsadi bo‘yicha – foyda olish uchun, ijtimoiy va ekologik ehtiyojlar uchun.
2. Obyekti bo‘yicha – ishlab chiqarish va noishlab chiqarish.
3. Natural-moddiy ko‘rinish bo‘yicha – moddiy, nomoddiy va moliyaviy.
4. Hududiy kelib chiqishi buyicha – milliy va chet elli.
5. Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha – xususiy (amortizatsiya, foyda sotilgan narsalardan tushum) va omonatga olingan (kredit, lizing va boshqalar).
6. Ishlab chiqarish investitsiyasini yo‘nalishlari bo‘yicha asosiy kapitalni yangilashga, ko‘zg‘almas mulknini, aylanma mablag‘ni ko‘paytirish uchun, yangi mahsulot yaratish uchun, mahsulotning sifatini oshirish uchun.
7. Korxonani boshqarish huquqiga ega bo‘lish omili bo‘yicha: to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita; portfel.

**To‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita investitsiyalar** – chet el kapitalini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritilishiga bildirib, investorga ushbu korxona ustidan nazorat qilish huquqini beradi. Investitsiyani ushbu turi transkontinental (boshqa qit‘a – kontinentga sarmoya kiritish), kapital qo‘yilmalari hamda

transmilliy (qo'shni davlatlarga kapital chiqarish sifatida amalgalashiriladi) kapital qo'yilmalar sifatida namoyon bo'ladi.

**Portfel investitsiyalar** litsenzion va franchayzing kelishuvlari, marketing xizmati haqidagi kontraktlar asosida tashkil qilinsa, korxonalarini boshqarish huquqini beradi.

8. Amal qilish muddati bo'yicha – qisqa va uzoq muddatli investitsiyalar mavjud.

9. Kelib chiqish hududi bo'yicha – milliy va xorijiy investitsiyalar.

10. Tavakkalchilik darajasi bo'yicha – tavakkalchiligi past, ishonchli va tavakkalchiligi yuqori, spekulativ investitsiyalar.

**Investitsiya loyihasi** kapitalni korxonaning ishlab chiqarish quvvati va boshqa sifat ko'rsatkichlarini kuchaytirish maqsadida rivojantirish va kengaytirishga kiritishni rejalashtirish va amalgalashirish bo'yicha choratadbirlar majmuasidir. Investitsiya loyihasini tayyorlash va amalgalashirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- \* investitsiyaviy g'oyalalar (fikr)ni shakllantirish;
- \* g'oyalarning dastlabki asoslanishi;
- \* loyiha ko'zda tutilgan texnik qarorning tahlili;
- \* sertifikat talablarining bajarilishini tekshirish;
- \* investitsiya loyihasi bo'yicha davlat boshqaruv idoralari bilan kelishuv yuzaga keltirish;
- \* axborot memorandumini tayyorlash.

Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishi. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalgalashiriladi. Pul mablag'lari ko'rinishidagi investitsiya *nominal investitsiya* deuilibadi.

**Real investitsiyalar** haqiqiy sarmoyalalar to'g'ridan-to'g'ri kompaniyaning haqiqiy aktivlarini yaratish, kengaytirish yoki saqlashga sarmoya kiritishni anglatadi. Bunday sarmoyalalar ham moddiy, ham nomoddiy bo'lishi mumkin.

## 15.2. Investitsiya sohasida davlat siyosati va uning rivojlanishi

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «...jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham

investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi».<sup>3</sup>

Mamlakatimizda investitsiya sohasida davlat siyosati, avvalambor, mavjud qonunchilikka, Hukumatimizning farmonu-qarorlari asosida shakllantiriladi va amalgalashiriladi. Xususan, Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 9-dekabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi 2019-yil 25-dekabr O'RQ-598-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanatirishning ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalgalashirishga oid Davlat dasturi to'g'risida»gi 2019-yil 17-yanvar PF-5635-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2018-yil 1-avgust PF-5495-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlanatirish davlat dasturlari doirasida amalgalashirishga loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida»gi 2019-yil 24-oktyabr PQ-4498-sonli Qarori va boshqalar.

Shu o'rinda ta'kidlab ketish joiz bo'ladiki, ushbu qonunning maqsadi chet ellik hamda mahalliy investorlar tomonidan amalgalashirishga investitsiyalar va investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat, ammo lekin markazlashtirilgan investitsiya bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solmaydi. Shu bilan birga, kontsessiya faoliyati, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar tuzish, ularni bajarish va bekor qilish, investitsiya, pay va venchur fondlari, kapital bozorini, shu jumladan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarini tartibga solish, davlat-xususiy sheriklik, maxsus iqtisodiy zonalar sohasidagi huquqiy munosabatlar alohida qonunlar bilan tartibga solinadi.

<sup>3</sup> Узбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://m.kun.uz/news/prezident-murojaatnomasi-toliq-matn2018/12/28/>.

**Davlat investitsiya siyosati** – bu iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash, markazlashgan investitsiyalash jarayonidan nomarkazlashgan investitsiya jarayoniga o'tish, ustuvor investitsion loyihalarni qo'llab quvvatlashga qaratilgan mexanizm, usublar yig'indisi hisoblanadi. Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda ko'proq ustuvorlik kichik biznes subyektlari, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tuzishga qaratiladi. Davlat investitsiya siyosati mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, muammolarni tezkorlik bilan hal qilish va shu asosda investitsiya ishtirokchilarining erkin harakat qila olishlari uchun qulay iqtisodiy, investitsion muhit yaratishga qaratilgan.

**Davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'naliishlari deb quyidagilar hisoblanadi:**

1. Investitsiyalar, ularning harakatlanishi, investitsiya faoliyati ishtirokchilarini munosabatlari, ularni tartibga solib turish bo'yicha qulay huquqiy bazani yaratish, amaldagi qonunchilik-huquqiy bazasini takomillashtirish;

2. Iqtisodiy tub islohotlarni amalga oshirish, magsadli investitsion siyosatni yuritish;

3. Investitsion jarayonni yaxshilash va barcha investitsion jarayon ishtirokchilarining faolligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish;

4. Davlat boshqaruvi organlari, hukumat tashkilotlarining nazorat etish funksiyalarini yanada takomillashtirish.

#### **Investitsiya siyosati:**

1. Dasturiy yondoshuv – asosiy baza sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash va rivojlantirish, o'rta muddatli (elektr energetikasi, neftgaz, kimyo, rangli metallurgiya, qora metallurgiya, qurilish materialari sanoati, elektrotexnika, avtomobilsozlik, to'qimachilik, farmatsevtika, charm-poyafzal sanoatlarini).

2. Kompleksli yondoshuv – qazib olish va qayta ishslash tarmoqlaridagi (geologiya-qidiruv) xom ashyo bazasini kompleksli o'zlashtirish hamda hududlarni kompleksli rivojlantirishni ta'minlovchi loyihalarni rag'batlantirish.

3. Rag'batlantiruvchi yondoshuv – mamlakat tarmoqlarining ishlab chiqarish infratuzilmasi, xom ashyo resurslari bo'yicha o'rta muddatli rivojlanish strategiyasiga javob bera oladigan investitsiya loyihalariiga turli imtiyozlar taqdim etish, shuningdek, keng soliq va bojxona

imtiyozlar hisobiga ishlab chiqarishni texnik va texnologik rag'batlantirish.

4. Kam rivojlangan mintaqalar va ustuvor tarmoqlarda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini «manzili» rag'batlantirish.

**O'zhekistonda Davlat investitsiya siyosati rivojlanishi quyidagi III bosqichni o'z ichiga oladi.**

1. Bosqich: 1991-1994-yillar;
2. Bosqich: 1995 – 2003-yillar;
3. Bosqich: 2003 y.- hozirgi davr.

**1-bosqichda** quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- turli mulkchilik shakllarini yaratish borasidagi investitsion jarayon nomarkaziashtrish tadbirlar amalga oshirila boshlandi;

- xususiy mollyalashtirish manbalariga ega bo'lmagan ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi obyektlarni byudjetdan moliyalashtirish saqlab qolindi;

- xususiy mulkchilikni joriy etish tadbirlari olib borildi.

**2-bosqichda** quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- qonanchilik bazasi yaratildi;

- konkurs asosida loyihalarni moliyalashtirishga o'tildi;

- xorijiy investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlari amalga oshirila boshlandi;

- iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalar kiritilishi kuchaytirildi;

- investitsion loyihalami amalga oshirishda turli moliyalashtirish manbalar qo'llanila boshlandi.

**3-bosqichda** quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va rejalashtirilgan:

- valuta munosabatlari va operatsiyalari liberalizatsiyalashtirilmoqda;


- xorijiy investorlarning huquqlarini himoya qilish va ular manfaatlarni himoyalash bo'yicha muhim hujjatlar qabul qilinmoqda;

- korxonalarining texnik qurollantirilishi kuchaytirilmoqda;

- eksportga mo'ljallangan va import o'mini qoplovchi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan loyihalarni moliyalashtirishga ustuvorlik berilmoqda.

Xalqaro statistikada investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar turiga kiritish bo'yicha har xil yondashuvlar mavjud. Xorijiy investorlar tomonidan nazorat qilish huquqini belgilovchi ko'rsatkich sifatida ular ega bo'lgan aksiyadorlik kapitalining hissasi ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiya yo'llarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish bal qiluvchi ustuvor yo'naliшhga aylandi (15.1-chizma).



### **15.1-chizma.** Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash choralari dasturini amalga oshirishning ustuvor yo'naliшhlarini

Yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda investitsiyalarni jalb etishda avvalo ichki manbalarni safarbar etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu yangi ishlab chiqarishni tashkil etish yoki mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini yanada kengaytirishda investorlarning o'z moliyaviy resurslari – korxona foydasi, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari va boshqalardan kengroq foydalanish zarurligini anglatadi. Chunki, ichki manbalarning to'liq safarbar etilishi, bir tomonдан, mavjud iqtisodiy resurslardan tejamli va oqilona foydalanishni ta'minlasa, boshqa tomondan, investitsiyalarning samaradorligini oshiradi.

Mamlakat miqyosidagi investitsiya faoliyatini samarali amalga oshirish maqsadida **investitsiya dasturi** ishlab chiqiladi.

**Investitsiya dasturi** – respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan choratadbirlar kompleksi.

**Investitsiya muhiti** – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmni.

**Investorlar** – xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati subyektlari. Investorlar obyektlar va investitsiya natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqiga ega bo'ladi. Investorlar kreditorlar va haridorlar rolini bajarishlari, shuningdek investitsiya faoliyatining boshqa ishtirokchilari funksiyalarini bajarishlari mumkin. Odatta, investorlar kapital qo'yilmalar sarflanadigan sohalarni aniqlaydilar, kontrakt va shartnomalarning shartlarini ishlab chiqadilar va investitsiya aktining boshqa tomonlari bilan – kontraktor, hukumat organlari, pirovard mahsulot ishlab chiqaruvchilar va shu mahsulotning iste'molchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshiradilar.

texnik modernizatsiyalash bo'yicha **tarmoq dasturlari** ham ishlab chiqilib, ularda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarishning zamonaviy andozalariga o'tish, tejamkor va samarali texnologiyalarni qo'llash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

### **15.3. Investitsiya manbalari va ulardan foydalanishning asosiy yo'naliшhlarini**

**Korxona nuqtayi nazaridan investitsiya manbalari** – ularning o'z mablag'lari (foyda, amortizatsiya, boshqa pul jamg'armalari); qarzga olingan mablag'lar (bank krediti va boshqa tashkilotlarning omonatlari); boshqa jalb qilingan mablag'lar (aksiya va boshqa qimmatbaho

qog'ozlarni sotishdan kelgan daromadlar); byudjet va byudjetdan tashqi mablag'larni tashkil qiladi.

Investitsion loyihalari turli maqsadlarda tuziladi va amalga oshiriladi, ularni to'rt guruhga ajratish mumkin:

1. Yangi ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni tashkili etish;
2. Ishlab chiqarishni yoki xizmat ko'rsatishini kengaytirish;
3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
4. Davlat tashkilotlari talabini qondirish, ularni mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlash.

Rejalshtirish va boshqaruv tizimida, shuningdek, investitsiya manbaiarini aniqlashning ichki va tashqi turlaridan ham foydalaniadi.

Investitsiyalarning *ichki manabalar* quyidagilar:

- ishlab turgan asosiy kapitalga hisoblanuvchi amortizatsiya ajratmalar natijasida shakllanuvchi, korxonaning o'z moliyaviy vositalari;
- foydalaning investitsiya ehtiyojlariiga ajratiluvchi qismi;
- sug'urta kompaniyalari va muassasalari tomonidan tabiiy ofat va boshqa hoidisalarda to'lanuvchi mablag'lar;
- korxonaning aktsiyalar chiqarishi va sotishi natijasida olinuvchi mablag'lar;
- yuqori turuvchi va boshqa organlar tomonidan qaytarib bermaslik asosida ajratiluvchi mablag'lar;
- xayriya va shu kabi boshqa mablag'lar.

Investitsiyalarning *tashqi manbalari* quyidagilar:

- markaziy va mahalliy byudjetdan, tadbirdorlikni qo'llab-quvvatlovchi turli xil fondlar tomonidan ajratiluvchi qaytarib bermaslik asosidagi mablag'lar;
- korxonalar nizom jamg'armasida moliyaviy yoki boshqa moddiy va nomoddiy ishtirok shaklida, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va alchida shaxslarning to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmalari shaklida kiritiluvchi xorijiy investitsiyalar;
- davlat va turli xil fondlar tomonidan qaytarib berish sharti bilan beriluvchi kreditlar, jumladan imtiyozli kreditlar.

**Investitsiya manbalarini shakllantirishda** moliya bozori va uning infratuzilmasi muhim ahamiyatga ega. Moliya bozorining asosiy maqsadi muonaladagi ortiqcha bo'lgan pul resurslarini aktiv kapital sifatida ishlab chiqarishga jaib qilishdan iborat.

**Moliya bozori** juda keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, u doimo paydo bo'ladigan jamg'armalardan samarali foydalanish jarayonimi o'zida ifodalaydi.

Moliya bozori hayotda vujudga kelgan jamg'armalarni (oilada, korxonada) bir turdan (jamg'armalanishi) ikkinchi turga (real kapitalga aylanishi) o'tishni ta'minlovchi mexanizmdir.

Hozirgi zamон moliya bozorining asosini moliya muassasalari va vositachilar tashkil qiladi. Ular sotuvchilar va xaridorlar hamda sotiladigan va sotib olinadagan tovar, pul va boshqa moliya aktivlari mavjud bo'lgan bozordir.

**Investitsiyalarni obyektlarga qo'yish sohalariga qarab quyidagi-larga ajratish mumkin:**

- kam qo'llaniladigan investitsion mablag'lar, ya'ni qo'riq (bo'sh yotgan) yerlarni o'zlashtirish, mehnat resurslaridan vaqtinchalik foydalanish (mutaxassislar va rahbarlardan) va h.k.;
- ma'lum hajmda talab qilinadigan investitsiya mablag'ları;
- rejalshtirilgan investitsiyadan olinadigan daromadga ta'sir etuvchi boshqa investitsion sharoitlar, ya'ni rejalshtirilgan asosiy investitsiya mablag'lariga qo'shimcha investitsiya mablag'larini jaib etish yo'li bilan investitsiyadan keladigan foydani oshirish;
- faoliyatga qo'yilgan shakliga qarab, investitsiya o'z harakatida daromadlarni oshirish yoki kamaytirish, xavf-xatarni kamaytirish, mehnat jameasining manfaatdorligini oshirish, ish sharoitini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashirishga yo'naltirilishini ta'minlash zarur;
- qo'shimcha investitsiyalar xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish, mahsulot ishlab chiqishni va sotishni oshirish, qo'shimcha daromad olishni ta'minlashga yo'naltirilishi kerak;
- ma'lum ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalar tarkibi ishlab chiqarishning ixtisoslashuviga qarab taqsimlanishi darkor;
- investitsiyalar resurslarni tejash, yangi mahsulot ishlab chiqish, korxona imidjini oshirish, tabiatni muhofaza qilish va hokazolarni ta'milashi ham zarur.

Investitsion maqsadlarga yo'naltiriluvchi mablag'lar tanqisligi sharoitida lizing investitsion faoliyatni faollashtiruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Lizing** – moliyaviy-kredit munosabatlarining shakllaridan biri bo‘lib, korxonalarning qurilma va asbob-uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar yoki maxsus tashkil qilingan lizing kompaniyalaridan uzoq muddatga ijara olishini anglatadi. Lizing bitimida ko‘rsatilgan tomonlardan tashqari investitsion loyihalarni moliyalashtirish hamda ularni buning uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar bilan ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘lgan tijorat yoki investitsion banklar ham ishtirot etishi mumkin.

Investitsiyalardan (kapital qo‘yilmalardan) foydalanishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- yangi qurilish;
- korxonani kengaytirish va qayta tiklash;
- ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish;
- harakatdagi quvvatlarni takomillashtirish.

**Yangi qurilishga** yangi maydonlarda maxsus ishlab chiqilgan loyihalar asosida quriluvchi korxona, bino, inshoot va qurilmalar mansubdir.

Faoliyat yuritayotgan **korxonani kengaytirish** qo‘shimcha ishlab chiqarish majmualarining navbatdagi qismlarini yangi loyiha asosida qurish yoki asosiy, qo‘shimcha, yordamchi va xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarishning amaldagi sexlarini kengaytirish yoki qurishni anglatadi. U asosan, faoliyat yuritayotgan korxona hududida yoki unga tutash maydonlarda amalga oshiriladi.

**Qayta tiklash** – bu, faoliyat yuritayotgan korxonani ma’naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarini ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo‘g‘inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo‘qotish yo‘li bilan almashtirish yordamida to‘liq yoki qisman o‘zgartirishni anglatadi. Qayta tiklashda eski sexlar o‘miga yangi sexlarni qurishga ruxsat beriladi.

**Texnik qayta qurollantirish** alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunalarini yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo‘li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasidir. U

ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan.

Moliyaviy resurslar va er tanqisligi sharoitlarida, ikkinchi tomonдан esa, mayjud ishlab chiqarish quvvatlaridan unumliroq foydalanish uchun yangi qurilishni nisbatan cheklangan holatda, asosan juda zarur hollardagina amalga oshiriladi. Shu sababli bugungi kunda investitsiyalarning eng ko‘p tarqalgan yo‘nalishlari sifatida, umuman olganda yangi turdag'i mahsulot ishlab chiqarishni ham ko‘zda tutuvchi mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirishni ko‘rsatish mumkin.

**Yangi qurilish hamda mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta tiklashga yo‘naltiriluvchi kapital qo‘yilmalar asosan quyidagi elementlardan iborat bo‘ladi:**

- \* qurilish-montaj ishlari xarajatlari;
- \* mashina va uskunalar sotib olishga sarflanuvchi xarajatlar;
- \* loyiha-qidiruv va boshqa ilmiy ishlanmalarga sarflanuvchi xarajatlar.

Investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tuzilmasi yangi qurilish hamda mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirishga sarflanuvchi xarajatlari o‘rtasidagi o‘zaro nisbatni ifodalaydi.

#### **15.4. Investitsiya faoliyatini amalga oshirish va mo‘ljallangan obyektga ko‘ra investitsiyalarning turlari**

Investitsiya faoliyatini tashkil etishda har bir mulk egasi ishbilarmonlik, tadbirkorlik mohiyatini chuqur anglagan holda ish yuritishi lozim. Investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanuvchi mulk egasi tez o‘zgaruvchan bozor iqtisodiyoti va uning ko‘p qirrali munosabatlarini har tomonlama anglay bilishi lozim. Investitsiya faoliyatini yuritishda iqtisodiy axborotga tanlangan soha bir butun iqtisodiyot va mamlakat miqyosida marketing bilimlariga ega bo‘lishi alohida ahamiyatga ega. Chunki barqarorlashmagan iqtisodiyotda investor pul muomalasi, moliya kredit va banklar, soliq siyosati mohiyatini chuqur bilmay turib, investitsiya faoliyatini tashkil etish tavakkalchilik bilan bog‘liq bo‘lib, qisqa davr ichidagi inqirozga uchrashi mumkin.

Investitsiya faoliyatini **chet davlatlar yoki bu davlattarning quyidagi hududiy organlari amalga oshiradilar**:


- davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar;

- chet davlattarning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, shirkatlar, uyushma va tashkilotlar;

- chet el fuqarolari bo'lmish jismoniy shaxslar va boshqalar.

Samara yoki daromad keltiradigan mulkiy va intellektual boyliklar, ya'mi investitsiya resurslari jumlasiga quyidagilar kiradi (15.2-chizma):

- pul mablag'lari (shu jumladan chet el valutasi) va boshqa moliyaviy mablag'lar, shu jumladan kreditlar, paylar, ulushlar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar;



**15.2-chizma.** Mulkiy va intellektual boyliklar

- ko'char va ko'chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklar) hamda ularga bo'lgan huquqlar;

- intellektual mulk obyektlari, shu jumladan u yoki bu turdag'i ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo'lgan, texnik hujjatlar, ko'nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida chizmaiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlar;

- yer uchastkalariga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish hamda ulardan foydalanish huquqi;

- shuningdek, mulk huquqlaridan kelib chiquvchi boshqa ashyoviy huquqlar.

Investitsiyalarning qayd etilgan turlari va shakllari asosida tadbirkorlik, ishbularmonlik va boshqa davlat tomonidan ta'qilananagan faoliyatlarni barcha investorlar tomonidan amaliy ravishda yo'iga qo'yish, inablag'lar sarflash va ularni amaliyotga tadbiq etish chora tadbirlarining yig'indisi investitsiya faoliyatini anglatadi.

Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishning muhim yo'nalishida quay sharoitlar yaratishga qaratilgan. Avvalambor, ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirish, yangilik va ixtirolarni tadbiq etish asosida ijtimoiy talablarni qondirishga qaratilgan. Bu borada muvofiqlashtirishni tashkil etish investitsiya faoliyatini sharoitlarini aniqlash yo'li bilan hamda davlat investitsiyalarini boshqarish bilan birga olib boriladi. Davlat tomonidan investitsiya faoliyati sharoitlarini muvofiqlashtirish bir qator tadbir va choralarini qo'llash va hayotga tadbiq etish negizida amalga oshirilishi ko'zda tutiladi.

**Investitsiyalar mo'ljallangan obyekti** ko'ra kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiyalarga bo'linadi.

Kapital investitsiyalar jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shuningdek moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

Innovatsiya investitsiyalari jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o'zlashtirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

Asosiy fondlar va aylanma mablag'larga investorlar tomonidan qo'yiladigan barcha turdag'i boyliklar real investitsiya deb tushuniladi.

**Real investitsiyalar** orqali ishlab chiqarish korxonalari quriladi, harakatdagi korxonalar texnik qayta qurollantiriladi va umuman asosiy fondlar takror ishlab chiqariladi.

**Moliyaviy investitsiyalar** – bu foyda keltiradigan qimmatli qog'ozlar va moliyaviy vositalarga investitsiyalar. Vositalar deganda biz investitsiya loyihamiz, PAMM hisob raqamlarini, bank depozitlarini tushunamiz. Qimmatli qog'ozlar odatda to'g'ridan-to'g'ri qimmatli qog'ozlar (aktsiyalar, obligatsiyalar, veksellar) va hosilalar (fucherslar, opsonlar va boshqalar) deb tushuniladi.

**Investor portfeli (moliyaviy)** investitsiyani amalga oshirish orqali qimmatli qog'ozlaridan (aktsiya, obligatsiyalar) daromad (dividend) olib, o'z moliyaviy kapitalini o'sishiga erishadi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonining rivojlanib borishi bilan qimmatli qog'ozlar bozori taraqqiy etib, moliyaviy investitsiyalar qo'yish jarayoni faollashadi. Shuningdek, mulkni xususiylashtirish va moliyaviy bozorning rivojlanishi respublikamizga chet el investitsiyalarning katta hajmda kirib kelishiga imkoniyat yaratadi.

Intellektual investitsiyalarga mutaxassislarni tayyorlash, tajriba, ilmiy tekshirish, litsenziya va nou-xau berish, avtorlik huquqi va boshqalar kiradi.

Shved iqtisodchi olimi K.Eklund investitsiya tushunchasi tarkibiga ta'lim va ilmiy tekshirishdagi xarajatlarni ham qo'shish kerak, degan fikrni ilgari surib, u intellektual investitsiyalar abamiyatini yuqori baholaydi. Umuman olganda ishlab chiqarishda fan va texnikaning ta'siri kuchayib borishi bilan intellektual investitsiyaning ahamiyati yanada oshib boradi.

Mamlakatimizdagi iqtisodiyotni rivojlantirish va investitsiyalarni faol jahb etish sohasidagi asosiy e'tibor – bu makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, sog'lom raqobat uchun zarur sharoitlarni yaratish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, iqtisodiyotda davlat ishtirikoni jiddiy ravishda kamaytirish, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, «xufyona» iqtisodiyotga qarshi kurashish va uning ulushini keskin qisqartirish, valuta siyosatini erkinlashtirishni davom ettirishga qaratilayotganligi, albatta, kelajakda yurtimiz yanada yuksalishiga zamin yaritib berishi shubhasizdir.

## Asosiy atamalar va tushunchalar

Investitsiya. Qimmatbaho qog'oz. Investor. Intellektual mulk. Kapital qo'yilmalar. Moliyaviy investitsiyalar. Real investitsiyalar. Ilg'or tajribalar. Moliyaviy xatar. Sarmoya. Yuksak malakali mutaxassis. Aktiv va passiv moddalar. Investitsiya portfeli. Ijtimoiy va ekologik ehtiyojlar uchun investitsiyalar. Transkontinental investitsiya. Transmilliy kapital quyilmalar. Investitsiya loyihasi. Aktsiya. Nominal investitsiya. Xorijiy investitsiyalar. Memorandum. Investitsiyalarning ichki manabalari. Moliya bozori. Innovatsiya investitsiyalari. Investitsiya resurslari.

### Mavzu bo'yicha savollar:

1. Investitsiya qaysi tillardan olingan so'z va uning tushunchasi qanday talqin qilinadi?
2. Investor iborasi ma'nosini yoritib bering.
3. Qimmatbaho qog'oz deganda nima tushunilishi mumkin?
4. Intellektual mulk bu qanaqa mulk?
5. Kapital qo'yilmalar deganda nima tushunilishi lozim?
6. Moliyaviy investitsiyalar ifodalanishini so'zlab bering.
7. Real investitsiyalar pul mablag'larini qanday maqsad uchun kiritiladi va ular korxona, tarmoq va butun xalq xo'jaligining nimasini belgilab beradi?
8. Ilg'or tajribalar deganda nimalarni tushimiz darkor?
9. Moliyaviy xatar to'g'risida ma'lumot bering.
10. Sarmoya iborasi nimani anglatadi?
11. Iqtisodiy nuqtayi nazardan investitsiya qanday mablag'larini jamg'arishni anglatadi?
12. Moliyaviy nuqtayi nazardan moliyaviy resurslarni qanaqa maqsadda to'plashni nazarda tutadi?
13. Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazardan hisobotning aktiv va passivining bir necha moddalariga ishlataligan kapital xarajatlarni nimasini ifodalaydi?
14. Yuksak malakali mutaxassis – bu ... jumlani to'ldiring.
15. Aktiv va passiv moddalar qanday mohiyatga ega?
16. Investitsiya portfeli to'g'risida axborot bering.

17. Ijtimoiy va ekologik ehtiyojlar uchun investitsiyalar bo'yicha tushunchangizni keltirib o'tsangiz.
18. Portfel investitsiyalar litsenzion va franchayzing kelishuvlari, marketing xizmati haqidagi kontraktlar asosida tashkil qilinsa, unda qanaqa huquq vujudga kelishi mumkin?
19. Tavakkalchilik darajasi bo'yicha investitsiyalar turkumlanishining qanday jihatlari bor?
20. Transkontinental investitsiya – bu qayerda kiritilishi nazarda tutilgan sarmoya?
21. Transmilliy kapital qo'yilmalar – bu qayerga kapital chiqarish degani?
22. Investitsiya loyihasi tushunchasini izohlab bering.
23. Investitsiya amalga oshirilishining qanday ko'rinishlari mavjud?
24. Nominal investitsiya deb nimanaga asosan aytishimiz mumkin?
25. Kelib chiqish hududi bo'yicha investitsiyalar misolin keltiring.
26. Memorandum bu nimaning turi hisoblanadi va u nimani ko'zlaydi?
27. Investitsiyalarning ichki manabalari nima evaziga shakllanishi mumkin?
28. Moliya bozoriga qanaqa izoh bera olasiz?
29. Innovatsiya investitsiyalari bo'yicha tushuncha bering.
30. Investitsiya resurslari jumlasiga nimalar kiradi?

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: «Ўзбекистон», 2014. – 40 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Солик Кодекси (Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикасининг Солик кодексини тасдиқлаш тўғрисида»ги

2007 йил 25 декабрдаги 136-сон қонуни билан тасдиқланган, кейинчалик янги таҳрида қабул қилингандиги).

3. 2019 йил 25 декабрь, ЎРҚ-598-сон «**ИНВЕСТИЦИЯЛАР ВА ИНВЕСТИЦИЯ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА**» ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ҚОНУНИ, Конунчилик палатаси томонидан 2019 йил 9 декабря қабул қилинган, Сенат томонидан 2019 йил 14 декабря маъқулланган.

4. 2003 йил 24 апрель, 474-II-сон «**БАНКРОТЛИК ТЎҒРИСИДА**» Ўзбекистон Республикасининг қонуни (янги таҳрири).

5. 2002 йил 5 апрель, Ўзбекистон Республикасининг «**СУҒУРТА ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА**» Қонуни.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil 20-noyabrdagi PQ-4525-son «Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-oktyabrdagi PQ-4498-sonli «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktyabrdagi 848-sonli «O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonalarini huzurida tadbirkorlarning jamoatchilik kengashlarini tashkil etish to'g'risida»gi Qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgust PF-5780-sonli «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik

subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infiltratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida»gi Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-fevral PQ-4160-sonli «Жаҳон банки ва Ҳалқаро молия корпорациясининг «Бизнес юритиш» йиллик ҳисоботида Ўзбекистон Республикасининг рейтингини яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»gi Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvar PF-5635-sonly «2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришининг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиши йили»да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида» gi Farmoni.

12. Постановление Президента Республики Узбекистан от 5 мая 2018 г.

№ ПП-3697 «О ДОПОЛНИТЕЛЬНЫХ МЕРАХ ПО СОЗДАНИЮ УСЛОВИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ АКТИВНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ».

13. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси (24.01.2020); <https://president.uz/uz/lists/view/3324>

14. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 11 сентябрь 721-сонли «ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯГНИ ЯНАДА ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА»ги Қарори.

15. Каримов И.А. 2015 йилда иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг йўл очиб бериш – устувор вазифамиздир. – Т.: «Ўзбекистон», 2015.

16. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқарувининг ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ БАНК ТАВАККАЛЧИЛИКЛАРИНИ БОШҚАРИШИГА НИСБАТАН КЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР ТЎҒРИСИДАГИ НИЗОМНИ ТАСДИКЛАШ ҲАҚИДАИ Карори. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2011 йил 25 майда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2229.

17. Mamatov B.S. Xo'jamqulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. Toshkent moliya instituti. – T.: IQTISODMOLIYA, 2014. – 608b.
18. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – Toshkent: Noshir, 2012. – 712 b.
19. Yuldashev A. vaboshq. Moliyaviy menejment. O'quv qo'llannia. – T.: «Voris», 2013. – 272 b.
20. Алешин В.А., Зотова А.И.. Финансы. - Ростов н/Д: Феникс, 2009 г. – 346 стр.
21. Алимов И.И. Молия. Ўкув кўлланма. Тошкент, 2007. - 108 с.
22. Барулин С.В. Финансы. – М.: КНОРУС, 2011 г. – 640 стр.
23. Бочаров В.В. Инвестиции: Учебник для вузов. 2-е изд.- СПб.: Питер, 2008.- 384с. Ил.- (Серия — Учебник для вузов!).
24. Вахобов А., Хожибакиев Ш., Мўминов Н. —Хорижий инвестициялар Ўкув кўлланма.- Т.: «Молия», 2010. -328 б.
25. Вахобов Д., Ражабов Ш. Молия. - Т., ТМИ, 2009. -200 б.
26. Игошин Н.В. Инвестиции. Организация, управление и финансирование: Учебник. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. – 360 с.
27. Инвестиции: Учебник / С.В.Валдайцев, П.П.Воробьев и др. Под ред. В.В.Ковалева, В.В.Иванова, В.А.Лялина. – М.: ТК Велби, Проспект, 2007. – 584 с.
28. Д.С.Косимова. «Расширение поддержки малого бизнеса при цифровизации экономики». «Рақамли иқтисодиёт: янги Ўзбекистонни янги технологиялар, платформалар ва бизнес моделлари оркали ривожлантиришнинг янги босқичи» (DEUZ) мавзусида халқаро илмий- амалий конференция. Т., 2020 йил 26 февраль/ 84 – 88-бетлар.
29. B.Mulla boyev. Improving Human Resource Management in the Oil and Fat Industry Based on Structural Changes. International Journal of Advance and Innovative Research.(Impact factor 7.36)/Volume08,Issue 02, January 2019, p.41-46.
30. Д.С.Косимова. Саноат корхоналарида маҳсулот ракобатбардошлигини оширишнинг йўналишлари. Йқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнал №2.2019. март-апрель.
31. Д.С.Косимова, С.Гульманов. Стратегическая эффективность управления потенциалом регионального агропромышленного

комплекса // Региональная экономика: теория и практика. – 2020. – Т. 18, № 5. – С. 951 – 965.<https://doi.org/10.24891/re.18.5.951> <http://fin-izdat.ru/journal/region/>

32. Д.С.Косимова. Эффективность управления потенциалом регионального агропромышленного комплекса. «Минтакалар экспорт салохиятини оширишда инвестиция дастурларидан самарали фойдаланиш истикбонлари» мавзусида республика илмий-амалий анжуманини. Т., ТДИУ. 2020 йил 20 октябрь.

33. Д.С.Косимова. «Инновационные преимущества в развитие малых предприятий». Ўзбекистон иқтисодиётини инновацион ривожлантириш муаммолари. T.LESSON PRESS. 2018. ТДИУ хузуридаги илмий тадқиқот маркази. 38 – 42-бетлар. Илмий мақолалар тўплами.

34. D.S.Kosimova. Improving Human Resource Management in the Oil and Fat Industry Based on Structural Changes. International Journal of Advance and Innovative Research.(Impact factor 7.36)/Volume08,Isshue 02, January 2019, p.41-46.

35. Д.С.Косимова. Саноат корхоналарида маҳсулот ракобатбар дошлигини оширишнинг йўналишлари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнал.№2.2019. март-апрель.

36. Қосимова Д.С. «Менежмент назарияси». Дарслик.и Т.: Tafakkur bo'stoni. 2011. - 336 б.

37. Qosimova D.S. Menejment va marketing asoslari. Darslik. – Т.:TDIU, 2014. – 224 bet.

36. Каюмов Р.И. Организация и финансирования инвестиций. Учебник. – Т.: «Фан ва технология», 2012. – 367 с.

37. Ковалева В.В. Финансы организаций (предприятий). Учебник. – М.: Проспект, 2010 г. – 352 стр.

38. Ковалева В.В. Финансы. Учебник. М.: изд. Проспект, 2008 г. - 640 стр.

39. Корпоративные финансы. Учебник для ВУЗов. Под ред Бочарова В.В. – М.: ФБК-ПРЕСС, 2004.

40. Лукасевич И. Я. Инвестиции. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2012. – 413 с. 247.

41. Носиров Э.И., Маматов Б.С., Шоисломова Н.К., Шарифходжаева К.У. Инвестиция рискларини бошқариш. Ўкув кўлланма. – Т.: «Фан ва технология», 2011. – 148 б.

42. Раҳимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили. Ўкув қўлланма. – Т.: Иқтисод-молия, 2013. – 392-б.
43. Юлдашев З.Ю., Маликов Т.С. Молия: Уй хўжаликлари молияси. Ўкув қўлланма. - Т.: Iqtisod-moliya, 2008 й. - 112 б.
- 44 V.Yu. Burov. Osnovy predprinimatelstva, 2013 (108-143 betlar).
45. S.N.Usmomonov, Y.T. Dadaboyev, A.X. Xudoyberdiyev «Tadbirkorlik asoslari». «Farg‘ona», 2000.
46. S.S.G‘ulomov. «Tadbirkorlik va kichik biznes». Т.: «Sharq», 2002.
47. Интернет сайtlари:
- [www.president.uz](http://www.president.uz) – Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси расмий сайти.
  - [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – Ўзбекистон Республикаси Статистика қўмитаси сайти.
  - [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – Ўзбекистон Республикаси қонунчилитиги портали.
  - [www.mf.uz](http://www.mf.uz) – Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги сайти.
  - [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – Ўзбекистон Республикаси Хукумати сайти.
  - [www.uz.bussines.unitech.uz](http://www.uz.bussines.unitech.uz) – Бизнес инновациялари портали.
  - [www.omad.uz](http://www.omad.uz) – Бизнес ривожи учун ахборот портали.
  - [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – Билимлар сайти.

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
<b>1. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI</b>	
1.1. Biznes tushunchasining mohiyati. Biznes konsepsiyalari.....	4
1.2. Tadbirkorlik nazariyasi va tadbirkorlik amaliyotini ilmiy anglash jarayonining rivojlanishi.....	11
1.3. Tadbirkorlik hodisa va jarayon sifatida. Tadbirkorlikning funksiyalari va tamoyillari.....	20
1.4. Tadbirkorlik va iqtisodiy erkinlik.....	27
Mavzu bo'yicha savollar.....	33
<b>2. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TURLARI VA SHAKLLARI</b>	
2.1. Biznes tasnifi.....	34
2.2. Tadbirkorlik faoliyatining turlari.....	36
2.3. Innovatsion tadbirkorlik.....	44
Mavzu bo'yicha savollar.....	53
<b>3. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH</b>	
3.1. Biznesni tashkil etish – tadbirkorlik tuzilmasi.....	54
3.2. Korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi.....	63
3.4. Tadbirkorlik tuzilmasini tashkil qilish imkoniyatlari.....	66
3.5. Tadbirkorlik faoliyatini litsenziyalash.....	68
Mavzu bo'yicha savollar.....	78
<b>4. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH</b>	
4.1. Boshqarishning marketing usuli.....	80
4.2. Innovatsion marketing jarayonlari.....	82
4.3. Innovatsiyaning brend va narx strategiyasi.....	84
Mavzu bo'yicha test savollari.....	89

## 5. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI REJALASHTIRISH

5.1. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishning maqsadi va vaziflari.....	90
5.2. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda biznes rejaning ahamiyati.....	101
5.3. Biznes rejaning asosiy bo'limlari va ularning taysiflari.....	104
5.4. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishdagi tahlil.....	112
Mavzu bo'yicha savollar.....	122

## 6. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA XIZMAT KO'RSATUVCHI BOZOR INFRATUZILMALARI

6.1. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasi turlari.....	123
6.2. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning roli.....	125
6.3. Kichik biznes va tadbirkorlikni kredit bilan ta'minlash shakllari.....	127
6.4. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida audit va auditorlik taftishini o'tkazish.....	128
6.5. «Axborot», «boshqaruva axboroti» tushunchasi, tashkilotning axborot salohiyati.....	129
6.6. Tashkilotning axborot tizimi, axborot bilan ishlash texnik vositalari.....	131
6.7. Komunikatsiyaning mohiyati va elementlari, komunikatsiya bosqichlari.....	132
6.8. Komunikatsiya turlari va uzatilayotgan axborot oldidagi to'siqlar.....	134
Mavzu bo'yicha savollar.....	135

## 7. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA MAHSULOT TANNARXI TAHLILI

7.1. Xarajatlar to'g'risida umumiy tushunchalar.....	137
7.2. Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi.....	139

7.3. Doimiy va o'zgaruvchan xarajat turlari.....	142
7.4. Xarajatlarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar.....	145
7.5. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning asosiy yo'nalishlari.....	146
7.6. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan va kirmaydigan xarajatlar....	147
7.7. Mahsulot tannarxini hisoblash usuli va uni pasaytirish yo'llari.....	149
Mavzu bo'yicha savollar.....	151

## **8. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY FAOLIYATI TAHLILI**

8.1. Moliyaviy tahlilning asosiy talablari va manbalari.....	153
8.2. Kichik biznes va tadbirkorlikning moliyaviy faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar.....	160
8.3. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy tahlil ushubining ishlab chiqilishi.....	163
8.4. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy mustabkamligi hamda ular faoliyatining moliyaviy natijalari tahlili.....	170
8.5. Korxonalar rentabelligi tahlili.....	186
Mavzu bo'yicha savollar.....	213

## **9. TADBIRKORLIK ETIKASI VA MADANIYATI, ISHBILARMONLIK MULOQOTTI ASOSLARI**

9.1. Korxona madaniyatini shakllantirish.....	215
9.2. Tadbirkorlik etikasi va odob-axloq qoidalari.....	218
9.3. Tadbirkorning shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish.....	223
9.4. Xizmat yuzasidan munosabatlar.....	225
Mavzu bo'yicha savollar.....	229

## **10. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING EKSPORT SALOHIYATINI BAHOLASH**

10.1. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyati va eksportyor korxonalarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi.....	230
--	-----

10.2. Kichik biznes va tadbirkorlikning eksport salohiyati.....	231
10.3. O'zbekistonning eksport bo'yicha ko'rsatkichlari.....	232
10.4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyati uchun yaratilgan imkoniyatlar.....	234
10.5. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi.....	236
10.6. Eksportning tovar va geografik tarkibini takomillashtirish..	238
Mavzu bo'yicha savollar.....	239

## **11. TADBIRLIK FAOLIYATIDA ISHLAB CHIQARISHNI KLASTER USULIDA TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH**

11.1. Ishlab chiqarish klasterlari samaradorligini nazariy-uslubiy asoslari.....	241
11.2. Ishlab chiqarishni klaster asosida boshqarishni tashkil etishning xorijiy tajribasi.....	244
11.3. O'zbekiston yengil sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish klasteri samaradorligi.....	246
Mavzu bo'yicha savollar.....	253

## **12. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRLIK SUBYEKTALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI SHAKILLANTIRISH**

12.1. Innovatsion faoliyat, uning iqtisodiy mazmuni va mohiyati..	255
12.2. Innovatsion tadbirkorlik haqida tushuncha va uning bosqichlari.....	260
12.3. Kichik biznes korxonalarini innovatsion faoliyatining asosiy xususiyatlari.....	264
12.4. Kichik biznesning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash jarayonlari yo'naliishlari.....	265
12.5. O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo'naliishlari.....	268
12.6. Kichik korxonalarda innovatsion tadbirkorlik faoliyati ustunliklari.....	269
Mavzu bo'yicha savollar.....	272

**QAYDLAR UCHUN****13. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
FOLIYATIDA BANKROTLIK VA FRANCHAYZING**

13.1. Bankrotlik tushunchasi va bunday inqirozga uchrashi sababları.....	274
13.2. Kichik biznes subyektlarini tugatish va ishdan bo'shatilayotgan ishchining huquqiy kafolatlari.....	278
13.3. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida franchayzing korxonaları haqida tushuncha.....	280
13.4. Franchayzingning chet el tajribasi.....	281
Mavzu bo'yicha savollar.....	284

**14. TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI, UNI  
BAHOLASH VA BOSHQARISH USULLARI**

14.1. Tavakkalchilik tushunchasi va undagi xavflar.....	286
14.2. Tavakkalchilik turlari va uni boshqarish.....	289
14.3. Tavakkalchilikni baholash usullari.....	293
Mavzu bo'yicha savollar.....	295

**15. KICHIK BIZNES FAOLIYATIDA  
INVESTITSIYALARNING TUTGAN O'RNI VA  
AHAMIYATI**

15.1. Investitsiyalarning nazariy asoslari: mazmun-mohiyati, vazifasi va turlari.....	297
15.2. Investitsiya sohasida davlat siyosati va uning rivojlanishi..	297
15.3. Investitsiya manbalari va ulardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari.....	300
15.4. Investitsiya faoliyatini amalga oshirish va mo'ljallangan obyektga ko'ra investitsiyalarning turlari.....	305
Mavzu bo'yicha savollar.....	309
Foydalaniłgan adabiyotlar .....	313
	315